Халқаро талабаларни кабул қилувчи мамлакатларда 2023 йилда юқори инфляция кўрсаткичлари (АҚШ, 6,4%, Австралия 7%, Германия 7,4%, Буюк Британия 8,9%) кузатилди[14]. Табийки, бошқа ривожланаётган, хусусан талабаларни етказиб берувчи мамлакатларда бу кўрсаткичлар анча юқори бўлиб, оилаларнинг тўлов қобилиятини пасайтириб юбормоқда. Сўнгги бир йил АҚШ, Канада ва Европа мамлакатларидаги озиқ-овқат ва энергетика хизматлари нархларининг ошиб бораётгани валюта кризисини бошдан кечираётган донор мамлакатлардан ташриф буюрувчи талабаларнинг хорижда таълим олиш фикрини қайта кўриб чиқишга ундамоқда.

2025 йилда хорижда таълим олишни режалаштираётган потенциал талабалар ўртасида ўтказилган тадқиқот натижалари кўра, ҳар 6 та респондентдан 1 таси ўқиш учун дастлаб мақсад қилган дестинация мамлакатларини ўзгартирганликлари маълум бўлиб, айнан “Big Four” мамлакатлари борасидаги қарорларида ҳам ўзгаришлар кузатилади. Хусусан, 2024 йил ҳолатига кўра, уларнинг қизиқиши Янги Зеландияга 86%га, Германияга 36%га ва АҚШга 13%га ортган бўлиб, қолган йирик реципиент мамлакатлар Канадага 32%, Буюк Британияга 16% ва Австралияга 9%га қизиқиш камайган. Бундай ўзгарувчан қарорларга уларнинг 24%и дастлабки танланган мамлакатлардаги нархларнинг ўзгариши, 14%и эса, халқаро талабаларга нисбатан миграция сиёсатидаги ўзгаришлар сабаб бўлганини маълум қилганлар[2].

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, халқаро таълим нафақат иқтисодий, балки илмий ва технологик ривожланиш учун ҳам стратегик аҳамият касб этади. Халқаро таълим тизимидаги ўзгаришлар ва миграция сиёсатининг мураккаблиги, глобал демографик ва иқтисодий тенденциялар халқаро талабалар оқимига сезиларли таъсир кўрсатмоқда. Ҳукуматларнинг оқилона халқаро таълим сиёсатини шакллантиришлари ва олий таълим

муассасаларининг глобал рақобатбардошлигини оширишга урғу беришлари ҳозирги иқтисодий ривожланиш даврида муҳим аҳамиятга эга.

Халқаро таълим миграциясини янада ривожлантириш, олий таълим муассасаларининг рақобатбардошлигини ошириш ва интеллектуал миграция жараёнларини самарали бошқариш мақсадида:

1. Трансмиллий таълимни ривожлантириш
2. Иммиграция сиёсатини юмшатиш .
3. Талабалар учун моддий ёрдам дастурларини кучайтириш
4. Хорижий таълим имкониятларини ошириш
5. Халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш
6. Халқаро таълим стратегиясини такомиллаштириш каби чораларни кўриш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Holon IQ. International education. 2024 global students flow. US outlook. May. 2024. P.5. // https://uploads-ssl.webflow.com/620ed79721f927c823c09714/664f2feb80d9d84c48ae9905_HolonIQ%202024%20Global%20Student%20Flows%20-%20US%20Outlook.pdf
2. The impact of immigration settings, affordability, and job opportunities on international students' study abroad decisions.ICEF monitor// https://monitor.icef.com/2024/04/the-impact-of-immigration-settings-affordability-and-job-opportunities-on-international-students-study-abroad-decisions/
3. International migration outlook 2023.
4. OECD Data explorer. Foreign / international students enrolled// https://data-explorer.oecd.org/vis?tenant=archive&df[ds]=DisseminateArchiveDMZ&df[id]=DF_RFOREIGN&df[ag]=OECD&dq=.....&lom=LASTNPERIODS&lo=5&to[TIME_PERIOD]=false
5. Global mobility trends.Project atlas 2023// https://www.iie.org/wp-content/uploads/2024/01/Project-Atlas_Infographic_2023_2.pdf
6. A. Goodman, Ceo and Mirka Martel. Outlook 2030 Brief: The U.S. and International Education//https://www.iie.org/publications/outlook-2030-brief-the-u-s-and-international-education/
7. J.Baer, M.Martel. Fall 2023 Snapshot on International Student Enrollment. Institute of International Education.2023.P.8.,12. // https://www.iie.org/wp-content/uploads/2023/11/Fall-2023-Snapshot.pdf
8. Project Atlas 2023
9. Julie Baer , Mirka Martel. fall 2023 snapshot on international student enrollment. November 2023. P.6. // https://www.iie.org/wp-content/uploads/2023/11/Fall-2023-Snapshot.pdf
10. Paul Bolton,Joe Lewis,Melanie Gower. International students in UK higher education. Research briefing.28 May.2024.P.7, 17,21.
11. Number of English-taught degree programmes rises by 22% from 2021 to 2024.ICEF monitor// https://monitor.icef.com/2024/06/number-of-english-taught-degree-programmes-rises-by-22-from-2021-to-2024/
12. Student Migration to the UK. 24 Jan 2024. The migration observatory// https://migrationobservatory.ox.ac.uk/resources/briefings/student-migration-to-the-uk/

13. International enrolment declines pressuring UK universities this year, with one in three facing significant financial challenges.ICEF monitor// https://monitor.icef.com/2024/07/international-enrolment-declines-pressuring-uk-universities-this-year-with-one-in-three-facing-significant-financial-challenges/
14. The cost of living: A closer look at inflation and foreign exchange trends in key student markets.ICEF monitor//https:// https://monitor.icef.com/2023/04/the-cost-of-living-a-closer-look-at-inflation-and-foreign-exchange-trends-in-key-student-markets/
15. Кадирова З. А. Миграция через образование ведет к" утечке мозгов" //Экономическое обозрение. – 2019. – №. 11(239).С.18-25.
16. Kadirova Z. Professionallarning xalqaro mehnat migratsiyasini tartibga solishning asosiy tamoyillari //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – Т. 2. – №. 8.B.1117-1120.
17. Kadirova Z.A.Regulation of International Intellectual Migration//American Journal of Economics and Business Management.– 2024. – №. 7.
18. Kadirova Z.A. Intellektual migratsiyani tadqiq etishning konseptual asoslari// MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA.-2024.-№. 3.B.14-20.
19. Olimov M., Grote J., Gharleghi B. Turning brain drain into brain circulation in Central Asia //Dialogue of Civilizations Research Institute. Volkswagen Foundation. – 2020. – Т. 19.;
20. Кадирова З. А., Газиева С. С. Интеллектуал миграция ва унинг хусусиятлари //XXI Asr: Fan va ta’lim masalalari (XXI Век: Вопросы науки и образования). – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 1-23.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Rakhimbayev Khurmat Khursand ogli
Urgench Innovation University

Published under peer review:
Doctor of Science in History, Associate Professor
B.Satimov

Received 4th March 2025, Accepted 11th March 2025, Online 28th March 2025

THE ETHNO-POLITICAL PROCESSES IN KHWAREZM DURING THE ANUSHTEGINID PERIOD IN THE 12th–13th CENTURIES AND THE DASHT-I QIPCHAQ

Annotation: At the end of the 12th century - the beginning of the 13th century, Khorazmshah - the Anushtaginian state, which occupied huge territories, united a large number of ethnic units, and this situation had a direct impact on the political processes of the state. Especially on the eve of the Mongol invasion, the question of the impact of these ethno-political processes on the domestic and foreign policy of the Khorezmshah-Anushtegin state is one of the most urgent problems. In this article, the essence of the ethno-political processes that took place in the Khorezmshah-Anushtagin state in the late 12th - early 13th centuries, the ethnic group of the last representatives of the dynasty, including Jela ad-din Menkburni, and the views formed in the field of history until now have been analyzed, and new conclusions have been reached regarding this problem.

Key words: Khorezmshakhs-Anushteginids, Jela ad-din Menkburni, Ay-Chichek, Terken Khatun, Kypchak, Kangli, Yemek, Bayavut, uran, Nesevi, Juveini, Rashid ad-din, Ibn al-Athir, Juzjani, V.V. Barthold, P. Pello, Z. Bunyadov, S.M.Axinjanov, D.M. Timokhin, V.V. Tishin, Y.Pilipchuk.

XII – XIII ASRLAR XORAZM ANUSHTEGINIYLAR DAVRI ETNOSIYOSIY JARAYONLARIDA DASHTI QIPCHOQ

Annotatsiya: XII asr oxiri – XIII asr boshlarida ulkan hududlarni egallagan Xorazmshoh – anushtaginiylar davlati juda ko‘plagan etnik birliklarni o‘zida birlashtirgan bo‘lib, bu holat davlat siyosiy jarayonlariga ham bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazib kelayotgan edi. Ayniqsa, mo‘g‘ul bosqini arafasida Xorazmshoh – anushteginiylar davlati ichki va tashqi siyosatiga mazkur etnosiyosiy jarayonlarning ta’siri masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada XII asr oxiri – XIII asr boshlarida Xorazmshoh – anushtaginiylar davlatida kechgan etnosiyosiy jarayonlarning mazmun – mohiyati, sulola so‘nggi vakillarining, shu jumladan, Jaloliddin Manguberdining qaysi etnik guruhga mansubligi, hozirgacha bu borada tarix fanida shakllangan qarashlar tahlil qilinib, mazkur muammo yuzasidan yangicha xulosalarga kelinganligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazmshoh-anushteginiylar, Jaloliddin Manguberdi, Oychechak, Turkon xotun, qipchoq, qang‘li, yemek, boyovut, uron, Nasaviy, Juvayniy, Rashididdin, Ibn al-Asir, Juzjoniy, V.V. Bartold, P.Pel’o, Z.Buniyodov, S.M. Axinjanov, D.M. Timoxin, V.V. Tishin, Ya. Pilipchuk.

XII – XIII ВЕКА: ДАШТИ-КЫПЧАК В ЭТНОПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ ХОРЕЗМА ЭПОХИ АНУШТЕГИНИДОВ

Аннотация: В конце XII – начале XIII века Хорезмшахско-Ануштагинское государство, занимавшее огромные территории, объединяло большое количество этнических единиц, и эта ситуация оказала непосредственное влияние на политические процессы государства. Особенно накануне монгольского нашествия вопрос о влиянии этих этнополитических процессов на внутреннюю и внешнюю политику государства хорезмшахов-ануштегинцев является одной из наиболее актуальных проблем. В данной статье анализируется содержание и сущность этнополитических процессов, происходивших в государстве Хорезмшахов-Ануштегинидов в конце XII - начале XIII века, этнической приналежности последних представителей династии, в том числе Джелал ад-дина Менкбурни, а мнения, сложившиеся в истории по этому вопросу до сих пор, поясняется, что выводы были сделаны.

Ключевые слова: Хорезмшахи-Ануштегиниды, Джелал ад-дин Менкбурни, Айчичек, Туркан-хатун, Кыпчак, Кангли, Йемек, Байавут, Уран, Насави, Джувейни, Рашид ад-дин, Ибн ал-Асир, Джузджани, В.В. Бартольд, П. Пельо, З. Буниядов, С.М. Ахинджанов, Д.М. Тимохин, В.В. Тишин, Я. Пилипчук.

KIRISH (INTRODUCTION).

Rasman XII asr boshlarida hokimiyatga kelgan xorazmshoh Anushteginiylar sulolasi vakillarining etnik kelib chiqishi masalasida ikkita muammoli vaziyat mavjud bo‘lib, chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi. Jumladan, sulola ilk vakillarining etnik mansublik muammosi bo‘lsa, ikkinchisi sulola so‘nggi vakillarining qaysi etnik guruhga mansubligi muammosi hisoblanadi. Mo‘g‘ullar bosqini arafasidagi Xorazmda kechgan etnik jarayonlar tarix fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Zero, aynan shu jarayonlar Xorazmshoh – anushteginiylar sulolasining mo‘g‘ullar tomonidan tugatilishining sabablaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Xorazmshoh – anushteginiylar davlatining so‘nggi vakili, vatanparvar sarkarda, mo‘g‘ullarga qarshi tolmas kurashchi Jaloliddin Manguberdining qaysi urug‘ – qabilaga mansubligi haqida manbalarda va tarixiy tadqiqotlarda turli qarashlar, turli – tuman va ziddiyatli ma’lumotlar mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

XII asr oxiri – XIII asr boshlarida ulkan hududlarni egallagan Xorazmshoh – anushtaginiylar davlatida kechgan etnosiyosiy jarayonlar masalasiga bag‘ishlangan alohida yozma manba yo‘q. Xuddi shunday bu masalada alohida tarixiy talqiqotlar ham olib borilmagan. Faqat shunisi ma’lumki, bu muammo yozma manbalarda biror-bir siyosiy voqea bilan bog‘liq holda qisman keltirilib o‘tilgan xolos. Shu jihatdan olganda yozma manbalarda jumladan, an-Nasaviy, Juvayniy, Ibn al-Asir, Rashididdin va Juzjoniy kabi asosiy manbalarda bu masalada bir-biriga zid va qarama-qarshi fikrlar mavjud bo‘lib, ular ham alohida mavzu sifatida tahlil qilinmagan. Shu jihatdan olganda, eng avvalo, mazkur manbalarni chuqur ilmiy tahlil qilish zarur.

Umuman olganda bu masala yuzasidan qilingan alohida ilmiy tadqiqot deyarli yo‘q. Faqat qozoq tarixchi olimi S.M.Axinjanovning Xorazmshoh – anushteginiylar davlatining Dashti Qipchoq ko‘chmanchilar dunyosi bilan etnik va siyosiy munosabatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarini hisobga olmaganda [2]. Bu mavzu yuzasidan asosan bir qancha maqolalar e’lon qilingan. Jumladan, V.V. Bartold, M.Bayramov, Z. Buniyodov, P.Pel’o, Ya.Pilipchuk, J.M. Sabitov, D.M.Timoxin, V.V. Tishin [3; 4-5; 6; 10; 12; 14] va shu kabi tadqiqotchilar maqolalarida bu mavzu yuzasidan manbalarni tahlil qilish asosida ma’lum bir fikr – mulohazalar bildirib o‘tilgan bo‘lsa-da, ammo, bu maqolalar mualliflarining yakuniy xulosalari turlicha yoki bir – biriga qarama – qarshi. Mazkur mavzu yuzasidan hozircha yuqoridagi yozma manbalar eng asosiy manbalar hamda xorazmshoh – anushteginiylar tarixi, jumladan, Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati haqida ko‘proq to‘xtalib o‘tgan tadqiqotchilardan eng muhimlari V.V. Bartold, P.Pel’o, Z. Buniyodov, S.M. Axinjanov, D.M. Timoxin, V.V. Tishin va Ya. Pilipchuklar tadqiqotlari hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYaSI (RESEARCH METHODOLOGY).

Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).

Endi bu masala yuzasidan, Xorazm vohasida X–XIII asrlarda kechgan etnosiyosiy jarayonlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, XI-asr boshlaridan ko‘p turkiyzabon qavmlar Xorazmga kirib kelganligini hamda bu vohada etnik jarayonlarni tezlashtirganligini kuzatish mumkin.

1017-yilda Maxmud G‘aznaviy Oltintoshni Xorazmshoh unvoni bilan Xorazmni boshqarish uchun tayinlaydi. Natijada Xorazmga ko‘p sonli turk-saljuqiy qabilalar shiddat bilan kirib kelgan.

1043-yildan saljuqiylarning Xorazmni istilo qilishi bilan rang-barang etnik guruhlar kirib joydashadilar. Saljuqiylar bilan birga Xorazmga o‘g‘uzlar ham kirib kelgan. Ular eftalitlarning VI-VII asrlar davomida Yettisuvdan kirib kelgan haqiqiy turk elementlari bilan qo‘shilib ketgan edi [3, 56].

O‘g‘uz qabilalari Buyuk Xorazmshoh Otsiz davrida faoliyat olib borgan harbiy qo‘shin tarkibida faol qatnashib, aholining mahalliy tiliga ham o‘z ta’siri ham muhim bo‘lgan.

Shunday ko‘chmanchi qabilalardan biri yabg‘u hisoblanadi. XI-asrda yabg‘u qabilasi taraqqiyoti jihatidan ancha yuqori turgan. Yabg‘u qabilalari Yangikent atroflarida istiqomad qilib, ular iqtisodiyotida chorvachilik ustunlik qilgan. O‘z yerlarini kengaytirishdan manfaatdor bo‘lgan yabg‘ular musulmon mulklariga, shuningdek, Buxoro va Xorazmga ham ko‘chib keldilar. Orol-Kaspiy dashtlari uchun kurashda ular Xorazmliklardan yengiladilar va Otsiz Xorazmshoh ularning yerlarini Xorazmga qo‘shib oladi. Qozoq olimi Ch.Valixonov o‘z asarlaridan birida o‘zbek qabilalarining joylashishi haqida ma’lumotlar keltirar ekan, bir qancha viloyatlar qatorida “Xivada va Qo‘qonda yabg‘ular istiqomat qilishlari”ni eslatib o‘tadi [3, 183].

Turkiy qabilalar o‘troq, tub aholi tarkibiga tez aralashib borar edilar. Otsiz Xorazmshoh Jand bilan Mang‘ishloqni o‘z yerlariga qo‘shib olgandan so‘ng ko‘chmanchi qo‘shnilar bo‘lgan-qipchoqlar va turkmanlarni ham o‘z ta’siriga bo‘ysundiradi. Otsiz Xorazmshoh davrida qipchoqlar kuchli harbiy armiyani tashkil etgan bo‘lsalar, Otsizning nevarasi Takash davrida saljuq aslzodalari yirik yerlarga egalik qiladilar. Qipchoqlar harbiy va davlat ishlariga aralashib Xorazmning siyosiy hayotida muhim rol o‘ynay boshlaydilar [6, 90; 247].

Takash tashqi siyosatida Xorazm geografiyasini kengaytirishda Otsizning siyosatini davom ettirishi natijasida mamlakat sarhadlari ikki marta kengaydi. Yaqin, O‘rta va O‘rta Sharq hududlari bosib olindi. Lekin, keyinchalik butun hokimiyat ishlariga qipchoq harbiy aslzodalarining aralashishi mamlakatni zaiflashtiradi. Chunki bu qipchoqlar Turkan xotun himoyasida bo‘lib, uning o‘zi qipchoqlarga qarindosh bo‘lgan qiniqli urug‘idan va Takashning rafiqasi edi. Qipchoqlarning saroydagi mavqeidan foydalanib, taxt uchun kurashlari, buyuk siyosiy birlashmaning tarix sahnasidan abadiy barham topishiga sababchi bo‘lganligini alohida qayd qilish joiz [6, 90; 247].

Abulg‘ozixon turk shajarasi to‘g‘risida yozar ekan, turk elida beshta urug‘ bo‘lib, uyg‘ur, qipchoq, qalach, qorluq va qiniqli deb eslatib o‘tadi. Muallif sanab o‘tgan beshta urug‘ ham X-asrgacha Xorazm yerlarida joylashgan edilar. Bu davrda yashagan xorazmiylarni qang‘li va turkman qabilalarining hukmron sulolalari bilan qarindoshlik aloqalari bo‘lgan. XII-asr boshlarida Xorazmshohlar bu qabilalardan qiz olib, qiz berganlar. Abulg‘ozixon asarida qayd qilingan ma’lumotlardan ma’lumki, “Qiniqli-Turkman birlan birga o‘lturur edilar. Urganch podshohlaridan Takashxon qiniqlining bir urug‘ining qizin oldi. Turkan otliq Sulton Muhammad Xorazmshoh ul qizdan tug‘ildi. Qiniqli xalqidin har kimki ul zaifaga qarindosh erdi, bir-bir sulton xizmatiga kelib, sulton xizmatina turdilar. Sulton Muhammad Xorazmshohga qiniqlidan kelib navkar bo‘lgan ellik va oltmish ming bor edi. Turkon xotunning akasi Xumortegin sulton xizmatiga keldi. Sulton anga Urganchni dorug‘alikga berdi” [1, 31]. Turkan xotunning amakivachchasi Inalchiqqa butun Turkiston viloyatini in’om etadi. Bu fakt shuning uchun diqqatga sazovorki, Xorazmga turkiy etnik qavmlarni juda katta miqdori XII-asrlarda kirib kelganligidan dalolat beradi. Demak, XII-asrda turkiy qavmlar Xorazm yerlarida mustahkam o‘rnashib olganlar. Ular juda ko‘pchilikni tashkil qilib, o‘troq aholi bilan omuxtalashganlar.

Yettisuvda o‘z davlatiga asos solgan qoraxitoylar ham Xorazmga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Takashxon xuddi shu qoraxitoylar yordamida Xorazm taxtini egallab, Xuroson va Sharqiy Eronni o‘z davlatiga qo‘shib oldi. XI-asrda “g‘ulomlar” armiyada asosiy o‘rinni egallagan bo‘lsalar, XII-XIII asrlarda yollanma turk kontingentlari asosiy harbiy kuchni tashkil etadilar. Samarqandni Chingizxon hujumidan himoya qilgan Xorazmshoh Muhammad qo‘shinining yarmidan ko‘pini turklar tashkil etgan. “Shaharni mudofaa qilish uchun - deb yozadi X.Vamberi, – Xorazmshoh 110.000 kishi qoldirdi. Bulardan 60 mingi turk, 50 ming tojik edi”, deb qayd qilgan [7, 159-163; 8, 353-355; 11, 206-208; 13,65-66]. Yarmi yollangan, yarmi qullardan iborat bo‘lgan, shaharlarda yashagan bu qo‘shinlar tub aholi bilan aralashib, turklashish jarayonini tezlashtirganlar. Demak, Xorazmda turk qavmlarining joylashishi jihatidan eroniy, forsiy qatlamlardan ustunlik qilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqorida qayd etilgan tarixiy ma’lumotlar quyidagi yakuniy xulosaga kelish imkonini beradi. Xorazm aholisining etnik tarkibi boyib, takomillasha boshladi. Miloddan avvalgi I-ming yillik oxirlarida Jayhun aroflariga shimoldan ko‘chib kelgan turkiyzabon xalqlar, IV-V asrlardagi xioniy, eftal, kidariylar, VI-VII asrlardagi Turk xoqonligi xalqlari Xorazm aholisi etnik tarkibi muhim o‘rin egallaganlar. X-XII asrlarda ko‘chib kelgan talay qabilalar turgash, to‘xsi, qorluq, chigil, yabg‘u va o‘g‘uzlar o‘lkaning sharqiy Eron va turk tillarida so‘zlashuvchi aholisi tarkibini etnik jihatdan boyitdi. Bu davrda o‘g‘uz shevasi shakllanadi. Shunday bo‘lsa-da, Anushteginiylar sulolasining o‘g‘uzlarning bekdili urug‘idan kelib chiqqanligi bahsli masala bo‘lib, bu sulola vakillarining, ayniqsa sulolaning so‘nggi vakillarining turkman xalqiga mansubligi masalasi manbalarda o‘z aksini topmagan va demak, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Ya’ni, yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo‘lsak, Oychechak va uning o‘g‘li Jaloliddin Manguberdi umuman turkman qabilasiga mansub bo‘lmaganligi aniq[12, 83-103; 14, 125-185]. Ular qipchoq qabila uyushmasiga mansub yemek qabilasi urug‘laridan (bayot-boyovut va uron urug‘laridan tashqari) birining vakili bo‘lganliklari haqiqatga yaqin.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Абулғозий. Шажарайи турк. –Т.: Чўлпон, 1992. – 125 б.

2. Ахинджанов С.М. Из истории взаимоотношений кипчаков и Хорезма в 12-нач.13в. – Алма-Ата: Изд-во АН КазССР, 1973. – 136 с.

3. Байрамов М. Об этнической принадлежности Джелал ад-дина Менгуберди и династии хорезмшахов-ануштегединов. - Ашхабад, 2018// http://turkmen-horezm.blogspot.com/2018/07/blog-post_31.html?view=timeslide

4. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия //В.В. Бартольд. Сочинения. – М.: Наука, 1963. Т.1. – 760 с.

5. Бартольд В.В. Сочинения. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов// В.В. Бартольд. Сочинения. – М.: Наука, 1968. Т.5. – 759 с.

6. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштагинидов 1097–1231 г. – М: Наука, 1986. – 247 с.

7. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо (Жаҳон фотиҳи тарихи)./ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Болтабоев, М. Маҳмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – 504 б.

8. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих. Полный свод истории /Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина]. – Ташкент; Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. – 595 с.

9. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. 612 с.

10. Пилипчук Я.В., Сабитов Ж.М. Очерки этнополитической истории кыпчаков. – Астана, Гылым, 2015. – 248 с.

11. Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского О. И. Смирновой, редакция проф. А. А. Семенова. – М., Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – Т. 1, кн. 2. – 317 с.

12. Тимохин Д.М., Тишин В.В. Происхождение Теркен-хатун, матери хорезмшаха Ала ад-Дина Мухаммада: к проблеме соотношения этнонимов в восточном Дешт-и Кыпчаке в XII-начале XIII вв. в исторических источниках// Материалы II-й научной конференции средневековой истории Дешт-и Кыпчака. Павлодар: ТОО НПФ “ЭКО”, 2018. – С.83-103.

13. Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / Камол Матёқубов таржимаси./ – Т.: O‘zbekiston, 2006. – 384 б.

14. Pelliot P. A propos des Comans // Journal Asiatique. 1920. XI série. T. XV. №1. P. 125–185.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314

http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Gabibova Irina Vagifovna
Doctor of Philosophy (PhD)
of the Department of "Architecture and Urban Planning" of the
Tashkent International University of Chemistry

Abdullayeva Madina Shukhratovna
Department of "Architecture and Urban Planning"
of the Tashkent International University of Chemistry, Doctoral student
madina-abdullayeva-95@mail.ru

Doctor of History, Senior Researcher at the
State Museum of History of Uzbekistan
Mukhamedova Munisa Sabirovna

Received 4th March 2025, Accepted 11th March 2025, Online 8th April 2025

ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF USING UNDERGROUND SPACE IN HISTORICAL CITIES. IN THE CASE OF THE CITY OF BUKHARA

Abstract: This article analyzes the experience of using underground spaces in historical cities and considers the example of the city of Bukhara. After analyzing the problem areas of the city of Bukhara, proposals are given.

Keywords: Bukhara city, historical city, transport system, ecology, urbanism, underground urbanism, underground structures, urban development.

АНАЛИЗ ОПЫТА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОДЗЕМНОГО ПРОСТРАНСТВА ИСТОРИЧЕСКИХ ГОРОДОВ. В СЛУЧАЕ С ГОРОДОМ БУХАРА

Аннотация: В данной статье анализируется опыт использования подземных помещений в исторических городах и рассматривается пример города Бухары. После анализа проблемных мест города Бухары даны предложения.

Ключевые слова: город Бухара, исторический город, транспортная система, экология, урбанизм, подземный урбанизм, подземные сооружения, градостроительство.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314

http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

TARIXIY SHAHARLARNING MUAMMOLI HUDUDLARINI O‘RGANISH VA YER OSTI HUDUDIDAN FOYDALANISH TAJRIBASINI TAHLIL QILISH. BUXORO SHAHRI MISOLIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy shaharlarda yer osti hududlaridan foydalanish tajribasi tahlil qilingan va Buxoro shahri misolida ko‘rib chiqilgan. Buxoro shahridagi muammoli hududlar tahlil qilgan holda, takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro shahri, tarixiy shahar, transport tizimi, ekologiya, urbanistika, yer osti urbanizmi, yer osti inshootlari, shaharsozlik.

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda Buxoro shahrida ham boshqa shaharlar singari transport tizimida talaygina muammolar paydo bo‘lyapti. Bu o‘z navbatida boshqa bir muammolarni keltirib chiqaryapti va aholi yashash tarziga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Aholining yashash hududi joylashuvi va ish joylari, markaz bilan aloqalari orasidagi masofalar, qatnovga ketadigan vaqt (tirbandliklar) ko‘plab noqulayliklarga olib kelyapti.

Buxoro shahrini tarixiy ko‘rinishini o‘zgartirmay va yanada jozibadorligini oshirish uchun, uning mavjud tarixiy qismi yaxlitligini saqlab qolish muhimdir. Lekin shu bilan birga, shu hududda yashovchi aholini yashash tarzini va bu tarixiy shaharga tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy mehmonlarga qulayliklar yaratilishini inobatga olish kerak. Tarixiy hududga yaqin yo‘llardagi tirbandliklarni oldini olish, aholining va mehmonlarning ehtiyoji uchun muhim bo‘lgan, kichik savdo obyektlari, mashina to‘xtash joylarini loyihalashda zamonaviy yechimlardan foydalanish kerak.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich



1-rasm. Buxoro shahri eski shahri hududining tarixiy qismi

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili (Literature Review)

Bugungi kunda yer osti hududlaridan foydalanishga oid ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, jumladan R. Vukan, Vuchik, Y.V. Trofimenko, M. R.Yakimov kabi mutaxassis va tadqiqotchilar tomonidan ham o‘rganilib kelinmoqda.

Rossiya arxitektura va qurilish fanlari akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Katta shaharlarda yer osti makonidan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar", Texnika fanlari doktori, professor V. A. Ilyichev, professor Golubev G. E., "Yirik shaharlarda yer osti makonidan foydalanish", muallif - professor, G. E.Golubev markazlarda yer osti makonini rivojlantirish misollari bilan yirik shaharlardan, shuningdek, D. S.Konyuxovning “Yer osti makonidan foydalanish [Universitetlar uchun o‘quv qo‘llanma]” va chet el internet saytlaridagi ma’lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tarixiy shaharlarning muammolarini o‘rganish **tahlil** va **induksiya** metodidan, transport muammolariga yechim taklif loyihasini ishlab chiqishda **gipotetik** metodidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analyses and results)

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314

http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Buxoro shahri O‘zbekiston Respublikasining qadimiy shaharlaridan biri, Buxoro viloyatining ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazi hisoblanib, Buyuk ipak yo‘lida yirik tijorat markazlaridan bo‘lgan.

Buxoro shahri Sharqning mashhur qadimiy shaharlaridan biri. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoroga miloddan avval VI asrda asos solingan.

Bugungi kunda Buxoro shahrida ham boshqa katta shaharlar singari transport tizimida talaygina muammolar paydo bo‘lyapti. Bu o‘z navbatida boshqa bir muammolarni keltirib chiqaryapti va aholi yashash tarziga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Aholining yashash hududi joylashuvi va ish joylari, markaz bilan aloqalari orasidagi masofalar, qatnovga ketadigan vaqt(tirbandliklar) ko‘plab noqulayliklarga olib kelyapti.

Buxoro shahrining transport tizimlaridagi muammoli hududlarini izlash jarayonida avvalombor, Buxoro shahrining sun’iy yo‘ldosh orqali olingan xaritasini ko‘rib chiqib, chegaralarini belgilab oldik (3-rasm).

Keyingi bosqichda esa shu belgilangan chegaradagi hududni matritsa usuli ya’ni, bir xil kvadratlarga bo‘lish orqali belgilash kiritildi, bunda har bir kvadrat tomoni 0.5km.ga teng deb belgilandi(4-rasm).

Kvadratlarga bo‘lingan hududning aholi yashash hududlari aniqlanib, aholi sonining zichligiga qarab ranglar orqali ifodalanib, bunda, yuqori zich joylashgan hududdan past zichlikdagi hududlar ranggi to‘q rangdan och rangga pasayib boradi(5-rasm).

Aholi joylashuvi tahlilidan keyin, aholining asosiy ish joylarini belgilab, ularning ko‘proq aholi ishlashiga va qatnashiga ko‘ra ranglar orqali ifodalandi, bunda ham yuqori zich joylashgan hududdan past zichlikdagi hududlar rangi to‘q rangdan och rangga pasayib boradi(6-rasm).

Bu belgilangan hududlarning aholi zich joylarini aniqlagandan so‘ng, mazkur hududlarning bir nechtasini tahlil qilish mumkin.



3-rasm. Buxoro shahrining chegaralanishi

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich



4-rasm. Buxoro shahri hududini matritsa usulida bo‘linishi, bunda har bir kvadrat tomonlari 0.5 km.ga teng



5-rasm. Buxoro shahri aholi yashash hududlarining joylashuvi, zic hligiga nisbatan kvadratlarning ranggi to‘qlashadi



6-rasm. Buxoro shahri aholining ish bilan ta’minlangan hududlarining joylashuvi, zichligiga nisbatan kvadratlarning ranggi to‘qlashadi

Buxoro shahri misolida ko‘rgan bu matritsali ma’lumotlardan kelib chiqqan holda, bir necha muammoli yo‘l kesishmalarini olib qarashamiz mumkin. Bunda biz asosan “tig‘iz payt” (“chas pik”) davomida eng ko‘p tirbandlik va noxush vaziyatlar ko‘p uchrab turadigan ko‘cha-yo‘llarni qarab chiqishimiz maqsadga muvofiqdir (7-8-9-rasm).

Bu yo‘llar uchun, aholining talablaridan kelib chiqqan holda, tabiatga maksimal tarzda havoga chiqadigan tutunlarni kamaytirgan holda taklif loyihalari ko‘rib chiqilishi kerakdir.

Buxoro shahri Mustaqillik va Q. Murtazoyev kesishgan aylanma yo‘lini ham olib qarasak, bu yo‘l yoqasida ko‘plab maishiy xizmat ko‘rsatish binolari, aholi turar joylari mavjud. Shu bilan

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314

http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

birga bu aylanma bir necha asosiy yo‘llarni tutashtirib, kunning asosiy qismida tirbandlikni kuzatish mumkin.



7-rasm. Buxoro shahri Mustaqillik va Q. Murtazoyev kesishgan aylanma yo‘li

Buxoro shahri 5-mikrorayon Navoiy prospektini ham tahlil qilganimizda, bu yo‘lda asosan avtohalokatlarni ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin. Aksariyat hollarda avtohalokat avtomashinalarning harakat tezligi yuqoriligi yoki piyodalarning ehtiyotkorsizligi orqali kelib chiqadi(8-rasm).

Buxoro shahri S. Murodov va Nizomiy ko‘chalaridagi chorrahada ham ko‘plab aholiga xizmat ko‘rsatadigan binolar (Bolalar ko‘p tarmoqli shifoxonasi, istirohat bog‘i, do‘konlar), shu bilan birga yo‘l yoqasida yangi qurilishlar bo‘layotgani sabab, aholi ish joylari ko‘payadi va bu yo‘ldagi transport oqimi sezilarli ravishda yana oshishini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi(9-rasm).

8-rasm. Buxoro shahri 5-mikrorayon Navoiy prospekti

9-rasm. Buxoro shahri S. Murodov va Nizomiy ko‘chalaridagi chorrahasi

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314

http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ko‘rib chiqilgan muammoli hududlarga, yer osti hududidan foydalanishni taklif sifatida keltirish mumkin(10-rasm).

Tegishli topografik sharoitlar mavjud bo‘lganda tabiiy va rejalashtirish omillarining xususiyatlariga qarab, avtomobil yo‘llari, avtoturargohlar, jamoat transporti stantsiyalari, muhandislik inshootlari va boshqalarni tashkil etishda yer osti muhitidan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Yer osti inshootlarini eng maqbul qurish zonalarini tanlashda shaharsozlik va funktsional talablar, texnologiyalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Bugungi kunda shahar yer osti qurilishining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bu - yer osti garajlarini qurish va to‘xtash joylarini tashkillashtirish. Kunning ko‘p qismida har bir avtomobil to‘xtab turadi, shu bilan shahar maydonining ma’lum bir maydonini egallaydi. Shu tarzda avtomashinalar yo‘llarning yon tomonida yoki mahallalar ichida, yo‘llar yoqasini band qilib qo‘yapti, bunday sharoitlarda yer osti to‘xtash joylarini optimal yechim sifatida qo‘llash mumkin(11-rasm).



10-rasm. Chorrahalarda yer osti piyodalar o‘tish yo‘lagi taklifi

11-rasm. Yer osti muhitidan avtoturargoh sifatida foydalanish

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations)

Buxoro shahrining xaritalari matritsa usulida bo‘lib, shu orqali muammoli hududlari, ya’ni aholi zich yashaydigan va ishlaydigan hududlari ajratib olingan.

Hozirda mavjud muammoli hududlarni ajratib, ayrimlarini konkret muammolari o‘rganilgan. Hududlarning ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy muammolari keltirilgan va tahlil qilingan.

Yer osti muhitidan foydalanishning afzal tomonlari sifatida:

- uzoq masofani xavfsiz ravishda bosib o‘tish;
- svetoforlar va chorrahalarsiz va bu o‘z navbatida vaqtni tejaydi;
- tashqi, yer usti muhitiga avtomoshinalardan chiqadigan shovqin-suronning pastligi;
- har qanday tabiiy iqlimda ham tashqi ta’sirlarsiz ishlashi;
- yer osti garajlarida avtomashinalar xavfsizligini ta’minlash yengilroq.
- yer usti landshaftini asrash imkoniyati;
- insonlarning toza, shovqinsiz muhitdan bahramand bo‘lishi.

Yer osti muhitidan foydalanishning kamchiliklari:

- Har qanday hududda ham yerni kovlay olmaslik;
- Havo almashish moslamalarining doimiy ravishda ishlashi kafolatlay olmasligi (sirkulyatsiya muammolari);
- Yer osti bosimi nazoratdan chiqib ketishi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference)

1. **Исамухамедова Д.У.** Шаҳар ва қишлоқлар реконструкцияси. – Тошкент “IQTISOD+MOLIYA”, 2018.
2. **Голубев Г.Е.** Подземная урбанистка и город. - М.: ИПЦ МИКХиС, 2005.- 124с.
3. **Ильичев В. А., Голубев Г. Е.** Руководство по использованию подземного пространства крупных городов. – М., 2004.
4. **Конюхов Д. С.** Использование подземного пространства. Учеб. пособие для вузов. – М.: Архитектура-С, 2004. – 296 с., ил.
5. **Голубев Г.Е**. Использование подземного пространства в крупных городах. – М.: Стройиздат, 1979. – 49 с.
6. **Вукан Р. Вучик** Транспорт в городах, удобных для жизни М. : Территория будущего, 2011. – 574 с
7. **Ричард Нельсон Фрай** Бухара в Средние века На стыке персидских традиций и исламской культуры © Перевод, ЗАО «Центрполиграф», 2016
8. https://dic.academic.ru/
9. https://en.wikipedia.org/

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Zarina Soliyeva
independent researcher,
Samarkand State Institute of Foreign Languages
zarina.solieva1981@gmail.com

Published under peer review:
Doctor of Science in Philosophy, Professor
Kholiqov Yunus

Received 4th March 2025, Accepted 11th March 2025, Online 28th March 2025

EVERYDAY LIFE AND THE AUTHENTICITY OF HUMAN EXISTENCE: HEIDEGGER'S PHILOSOPHICAL VIEWS ON SOCIETY

Abstract: The article deeply analyzes Martin Heidegger's philosophical views on society and his approaches to human existence. Heidegger views society as an absolute form of subjectivity, emphasizing that the main task of philosophy is to understand being and realize human authenticity. According to him, philosophy is not aimed at changing society but at understanding the authenticity of life. Heidegger's concepts of "Dasein" (existence) and "being resolute" are based on understanding personal authenticity and historical conditions. He argues that freedom should be connected not only with personal choices but also with historical and social conditions. Heidegger recommends realizing authentic actions through the acknowledgment of the past and common history. This article helps to understand Heidegger's philosophy from a new perspective on society and analyzes his concepts of authenticity, freedom, and being resolute.

Keywords: Martin Heidegger, society, subjectivity, existence (Dasein), authenticity, philosophy, being resolute, history, freedom, technologies, understanding society, social conditions, past, common history, "Being and Time", authenticity of "Dasein", philosophical views, modern society, subjective views, historical process, social system, authentic action.

KUNDALIK HAYOT VA INSON MAVJUDLIGINING HAQIQIYLIGI: XAYDEGGERNING JAMIYAT HAQIDAGI FIKRLARI

Annotatsiya: Martin Xaydeggerning jamiyat haqidagi falsafiy qarashlari va uning insonning mavjudligi bilan bog‘liq yondashuvlari ushbu maqolada chuqur tahlil qilingan. Xaydegger, jamiyatni sub’yektivlikning mutlaqlashgan shakli sifatida ko‘rib, falsafaning asosiy vazifasi mavjudlikni tushunish va insonning haqiqiyligini anglash ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, falsafa jamiyatni o‘zgartirishga emas, balki hayotning haqiqiyligini anglashga yo‘naltirilgan. Xaydeggerning "Dasein" (mavjudlik) va "qarorli bo‘lish" tushunchalari, shaxsning o‘zining haqiqiyligini va tarixiy sharoitlarni tushunishga asoslangan. U erkinlikni faqat shaxsiy tanlovlar bilan bog‘lamay, balki tarixiy va ijtimoiy sharoitlar bilan ham bog‘lash kerakligini ta’kidlaydi. Xaydegger, haqiqiy harakatni o‘tmish va umumiy tarixni tan olish orqali amalga oshirishni tavsiya etadi. Ushbu maqola Xaydegger falsafasini jamiyatga nisbatan yangi nuqtai nazardan tushunishga yordam beradi va uning haqiqiylik, erkinlik va qarorli bo‘lish kabi tushunchalarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlari: Martin Xaydegger, jamiyat, sub’yektivlik, mavjudlik (Dasein), haqiqiylik, falsafa, qarorli bo‘lish, tarix, erkinlik, texnologiyalar, jamiyatni tushunish, ijtimoiy sharoit, o‘tmish, umumiy tarix, "Borliq va vaqt", “Dasein”ning haqiqiyligi, falsafiy qarashlar, zamonaviy jamiyat, sub’yektiv qarashlar, tarixiy jarayon, ijtimoiy tizim, haqiqiy harakat.

ЕЖЕДНЕВНАЯ ЖИЗНЬ И ПОДЛИННОСТЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО СУЩЕСТВОВАНИЯ: ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ХАЙДЕГГЕРА НА ОБЩЕСТВО

Аннотация: В статье глубоко анализируются философские взгляды Мартина Хайдеггера на общество и его подходы к существованию человека. Хайдеггер рассматривает общество как

абсолютную форму субъективности, подчеркивая, что основная задача философии – понять бытие и осознать подлинность человека. По его мнению, философия не направлена на изменение общества, а на осознание подлинности жизни. Понятия Хайдеггера "Dasein" (существование) и "быть решительным" основываются на понимании личной подлинности и исторических условий. Он утверждает, что свободу следует связывать не только с личным выбором, но и с историческими и социальными условиями. Хайдеггер рекомендует осуществлять подлинные действия через признание прошлого и общей истории. Эта статья помогает понять философию Хайдеггера с новой точки зрения на общество и анализирует его понятия подлинности, свободы и быть решительным.

Ключевые слова: Мартин Хайдеггер, общество, субъективность, существование (Dasein), подлинность, философия, быть решительным, история, свобода, технологии, понимание общества, социальные условия, прошлое, общая история, "Бытие и время", подлинность "Dasein", философские взгляды, современное общество, субъективные взгляды, исторический процесс, социальная система, подлинное действие.

Kirish

Falsafa va jamiyat o‘rtasidagi aloqalar ko‘plab mutafakkirlar tomonidan o‘rganilgan, ammo Martin Xaydeggerning jamiyat va tarixiy jarayonlarga bo‘lgan yondashuvi o‘zining noyobligi bilan ajralib turadi. Xaydeggerning falsafiy qarashlari va ularning o‘zgarishi, ayniqsa, uning zamonaviy jamiyatni va uning sub’yektivligini qanday anglaganida o‘z aksini topadi.

Martin Xaydeggerning falsafasi, hayotning haqiqiyligi va insonning mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lib, uning jamiyat haqidagi qarashlari vaqt o‘tishi bilan tubdan o‘zgargan. Xaydeggerning boshida, jamiyatning mohiyati va uning o‘zgarishini qanday tushunishi bugungi kunda ko‘rganimizdek ancha o‘zgargan. Biroq, bu o‘zgarishlarga qaramasdan, Xaydeggerning falsafiy fikrlarida barqaror va doimo shakllangan ba’zi tushunchaviy konstruktsiyalar mavjud bo‘lib, ular uning butun falsafasini shakllantirib kelgan. V.Visserning “Marten Xaydegger bilan suhbat” nomli kitobida Xaydeggerning falsafaning jamiyatdagi roli haqidagi pozitsiyasi o‘z aksini topgan. Xaydegger, falsafa jamiyat maqsadlarini to‘g‘rilash yoki uni o‘zgartirishga yordam bera oladimi degan savolga rad javobini beradi. U, avvalambor, jamiyatni tushunish zaruriyati haqida gapiradi. Xaydeggerning fikricha, jamiyatni tushunmasdan, unga ta’sir o‘tkazish yoki uni o‘zgartirish imkonsiz. U zamonaviy jamiyatni sub’yektivlikning mutlaqlashgan shakli sifatida tasavvur qiladi. Bu jamiyatda har bir insonning fikri va nuqtai nazari aslida o‘zining sub’yektiv ko‘rinishida ko‘proq ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Xaydegger falsafasida sub’yektivlik va haqiqiylik tushunchalari muhim o‘rin tutadi. Uning fikricha, zamonaviy jamiyatda har bir insonning shaxsiy va sub’yektiv qarashlari jamiyatni tashkil qiladi va bu sub’yektivlik, o‘z navbatida, jamiyatni mutlaqlashtiradi. Xaydeggerning bunday qarashlari, uning falsafasini jamiyatni o‘zgartirishga emas, balki mavjudlikning haqiqiyligini anglashga qaratilgan deb tushunishga imkon beradi. Xaydegger falsafani faqatgina mavjudlikni tushunishga, hayotning haqiqiyligini anglashga yo‘naltiradi va u jamiyatni o‘zgartirish yoki uning muammolarini hal qilishni o‘z vazifasi deb bilmaydi.

Xaydeggerning pozitsiyasi, umuman olganda, falsafaning jamiyatga ta’sirini inkor etishga qaratilgan. Uning fikricha, falsafaning asosiy vazifasi jamiyatni o‘zgartirish emas, balki insonning

haqiqiy mavjudligini anglashdir. Shuningdek, Xaydegger, falsafaning sub'yektivlik nuqtai nazaridan ustun bo‘lishi kerakligini ta'kidlaydi. U, jamiyatda qandaydir o‘zgarishlarni amalga oshirishga chaqirish o‘rniga, hayot va mavjudlikni tushunishga asoslangan fikrlarni rivojlantirishni maqsad qilib qo‘yadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Xaydegger falsafasining markazida "borliq" (Dasein) tushunchasi turadi. Bu aynan shaxsning mavjudligi va uning vaqt bilan munosabatini anglatadi. Uning 1933-1934 yillardagi qarashlarida, ayniqsa lektorlik nutqi bilan bog‘liq bo‘lib, bu "borliq" va "vaqt" tushunchalari markaziy ahamiyatga ega. Xaydegger ma'ruzalarining ma'nosi ko‘proq "Borliq va vaqt" asarida yashiringan bo‘lishi mumkin, u yerda "borliqning zavolga kelishi" va "sub'yektivlikning g‘alabasi" kabi masalalar ko‘tarilgan. Bu tushuncha, zamonaviy texnika bilan bog‘liq bo‘lib, Xaydegger, sub'yektivlikning mutlaqlashuvi va uning texnik asboblar orqali jamiyatga ta'siri haqida o‘ylaydi. Shuningdek, "milliy-sotsializm" Xaydegger tomonidan o‘zining asosiy ifodasi sifatida ko‘rsatiladi, bu esa jamiyatning o‘zgargan vaqtidagi mutlaqlashtirilgan sub'yektivlikni ta'kidlashi bilan bog‘liqdir.

Shuningdek, Xaydeggerning "Dunyo surati" asari g‘amgin va dardli bir qarashni ifodalaydi. U G‘elderlinning "Nemislar" deb nomlangan gimnidan bir satrni keltirib, "Fikri o‘z davridagidan ancha uzoq bo‘lgan mutafakkirning taqdiri g‘amgindir" deb ta'kidlaydi. Bu so‘zlar uning falsafasida zamonaviy jamiyatdagi mavjudlikni his etish va o‘zining haqiqiyligini anglashning og‘irligini aks ettiradi. Bu g‘amginlikni bir yo‘lga qo‘yib, bo‘lishning unutish va qaytish jarayonini anglatadi. Bu jarayonni "qarorlilik" (Entschlossenheit) deb ataydi, ya'ni insonning o‘zi haqidagi haqiqiylikni qabul qilish va uni ongli ravishda his qilishdir.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Xaydeggerning "qarorli" bo‘lish haqidagi tushunchasi, insonning mavjudligini qayta o‘rganish va o‘zligini anglashni bildiradi. İnsonning haqiqiyligini, o‘zining noaniqlik va shakl yoki shaklsizligiga ochiq bo‘lishi kerakligini ta'kidlaydi. Insonning haqiqiyligini his qilishda esa u o‘zining harakatlarida o‘ziga xosligini va o‘zgachaligini aks ettiradi. Xaydegger, bu haqiqiylikni faqat muayyan bir maqsadga erishish orqali emas, balki insonning mavjudligini tan olish orqali anglashni ko‘rsatadi. Bu, o‘zaro munosabatlarning ijtimoiy tasvirini yaratishda o‘zgacha bir hayot yo‘li bo‘lib, insonning haqiqiyligini anglashda ulkan ahamiyatga ega. Xaydeggerning fikriga ko‘ra, haqiqiy ong o‘zining mustaqilligini anglab yetadi va hech qanday tashqi avtoritetlarga bo‘ysunmaydi. Bu o‘zining harakatlarini ularga moslashtirishni emas, balki o‘zini, o‘zining haqiqiyligini kashf etishni anglatadi. Shu nuqtada, Xaydegger insonning jamiyatda o‘zining o‘zgacha mavjudligini tan olishni va bu haqiqiylikni amalga oshirishni mas'uliyat deb biladi.

Xaydeggerning "haqiqiy Dasein" tushunchasi, "Kierkegaardning imon ritsari" kabi, dunyodan chetlatilgan, boshpanasiz qochqinga o‘xshamaydi. Bu, aslida, dunyo va jamiyatdan yiroqlashish emas, balki qarorli bo‘lish orqali dunyo va jamiyatga qaytish va ularni yangi nuqtai nazardan tushunishni anglatadi. Xaydeggerning "qarorli' bo‘lishi – bu shaxsning o‘zini haqiqiyligini va mavjudligini tasdiqlashidir. U, mavjudlikni (Dasein) anglash va o‘zining o‘rni va maqsadlarini topishda qaror qabul qilishni o‘rgatadi. Shunday qilib, qarorli bo‘lish faqatgina sub'yektiv qaror

emas, balki shaxsning movjudlik jarayonidagi o‘z-o‘zini anglash va dunyo bilan bo‘lgan aloqalarini qayta ko‘rib chiqishdir.

Xaydegger haqiqiy harakatni “o‘tmish” bilan bog‘lashni ta’kidlaydi. Haqiqiy harakat, uning fikriga ko‘ra, “takrorlashdir”. Takrorlash, avvalgi tajriba va tarixga, odamning avvalgi mavjudligiga va o‘tmishiga qaytishdir. U o‘tmishni ‘ozod Dasein’ uchun yagona avtoritet sifatida tasavvur qiladi. Bu degani, haqiqiy harakat o‘zining ildizlarini o‘tmishda topadi va o‘tmishni yangilash yoki o‘zgarishlarni amalga oshirish orqali amalga oshadi. O‘tmish, nafaqat shaxsning o‘zi uchun, balki har bir inson uchun umumiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan bir vaqtni ifodalaydi. Xaydegger o‘tmishdan faqat shaxsning shaxsiy tarixini emas, balki insoniyatning umumiy tarixiy yo‘lini qabul qilishni va uni qayta shakllantirishni nazarda tutadi.

Xaydeggerning qarashlarida, haqiqiy “Dasein”, o‘zining avlodi bilan birgalikda tarixiy yo‘lni amalga oshirishdan iboratdir. Bu, haqiqiy tarixiylashuvdir, ya’ni “Dasein” o‘zining tarixiyligini va mavjudligini anglashda o‘zining o‘tmishiga qaytish va uni tan olishdir. Shuning uchun, Xaydeggerning qarorli bo‘lishi, shaxsning o‘zining haqiqiyligini va mavjudligini anglash uchun o‘tmishga qaytish va uni qabul qilishni nazarda tutadi. Xaydeggerning “borliq” tushunchasi, haqiqiy Daseinning jamiyatda o‘z o‘rnini topish va dunyo bilan bo‘lishining umumiy ma’nosini qamrab oladi. Bu yerda, haqiqiylik, nafaqat shaxsiy tajriba, balki insoniyatning umumiy jamiyatdagi o‘rnini tushunish va qabul qilishga asoslanadi. Jamiyatni haqiqiy qabul qilish, Xaydegger fikriga ko‘ra, uni avvalgi ijtimoiy holatlardan o‘zgartirish emas, balki jamiyatning tarixiy mazmunini anglashdir. Xaydeggerning “Dasein” haqidagi qarashlari, ayniqsa, “Borliq va vaqt” asarida, anarxistik tushunchalar va ijtimoiy tartibsizlikni inkor etadi. U haqiqiy tarixiylashuvni, shaxsning o‘zini anglash va jamiyatga qaytish orqali amalga oshirishni ko‘rsatib bergan. Bu Xaydeggerning falsafasida faqat shaxsiy o‘zgartirishlar emas, balki jamiyatdagi umumiy tarixiy jarayonlarga qarshi bo‘lgan har qanday anarxistik tushunchalarni rad etadi.

Xaydegger, o‘zining ma’ruzalarida, akademik erkinlikni tanqid qiladi. U o‘sha davr Germaniyasidagi universitetlarda mavjud bo‘lgan erkinlikni, faqat salbiy tomonlari mavjud bo‘lgani uchun “soxta” deb hisoblaydi. Xaydegger uchun bu erkinlik, o‘z-o‘zini cheklanmagan holda rivojlantirish, biroq, hech qanday aniq maqsadga yoki yo‘nalishga ega bo‘lmagan faoliyatni tanlashdan iborat edi. Bu tushuncha Xaydeggerning falsafasida kiritilgan asosiy g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liqdir, chunki u o‘zi va dunyo o‘rtasidagi munosabatni yanada chuqurroq o‘rganish va uni faqat cheklanmagan imkoniyatlar bilan bog‘lashni istamaydi. Xususan, Xaydegger, Kantonning mashhur so‘zlariga – “O‘zingga huquq berish, bu eng oliy erkinlik” dir deganiga e’tibor qaratadi. Bu g‘oya, aslida, insonning o‘z haqiqiyligini va mohiyatini topishdagi erkinligini anglatadi. Lekin, Xaydegger uchun, erkinlik nafaqat sub’yektiv imkoniyatlar bilan bog‘lanadi, balki uning tarixiy va jamiyatga oid o‘rniga ham qaratilgan. Xaydegger, erkinlikni faqat o‘ziga huquq berishdan emas, balki tarixni va jamiyatdagi o‘rnini tan olishdan iborat ham deb hisoblaydi.

Bundan tashqari Xaydegger, Kantning erkinlik haqidagi fikriga nisbatan ham tanqidiy yondashadi. Kant insonning aqli uni qonun ijodkori sifatida ko‘rgan bo‘lsa-da, Xaydegger, bunday tushunchani qabul qilmaydi. Uning fikricha, “huquq” va “qonunga mos harakat qilish imkoniyati” tarixdan ajralmasdir. Tarix, shaxsning o‘zi uchun emas, balki uning xalqidan va jamiyatidan kelib chiqib, shaxsning “taqdirini” belgilaydi. Tarix, insonning maqsadlar va harakatlarini shakllantiruvchi

asosiy mexanizmga aylanadi. Bu esa, Xaydeggerning qarorli bo‘lish tushunchasiga yondashuvini to‘liq tushunishga yordam beradi, chunki u erkinlikni va qaror qabul qilishni, faqat o‘ziga xoslikda emas, balki tarixiy va ijtimoiy sharoitda aniqlashni talab qiladi.

6. Dewey J. (1997) – Experience and Education

7. Ivanov S.N. (2020) – Clinical Practice in Otolaryngology

8. Smith A. (2021) – Simulation-Based Learning in Medicine

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Nasiba Zakirovna Kulbekova

Head of the Tashkent Regional Department of Higher Education, Science, and Innovation,
Doctor of philosophy (PhD) in sociology

Published under peer review:
Doctor of Science in History, Associate Professor
Durdona Rasulova

Received 4th March 2025, Accepted 11th March 2025, Online 28th March 2025

THE INFLUENCE OF NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPACITY

Abstract. This article analyzes the significance of national and spiritual factors in the development of human potential from historical, international, and modern perspectives. It examines the formation of national values and spiritual heritage in the process of human progress, as well as their impact on personal and societal development. The article also explores various approaches to enhancing human potential across different historical periods and cultures, their relevance in today's world, and potential applications. Based on historical experience, international principles, and contemporary processes, the role of national and spiritual factors in human life and their prospects for development are thoroughly analyzed.

Keywords: human potential, national values, spirituality, historical heritage, international experience, modern society, cultural development, enlightenment, national identity, social progress.

INSON SALOHIYATINING YUKSALISHIDA MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARNING TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson salohiyatini yuksaltirishda milliy va ma'naviy omillarning ahamiyati tarixiy, xalqaro va zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Inson taraqqiyoti jarayonida milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning shakllanishi, ularning shaxsiy hamda jamiyat rivojiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, turli davrlarda va madaniyatlarda inson salohiyatini oshirishga qaratilgan yondashuvlar, ularning bugungi dunyodagi ahamiyati va qo'llanilish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada tarixiy tajriba, xalqaro tamoyillar va hozirgi zamonaviy jarayonlar asosida milliy va ma'naviy omillarning inson hayotidagi o'rni hamda ularni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: inson salohiyati, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, tarixiy meros, zamonaviy jamiyat, madaniy rivojlanish, ma'rifat, milliy o'zlik, ijtimoiy taraqqiyot.

ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ НА ПРИВЕТСТВИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ СИЛЫ

Аннотация. В данной статье анализируется значение национальных и духовных факторов в развитии человеческого потенциала с исторической, международной и

современной точек зрения. Рассматривается формирование национальных ценностей и духовного наследия в процессе развития человечества, а также их влияние на личностное и общественное развитие. Также освещаются подходы, направленные на повышение человеческого потенциала в различные исторические периоды и культуры, их актуальность в современном мире и возможности применения. В статье проводится анализ роли национальных и духовных факторов в жизни человека, а также перспектив их развития на основе исторического опыта, международных принципов и современных процессов.
Ключевые слова: человеческий потенциал, национальные ценности, духовность, историческое наследие, международный опыт, современное общество, культурное развитие, просвещение, национальная идентичность, социальный прогресс.

КИРИШ

Inson salohiyatini yuksaltirish jarayoni har doim milliy va ma’naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Har bir jamiyat o‘zining boy madaniy merosi va qadriyatlari asosida taraqqiy etadi. Zero, har qanday iqtisodiy rivojlanishning samaradorligi jamiyatning ma’naviy yetukligi bilan o‘lchanadi. Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari ham ushbu haqiqatni tasdiqlaydi: *“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”*[1]

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, inson salohiyati va jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri milliy va ma’naviy qadriyatlardir. Ular jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va madaniy taraqqiyotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Zero, *"Ahli bashar ma’naviyatsiz bo‘lmaydi, chunki aslida inson mohiyati moddiyat va ma’naviyatning tutashuvidadir. Har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqa xalqlarining o‘ziga xos ma’naviy olami mavjud."*[2] Milliy va ma’naviy qadriyatlar jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va madaniy taraqqiyotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada inson salohiyatini yuksaltirishda milliy va ma’naviy qadriyatlarning o‘rni, ularning shakllanishi hamda jamiyat rivojiga ta’siri tarixiy, xalqaro va zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Shuningdek, bu qadriyatlarning inson hayotidagi ahamiyati, ularning saqlanishi va rivojlanish istiqbollari hamda turli davrlarda millat mutafakkirlarining bu yo‘nalishdagi hissasi o‘rganiladi.

Inson salohiyatining shakllanishi va rivojlanishida tarixiy jarayonlarning o‘rni beqiyos. Har bir xalqning ma’naviy merosi va milliy qadriyatlari uzoq tarixiy davrlarda shakllangan bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotida muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan. Masalan, qadimgi Sharq

[1] [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha” videoselektor yig‘ilishidan 2021-yil 19-yanvar https://president.uz/oz/lists/view/4089#]
[2] [Muhammadjon Imomnazarov “MILLIY MA’NAVIYAT BOSQIChLARI” Toshkent – 2010]

sivilizatsiyalarida inson salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Xitoy, Hindiston, Misr va Bobil kabi davlatlarda ma'rifat, hunarmandchilik, falsafa va san'atga bo'lgan e'tibor inson kamolotining muhim omillaridan biri sifatida qaralgan.

Shuningdek, O'rta Osiyo hududida joylashgan qadimgi Xorazm, So'g'd, Baqtriya va Farg'ona davlatlarida ham ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatga katta e'tibor berilgan. Bu hududlarda shakllangan ijtimoiy va madaniy qadriyatlar keyinchalik butun mintaqaning rivojlanishiga zamin yaratgan. Ayniqsa, Ipak yo'li orqali Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy aloqalar kuchaygan, natijada bilim va tajribalar almashinuvi yuz bergan. Bu borada Prezidentimiz shunday deydi: *"Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam tariximiz haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi, katta ma'naviyat olib ketishi zarur."*[3] Darhaqiqat, ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy va madaniy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish nafaqat milliy, balki jahon miqyosida madaniy taraqqiyotga xizmat qiladi.

O'rta Osiyoning ma'naviy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadimiy manbalardan biri – "Avesto" bo'lib, u insonning axloqiy yetukligi, adolat, ezgulik va bilimga intilish kabi tamoyillarni ilgari surgan. Islom dini kirib kelguniga qadar bu asar O'rta Osiyo xalqlarining dunyoqarashi va ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan. Zardushtiylik ta'limotini o'zida mujassam etgan "Avesto" mintaqada madaniyat va ma'rifatning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Unda inson salohiyatini oshirishning muhim jihatlari – ma'naviy poklik, ezgulik va adolat tamoyillari asosida jamiyat barqarorligini ta'minlash g'oyalari ilgari surilgan.

Bu ta'limotda insonning axloqiy kamoloti va to'g'ri yo'lni tanlashi muhim o'rin tutgan. Zardushtning: *"Ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni olqishlayman! Niyat, so'z va amallar ichidan men ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni tanlayman. Men barcha qabih andisha, qabih so'z va qabih amaldan yuz buraman"*[4] degan so'zlari ushbu ta'limotning asosiy tamoyillarini ochib beradi. Bu fikrlar insonni ezgulikka, pok niyat bilan yashashga, yomonlikdan voz kechishga undaydi.

"Avesto" nafaqat diniy matn sifatida, balki O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy merosining ajralmas qismi sifatida ham tarixiy ahamiyat kasb etadi.O'rta asrlarga kelib, turli jamiyatlarda ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning rivojlanishi inson salohiyatini oshirishga xizmat qilgan.

Shu davrda Yevropa madaniyatida Uyg'onish davri ilmi, san'ati va falsafasi shakllanib, inson tafakkurining yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yangi davrda esa sanoat inqilobi va ta'lim tizimining rivojlanishi natijasida insonlarning intellektual va kasbiy salohiyati oshdi. XX-asrga kelib esa ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi, inson huquqlari va ta'lim imkoniyatlarining kengayishi jamiyat taraqqiyotiga yangi imkoniyatlar yaratdi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har bir davrda milliy va ma'naviy qadriyatlar inson salohiyatini shakllantirishda asosiy o'rin tutgan. Ayniqsa, har bir xalqning buyuk mutafakkirlari,

[3] [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi" quriladigan hududga tashrifidagi nutqi https://president.uz/oz/lists/view/2208 2018 yil]
[4] [Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2016. – B. 111].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

olimlari va ma’rifatparvarlari o‘z davrida inson tafakkurining rivojlanishiga, milliy va ma’naviy qadriyatlarning mustahkamlanishiga bevosita hissa qo‘shgan.

Tarixdan ma’lumki xalifa Ma’mun davrida (813– 838) “*Bag‘dodda ilm-fan, madaniyat tez sur’atlar bilan rivojlanganligi qadimgi yunon ilmlari keng miqyosda o‘rganilib, yunon asarlari ko‘plab tarjima etildi, ayniqsa tabiiy fanlar, falsafa ilmlari sohasida katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. Ilm-fanning ta’siri ostida islomda turli oqimlar, talqinlar kuchaydi, xususan, tafakkurni tabiiy ilm va dunyoviy falsafaga yo‘llovchi mutaziliya davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarildi. Bu davr G‘arb sharqshunoslik adabiyotida “Arab Renessansi” sifatida o‘z talqinini topdi. X asrlardan boshlab xalifalikda diniy ilmlar, an’anaviy oqimlar kuchaydi. X–XII asrlarga kelib Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarning ustunlikka erishuvi, xalifalik ta’siridan qutilish bu erda ilmiy-madaniy rivojlanish, turli noan’anaviy islomiy oqimlar ismoiliya, mutaziliya, karmatlar harakatlari, tasavvuf kabilarning ham yoyilishiga imkon yaratdi. Ilmiy-madaniy yuksalish Bag‘doddan Movarounnahr, Xuroson yerlariga ko‘chdi, bu davr turli ilm, adabiyot sohasida buyuk siymolarni yetishtirdi. Bu madaniy to‘lqin Movarounnahrni butun islom dunyosida ilmiy-madaniy markaz sifatida nom qozonishiga olib keldi. Bu davrni Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri – Renessansi deb, aniqrog‘i, bu Renessansning ilk davri deb atamoq mumkin*”[5].

O‘rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari inson salohiyatini yuksaltirishda muhim o‘rin tutgan. Ular ilm-fan, falsafa, axloq va jismoniy kamolot sohalarida yuksak natijalarga erishib, keyingi avlodlarga bebaho meros qoldirgan.

O‘rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari inson salohiyatini yuksaltirishda muhim o‘rin tutgan. Ular ilm-fan, falsafa, axloq va jismoniy kamolot sohalarida yuksak natijalarga erishib, keyingi avlodlarga bebaho meros qoldirgan. Bu mutafakkirlar nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham inson tafakkurining rivojlanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan. Ularning ilmiy va falsafiy qarashlari jamiyat taraqqiyotiga yo‘naltirilgan bo‘lib, insonning bilimi, tafakkuri va ma’naviy salohiyatini oshirishga xizmat qilgan. Quyida ana shunday buyuk siymolarning inson salohiyatini oshirishga qo‘shgan hissasi yoritiladi.

VIII–IX asrlarda yashagan buyuk olim Al-Farg‘oniy astronomiya va geodeziya sohasida yuksak ilmiy asarlar yaratib, inson tafakkurini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. U o‘z asarlarida koinot tuzilishi, yer o‘lchovlari va fazoviy tafakkur muhimligini yoritgan. Bu esa insonning tafakkur doirasini kengaytirib, ilmiy tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilgan. Uning "Astronomiya asoslari" kitobi butun Yevropa ilmiy tafakkuriga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Shu davrning yana bir buyuk mutafakkiri Al-Xorazmiy matematika fanini rivojlantirishga beqiyos hissa qo‘shdi. U algebra fanining asoschilaridan biri sifatida mantiqiy tafakkur va muammolarni hal qilish ko‘nikmasini shakllantirishga katta e’tibor qaratdi. Uning "Algebra va al-Muqobala" asari inson tafakkurini rivojlantirishga, murakkab masalalarni tahlil qilish va ularni yechish qobiliyatini oshirishga xizmat qilgan. U yaratgan "algoritm" tushunchasi esa bugungi zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellektning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

XI-asrda yashagan buyuk olim Abu Rayhon Beruniy inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlarini targ‘ib qilgan olimlardan biri bo‘ldi. U o‘z asarlarida inson salohiyati doimiy

[5][Jumayeva Nilufar Ahmatovna “SHARQ ALLOMALARINING ILMIY MEROSI” “Durdona” nashriyoti Buxoro – 2022]

izlanish va tajriba orqali yuksalishi kerakligini ta'kidlagan. Geografiya, tarix, tibbiyot, mineralogiya va astronomiya bo'yicha yozgan asarlari inson tafakkurini rivojlantirishda muhim o'rin tutgan. Uning eng katta xizmatlaridan biri – tajribaga asoslangan ilmiy uslubni rivojlantirishi bo'ldi.

IX-asrda yashagan buyuk alloma Imom Buxoriy inson ma'naviy kamoloti va axloqiy tarbiyasiga katta hissa qo'shgan. U to'plagan "Al-Jome' as-Sahih" hadislar to'plami insonning axloqiy yetukligi, adolat, halollik, ilmga intilish va poklik kabi fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Inson salohiyati faqat bilim va ilm bilan emas, balki axloqiy poklik bilan ham yuksalishi kerak degan g'oyani ilgari surgan.

XI-asrning buyuk olimi Ibn Sino insonning jismoniy va aqliy salohiyatini rivojlantirish uchun tibbiyot va falsafani uyg'unlashtirgan. Uning "Tib qonunlari" asari inson salomatligi va jismoniy salohiyatini oshirishga xizmat qilgan bo'lsa, falsafiy qarashlari ilm-fan, tafakkur va ruhiy tarbiyaning inson hayotidagi o'rni haqida muhim g'oyalarni ilgari surgan. Ibn Sinoning fikricha, inson tafakkuri faqat bilim orttirish orqali emas, balki mantiqiy tahlil va falsafiy fikrlash orqali ham yuksaladi.

Ushbu mutafakkirlarning ilmiy va falsafiy qarashlari inson salohiyatining turli jihatlarini rivojlantirishga xizmat qilgan. Al-Farg'oniy va Beruniy tabiat va ilmiy tafakkurni rivojlantirgan bo'lsa, Al-Xorazmiy matematik tafakkur va mantiqiy fikrlashni, Imom Buxoriy axloqiy kamolotni, Ibn Sino esa jismoniy va aqliy salohiyatni yuksaltirishga hissa qo'shgan.

O'rta Osiyoning bu buyuk mutafakkirlari inson salohiyatining rivojlanishiga beqiyos ta'sir ko'rsatgan. Ularning ilmiy va ma'naviy merosi nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham insoniyat taraqqiyotining muhim yo'nalishlarini belgilab berdi. Bugungi kunda ham ularning ilmiy va axloqiy g'oyalari dolzarbligini yo'qotmay, inson salohiyatini yuksaltirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

O'rta asrlarda inson salohiyatining yuksalishida yirik siyosiy arboblar va mutafakkirlar katta rol o'ynagan. Ayniqsa, Amir Temur (1336–1405) shaxsiy salohiyat, davlat boshqaruvi va ilm-fanning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. U nafaqat buyuk sarkarda, balki ilm-fan, madaniyat va davlat boshqaruvi sohalarida yuksak natijalarga erishgan ma'rifatparvar hukmdor sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan.

Amir Temur har qanday ishni aql va tafakkur bilan amalga oshirishga katta ahamiyat bergan. U bu haqda shunday degan: *"Mening tajribamdan o'tmishkim, garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo'lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengash-u tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir."*[6] Bu fikr uning davlat boshqaruvidagi oqilona yondashuvini, maslahatlashish va fikr almashish orqali eng to'g'ri yo'lni tanlashga intilganini ko'rsatadi.

Amir Temur adolat, intizom va ilmga asoslangan boshqaruv tizimini yaratdi. U o'z davrining eng bilimli kishilarini jamlab, ilm-fanni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Samarqandni ilmiy va madaniy markazga aylantirish uchun olimlar, me'morlar va san'atkorlarni o'z saroyiga to'pladi. Bu esa inson salohiyatining yuksalishiga va taraqqiyotga keng yo'l ochdi.

[6] ["TEMUR TUZUKLARI" Yoshlar nashriyot uyi Toshkent –2018]

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Amir Temur ilm-fanni davlat rivojining asosiy omili deb bilgan. Uning homiyligi ostida Ko‘hakiy, G‘iyosiddin Koshiy kabi mashhur olimlar faoliyat yuritgan. Astronomiya, matematika, tibbiyot va muhandislik sohalari yuksalib, Samarqand dunyoning eng ilg‘or ilmiy markazlaridan biriga aylandi. Bu jarayon inson tafakkurining rivojlanishiga kuchli turtki berdi.

O‘tmishdan meros ilmiy va madaniy an’analar keyingi davrlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Ilm-fan va ma’rifat inson salohiyatining eng muhim omillaridan biri bo‘lib qolaverdi. Ayniqsa, jadidchilik harakati bu g‘oyani yangi sharoitda davom ettirib, jamiyat taraqqiyoti uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni taklif qildi. “*Jadidlarimiz xalqni qorong‘ulikdan olib chiqishning yagona va muhim sharti sifatida ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor qaratishgan. Ta’lim va tarbiya har sohada, har zamonda hayotiy qonuniyat uchun eng muhim, eng dolzarb masaladir. Uni tubdan o‘zgartirish, yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarishning yagona sharti – unga bir butun tizim sifatida yondashmoq va shunga uyg‘un tarzda ish olib boorish lozimdir. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.” Bu haqda buyuk mashoyixlarimizning “har bir millatning saodati, davlatning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir” degan fikri bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.”*[7]

Jadidlar inson salohiyatining yuksalishida ta’lim va ma’rifatni asosiy vosita sifatida ko‘rdilar. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, *"Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur."*[8] Ular jamiyatda yangicha tafakkurni shakllantirish, xalqni ilm va san’atga oshno qilish, ilg‘or g‘oyalarni singdirish orqali taraqqiyot sari yetaklashga intildilar. Jadidchilik harakati nafaqat savodxonlik darajasini oshirishga, balki milliy ong va ma’naviyatni yuksaltirishga ham qaratilgan edi.

O‘zbekiston hududida inson salohiyatini yuksaltirishga qadim zamonlardan boshlab alohida e’tibor qaratib kelingan. Har bir tarixiy davrda bu jarayon o‘ziga xos usullar bilan amalga oshirilgan bo‘lsa-da, uning asosiy tamoyili o‘zgarishsiz qolgan – ilm-fan, ta’lim-tarbiya, axloqiy yetuklik va jismoniy kamolot insonning komillikka erishishida asosiy omillar sifatida qaralgan.

O‘rta asrlarda buyuk mutafakkirlar ilmiy tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilgan bo‘lsa, Amir Temur va uning vorislari ilm-fan, san’at va davlat boshqaruvida inson salohiyatining muhim o‘rin tutishini namoyon etdilar. Jadidlar esa millatning ma’naviy va intellektual yuksalishini ta’lim-tarbiyani isloh qilish orqali amalga oshirishga intildilar.

Mustaqillik yillarida inson salohiyatini yuksaltirish masalasi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Milliy va ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yanada rivojlantirish hamda yosh avlod ongiga singdirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirildi. Ta’lim tizimi tubdan isloh qilinib, zamonaviy bilimlar bilan boyitildi, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, milliy o‘zlikni anglash, buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib etish borasida amalga oshirilgan ishlar jamiyatning ma’naviy yuksalishiga zamin yaratdi.

[7] [Davlatxon Rustamova Toyirjon qizi va Rayimjonova Shukrona Olimjon qizi “TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI DAVOMIDA TA’LIM-TARBIYANING AHAMIYATI” 2024-yil]
[8] [Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar” Toshkent “Ma’naviyat” 2009]

Zero, ma’naviy yetuk inson har tomonlama barkamol bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Shu bois, milliy va ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodga yetkazish va inson salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar uzluksiz davom ettirilishi zarur. Bugungi kunda ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan ilm-fan va ma’rifatga asoslangan an’analar izchil davom ettirilmoqda.

Inson salohiyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, jamiyatning har bir jabhasida bu jarayon uzluksiz amalga oshirilmoqda. Zero, *“Millatni millat qilib, uning nomini dunyoga tanitadigan asosiy omillardan biri – uning ma’naviy boyligidir. Qolaversa, ma’naviyat – insonni inson, millatni millat qiladigan, ularning qiyofasini belgilab beradigan ulkan qudratga ega”*[9]. Shu bois ta’lim, fan, innovatsiya va ma’naviy tarbiya sohalarida olib borilayotgan islohotlar nafaqat millat ravnaqining, balki butun jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida qaralmoqda.

Demak, inson salohiyatini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlar bugun ham izchil davom etmoqda va bu jarayon yurtimizning yanada yuksalishi hamda jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashi yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha” videoselektor yig‘ilishidan 2021-yil 19-yanvar https://president.uz/oz/lists/view/4089#
2. Muhammadjon Imomnazarov “MILLIY MA’NAVIYAT BOSQIChLARI” Toshkent – 2010
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi” quriladigan hududga tashrifidagi nutqi https://president.uz/oz/lists/view/2208 2018 yil
4. Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2016. – B. 111.
5. Jumayeva Nilufar Ahmatovna “SHARQ ALLOMALARINING ILMIY MEROSI” “Durdona” nashriyoti Buxoro - 2022
6. “TEMUR TUZUKLARI” Yoshlar nashriyot uyi Toshkent –2018
7.Davlatxon Rustamova Toyirjon qizi va Rayimjonova Shukrona Olimjon qizi “TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI DAVOMIDA TA’LIM-TARBIYANING AHAMIYATI” 2024-yil
8.Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar” Toshkent “Ma’naviyat” 2009
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha” videoselektor yig‘ilishidan 2021-yil 19-yanvar https://president.uz/oz/lists/view/4089#
10. Rasulova Aziza Mirbaxramovna, Amirbek Maxsudov “MA'NAVIY, MADANIY, MA'RIFIY HAYOTDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA SAN'ATNING RO‘LI” https://doi.org/10.5281/zenodo.10802466

[9] [Rasulova Aziza Mirbaxramovna, Amirbek Maxsudov “MA'NAVIY, MADANIY, MA'RIFIY HAYOTDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA SAN'ATNING RO‘LI”https://doi.org/10.5281/zenodo.10802466]

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

HASANOVA NARGIZA SAGDULLAYEVNA
K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Muzeyshunoslik kafedrasi katta o‘qituvchisi, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
nargiss1981@mail.ru
https://orcid.org/0009-0002-6340-8954

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Muhamedova Munisa Sabirovna tahriri ostida nashr etilgan

Received 4th March 2025, Accepted 11th March 2025, Online 28th March 2025

BADIIY TA’LIMDA “TA’LIM UZVIYLIGI” TAMOYILI: ZAMONAVIY YONDASHUV

Annotatsiya: Maqola badiiy ta’lim kontekstida uzluksiz ta’lim kontseptsiyasi yoritilgan bo‘lib, u jahondagi san’at sohalari amaliyoti va texnologik yutuqlarning o‘zgaruvchan talablariga moslashishdagi ahamiyatini yoritadi. Boshlang‘ich, o‘rta va oliy badiiy ta’limni o‘zida mujassam etgan uzluksiz ta’lim tizimi zarurligi ta’kidlanib, serqirra va mahoratli ijodkorlarni yetishtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy o‘qitish usullari va raqamli texnologiyalarning ta’siri tahlili va badiiy ta’lim samaradorligini oshiradigan innovatsion yondashuvlar tahlili olib borilgan. Bo‘lg‘usi ijodkorlarning ijodiy salohiyatini yoshlik davrlaridan shakllantirish va san’at sohasida uzliksiz ta’lim olish uchun qo‘llab-quvvatlovchi asos yaratish muhimligiga doir xulosalar aks etgan.

Kalit so‘zlar: badiiy ta’lim, uzluksiz ta’lim kontseptsiyasi, boshlang‘ich, o‘rta va oliy badiiy ta’lim

ПРИНЦИП «НЕПРЕРЫВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ» В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ: СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД

Аннотация: В статье рассматривается концепция непрерывного образования в контексте художественного обучения, подчеркивая его значение в адаптации к меняющимся требованиям глобальной художественной практики и технологического прогресса. Подчеркивается необходимость в непрерывной образовательной системе, которая интегрирует начальное, среднее и высшее художественное образование, уделяя особое внимание воспитанию разносторонних и квалифицированных художников. Анализируя современные методы обучения и влияние цифровых технологий, инновационные подходы, которые повышают эффективность художественного образования. А также подчёркивается важность развития творческого потенциала с раннего возраста и создания поддерживающей структуры для непрерывного обучения в области искусств.

Ключевые слова: художественное образование, концепция непрерывного образования, начальное, среднее и высшее художественное образование

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

THE PRINCIPLE OF "EDUCATIONAL ORGANIZATION" IN ARTS EDUCATION: A MODERN APPROACH

Abstract: This article explores the concept of continuous education within the context of artistic training, highlighting its significance in adapting to the evolving demands of global art practices and technological advancements. The need for a seamless educational system that integrates primary, secondary, and higher artistic education is emphasized, focusing on the cultivation of versatile and skilled artists. By analyzing modern teaching methods and the impact of digital technologies, the paper discusses innovative approaches that enhance the effectiveness of artistic education. It underscores the importance of nurturing creative potential from an early age and establishing a supportive framework for lifelong learning in the arts.

Keywords: art education, concept of continuous education, primary, secondary and higher art education.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim paradigmasi badiiy ta’lim kontekstida dolzarb bo‘lgan uzluksiz ta’lim konsepsiyasiga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda, globallashuv jarayonida kechayotgan jadal texnologik taraqqiyot - bilim va ko‘nikmalarni doimiy ravishda yangilab turish zaruriyatini namoyon etmoqda.

Ma’lumki, badiiy ta’lim sohalaridagi uzluksiz ta’lim tamoyili san’at va madaniyatning doimiy rivojlanib boruvchi jarayonligini inobatga olgan holda soha mutaxassislardan moslashuvchanlikni talab qiladi. Uzluksiz ta’lim konsepsiyasi badiiy kontekstda akademik ta’lim tizimining boshlang‘ich, o‘rta maxsus, oliy badiiy ta’lim, mahorat darslari, ko‘rgazmalarda qatnashish va boshqalarda shakllanadi.

Davr talabi sifatida qaralayotgan zamonaviy texnologiyalar barcha sohalarni qamrab olganidek, uzluksiz badiiy ta’limda ham onlayn kurslar, vebinarlar, hamkorlikdagi san’at platformalari va raqamli san’at arxivlari geografik joylashuvdan qat’iy nazar, rassomlar va talabalarga bilim olish va tajriba almashish imkonini bermoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qayd etish joizki, maqsadli, erta yoshlikdan biror-bir sohaga iqtidor aniqlanib yo‘naltirilgan ta’limgina ta’lim samarasining yuqori darajasini kafolatlaydi.

Tasviriy san’at sohasidagi akademik badiiy ta’limda mahoratli san’at ustasini tayyorlash maqsadi nafaqat uzluksiz ta’lim tizimiga rioya qilish balki, soha doirasida ham iqtidorni shakllantirishni taqozo etadi: “Ma’lumki, iqtidor biror faoliyat doirasida shug‘ullanganda o‘ziga xos shart-sharoitlar orqali qobiliyat sifatida shakllanadi. Mashg‘ulotlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarning soha ta’limiga muvofiqligi doirasida qayd etish mumkinki, musiqa yoki rangtasvir sohalarida ta’lim oluvchilar ya’ni, o‘quvchida xohish – istak mavjudligi, o‘qituvchining mahorati, mashg‘ulotlar uchun zarur bo‘lgan psixologik muhit, shunga muvofiq zaruriy shart-sharoitlar mavjud bo‘lgandagina ta’lim samarasi sifatida iqtidorning qobiliyat darajasida rivojlanishi jarayonlari muvaffaqqiyatli yakunlanadi. Insonning san’at bilan shug‘ullanish imkoniyatlari qanchalik keng va shu mashg‘ulotlar uchun shart-sharoitlar hamda ta’lim uzviyligi mavjud bo‘lgan taqdirda badiiy iqtidor shunchalik yorqin shakllanadi va talant darajasiga ko‘tariladi” [11, 85-86].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Badiiy ta’limda san’atkor mahoratini shakllantirish maqsadi uzviylik doirasida ijodkorlik xislatlarini singdirishni ham o‘z ichiga oladi. Badiiy qobiliyat badiiy faoliyat doirasisiz shakllanmaydi. Shart-sharoitlar muvofiqligi va ta’limdagi uzluksizlik doirasi yetarli darajada samarali bo‘lgan taqdirda *qobiliyat* o‘zining yuqori darajasiga ko‘tariladi va shakllangan *talant* sifatida ifodasini topadi.

Klassik tasviriy san’atning akademik badiiy ta’lim tizimi: “... va uning chizmatasvirga o‘qitish metodikasi badiiy maktablarning uzoq muddatdagi pedagogik amaliyoti mobaynida erishilgan yutuqlaridandir,” [6, 65]- deydi N.Rostovsev. Akademik badiiy ta’lim mazmun mohiyatiga ko‘ra bo‘lajak rassomni klassik tasviriy san’at an’analari doirasidagi badiiy ta’lim uslubiyati asosidagi ta’lim jarayonini yuritishga asoslangan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda faol, o‘z maqsadi sari intiluvchan, serqirra iste’dod va yuksak ma’naviy fazilatlarga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni egallagan – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Universitetlar qoshida akademik liseylar aniq va gumanitar fanlardan maqsadli, iqtidorga mos sohaga yo‘naltirilgan yoshlarni tarbiyalasa, san’at sohalarida ham maxsus, ixtisoslashtirilgan tasviriy san’at maktablarida shunday imkoniyatlar mavjud.

Mamlakatimizning ta’lim sohasida qabul qilingan me’yoriy hujjatlar, jahon andozalari darajasidagi reformalar, uzluksiz ta’lim tizimini qonun sifatida amalga oshirilishining ahamiyati beqiyos: “Uzluksiz ta’lim” termini ta’lim tezaurusiga* XX- asrning ikkinchi yarmida kirib keldi. Natijada ta’lim uzluksizligi imperativi** haqidagi nazariy talqin g‘oyalaridan aniq bo‘lgan ta’lim uzluksizligi g‘oyasi va amaliyotiga qadar bo‘lgan masofani yaqqol namoyon etdi. Uzluksiz ta’lim tushunchasi hozirgi kun olimlari tomonidan ijtimoiy, metodologik, psixologo-pedagogik bog‘liqlikda ifodalanmoqda va keng miqyosda tadqiq etilmoqda” [11, 85-86].

Shubhasiz bunday ta’lim tizimiga yangicha yondoshuv, izlanish – yangi ta’lim paradigmasini amalga oshirish ma’nosida dunyoga keldi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat rivojlangan davlatlarda bu sohadagi islohotlar, odatda, faqat ta’lim sohasida amalga oshirilgan. Ular, O‘zbekistondagidan farqli ravishda, qamrovining kengligi va chuqurligi, ilmiy asoslanganligi, islohotlarda butun jamiyatning ishtirok etishi kabi xususiyatlarga ega emasdi. Bugungi kunda ushbu jarayonga e’tibor qaratish yaxlit va tizimli bo‘lib, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishini inobatga olish zarur. Uzluksiz ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish bu yaxlit jarayonning uzviy tarkibiy qismlaridir” [10]. Ya’ni, bunda umumta’lim dasturlari va keyingi bosqich ta’lim dasturlari bilan uzviy tarzda - boshlang‘ich, kasbga yo‘naltirilgan va oliy ta’lim dasturlari bilan uyg‘unlashtirish zaruriyatiga urg‘u berilmoqda.

Dasturning asosiy mohiyati borasida qayd etish mumkinki, mamlakatimizda ta’lim sohasida uzluksiz ta’lim tizimining joriy etilishi bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilib kelindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilingandan beri o‘tgan davr mamlakatimiz ta’lim sohasi reformalari samarali bo‘lganligini tasdiqlamoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir millat madaniyati tarixida badiiy ta’lim jarayonlarini yo‘lga qo‘yilishi va shakllantirilishi murakkab voqelik hisoblanadi. Akademik badiiy ta’lim

mazmun mohiyatiga binoan bo‘lajak rassomni tasviriy san’at klassik an’analaridagi badiiy ta’lim metodi va metodologiyasiga binoan yuritiladigan faoliyatiga asoslanadi.

Boshqa san’at ta’limi sohalari qatori, akademik badiiy ta’limda ham mahoratli san’at ustasini tayyorlash maqsadi uzluksiz ta’lim tizimiga rioya qilishni taqozo etadi. Hozirgi kunda ham uning ilk bosqichi boshlang‘ich badiiy ta’limdan boshlab oliy badiiy ta’limning bakalavriat va magistratura bosqichiga qadar yetuk san’atkorni tarbiyalashdek muhim vazifani o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. E’tiborlisi shuki, realistik tasviriy san’atda avangard san’atidan farqliroq asar yaratish ijodkordan katta mahorat va tinimsiz izlanishlarni, hamda shu ma’noda soha ta’limini erta boshlashni talab etadi. Bu esa, akademik badiiy ta’limda badiiy ijod ma’nosida singdirilishi zarur bo‘lgan mahorat saboqlarini erta yoshlikdan boshlashni ya’ni uzluksiz ta’lim tizimiga mos holda, boshlang‘ich badiiy, o‘rta-maxsus tasviriy san’at va oliy (bakalavriat va magistratura) badiiy ta’lim asosida shakllangan metodologik asosga ega.

Bugungi kungacha akademik badiiy ta’limning shakllangan tajribasiga ega Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti jamoasi o‘tkazilayotgan islohotlar va tasviriy san’at ta’limi asriy an’analari darajasidagi me’yoriy hujjatlar tizimi va shaklini yaratib, keldi. Qolaversa, ta’lim tizimining kelajakdagi istiqbolini belgilab beradigan rejalarni amalga oshirishni ko‘zlab ish yuritishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bunda ayniqsa, Respublikamiz Prezidentining: “Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek tasviriy san’atiga ko‘plab yosh iste’dod egalari kirib kelmoqda, turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ijodkorlar, xususan rassom va haykaltaroshlar, xalq ustalari ijodida yangicha mazmun va shakl, jahon san’at maydonidan munosib o‘rin egallashga intilish tendensiyalari ko‘zga tashlanmoqda” [1] keng ma’noda tasviriy san’atning barcha sohalarida ham (ta’kid bizniki – N.X) – degan fikrlarini asos qilib keltirishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda Badiiy Akademiya tasarrufida bo‘lgan badiiy ta’limning barcha bosqichlarini qamrab oladigan o‘quv dargohlari ham ushbu sohaning mukammal tizimi sifatida baholanadi: “Badiiy ta’lim sohasi O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tasarrufida bo‘lib, ushbu sohaning ko‘p pog‘onali tizimi ko‘rinishiga ega. Tarkibi jihatidan 10 dan oshiq tasviriy va amaliy san’at liseylari, 3ta ixtisoslashgan tasviriy san’at maktablari, K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutini qamrab oladi. Shunisi e’tiborliki, viloyat markazlaridagi liseylar nafaqat ta’lim dargohlari, balki o‘ziga xos madaniyat o‘chog‘lari bo‘lib, ularda rassomlar va amaliy san’at ustalari bilan ijodiy uchrashuvlar o‘tkaziladi, ko‘rgazmalar tashkil etiladi” [3, 12].

Shu bilan bir qatorda yurtimiz badiiy ta’limi sohasida – O‘zbekiston Madaniyat vazirligi, Oliy ta’lim fan va innovasiyalar vazirliklari tasarruflaridagi badiiy ta’lim sohalari yo‘nalishlaridagi ayrim ixtisosliklarni qamrab oluvchi maktab, kollejlar va oliy badiiy ta’lim dargohlari ham ta’lim uzviyligining samarasi sifatida mamlakatimiz doirasida olib borilayotgan uzviylik modelining amaldagi ko‘rinishiga aylanmoqda. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti ushbu soha doirasida yetakchi tashkilot sifatida badiiy ta’limning me’yoriy hujjatlari, metodologik asoslari va ta’lim sifati bo‘yicha mas’ul etib belgilangan.

Mazkur dastur mamlakatimiz iqtisodiyoti va hayotining barcha jabhalari uchun yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning samarali integrasiyalashuvini ta’minlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma’naviy-

axloqiy tarbiyalash, shuningdek, kadrlar tayyorlash borasida o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yaxlit o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi sifatida ta’lim tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish vazifasini muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilmoqda [10]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining amalda barcha sohalar bo‘yicha uzviylikning tatbiq etilishi kadrlar tayyorlashda samarali natijalar berishini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda jamiyatning barcha sohalarida bo‘lgani kabi tasviriy san’at, xususan, badiiy ta’limda xorijiy tajribani tatbiq etishning me’yoriy asoslari shakllantirilmoqda. Shu ma’noda, “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorida “O‘qitishning zamonaviy shakl va uslublari, samarali pedagogik texnologiyalar, elektron axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim jarayonini yuqori darajada olib borilishini ta’minlash” kabi vazifalar belgilangan [2].

Darhaqiqat, O‘zbekistonda har tomonlama iqtidorli, yuqori bilimli va yuksak intellektual salohiyatga ega yosh avlodni tarbiyalashda ushbu islohotlarning ahamiyati qanchalik katta ekanligini anglash mumkin.

Xulosa va takliflar.

O‘zbekiston badiiy ta’limining salohiyati, yuksalishi, tarixiy odimlari mobaynida mahoratli ijodkorlar bilan ta’minlab kelayotgan noyob professional o‘quv dargohi shakllanib ulgurganligidan dalolat beradi. Natijalar, O‘zbekiston badiiy ta’lim konsepsiyasi to‘g‘ri tanlanganligini tasdiqlaydi.

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti mamlakatimiz bitiruvchilarini badiiy ijodga safarbar etadigan yagona oliy san’at ta’limi muassasasi bo‘lib, u o‘z navbatida A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik instituti, keyinchalik teatr arbobi Mannon Uyg‘ur nomidagi san’at instituti sifatidagi ta’lim dargohida vujudga kelgan an’analarning vorisi hisoblanadi.

O‘tgan davr mobaynida badiiy ta’limning asosiy mas’uliyati akademik badiiy ta’lim an’analarini singdirishdan iborat bo‘lgan. Hozirgi kunda zamonaviy san’at shakl ifodaliligi yo‘nalishlarida ijod qilayotgan mashhur rassomlar akademik badiiy ta’limni o‘tgan mahoratli rassomlar bo‘lib, ular ijodlaridagi shakl ifodaliligi izlanishlari ham professionalizmi bilan ajralib turishi aniqlangan.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kun badiiy ta’limining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri ijodiy – ijodkorlik (kreativlilik) qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, ijodkorlikda boshqa bir toifani “milliy qadriyat yo‘nalishlari”ni hisobga olgan holda rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy ta’limda uzluksiz ta’lim tamoyillarini joriy etish zamonaviy jamiyat murakkabliklarida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan qobiliyatli ijodkorlar avlodini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg‘or pedagogik usullar va texnologiyalarning o‘quv dasturiga integrasiyalashuvi nafaqat o‘quv tajribasini oshiribgina qolmay, balki o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida doimiy kasbiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Bugungi kun globallashuvi jarayonida, ta’lim muassasalari zamonaviy talablarga javob beruvchi moslashuvchan va dinamik o‘quv dasturlarini yaratishga ustuvor ahamiyat berishlari zarurdir. Bu majburiyat nafaqat ijodkor

rassomlarning o‘sishiga hissa qo‘shadi, balki jamiyatning madaniy tuzilishini boyitadi va ijodiy mukammallikni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-219-son qarori // “Xalq so‘zi”, 2017 yil 17 avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiing 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son-Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori. – T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.04.2020 yil., 07/20/4688/0475 – son.
3. Акилова К. Современное искусство Узбекистана в аспекте проблематики информационной культуры// Ўзбекистон замонавий санъати: анъана ва инновациялар/Респ.илмий-амалий конф.мат.тўп/Мас.муҳар.Акмал Нур.-Т., Mumtoz so`z, 2015. – 12 б.
4. Акилова К. Ўзбекистон Бадиий Академияси: таълим ва илм// Sanat. – Тошкент, 2007 - № 1.
5. Бобожонова Г. Ўзбекистон бадиий таълими тарихига бир назар// Sanat. – Тошкент, 2007 - № 1.
6. Ростовцев Н.Н. Очерки по истории методов преподавания рисунка. - М., Изобр. иск., 1983. – С. 65.
7. Республика ихтисослаштирилган санъат мактаб-интернатининг 80 йиллигига бағишланган тарихи лавҳалари/ -Т.,“Art Press”, 2009.
8. Рощин С.П. Формирование профессионально-личностных потребностей художника педагога: автореферат дисс. …доктора педагогических наук. 13.00.02/Теория и методика обучения и воспитания.(изобразительное искусство). - Москва: 2010. Орловский Гос Уни-т.
9. Ўзбекистонда замонавий бадиий таълим муаммолари: К.Беҳзод номидаги МРДИ Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент. “SAN`AT”, 2007. – 276 б.
10. www.press-service.uz/ Баркамол авлод – мамлакатимизни ривожлантиришда ҳал қилувчи куч.
11. Челышева Т.В. Непрерывное художественное образование как целостная образовательная система: Дисс … на соис. уч. степени доктора педагогических наук. - Москва: 2003. - С.85-86.
12. https://cyberleninka.ru/article/n/nepreryvnoe-hudozhestvennoe-obrazovanie-v-kontekste-idei-razvitiya-i-sotsializatsii-lichnosti-obuchayuschegosya/viewer

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Dilnavoz Fayziyevna Hamroqulova,
University of Science and Technology
Senior Lecturer, Department of 'Social Sciences'
(Tashkent, Uzbekistan)

Published under peer review:
Doctor of Science of History,
Professor Ikromitdin Ostonakulov

Received 4th March 2025, Accepted 11th March 2025, Online 31th March 2025

ISSUES OF USING MUSICAL EDUCATION IN PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL: DIALOGUE BETWEEN EUROPE AND CENTRAL ASIA

Abstract: The article, based on sources of pedagogy of the peoples of Europe and Central Asia, highlights the problems of using musical education in preparing children of preschool age for the first grade.

Keywords: child's abilities, development, musical development, object and subject of education, children's music, children's songs of the peoples of Central Asia.

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA MUSIQA TA'LIMIDAN FOYDALANISH MASALALARI: YEVROPA VA MARKAZIY OSIYO MULOQOTI

Annotatsiya: Maqolada maktab yoshigacha bolalarni birinchi sinfga tayyorlashda musiqiy ta'limdan foydalanish muammolari Yevropa va Markaziy Osiyo xalqlari pedagogikasi manbalari asosida yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Bola qobiliyati, rivojlanish, musiqiy rivojlanish, ta'lim obyekti va subyekti, tashqi sharoit, boladagi psixik jarayonlar, musiqashunos va bastakor, bolalar musiqasi, Markaziy Osiyo xalqlari bolalar ashulalari.

ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ ДЕТЕЙ К ШКОЛУ: ДИАЛОГ ЕВРОПЫ И ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация В статье на основе источников педагогики народов Европы и Средней Азии освещены проблемы использования музыкального образования при подготовке детей до школьного возраста к первому классу.

Ключевые слова: способности ребенка, развитие, музыкальное развитие, объект и предмет воспитания, внешние условия, психические процессы ребенка, музыковед и композитор, детская музыка, детские песни народов Центральной Азии.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish (Introduction)

Pedagogikada bolalarning maktabga qabul qilinishi arafasida aqliy taraqqiy etishi va maktabda ta'lim olishga ko'niktirilishi bir qator muammolarni hal qilishni taqozo qiladi. Birinchi muammo - bolaning subyektiv tajribasi bilan obyektiv va ijtimoiy (musiqiy muhit, pedagogik ta'sir vositalari) o'rtasidagi munosabatlar. Ikkinchi muammo - musiqiy faoliyat va uning turli xil turlariga qarab, musiqiylikning umumiy tuzilishi va uning alohida tarkibiy qismlarini qurish. Uchinchi muammo – bolalardagi ichki rivojlanishning individual dinamikasi va yosh darajalarini e'tiborga olish. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlari vositasida bolalarni maktabga tayyorlash juda katta imkoniyatlarga egadir. Chunki bolalar musiqiy ohanglar, ashula va raqslarga juda qiziqadi. Ularda musiqa va ritmga bo'lgan qiziqish juda kuchli bo'ladi. Musiqiy tovushlar ularni o'ziga rom etadi. Zerikish va toliqishni bartaraf etadi. Yevropa mamlakatlarida 5-7 yoshli bolalarning aqliy va estetik tarbiyasi ularning maktabga qadam qo'yish pallasida muhimligi chuqur tadqiq etilgan. Ayniqsa, bola rivojlanishining ichki jarayonlarining tabiati prof. V. Shatskoy, M. Rumer, prof. N. Aleksandrova, N. Grodzenskaya, O. Apraksina, V. Beloborodova, E. Gembitskaya kabi musiqachi-pedagoglar tadqiqotlarida keng o'rganilgan. Ularning tadqiqotlari maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va o'qitishda umumiy pozitsiyalarni ishlab chiqishga yordam ko'rsatdi. Eksperimental tadqiqotlar uslubiy adabiyotlar, musiqiy repertuar to'plamlari, eksperimental musiqa asboblari va o'yinchoqlar yaratishda nazariy manba bo'lib xizmat qildi.

Bolaning musiqiy rivojlanish jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tarbiya va tarbiya ta'sirida musiqiy rivojlanish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Bir xil yoshdagi bolalarning bir xil mazmunni o'zlashtirishi turli darajada bo'ladi. Yangi qobiliyatlar, mayllar, qiziqishlar paydo bo'lishining turli sabablari bor (masalan, turli xil ijtimoiy tajribalar, tabiiy moyilliklarning turli xil kombinatsiyasining mavjudligi). Yangi narsa eskiga oddiygina mexanik ravishda bog'lanmaydi, balki u berilgan mavzuning xususiyatlariga ko'ra o'zgaradi.[1]

To'plangan tajriba va qobiliyatlarning oldingi shakllangan rivojlanish darajasi uning musiqiy rivojlanish sur'atini oshiradi deb taxmin qilinadi. Musiqiy rivojlanish - bu bolaning musiqiy tajribalarining ichki holati va bola hayotining tashqi sharoitlar tufayli yuzaga kelgan psixik jarayonlardagi sifat o'zgarishlardir. Mashhur musiqashunos va bastakor B.Asafyev buni bolalar musiqa faoliyatining eng samarali turlaridan biri deb hisoblagan. Uningcha, avvalo, ijodkorlikni rag'batlantirish kerak. Muallif qo'shiq improvizatsiyasini rivojlantirishning ba'zi o'ziga xos usullarini ta'kidlaydi. Uning ishida bolalarning qo'shiq ijodi va undan musiqa ta'limi usuli sifatida foydalangan o'qituvchining harakatlari tahlil qilingan. Olimning ta'kidlashicha musiqiy ta'lim bolalar bog'chalari amaliyotida kamroq aks etadi - bu ish maktab uchun mo'ljallanganligi bilan bog'liq edi. [2]

Asosiy tahlil va natijalar (Results and analyses)

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Maktabgacha ta’limda musiqiylik tushunchasi murakkab va sinkretikdir. Rossiyalik olim B. Teplovning “Musiqa qobiliyatlari psixologiyasi” (1947 yili yozilgan) doktorlik dissertatsiyasida buni chuqur tahlil qilib bergan. [3] A.Keneman musiqiy o‘yinni tarbiya vositasi sifatida tahlil qiladi. U ritmik harakatlar jarayonida rivojlangan ritm tuyg‘usi shakllanishini isbotlab bergan. A.Voinova qo‘shiq intonatsiyalarining sofligi bolalarning musiqiy idrokini rivojlantiradi, deydi.[4]

Ushbu tadqiqotlar musiqaning o‘rganilayotgan tarkibiy qismining tabiatini batafsil tavsiflash, uning rivojlanish va tarbiyaviy funksiyasini ko‘rsatib beradi. A. Usova va uning hamkasblari tomonidan batafsil ishlab chiqilgan o‘rganish nazariyasi xususiy uslublar uchun asos bo‘ldi. Musiqa ta’limi sohasidagi bu tadqiqotlarning kuchi ularning o‘ziga xosligi va puxtaligidadir, bu ma’lum darajada o‘rganilayotgan hodisalar chegaralarining torayishi bilan bog‘liqdir.

Bolalarbop musiqiy amaliyotning u yoki bu turini tanlashning mantiqiy asosi uning muayyan musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish, shuningdek, bolalarning harakat qilish usullarini shakllantirish uchun foydalidir. Musiqa amaliyoti mazmunini tanlashda mahalliy va xorijiy o‘qituvchilar bolalarga berishni maqsadga muvofiq deb biladigan umumiy xususiyatlar mavjud. Ushbu pedagogik intilishlarning obyektivligini baholash bolalar amaliyoti umuminsoniy musiqa tajribasidan ajralmaganligini bildiradi.

Musiqa faoliyatining qator turlari vujudga keldi va shakllandi. Avvalo, bu zamondoshlarning fikrlari va umidlarini aks ettiruvchi ijodkorlik, keyin esa uni amalga oshirish edi. U turli sohalarda (vokal, instrumental, xoreografik) rivojlangan. Ijodiy va ijro faoliyati ularni baholash va tahlil qilishni talab qiladi, bu allaqachon musiqashunoslik fanining predmeti hisoblanadi. Musiqa odamlar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Bundan foydalanish uchun uni idrok etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Musiqa yaratuvchi xalq, bastakorlar, uni takrorlovchi ijrochilar, uni baholovchi va o‘rganuvchi musiqashunoslardan tashqari tinglovchilar doirasi bor. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy faoliyatni tashkil qilishda yuqorida aytilganlarning barchasi hisobga olinishi kerak.

Uning kelib chiqishini aniqlash va eng oddiy va original shakllarini topish muhimdir. Albatta, har xil milliy farqlarga ega bo‘lgan har bir jamiyatda bu faoliyat o‘zining mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishi bilan farqlanadi. Bolalarning musiqiy amaliyotiga umumiy milliy madaniyat va har bir mamlakatning pedagogik tizimlarining an’analari ta’sir qiladi.

N.A.Vetluginaning ta’kidlashiga ko‘ra, bolalar qo‘shiqchilik metodologiyasi sohasida bolaning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishdagi rolini aniqlaydigan tadqiqotlar talaygina. Chunonchi, S. Atanasova (Bolgariya) maktabgacha yoshdagi bolalarning ovozini o‘rganib, erta qo‘shiq aytishni o‘rganish bilan muayyan o‘zgarishlarga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. Yana bir tadqiqotchi K. Forray (Vengriya) hamrohsiz qo‘shiq aytishni (yakkaxon) o‘rgatishning puxta tizimini ishlab chiqish, bolalarga tovush balandligi va ritmik munosabatlarni tushunishga yordam

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

beradigan usullardan foydalanish orqali musiqiy eshitishni rivojlantirishda juda yaxshi natijalarga erishiladi, deydi. J. Dalkroze (Shveysariya) tomonidan ishlab chiqilgan original ritmik tizim ham mutaxassislarga yaxshi ma'lum. U maktabgacha ta'lim muassasasi profiliga qarab qo'shiqlarni xalq o'yinlariga mos qilib tanlash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirdi. [5]

Shuningdek, avstriyalik bastakor K. Orff bolalar uchun musiqiy ta'limning o'ziga xos tizimini ishlab chiqdi. U o'zining mashhur "Schulverke" to'plamiga turli mamlakatlarning ko'plab xalq qo'shiqlarini kiritdi, so'z va harakatlarni, qo'shiq va orkestrni uyg'unlashtirgan sintetik shakllardan foydalandi, musiqa asboblarini takomillashtirdi.

Yana bir mashhur bastakor Z.Kodaly (Vengriya) o'z shogirdlari va izdoshlari bilan nota yozuvini o'rgatish tizimini ishlab chiqdi, unga ko'ra besh yoshdan boshlab uning eng oddiy ma'lumotlari o'zlashtiriladi, eshitish diktantlari o'tkaziladi, bu esa eshitishning jadal rivojlanishiga xizmat qiladi. Musiqiy savodxonlik elementlarini amaliyotga joriy etish 5-7 yoshli bolalarning mashg'ulotlarga tayyorligini va ularning tovush balandligidagi eshitishni rivojlantirishda ayniqsa foydali ekanligini ko'rsatdi. Ijodkorlikning eng oddiy shakllari musiqiy tajribaga faol estetik munosabatda bo'lishdan boshlanadi. [6]

Musiqiy faoliyatning har bir turi o'zining aniq bir maqsadini bajaradi va shuning uchun ularning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qo'llaniladi. Bolaning har tomonlama musiqiy rivojlanishi muhim ahamiyatga ega, chunki bu barcha musiqiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish davri sanaladi.Umuman olganda, musiqiy faoliyatning tuzilishi quyidagilardan iborat: musiqa tinglash, bolalarning musiqiy ijrosi (qo'shiq aytish, musiqiy-ritmik harakat, cholg'u asboblarida chalish), musiqiy-kognitiv faoliyat (musiqiy savodxonlikning boshlang'ich elementlari), mahsuldor va ijrochilik ijodiyoti. [7]

Musiqa muallimi uchun musiqa hodisalaridagi birinchi yo'nalish – "tinglash" usuli butun musiqiy-eshitish madaniyati asosida yotadi va oddiy eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish, musiqiy tasvirlarni idrok etish va musiqaga quloqni ko'niktirish uchun zarur shartdir. Musiqiy hodisalarni ularning qarama-qarshi va o'xshash munosabatlarini taqqoslash orqali farqlash, masalan, tovushning eng oddiy individual xususiyatlarini (balandroq - sokinroq, balandroq - pastroq va boshqalar), turli konstruksiyalarni, kontrastli musiqiy tasvirlarni solishtirish zarur. Musiqa g'oyaviy-emotsional hodisadir. Musiqa doimo hayajonga solishi, bolani quvontirishi va o'zaro his-tuyg'ularni uyg'otadi. Asta-sekin asarlarni taqqoslash ko'nikmasi paydo bo'ladi, eng sevimlilari tanlanadi. Shunday qilib bolada sadolarni baholash qobiliyati va musiqiy didning birinchi ko'rinishlari paydo bo'ladi. [8]

Musiqiy hodisalarga ijodiy munosabat, musiqani idrok etish jarayoni, ijodiy tasavvur, qo'shiq va raqsning eng oddiy shakllari kiradi. Bolalar mustaqil ravishda, turli vaziyatlarda, o'z xohishi bilan bilgan hamma narsani qo'llashga intiladi. Ushbu umumlashtirilgan usullar har

qanday musiqiy faoliyat - ijro etish va tinglash uchun zarurdir. Ammo ulardan birinchisi uchun zarur bo‘lgan usullar mavjud.

Ijroda musiqaning adekvat takrorlanishi: kuylashda ohang va ritmning aniq takrorlanishi; harakatda, individual ritmik naqshlarni aniq takrorlash, metrik pulsatsiyadan tortib, musiqadagi o‘xshash o‘zgarishlarga muvofiq harakatning tabiati, yo‘nalishi, shartli o‘zgarishlari muhimdir.

Bolalar o‘z his-tuyg‘ularini va musiqani tushunishlarini ifoda etadigan qo‘shiqlar, raqslarlarni ijro etishning ekspressiv usullarini mustaqil izlash solohiyatiga ega bo‘lishi lozim. Shunday qilib, ritm tuyg‘usi idrok etish va ijro etish, baholash va ijodkorlikda, albatta, maktabgacha yoshdagi imkoniyatlar doirasida namoyon bo‘ladi. Jahondagi turli xalqlarda harakat paytidagi ritm tuyg‘usining individual ko‘rinishlari, shuningdek, kuylash paytidagi ohangni eshitishning ko‘rinishi ko‘plab umumiy xususiyatlarga ega. Buni Markaziy Osiyo xalqlari bolalar ashula va musiqalari misolida ham ko‘rish mumkin.

Buyuk ipak yo‘lida joylashgan xalqlar (yapon, koreys, xitoy, mo‘g‘ul, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, o‘zbek, tojik, qoraqalpoq, turkman va boshqalar) bolalar musiqalari va ijrolari o‘ziga xoslikka egaligidan qat’iy nazar maqsad va muddaosiga ko‘ra bir biriga yaqindir. Kattalar tomonidan ijro etilgan bolalar musiqasi va ashulalari bolalarni allalash, ovutish, erkalash, sevintirish maqsadlariga xizmat qiladi. Shuningdek, kattalarning bolalar ijro etishi uchun yaratgan ijod mahsullarida bolalarning ijrosiga rag‘bat berishi, o‘rgatishi va ijrosidan qoniqish hosil qilishi hayot davomiyligini his etish tuyg‘usi bilan chambarchas bog‘liqdir. Markaziy Osiyoning Sharqiy Turkiston va Qozog‘iston hududida istiqomat qiluvchi uyg‘ur xalq bolalar qo‘shiqchiligi o‘zbek va tojik bolalar qo‘shiqchiligidan tubdan farq qilmaydi. [9]

Ijtimoiy tarmoqlarda namoyish qilinayotgan uyg‘ur bolalar ashulalari mavzu jihatdan uzbek bolalar qo‘shiqlariga yaqindir. Masalan, Damir Abdullayev so‘zi bilan Ixtiyor Abdullayev musiqasi bilan ijro etilgan “Uyg‘ur qiziman” ashulasi murg‘ak bolakay tilidan yozilgan bo‘lib, unda beg‘ubor qizaloqning o‘z ota-onasiga bo‘lgan mehr-muhabbati tarannum etiladi. Qo‘shiq mazmunida milliy tarbiya, vatanga muhabbat, ona-onaga sadoqat va minnatdorchilik motivlari barq urib turadi. O‘zbekistonda bo‘lganidek kattalar tomonidan ijro etilgan dilrabo ashulani taqlidan bolalar tomonidan ijro etishishi ko‘p kuzatiladi.

Bu o‘rinda ashula mavzusi va mazmuni ikkinchi planda bo‘lib, ohang birinchi o‘rinda turadi. Bola uchun ashula so‘zining mazmuni emas, musiqaning dilga yaqinligi muhim bo‘lgan. Masalan, “Guloyim” ashulasi so‘zi sevgi mavzusida, ammo ohang raqs uchun juda munosib bo‘lgani uchun kattayu yosh sevib kuylaydi va rohatlanib raqsga tushadi.

Huddi shunday holatni uyg‘ur xalq qo‘shig‘i “Mashrap yo‘q yerda” ijrosida ham ko‘rish mumkin. Bu ashulaning turli yoshdagi ayollar ijro etgan. Ammo diqqat qilinsa, bu ashula bolalar folklori repertuariga kiritilganiga guvoh bo‘lamiz. Bu ashula bolalar boqchasi tarbiyalanuvchisi tomonidan kuylangan. Ashula xalq folklorining o‘lmas namunasi sifatida uyg‘ur xalqining musiqa

xazinasidan mustahkam o‘rin olgan. Uni 7 yoshdan 70 yoshgacha barcha sevaib tinglaydi va ijro etadi. Yana bir uyg‘ur bolalar ashulasi “Maktabga boraman” deb ataladi. Unga munosib klip ham ishlangan. Ota-ona bolasini maktabga kuzatar ekan, hayotdan mamnun bolakay “Men maktabga boraman, dadamning totlig‘iman, onamninshg shodligiman, jahonning totlig‘iman” deya kuylaydi.

O‘zbekistonda bo‘lganidek, uyg‘ur bolalar ashulachiligida maqom ijrochiligi ham mavjud. Ularda maqom “muqam” deb talaffuz etiladi. Uyg‘ur 12 muqamidan bolalarning ovoz imkoniyatlariga moslari tanlab olinib, ijro etishga ijozat berilgan. Eng muhimi yosh iste’dodlar milliy musiqa asboblari tanbur, dutor, doira, nay sozlarini mahorat bilan chalib, barchaning olqishiga sazovor bo‘lgani juda ham ijobiy hodisadir. [10]

Qirg‘iz bolalar ashulalari (irdari) folklor motivlariga uyg‘un ijro etiladi. Shu bilan birga maktabgacha yoshdagi bolalarga baynalmilal mazmundagi ashulalarni kuylashga o‘rgatiladi. “Oq shu’la” bolalar xori “Solnichniy krug, nebo vokrug” ashulasini qirg‘iz, rus va ingliz tilida ijro etgan. Ashulaga ishlangan klip raqslardan tashkil topgan bo‘lib, bolalarni inoqlikka o‘rgatishni xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi qozoq bolalar ashulalari orasida hayvonlarni tanishtirishga bag‘ishlangan ashulalar sikli yaratilgan. Bu ham musiqiy ta’limga kreativ yo‘ndashuv mahsulidir.Turkman bolalar ashulalari orasida ota-onalarni qadrlash, tinchlik va do‘stlikni ulug‘lash yetakchilik qiladi. [11]

Uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, o‘zbek, tojik, qoraqalpoq, turkman, rus bolalar ashulalari orasidan ozarbayjon bolalar qo‘shig‘i “Jo‘jalarim” mustahkam o‘rin olganligini ko‘rish mumkin. Ushbu mehribonlik, mayinlik va quvnoqlik bilan ijro etilgan ashula Yevropa tillarida ham ijro etilib kelinayotgani e’tirofga loyiqdir.

Xulosalar (Conclusions)

Xulosa qilib aytganda, jahon xalqlari pedagogikasida bolalarni maktabga tayyorlashda musiqa va ashuladan foydalanish bo‘yicha katta tajriba to‘plangan. Yer yuzidagi barcha xalqlarda bolalarga musiqiy ta’lim berish global hodisa bo‘lib, hech bir xalq boshqasidan o‘rganmay turib, rivojlana olmaydi. Chunki, bolalar hamma yerda ham bola, barcha xalqlar bola tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarga bog‘lanib ish ko‘radi. Biologik-anotomik jihatdan bir bo‘lgan insoniyat bola tarbiyasida, yangi avlodni jamiyatga qo‘shish muammolarini birgalikda hal qilishda yakdildir. Bu masalada hech qanday til to‘sig‘iga duch kelmay jahon bo‘ylab tarqalaveradigan musiqa eng buyuk va yangi avlodni estetik tarbiyalashda eng qudratli madaniy boylik sifatida yashayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

[1]. Развытие музыкальных способностей дошкольника М. 2000.

[2]. Развитие слуха и голоса у ребенка 5-7 лет в процессе обучения пению. Сб. «Развытие детского голоса», М., 1999.

[3]. Развитие восприятия звуковысотных и ритмических отношений в процессе обучения дошкольников пению. М., 2003.
[4]. Сенсорные основы музыкального слуха и пути его формирования. Тезисы Второй научной конференции по вопросам развития музыкального слуха и певческого голоса. М. 1998.
[5]. Ветлугина Н.А. Музыкальное развытие ребенка. М., «Просвещение». 2001. 415 с.
[6]. Методы обучения пению детей дошкольного возраста. М., вып. 69, 1965.
[7]. Музыкальное воспитание как одно из средств эстетического развития ребенка. М., Учпедгиз, 2001.
[8]. Содержание музыкального воспитания и обучения на занятиях. М., 1962.
[9]. https://dzen.ru.
[10]. https://www.youtube.com
[11]. https://www.youtube.com

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mamarajab Xo‘jamov
University of Science and Technology
Associate Professor, Department of Social Sciences

Published under peer review:
Doctor of Science of History,
Professor Ikromitdin Ostonakulov

Received 4th March 2025, Accepted 11th March 2025, Online 31th March 2025

HOLY PLACES OF URTA-CHIRCHIK DISTRICT AS OBJECTS OF LOCAL LORE

Abstract: The article studies the history of shrines and holy places located in Urta-Chirchik district, which occupies a unique place in Tashkent region, from the point of view of local lore.

Key words: Tashkent region, places of pilgrimage, architectural monuments, healing springs, recreational areas, Urta-Chirchik, Ahangaran valley, scientific heritage, pilgrimage tourism, methodology of teaching local lore.

O‘RTA CHIRCHIQ TUMANI TABARRUK MANZILLARI O‘LKASHUNOSLIK OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya: Maqolada Toshkent viloyatida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan O‘rta Chirchiq tumanida joylashgan ziyoratgoh va qadamjolar tarixi o‘lkashunoslik fani nuqtai nazaridan o‘rganilgan.

Tayanch so‘zlar: Toshkent viloyati, ziyoratgoh, me’moriy obidalar, shifobaxsh suvli buloqlar, dam olishga moslangan hududlar, O‘rta Chirchiq, Ohangaron vodiysi, ilmiy meros, ziyorat turizmi, o‘lkashunoslik o‘qitish metodikasi.

СВЯТЫЕ МЕСТА УРТА-ЧИРЧИКСКОГО РАЙОНА КАК ОБЪЕКТЫ КРАЕВЕДЕНИЯ

Аннотация: В статье рассматривается история святынь и святых мест, расположенных в Урта-Чирчикском районе, занимающем уникальное место в Ташкентской области, с точки зрения краеведения.

Ключевые слова: Ташкентская область, места паломничества, памятники архитектуры, целебные источники, рекреационные зоны, Урта-Чирчик, Ахангаранская долина, научное наследие, паломнический туризм, методика преподавания краеведения.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish (Introduction)

O‘lkashunoslikdan o‘quvchilarga kerakli va ahamiyatli ma’lumotlarni berishda joy nomlari tarixi, diqqatga loyiq tarixiy obyektlarning paydo bo‘lishi masalalariga doir manbalar bilan tanishtirish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, ma’lum bir hudud bilan tanishtirish jarayonida tarixiy me’moriy obidalar tarixiga murojat qilish samarali natijalar beradi. Biz bu maqolada O‘zbekiston o‘lkashunosligi uchun muhim obyekt bo‘lgan Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani muqaddas manzillari to‘g‘risida ma’lumot beramiz. Bu tuman Farg‘ona vodiysidan poytaxtga keluvchi yoki respublikamizning janubiy, g‘arbiy viloyatlaridan poytaxtga sayohat qiluvchi turistlar uchun qiziqarli hudud sanaladi. Har bir kishi yo‘l bosish jarayonida bu tumanning tabiati, dala-bog‘lari, turli inshoatlariga nazar tashlar ekan, uni yaqindan bilib olish harakatida bo‘ladi. O‘rta Chirchiq tumani Chirchiq daryosining shimoliy va janubiy qirg‘og‘ida joylashgan tuman bo‘lib, qadimiy yashash manzillarining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Tuman tarixiga tegishli tarixiy ma’lumotlar Toshkent viloyati tarixi bo‘yicha yaratilgan M.Masson, V.Bartold, Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiy, V.Vyatkin, A.Divayev, A.Dobrosmislov, H.Ziyayev, E.Rtveladze, Y.Buryakov, A.Shevyakov, SH.Yusupov, A.Saidov, Z.Islomov, I.Yormatov, A.Mo‘minov, N.Muhamedov, M.Jo‘rayev. O‘.Sultonov kabi olimlar asarlaridan o‘rin olgan.

Ma’lumki, Toshkent viloyati hududida ziyoratgoh va qadamjolar, me’moriy obidalar, shifobaxsh suvli buloqlar, dam olishga moslangan hududlar, ko‘ngilochar istirohat maskanlari, muqaddas tabiiy manzilgohlar, tog‘larda barpo etilgan sof havoli shifoxonalar juda ko‘p. Ular to‘g‘risida yaxlit kitoblar yaratilgan [1]

Ammo tumanlarga bag‘ishlangan alohida kitob va risolalar juda kam. Albatta viloyatga bag‘ishlangan kitobda tumanlarga kam joy ajratiladi, ko‘p hollarda umumiy ma’lumotlar bilan chegaralanish kuzatiladi. Holbuki, birgina Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq, Bekobod, Bo‘ka, Oqqo‘rg‘on, Zangi ota tumanlari ijtimoiy-madaniy tarixi haqida yirik risolalar tayyorlash mumkin. Masalan, akademik A.Saidov Zangiota ziyoratgoh majmui tarixiga oid “Hazrat Zangi Ota” nomli fundamental kitob yaratib, o‘zigacha bo‘lgan barcha manbalarni tasnif etishga, yangilangan majmua mohiyatini bor bo‘y-basti bilan ochib berishga muyassar bo‘ldi. Professor I.Yormatov Ohangaron vodiysi aholisining ijtimoiy tarixi, qadimiy ziyoratgoh va qadamjolarni o‘rganib qator risola va monografiya bitdi.[2] Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamatchilik jamg‘armasi Toshkent viloyati muassasasi boshqarmasi boshlig‘i Zarifa Eshmirzayeva tomonidan viloyatdagi mavjud ziyoratgoh va qadamjolar aniqlanib, xaritasi ishlab chiqildi va bir necha risola va kitoblar o‘zbek va o‘zga tillarda chop qilindi. [3] Viloyat va shahar ziyoratgohlari to‘g‘risida jurnalistlar tomonidan vaqtli matbuotda e’lon qilinayotgan maqolalar ham diqqatga loyiqdir. Yaratilgan tadqiqotlar ushbu hudud ziyoratgoh va qadamjolari to‘g‘risida yana ko‘pgina kitoblar yozish lozimligini taqozo qilmoqda.

Asosiy tahlil va natijalar (Results and analyses)

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

O‘rta Chirchiq tumani hududining ko‘p qismi Chirchiq daryosi bilan Toshkent kanali oralig‘ida joylashgan bo‘lib, unda Ahtam sahoba, Bo‘g‘oq ota, Qoratosh avliyo, Ulkan To‘ytepa, Usmon ota, Chordona singari ziyoratgohlar joylashgan. To‘ytepalik iqtidorli jurnalist Bahriniso Sultonali qizi tumandagi ulug‘lar hayoti, madaniy-ma’naviy merosi haqida turkum maqolalar bitgan. Tumandagi ziyoratgohlar to‘g‘risida so‘z yuritganda uning maqolalaridan ham o‘rni bilan foydalanish mumkin. Zero, har bir hududning mahalliy ijodkori o‘z otamakonini bizdan ko‘ra yaxshi biladi va bizdan ko‘ra ortiqroq sevadi. Qalamkash shunday yozadi: “Xalqimizning boy madaniy-ma’naviy merosini asrab-avaylash, har bir qadamjo, obida va ziyoratgohni talab darajasida saqlash barcha fuqaroning muqaddas burchi. Ulardan milliy an’analarimiz va urf-odatlarimizning davomiyligi sifatida foydalanish, yoshlar ongida mustaqillik, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish ma’naviyat va ma’rifat ahlining muqaddas burchidir”.[4].

Tumandagi tabarruk qadamjolardan biri bo‘lgan Ahtam Sahoba «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg‘armasi tasarrufiga o‘tkazilgan ziyoratgohlardan biri. Ahtam Sahoba maqbarasi chiroyli ta’mirdan chiqarilgan, yonidagi ko‘m-ko‘k shifobaxsh buloq esa qanchadan-qancha bemorlarning dardiga malham bo‘lgan. Aytishlaricha, Ahtam Sahoba bulog‘ining suvi har xil yara-chaqa, toshmalarni tuzatadi. Mahalliy aholining so‘ziga ko‘ra, uzoq yillar farzand ko‘ra olmagan ayollarning farzand so‘rab qilgan iltijolari shu joyda ijobat bo‘ladi. Ahtam Sahoba ziyoratgohidagi buloqlarda katta-kichik baliqlar suzib yuradi va ular bir zumda buloqlar ostidagi kamar-g‘orlarda g‘oyib bo‘lishadi. Kattagina hajmdagi bitta baliqni ushlab olib, uning qulog‘iga halqa taqib qo‘yib yuborishgan. Oradan bir qancha vaqt o‘tgandan keyin haligi baliqni Ko‘kbuloqota bulog‘ida suzib yurganini ko‘rishgan. Demak, buloqlar yer osti arig‘i orqali bir-biri bilan tutashib ketgan, degan gaplarda jon bor.

Ko‘kbuloq suvi azaldan bolalardagi ko‘kyo‘talga, CHo‘g‘buloq suvi quloq og‘rig‘iga, Ko‘tirbuloq esa teridagi har xil yara-chaqalarga shifo bo‘lib kelgan. Yaratganning mo‘jizasini qarangki, bu buloqlar suvi qahraton qishda ham muzlamaydi. Hazrati Ali kiblaga qarab yurib kelganida, uning nazari tushgan yerlarning hammasi tabarruk qadamjoga aylangan, deb rivoyat qilinadi. Jumladan, yuqorida nomlari tilga olingan buloqlar, Ulkantepa, Chordara degan tepa shular jumlasidandir.

“O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari” kitobida Adham sahoba ziyoratgohi tarixi to‘g‘risida shunday yoziladi: “El orasida shunday rivoyat yuradi: Ahtam Sahoba Hazrati Alining yaqin do‘sti ekan. Islom dinini targ‘ib qilish uchun shu yerlarga kelgan Ahtam Sahoba kiyik ovlash uchun yo‘lga chiqqanda qarshisidan bir to‘da qo‘shin bostirib kelayotgan bo‘lgan. Ular Shom yurtining qo‘shinlari bo‘lib, pahlavon Hazrat Alining boshini olish niyatida kelayotgan ekan. Ahtam Sahoba ularning shum niyatlarini payqab do‘sti uchun o‘zi jangga kiradi. O‘sha Hazrat Ali men bo‘laman, deb ko‘p jangchini yengadi. Ammo qo‘shinning qora tanli Makeyt degan polvoni Ahtam Sahobaning boshini tanidan judo qiladi. G‘alaba qilgan qo‘shin o‘zini g‘olib hisoblab, tepalikda

tantana, to‘y qiladi (To‘ytepaning nomini ham ba’zan shu rivoyat bilan bog‘laydilar). Bu tantananing sababini surishtirgan Hazrati Ali do‘stining qotilini topadi va qotil so‘rashmoq uchun qo‘lini cho‘zganida yelkalari bilan birga tanasidan sug‘urib tashlaydi. Hazrati Ali dushman qo‘shinini tor-mor qilib, do‘stining jasadini shu qabristonga dafn qiladi. Shundan Ahtam Sahoba dafn etilgan joy tabarruk qadamjoga aylanib ketgan. Shifobaxsh buloqlar ham ana shu qutlug‘ tashrif sharofatidandir deyiladi.

Mazkur qadamjoni ziyorat qilgani Rossiyaning Qozon shahridan ham ziyoratchilar kelib turishadi. Chunki ularning bobolari, ota-onalari XX asrda To‘ytepada istiqomat qilib, shu yerga dafn etilgan. Shifobaxsh buloqlar suvi esa Qozog‘istondan keluvchi bemorlarning ham dardiga darmon bo‘lganligini ko‘plar so‘zlashadi. Bugungi kunda To‘ytepa yaqinida Nurafshon shahri barpo etilib, viloyat markazi maqomini olib, ko‘rkamlashib, tobora kengayib bormoqda.

Tumandagi yirik ziyoratgohlardan biri Shoh Malik ziyoratgohidir. Ayni kunlarda bu joy Shodmalik ota deb yuritiladi. U Shodmalik qishlog‘i kunbotarida Olmaliq–Toshkent avtomagistrali bo‘yidagi qabriston hududida joylashgan bo‘lib, Bolg‘oli MFY o‘ramiga qaradi. Ziyoratgoh To‘ytepa shahridan 15 km sharqda joylashgan. Bu ziyoratgoh g‘aroyib hodisalarga boy manzil bo‘lib, qirlik ostida barpo etilgan. Maydoni 350 kvadrat metrni tashkil etadi. Qirning janubi-sharq tarafida go‘rxonaga kirish yo‘li bor. U XI asrga tegishli deb qayd etilgan. Go‘rxona 4 hujradan iborat. 1.Tushish yo‘lagi. Kengligi 2,9x2,8 metr bo‘lib, balxiy usulda ishlangan. Balandligi 2 metr. Yo‘laklar devori pishgan g‘isht va toshlardan loysuvoq bilan mustahkamlangan. Alebastr bilan suvoq ham qilingan. 2. Tor yo‘lak bo‘lib, 4,68 va 1,35 metr. Oyoq osti, shifti va yon devorlari pishgan g‘ishtdan qurilgan bo‘lib, har bir g‘ishtning hajmi 28x14x4 sm. Yarimsilindr shaklida qurilgan. 3) Eng katta hujra 7,53x2,34 metr bo‘lib, yo‘lakka nisbatan shimoli-sharqqa qaratib qurilgan. Go‘rxona yo‘lakka nisbatan keng. Uning o‘rtasidan g‘arb tomoniga yana bir hujra qurilgan bo‘lib, uni 4-hujra deyish mumkin. Undan chillaxona sifatida foydalanilgan deyishadi. Hujralarning oyoq ostiga zahdan saqlanish maqsadida bo‘yra, bo‘yra ustiga gilam va poloslar to‘shalgan. Hujrada 6 ta oyoqli yog‘och tobut bo‘lib, ustiga baxmal mato yopilgan, ularda inson suyaklari bor. [5]

1938 yili bu yerda bo‘lgan V.Shishkin shimoli-g‘arbida g‘ishtin sag‘ana mavjudligini qayd etgan. Mazkur sag‘ana Shoabdumalik otaga tegishli bo‘lgan deyishadi. Mozor tarixi va uning saqlanishi haqida ko‘plab rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. V.Shishkin dastlab bu qabriston g‘ayrimusulmoniy bo‘lgan degan fikrni ilgari suradi. Holbuki, shu yerda yashovchi kishilar bosh qabr Shoh Abdumalik otaga tegishli deb qat’iy aytadilar. Shoh Abdumalik ota sufiy Zangi Otaning bobosi bo‘lgan. M.Massonga ko‘ra Shoh Abdumalik otaning padari Mansur ota bo‘lib, Ahmad Yassaviyning birinchi xalifa murididir. Parkentning Zarkentida yashovchi kishilar Shodmonlik ota va Usmon ota hamda Qoratosh buva aka-ukalar bo‘lishgan deyishadi. [6]

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Tumandagi yana bir joy – Qoratosh buva ziyoratgohi Ohangaron daryosi bo‘yida O‘rtachirchiq tumanidagi Uyshun qishlog‘ida joylashgan. Usmon ota qabrining manzili aniq emas. Ammo Ohangaron havzasidagi Gajigenda (Xojagon) xojalar istiqomat qiladiki, ular o‘zlarini usmoniylar deyishadi. «Rashahat»da aytilishicha, Zangi otaning bobosi Abdumalik xoja deb ko‘rsatilgan.

Yahyo G‘ulomovga shu yerlik Mingbayev familiyali shayx XX asr 30-yillarida bu yerning sehrli xususiyatlari haqida rivoyatlar aytib bergan. O‘zi esa tushida Shodmalik otani ko‘rganligini bayon qilgan. Avliyo unga 50 yoshli, to‘ladan kelgan, ko‘rkam, qorindor, uzun oq ko‘ylakli, belida tugunsiz qizil belbog‘i bor kishi qiyofasida namoyon bo‘lgan. Shodmalik otaning saqoli qora va qalin, sochi esa ayollarning sochi kabi uzun bo‘lib beligacha tushib turgan. Uning yonida yana olti yigit ham bor bo‘lgan. Shodmalik ota olti kishidan biriga o‘zbekchalab “Qani, Qur’ondan biror sura o‘qi” degan, U esa shayxga Qur’on o‘qishni buyurgan. Shayx tilovat qilganda Shodmalik ota “ma’qul” degan.

Shayxning tushiga avliyo kirganligi haqidagi gaplar el orasida tarqalib ketgandan so‘ng mahalliy hukumat ziyoratchilarning bu yerga kelishini ta’qiqlab qo‘ygan. Bu ish shayxni ranjitgan. Shayxning aytishicha, shundan so‘ng bu yerda qizil va qora ilon paydo bo‘lgan. Qizig‘i shundaki, qizil ilonni ko‘rgan kishi qora ilonni ko‘ra olmagan, qorasini ko‘rgan odam qizilini ko‘ra olmagan. Qizil ilon odamlarni ziyoratgohga kelishga yo‘l qo‘ymagan. Mozor holati, undan topilgan ashyolar bu joy islom dini kelgunga qadar zardushtiylar va hatto mazdakiylarning muqaddas ibodatgohi bo‘lganligiga guvohlik beradi.

Shohabdumalik ota to‘g‘risida turkiy va forsiy manoqiblarda yozilgan. Masalan, Ali Safiyning “Rashahot ayn ul hayot” asarida shunday bitiladi: “Ibtidoi sulukda volidlaridin (otalari) tarbiyatlar topib tururlar. Volidlari vafotidan so‘ng ham alarning buyrug‘i bilan Hazrati Xoja Ahmad (Yassaviy)ning mulozamatlarida bo‘ldilar”.

Abdumalik xoja (rahmatullohi taolo) Mansur Otaning farzandi buzurgvorlari turur. Va alardin so‘ng joynishin (o‘rinbosar bo‘lub), musta’idlarning tarbiyatig‘a bel bog‘ladilar va necha yillar masnadi irshod (murshidlik maqomi)da o‘lturdilar. Va tariqat toliblarig‘a rohi irshodni ko‘rguzdilar. Tojixoja (rahmatullohi taolo) Abdulmalik Xojaning farzandi azizlari va Zangi Otaning padari buzurgvorlari turur. Mundin so‘ng zikrlari kelur. Va Toji Xoja ulumi rasmiyning tahsilidan so‘ng ilmi tariqatda va haqiqatda volidi shariflaridin tarbiyat topibdurlar. Darajayi kamolg‘a yetushkandin so‘ng noqislarning tarbiyatig‘a mashg‘ul bo‘lubdurlar”. [7]

Bugungi kunda xalqaro “Oltin meros” xayriya fondi Toshkent viloyat muassasasi boshqarmasi mutaxassislari say-harakati bilan ziyoratgoh ustiga zamonaviy maqbara tiklandi. Xuddi Samarqanddagi Go‘ri Amir singari u ikki qavatli bo‘ldi. Yuqori qavatdagi ziyoratxonada ramziy qabr yer ostidagi qabrning ustiga simmetrik tarzda qurildi. Maqbaraning me’moriy yechimi

juda original bo‘lib, har qanday tomoshabinni befarq qoldirmaydi. ”Buyuk ipak yo‘li” bo‘yida joylashgan avliyo mozori ayni kunlarda ziyoratchilar bilan fayzli bo‘lib turibdi.

Tumandagi yana bir muqaddas manzil Saidmuhammad Valiy ziyoratgohidir. U «Rovatak» qishlog‘i hududida joylashgan. Saidmuhammad Valiy ziyoratgohi xususida o‘zini Saidmuhammad Valiyning o‘n yettinchi avlodi deb tanishtirgan imom Muhammadho‘ja Norxo‘jayevning aytishicha Saidmuhammad Valiy quraysh qabilasidan bo‘lgan. Imom Husayn avlodidan ekan. Rivoyat qilishlaricha, Shayxontohur buva masjid qurdirayotgan ekanlar. Ustalar masjid ustiga ustun qo‘yishga chog‘lanib turganlarida Shayxontohur buva ustalarga: «Shoshmanglar va ko‘chaga qaranglar, valiy odam kelayapti», debdilar. Ustalar ko‘chaga chiqib qarashsa, bir yosh bola kelayotgan ekan, Hafsalalari pir bo‘lib qaytib kirishibdi va: «Hazrat, biz hech qanaqa valiy odamni ko‘rmadik», deb ishlarini davom ettirishga kirishibdilar. Kelayotgan bola esa hovliga kirib, ustalar tayyorlab qo‘ygan haligi ustunning ustidan hatlab o‘tibdi va uyga kiribdi. Ustalar ustunni imorat ustiga qo‘yishsa o‘lchab kesilgan ustun o‘z-o‘zidan bir gaz yetmas emish. Ustalar bir-birlariga qarab: «Sen o‘lchab kesganingda to‘g‘ri edi-ku, hammamiz ko‘rgan edik», deya hayratga tushishibdi va Shayxontohur buvadan buning ta’birini so‘rashibdi. Shunda Shayxontohur buva «Boyagi kelayotgan bolakayni sizlar kichkina deb nazarga ilmadinglar, vaholanki u valiy edi. Shuning uchun u ustunning ustidan sakrab o‘tdi. Endi iltimos qilib o‘ziga qo‘ydiringlar», deya maslahat beribdi. Ustalar Saidmuhammad Valiydan iltimos qilib, masjidning ustunini o‘z qo‘llari bilan qo‘yib berishlarini so‘rashibdi. Saidmuhammad Valiy ustalarning ray’ini qaytara olmay iltimoslarini bajarganlarida ustun tom uzunligiga mos tushgan ekan. Shu tariqa valiy o‘z karomati bilan barchani hayratga solgan ekan. [8]

Yana bir ziyoratgoh Qoraxo‘ja avliyo buva deb ataladi. Aytishlaricha, u Saidmuhammad Valiyning chevarasining chevarasi bo‘lmish Qoraxo‘ja avliyo buva 1887 yili qabrga qo‘yilgan. Aytishlaricha Qoraxo‘ja buvaning ham nafaslari nihoyatda o‘tkir bo‘lgan. Ko‘plab bemorlarni davolagan. Ishonchli manbalarda aytilishicha, Qo‘qon xoni Xudoyorxon Toshkentga kelganida buyragiga tosh tiqilib, juda qiynalgan. Shunda unga: “rovataklik Qoraxo‘ja buvagina bu dardga davo topadi” deyishgan. Xon odam yuboradi, lekin avliyo kelmaydi. Shunda xon yana yaxshi sarpolar va iltimoslar bilan odam yuboradi. Qoraxo‘ja buva kelgan odamga ip berib, uni xonning oyoq barmoqlariga bog‘lab, ikki marta siltab «Qoraxo‘ja kelayapti, Qoraxo‘ja kelayapti», deb tortishlarini aytadi. Uning aytganini qilishganida, Xudoyorxon darhol shifo topgan ekan. Shu-shu xon har gal Toshkentga kelganida aziz avliyoni ziyorat qilib ketadigan bo‘ladi. Imom Xasan va Imom Husandan tarqalgan bu avlodlar Toshkentning «Kamolon» mahallasida hamda Samarqandning Chelak tumanidagi Saidxo‘ja bobolar avlodi bilan qon-qarindosh ekanlar. Toshkentdagi Shayxontohur buva Saidmuhammad Valiyga amaki, ya’ni eng yaqin qarindosh bo‘lishgan ekan. [9]

Tumandagi «Paxtaobod» mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi katta qabristonlardan biri Usmon ota deb yuritiladi. Qishloq fuqarolar yig‘ini «Nuroniy» jamg‘armasi raisi bo‘lgan Ro‘zmat ota Umarov quyidagi rivoyatni so‘zlab bergan: Burgalik qishlog‘idan boshlanib Oltiovul qishlog‘idan oqib o‘tadigan ariq bilan bog‘liq bir rivoyat bor. Aytishlaricha, bir sahoba shu suvdan tahorat olib qaytayotganlarida orqasiga bir qarasa, katta ajdar yerni yorib, ariq qilib shu suvni olib kelayotgan emish. U orqasiga qaragan zahoti ajdar cho‘rt burilib Ohangaron daryosiga tushib ketibdi. O‘shanda bu ariq suvi burilib, Ohangaronga daryosiga ko‘shilib ketgan ekan. Hozir ham kishini hayron qoldiradigan bu burilishdagi suvga odamlar kelib, qurbonliklar qilib, ziyorat qilib ketishadi. Bir mahallar Usmon ota nomi bilan ataluvchi tepalikdagi qabriston atrofida meva-chevalar to‘kin bo‘lgan. «Usmon ota» mahallasida yashovchi To‘ti momoning aytishicha, mozor atrofida katta aylana yo‘l bo‘lgan. Shu qabristonga shayxlik qilib o‘tgan Shokarim otadan eshitgan hikoyasida aytilishicha, har payshanba kunlari tushdan so‘ng bolalarni tashqariga chiqarishmagan. Sababi u yerga yo‘lbars kelib, shanba kuni ketar ekan. Bir kechasi yo‘lbarsning qattiq bo‘kirgani eshitilgan. Chiqib qarashsa, katta bir yo‘lbars panjasini Shokarim akaga qarata uzatib turganmish. Yo‘lbars panjasiga katta bir cho‘kir (daraxtning qurigan shoxi) kirib, uni qiynayotgan ekan. Shayx o‘zini qo‘lga olib cho‘kirni sug‘urib tashlab, panjani latta topib kelib bog‘lab qo‘yibdi. O‘sha kechasi hovlisida gursillagan ovoz eshitilibdi. Yo‘lbars katta bir buqani olib kelib (xizmat haqiga) tashlagan ekan. [10]

Xulosalar (Conclusions)

O‘rta Chirchiq tumani tarixini o‘lkashunoslik obyekti sifatida o‘rganish yurtimizning har bir go‘shasi katta tarixga, boy asori atiqalarga, qiziqarli va ibratli rivoyatlarga boyligini ko‘rsatadi.

Ularni dars jarayonida turli slaydlar va xaritalar yordamida o‘qitish bo‘yicha katta imkoniyatlarga egamiz.

O‘qituvchi mavzuga doir manbalarni tinmay izlab borishi, mavjud materiallarni grafik organeyzer namunalariga aylantirib borishi kerak.

Shundagina uning darsi qiziqarli va samarali bo‘ladi. O‘lkashunoslik bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzulari bo‘yicha referat tayyorlashda talabalarga Z. Shomirzayevaning “Po dorogam drevnogo Ilaka”, A.I. Shevyakovning “K voprosu o vozniknovenii kulta Sha-Abdu-Malik-ata” kabi asarlaridan unumli foydalanishni tavsiya qilish foydali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

[1]. Buryakov Y.F. Toshkent vohasining qadimgi karvon yo‘llari. – T.: Fan, 1978.

[2]. O’zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. Toshkent viloyati va Toshkent shahri. 3-kitob. Turon-Zamin Ziyo. T.: 2015. Б.7.

[3]. Шамирзаева З. По дорогам древного Илака. Изд. Наврўз. Т.: 2014.

[4]. Шевяков А.И. К вопросу о возникновении культа Ша-Абду-Малик-ата. - Культурное наследие. Ташкент, 1999.

[5]. Шевяков А.И. Население Ташкентского оазиса в конце XIX- начале XX вв. М., 2000.

[6]. O’zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. Toshkent viloyati va Toshkent shahri. 3-kitob. Turon-Zamin Ziyo. T.: 2015.

[7]. Ali Safiy. Rashahoti ayn ul hayot. “Fan” nashriyoti. T.: 1995.

[8]. Диваев А.А. Народние предания о возникновения азиатского города Ташкента // Туркестанские ведомости. – Ташкент, 1900. – №91.

[9]. Yormatov I. Iloq tarixi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

[10]. O’zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. Toshkent viloyati va Toshkent shahri. 3-kitob. Turon-Zamin Ziyo. T.: 2015.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Rano Almamatovna Tuychiyeva,
PhD in Political Science,Institute for Youth Issues Research and Training of Prospective Personnel,Doctoral Researcher,
Tashkent, Uzbekistan,
Email: tuychiyeva88@list.ru

Published under peer review:
Doctor of Political Science, Associate Professor
Mansur Musaev
Received 4th March 2025, Accepted 11th March 2025, Online 31th March 2025

INDIA'S ECONOMIC PARTICIPATION IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES AND OPPORTUNITIES TO INCREASE INVESTMENTS

Abstract. This article provides a scientific and analytical analysis of the development of economic cooperation between India and the Central Asian states. The study thoroughly examines India's economic interests in the Central Asian region, trade volume, investment projects, and strategic initiatives for developing transport infrastructure. Special attention is given to the opportunities available for Indian companies and investors, as well as prospects for energy cooperation, technological exchange, and industrial collaboration. The article also explores the impact of geopolitical processes on economic relations between India and Central Asian countries. Regional and international trade routes are analyzed, and recommendations are proposed to improve transport and logistics infrastructure. Furthermore, India's demand for Central Asian energy resources is assessed, including significant energy initiatives such as the TAPI project. The research findings help identify strategic directions for strengthening economic cooperation between India and Central Asia. Additionally, key challenges hindering economic collaboration—such as tariff and non-tariff barriers, political and legal issues, and infrastructure deficiencies—are discussed, along with specific recommendations for overcoming these obstacles. This study serves as an essential resource for gaining a deeper understanding of the current state and future prospects of economic relations between India and Central Asia.

Keywords: India, Central Asia, economic cooperation, investment, trade relations, transport infrastructure, energy, geopolitics, strategic interests, industrial collaboration, innovative technologies, trade corridors, banking and financial sector.

ИНДИЙСКОЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ УЧАСТИЕ В ГОСУДАРСТВАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УВЕЛИЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ

Аннотация. В данной статье проводится научно-аналитический анализ процесса развития экономического сотрудничества между Индией и государствами Центральной Азии. В исследовании подробно рассматриваются экономические интересы Индии в регионе Центральной Азии, объем торговых операций, инвестиционные проекты, а также стратегические инициативы по развитию транспортной инфраструктуры. Особое внимание уделяется возможностям для индийских компаний и инвесторов, перспективам энергетического сотрудничества, технологического обмена и промышленного взаимодействия. В статье рассматривается влияние геополитических процессов на экономическое сотрудничество между Индией и государствами Центральной Азии. Анализируются региональные и международные торговые маршруты, а также предлагаются меры по совершенствованию транспортной и логистической инфраструктуры. Кроме того, оценивается потребность Индии в энергетических ресурсах Центральной Азии, включая такие важные энергетические инициативы, как проект ТАПИ. Результаты исследования помогают определить стратегические направления для

дальнейшего укрепления экономического сотрудничества между Индией и Центральной Азией. Также проводится обсуждение ключевых проблем экономического взаимодействия, включая тарифные и нетарифные барьеры, политико-правовые вопросы и инфраструктурные ограничения. В статье предлагаются конкретные рекомендации по устранению этих препятствий. Настоящее исследование является важным источником для глубокого понимания текущего состояния и перспектив экономических отношений между Индией и Центральной Азией.

Ключевые слова: Индия, Центральная Азия, экономическое сотрудничество, инвестиции, торговые отношения, транспортная инфраструктура, энергетика, геополитика, стратегические интересы, промышленное сотрудничество, инновационные технологии, торговые коридоры, банковско-финансовый сектор.

HINDISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDAGI IQTISODIY ISHTIROKI VA INVESTITSIYALARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hindiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning rivojlanish jarayoni ilmiy-analitik uslubda tahlil qilinadi. Tadqiqotda Hindistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy manfaatlari, savdo hajmi, investitsion loyihalari va transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha strategik tashabbuslari chuqur o‘rganiladi. Ayniqsa, Hindiston kompaniyalari va investorlari uchun mavjud imkoniyatlar, energetika hamkorligi, texnologik almashinuv va sanoat tarmoqlarida hamkorlik istiqbollari batafsil tahlil qilinadi. Maqolada geosiyosiy jarayonlarning Hindiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mintaqaviy va xalqaro savdo yo‘nalishlari, transport va logistika infratuzilmasining takomillashtirilishi bo‘yicha takliflar ilgari suriladi. Shu bilan birga, Hindistonning Markaziy Osiyodagi energetika resurslariga bo‘lgan ehtiyoji, shu jumladan, TAPI loyihasi kabi muhim energetik tashabbuslar ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Hindiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha strategik yo‘nalishlarni aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, iqtisodiy hamkorlik oldidagi asosiy muammolar – tarif va notarif to‘siqlar, siyosiy va huquqiy muammolar hamda infratuzilma yetishmovchiligi bo‘yicha muhokamalar o‘tkazilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar beriladi. Ushbu maqola Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning bugungi holati va istiqbollarini chuqur anglashga yordam beradigan muhim manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Hindiston, Markaziy Osiyo, iqtisodiy hamkorlik, investitsiya, savdo munosabatlari, transport infratuzilmasi, energetika, geosiyosat, strategik manfaatlar, sanoat hamkorligi, innovatsion texnologiyalar, savdo yo‘laklari, bank-moliya sektori.

Kirish

Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etib, XXI asr global geoiqtisodiy landshaftida muhim o‘rin egallamoqda. Markaziy Osiyo davlatlari uchun Hindiston nafaqat yirik savdo hamkori, balki investitsiyalar, texnologik innovatsiyalar va strategik infratuzilma loyihalarini rivojlantirish borasida muhim tashabbuskor davlat sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bilan birga, Hindiston uchun Markaziy Osiyo energiya resurslari, tabiiy boyliklar va yangi bozorlar jihatidan strategik ahamiyatga ega.

Savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi jarayonida Hindistonning Markaziy Osiyodagi ishtiroki turli bosqichlarni bosib o‘tgan. Tarixiy nuqtai nazardan, Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik Buyuk Ipak yo‘li davridan boshlab shakllangan bo‘lsa, hozirgi kunda mazkur aloqalar yangi shakl va mazmunga ega bo‘lib, energetika, transport, sanoat va yuqori texnologiyalar kabi strategik sohalarda rivojlanmoqda. Hindiston mustaqil Markaziy Osiyo

davlatlari bilan diplomatik va iqtisodiy hamkorlikni yanada mustahkamlashga intilib, yirik transport infratuzilma loyihalari, jumladan, Xalqaro Shimol-Janub Transport Yo‘lagi (INSTC) va Chabahar porti kabi tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Bugungi kunda Hindiston-Markaziy Osiyo o‘rtasidagi umumiy savdo hajmi yil sayin ortib bormoqda, biroq potensial imkoniyatlardan to‘liq foydalanilgan deb bo‘lmaydi. Hindiston tomonidan farmatsevtika, axborot texnologiyalari, qishloq xo‘jaligi texnikasi va mashinasozlik mahsulotlari eksporti oshayotgan bo‘lsa, Markaziy Osiyo davlatlari Hindistonga tabiiy gaz, neft, metallar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib bermoqda. Lekin savdo hajmining mutanosib emasligi, transport va logistika to‘siqlari hamda geosiyosiy jihatlar hamkorlikning to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillardan hisoblanadi.

Ushbu maqola Hindistonning Markaziy Osiyo iqtisodiyotidagi ishtiroki va investitsiyalarini oshirish imkoniyatlarini ilmiy-analitik tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, quyidagi asosiy savollarga javob berishga harakat qiladi:

1. Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish tarixi va hozirgi holati qanday?
2. Hindistonning Markaziy Osiyo davlatlaridagi iqtisodiy ishtiroki va investitsiyalarining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
3. Hindiston-Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorligiga ta’sir qiluvchi asosiy muammolar va to‘siqlar qanday?
4. Kelajakda Hindiston va Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorligi qanday yo‘nalishlarda rivojlanishi mumkin?

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Hindiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha ilmiy adabiyotlar ushbu munosabatlarning tarixiy ildizlari, rivojlanish jarayoni hamda zamonaviy tendensiyalarini keng qamrab oladi. Tarixiy jihatdan, Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi savdo aloqalari Buyuk Ipak yo‘li davridan shakllanib, uzoq muddat davom etgan. Bu borada Lev Gumilyovning *"Drevnie puti torgovli na Shelkovom puti"*(1988) hamda R.K. Singhning *"India and Central Asia: Historical Trade Relations"*(2017) asarlarida batafsil yoritilgan. Sovet davrida esa bu aloqalar cheklangan bo‘lib, mintaqa davlatlari mustaqillikka erishgach, Hindistonning iqtisodiy faolligi ortdi. Bu holatni T. Almatov *"Sovetskiy Soyuz i torgovye otnosheniya Indii i Tsentralnoy Azii"*(2018) hamda R. Kumar *"Soviet Economic Policies and Their Impact on India-Central Asia Relations"*(2015) kabi tadqiqotlarida chuqur tahlil qilgan.

Zamonaviy tadqiqotlar Hindistonning Markaziy Osiyodagi iqtisodiy strategiyalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Mamlakat bu hududda investitsiyalar hajmini oshirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda energetika sohasida hamkorlikni kuchaytirishga intilmoqda. Ushbu masala A. Kumar *"India’s Strategic and Economic Engagement with Central Asia: A Post-Soviet Analysis"*(2022) hamda S. Saran *"India’s Strategic Engagement in Central Asia"*(2023) kabi asarlarda keng yoritilgan. Ayniqsa, energiya manbalariga bo‘lgan ehtiyoj sababli Hindiston gaz va neft loyihalarida faol ishtirok etmoqda, jumladan, TAPI loyihasi strategik ahamiyat kasb etadi. Bu masalaga R. Bhatia *"India’s Energy Interests in Central Asia"*(2021) va V. Mehta *"India’s Energy Diplomacy in Central Asia"*(2023) asarlarida chuqur yondashilgan.

Bundan tashqari, transport va logistika infratuzilmasining rivoji Hindiston uchun Markaziy Osiyoga chiqishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli mintaqaviy transport yo‘laklarini rivojlantirish Hindiston tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. H. Pant *"India’s Connectivity Challenges with Central Asia"*(2022) va V. Mehta *"India’s Transport and Logistics Diplomacy in Central Asia"*(2023) bu borada batafsil tadqiqotlar olib borgan. Biroq, Xitoy va Rossiyaning mintaqadagi geosiyosiy ta’siri Hindiston manfaatlariga muayyan darajada cheklovlar qo‘ymoqda. Xitoyning bu boradagi strategik ta’siri L. Wei *"China’s*

Influence in Central Asia and India's Position"(2022) asarida, xavfsizlik va geosiyosiy omillar esa B. Chellaney *"Security Dynamics in Central Asia: Implications for India"*(2023) kitobida tahlil qilingan.

Shuningdek, Hindiston bank-moliya sektorida hamkorlik qilishga harakat qilmoqda, lekin bu yo‘nalishda hali to‘liq rivojlanish kuzatilmagan. R. Karimov *"Hindiston banklari va Markaziy Osiyo moliya bozori"*(2022) va S. Singh *"India's Trade Relations with Central Asia: Opportunities and Challenges"*(2023) kabi asarlari bu borada muhim tahliliy ma'lumotlar beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda Hindistonning Markaziy Osiyo davlatlaridagi iqtisodiy ishtiroki va investitsiyalarining oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli tahlil, taqqoslash, empirik tahlil va normativ-huquqiy tahlil usullariga asoslangan bo‘lib, ular tadqiqotning har tomonlama chuqur o‘rganilishiga xizmat qildi.

Birinchi navbatda, tizimli tahlil usuli yordamida Hindiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar, savdo-iqtisodiy hamkorlik shakllari va investitsion oqimlarning tuzilishi o‘rganildi. Bu yondashuv orqali mavjud hamkorlik mexanizmlari va ularning samaradorligi baholandi. Keyinchalik, taqqoslash usuli qo‘llanib, Hindistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga kiritayotgan investitsiyalari boshqa yirik iqtisodiy o‘yinchilarning (Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi) investitsiyalari bilan solishtirildi. Bu tahlil Hindistonning investitsion strategiyasining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash hamda uning raqobatbardosh ustunliklarini baholash imkonini berdi.

Tadqiqotning empirik asoslarini mustahkamlash maqsadida empirik tahlil usuli qo‘llanildi. Bunda Hindistonning Markaziy Osiyo davlatlaridagi yirik investitsion loyihalari, ularning iqtisodiy samaradorligi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilindi. Ushbu jarayonda xalqaro moliyaviy tashkilotlar hisobotlari, rasmiy statistik ma'lumotlar va hukumatlarning iqtisodiy strategiyalariga oid hujjatlarga murojaat qilindi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy tahlil usuli Hindiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni tartibga soluvchi xalqaro va ikki tomonlama bitimlar, investitsiyalarni himoya qilishga oid huquqiy hujjatlar hamda iqtisodiy islohotlar dasturlarining tahlilini o‘z ichiga oldi. Bu esa mintaqadagi investitsion muhitning barqarorligi va huquqiy asoslari yuzasidan xulosa chiqarishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar

Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li ushbu ikki mintaqa o‘rtasida faol savdo va madaniy almashinuvlarni ta'minlagan asosiy geoiqtisodiy tizimlardan biri bo‘lgan. Ushbu davrda Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi savdo munosabatlari ipak, ziravorlar, qimmatbaho metallar, to‘qimachilik va boshqa mahsulotlarning eksport-importi bilan bog‘liq edi.

Sharqshunos olim Lev Gumilyov ushbu davrni tahlil qilar ekan, shunday yozadi: *"Hindiston va Markaziy Osiyo orasidagi savdo aloqalari Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan bo‘lib, bu yo‘nalish nafaqat iqtisodiy, balki sivilizatsiyalararo muloqot uchun ham muhim edi" (Gumilyov, 1988, 157-bet).*

Hind olimi Ranjit Kumar Singh esa bu borada quyidagicha fikr bildiradi: *"Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi qadimgi savdo yo‘llari orqali nafaqat tovarlar, balki ilm-fan, san'at va falsafa ham tarqalgan. Buyuk Ipak yo‘li bu borada eng muhim tarixiy faktor hisoblanadi" (Singh, 2017, 98-bet).*

Mustaqil Markaziy Osiyo davlatlari olimi Nurmuhammad Yo‘ldoshevning fikriga ko‘ra, *"XVI-XVII asrlarda Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar Hindiston bilan savdo-sotiqning asosiy markazlaridan biri bo‘lib, u yerda hind savdogarlari faoliyat yuritgan. Ayniqsa, Buyuk Mo‘g‘ullar imperiyasi davrida Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar yuqori cho‘qqiga chiqqan" (Yo‘ldoshev, 2021, 65-bet).*

XIX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Hindiston Britaniya mustamlakasi tarkibiga kirishi bilan mintaqaviy savdo yo‘llari keskin o‘zgarishga uchradi. Mustamlaka siyosati sababli Hindistonning tashqi savdo strategiyalari asosan Buyuk Britaniya manfaatlariga mos ravishda shakllangan bo‘lib, Markaziy Osiyo bilan avvalgi erkin savdo aloqalari pasayib ketdi.

Rossiyalik iqtisodchi Sergey Smirnov ushbu jarayonni tahlil qilar ekan, *"XIX asrda Britaniya imperiyasi Hindistonning savdo munosabatlarini asosan metropoliya va Yevropa bozorlari bilan bog‘lab, Markaziy Osiyo bilan iqtisodiy aloqalarni sezilarli darajada chekladi" deya ta’kidlaydi (Smirnov, 2005, 134-bet).*

Sovet ittifoq davrida esa Markaziy Osiyo davlatlari SSSR iqtisodiy tizimining bir qismiga aylangan bo‘lib, ushbu mintaqaning tashqi savdo aloqalari asosan Moskvadan boshqarilgan. Bu esa Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi bevosita iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishini chekladi.

Jonsiz tabiat omillari bu harorat, yorug'lik, namlik, tuzli va gazli tarkib, shamol yoki oqim, rel'ef va boshqalar. Ulardan biri, masalan, yorug'lik bilan harorat ko'pchilik o'simliklar va hayvonlarning yerda tarqalishini ta'minlaydi. Boshqalari, masalan, tuproq, rel'ef, namlik, yog'in - sochin miqdori ko'pincha o'simlik guruhlari, ular bilan birga hayvonlar paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Jonli tabiat omillari bular bir-biriga ta'sir etuvchi tirik mavjudotlarning barcha turlaridir. Turli organizmlar o'rtasida, shu jumladan, o'simliklar bilan hayvonlar o'rtasida xilma-xil bog'lanish va munosabatlar qaror topdi. Ulardan asosiylari oziq aloqalaridir. Yashil o'simliklar yorug'da anorganik moddalardan organik moddalar hosil qiladi. O'simlikxo'r hayvonlar (ko'p hasharotlar, qushlar, kemiruvchilar, tuyoqlilar va boshqalar) o'simliklarning organik moddalari bilan oziqlanadi.

"Birlamchi tabiat" tizimlari tarkibiga kiruvchi barcha jonli va jonsiz tabiat omillari qishloq joylarida o'ziga xos bir tarzda namoyon bo'ladi. *Qishloq – bu ko'proq tabiat qo'ynida dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilikkabi ishlari bilan shug'ullanuvchi odamlarning yashash joyi, maskani, hududidir. Qishloq aholisi esa ana shu hududda yashovchi yoshi, millati,*

jinsi, kasb-koridan qat'iy nazar yashab kun kechirayotgan odamlar birligidir.

Qishloqlarning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi I.A.Karimov: “Barchamizning ildizimiz, tomirimiz, avvalambor, qishloq zaminiga borib taqaladi. Ona Vatan degan ulug‘va muqaddas tushuncha odamzot uchun guyoki qishloq timsolidan boshlanadi. Yurtimizning yanada obod, xalqimiz hayotining yanada farovon bo‘lishi va oldimizda turgan yuksak vazifalarning bajarilishi, hech shubhasiz, qishloqlarimizning taqdiri va kelajagi bilan bog‘liqdir” [3;62], – degan edi. Demak, mazkur aytilgan so‘zlarni metodologik asos qilib olgan holda hozirgi kunda qishloqlarda yashovchi aholining sog‘ligini saqlash masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tarish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations

Xulosa qilib aytganda, qishloq aholisining tibbiy madaniyatini yuksaltirish mexanizmlari hamda tabiat omillari va vositalarini uyg‘unlashtirish ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu o‘rinda bu vazifalarni bajarishda qishloq aholisining tibbiy madaniyati va farovon turmush darajasini oshirish borasidagi amaliy ishlarning konstruktiv yechimini topish har qachongidan muhimdir.

1. Bugungi kunda qishloq aholisining tibbiy madaniyatini rivojlantirish va shakllantirish masalasi birinchi navbatda kishilik tarixida yuzaga chiqqan ijtimoiy taraqqiyot darajalariga bog‘liq bo‘lib, har doim vaqt insonning salomatligini saqlash borasida milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga mos ravishda tashkil etishga qaratilgan.

2. Qishloq aholisi shaharliklarga qaraganda bevosita tabiat quchog‘ida yashaydilar, shuning uchun ham ularning tibbiy ongi, tafakkuri va madaniyati ko‘proq ota-bobolaridan qolib kelayotgan qadriyatlarga asoslanganligi, xalq tabobatidan ko‘proq foydalanishi bilan farq qiladi.

3. Qishloq aholisining tibbiy madaniyatining shakllanishi bevosida tabiat borlig‘ida yuz berayotgan sinergetik jarayonlarga bog‘liq bo‘lib, unda tabiat tomonidan kutilmagan hodisalar – keraksiz paytda issiq yoki sovuq, qor yoki yomg‘ir, sel toshqinlari, har xil ofatlarning tuhfa etilishi tufayli, tuproq, suv, havo tarkibida bo‘ladigan o‘zgarishlar, ularning yashash tarziga o‘zining ijobiy yoki salbiy ta’sirini o‘tkazadi. Shu o‘rinda, tibbiy madaniyatining yangidan shakllanish va rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

4. Qishloq aholisi birinchidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirib berish bilan shug‘ullanadilar. Bunda qishloq aholisi tibbiy madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga birinchidan, yetishtirgan mahsulotini joyiga ishlov berish; ikkinchidan, hosilni tezda yig‘ib olish va saqlash, uchinchidan, oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish jarayonidagi omillar o‘zining faol ta’sirini o‘tkazadi, natijada ana shu omillar ta’sirining hosilasi sifatida o‘zini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Manning L. Rural health networks: adapting to a changing health care environment. J Rural Health. 2014;30(3):333–334. Алексеева Т.И. Географическая среда и биология человека. - М.: Мысль, 1977.-С. 3-28.; Бахтин, Ю. К. Факторы формирования здоровья человека и их значение / Ю. К. Бахтин. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2012. — № 5 (40). — С. 397-400. — URL: https://moluch.ru/archive/40/4754/; Сетко А.Г., Боев В.М.

Медицина окружающей среды и социально-гигиенический мониторинг на урбанизированных и сельских территориях // Гигиена и санитария. - 2006. - №1. - С. 20-22.

2. Shermuhamedova N. Falsafa:o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: «NOSHIR»,2012 – B.286.

3. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz // Uning o‘zi. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. T.17. -T.: O‘zbekiston, 2009. -B.62.

2. Юсупов М. Тупроқ таркибида кечаётган синергетик жараёнларнинг қишлоқ аҳолисининг тиббий маданиятининг шаклланиши ва ривожланишига фаол таъсир этиш қонуни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 1/S. – С. 188-193.

3. ЮСУПОВ М. ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИНИНГ ТИББИЙ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА ЮКСАЛТИРИШ: ИННОВАЦИОН ЁНДОШУВ //UNIVERSITETI XABARLARI, 2022,[1/9] ISSN 2181-7324.

4. Ruzimurodov S. M. Ethnomadanian, Ethnoestetic Aspects Of The Formation Of A Healthy Lifestyle In Society //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 188-194.

5. Усанов Р. Т., Хаккулов Н. К. ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ «НЕНАСИЛИЕ» //Экономика и социум. – 2024. – №. 6-2 (121). – С. 1406-1413.

6. MADATOVICH R. S. Aesthetic Features of the Formation of a Healthy Environment in the Upbringing of Children in the Family //JournalNX. – 2020. – Т. 6. – №. 04. – С. 88-90.

7. Yusupov M. S. ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ, ОПРЕДЕЛЕНИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ПОНЯТИЯ “ЗДОРОВЬЕ” //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 10. – С. 180-184.

8. Юсупов М. Закон активного влияния синергетических процессов в почве на формирование и развитие лечебной культуры сельского населения //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 1/S. – С. 188-193.

9. Alikulov X., Haqqulov N. Q. Духовная зрелость и философское мышление зависимость развития //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 164-167.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ismailova Shamsiya Kurultaevna
Associate Professor of the Department of "Management Skills" of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Pedagogical Sciences

Published under peer review:
Doctor of Science in Philosophy, M.R.Sultonova

Received 4th March 2025, Accepted 11th March 2025, Online 31th March 2025

ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING THE IMAGE OF THE PUBLIC SERVANT

Annotation:: this article analyzes the image of the public civil servant and the factors affecting it. The concept of image is studied socio-philosophically and psychologically. The coverage of research carried out on the concept of personal image in the scientific literature has been studied. The structure and content of the concept of image is comprehensively covered.

Key words: personal image, public civil servant, factors affecting the image, internal and external image, emotional intelligence, political competence.

ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИСИ ИМИЖИ ВА УНГА ТАЪСИР ҚИЛАДИГАН ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ

Аннотация: ушбу мақолада давлат фуқаролик хизматчиси имижи ва унга таъсир қиладиган омиллар таҳлил қилинган. Имиж тушунчаси ижтимоий-фалсафий ва психологик жиҳатдан ўрганилган. Шахс имижи тушунчаси бўйича амалга оширилган тадқиқотларнинг илмий адабиётларда ёритилиши ўрганилган. Имиж тушунчасининг таркиби, мазмуни ҳар томонлама ёритилган.

Калит сўзлар: шахс имижи, давлат фуқарлик хизматчиси, имижга таъсир қиладиган омиллар, ички ва ташқи имиж, эмоционал интеллект, сиёсий компетентлик.

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ИМИДЖ ГОСУДАРСТВЕННОГО СЛУЖАЩЕГО

Аннотация: в статье анализируется имидж государственного служащего и факторы, влияющие на него. Понятие имиджа рассматривается в социально-философском и психологических аспектах. Изучено освещение исследований, проведенных по изучению имиджа личности в научной литературе. Всесторонне освещены структура и содержание понятия имиджа.

Ключевые слова: имидж личности, государственный служащий, факторы, влияющие на имидж, внутренний и внешний имидж, эмоциональный интеллект, личностные факторы, политическая компетентность.

КИРИШ

Сўнгги йилларда "имиж" тушунчаси кундалик ҳаётимизга кенг кириб келганлигини кузатишимиз мумкин.Бу атама социология, политология психологияда кенг қўлланилиб, ижтимоий фанлар доирасидан чиқиб, кундалиқ мулоқот-муомалада жадал *қўлланилаётганлигини* кўришимиз мумкин.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

“Имиж” муаммоси “шахс ижтимоий қиёфаси” тушунчаси билан узвий боғлиқликда кишилик жамиятида доимо ҳам долзарб аҳамият касб қилиб келган. Инсонлар бир-бирлари ҳақида яхши таассурот қолдиришга ва бу билан бирга ижтимоий-сиёсий мақомини мустаҳкамлашга ҳаракат қилиб келганлар. Турли халқлар этник миллий маданиятида шахснинг ўзига хос ижтимоий қиёфасини шакллантиришнинг турли усул ва йўлларини кузатишимиз мумкин.

Йигирманчи асрнинг биринчи ярмида Франция ва Буюк Британияда санъат ва адабиётда “қиёфа”(тасвир) тушунчаси кенг қўлланила бошланди. "Имиж" тушунчаси ўтган асрнинг 60-йилларидаги журналистикада кенг ишлатилиб бошланган. Даставвал бу тушунча эстрада вакиллари, мусиқачиларнинг саҳна қиёфасини яратишга, турли шоу-томошаларни ташкил қилиш ҳамда одамларнинг эътиборини шу жараёнга қаратиш мақсадида ишлатилган. Шу билан бирга, сайловолди ташвиқотини ташкил этишнинг янги услублари ишлаб чиқилиши муносабати билан жамоатчилик ва сиёсий лидерлар учун имижлардан кенг фойдаланила бошланган. Кейинчалик бу тушунча ижтимоий ходиса сифатида тележурналистлар, актёрларларга нисбатан ҳам кенг қўлланила бошлаган. Омма олдида тез-тез иштирок қилиб турадиган касб эгалари ўзларининг бошқалардан фарқли равишда ўзига хос бўлган имижини яратишга интилишган. Бу ўз навбатида уларни оммага машҳур бўлишига сабаб бўлган.

Жамиятда давлат фуқаролик хизматчиси имижининг ижобий мазмунга эга бўлиши жуда муҳим. Давлат хизматчисининг имижи унинг шахсий ва касбий сифатларининг йиғиндиси сифатида намоён бўлади. Имиж қанчалик ижобий бўлса, шунчалик фуқароларда давлат хизматчиси, раҳбарга бўлган ишонч, хурмат юқори бўлади. Шунинг учун ҳар бир давлат фуқаролик хизматчиси ўз имижининг қандай мазмунда эканлигини ўрганиб, унинг мақсадли шаклланишига ҳаракат қилиши фуқароларда давлат бошқарувига бўлган ишончни мустаҳкамлайди.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Имиж инглиз тилидан *“image”: “қиёфа”, “тасвир”, “акс эттириш”*деган маъноларни англатади[9.Б.35]. Бундан ташқари, имиж деганда нафақат шахснинг визуал имиж (ташқи кўриниш, қиёфа), балки унинг фикр тарзи, одоби, хулқи, жамиятдаги мақоми, турмуш тарзи ва ҳаказоларни ҳам тушунамиз. Бошқача қилиб айтганда, "имиж" сўзи кенг маънода – шахс ҳақида умумий тасаввур деб кўрсатишимиз мумкин.

Л.Мухаммаджановнинг кўрсатишича "имиж" тушунчаси муайян шахснинг мақсадли шакллантириладиган қиёфаси" сифатида талқин қилинади[1]; “ижтимоий онгда шаклланган ва стереотип характерига эга, кимнингдир ёки бирор нарсанинг ҳиссий-эмоционал мазмуний характерга эга қиёфаси ёки [10.Б.28]"... аниқ ёки мавҳум тасаввур, ўзганинг онгида маълум бир шахснинг қандайдир белгилари акс этадиган қиёфаси"[10.Б.28], оммалаштириш, реклама қилиш ва бошқалар учун кимгадир ҳиссий ва психологик таъсир кўрсатиш учун мўлжалланган, мақсадли шакллантирилган имиж (қандайдир) ёки шахс, ҳодиса, объект сифатида намоён бўлади[16.Б.48]. Кўпинча имиж мақсадли равишда яратилган ёки ўз-ўзидан пайдо бўлган объектни одамлар онгида акс эттириш шакли сифатида таърифланади.

В.М. Шепел имижни " диққатни ўзига жалб қилиш мақсадида оммавий ахборот воситалари, ижтимоий гуруҳ ёки шахс томонидан яратиладиган индивидуал тасаввур ёки қиёфа” деган таърифни келтиради[14.Б.56].

А.Ш. Санатулова имижни "одамлар онгида маълум бир шахсга, ташкилотга ёки бошқа ижтимоий объектга нисбатан мақсадли шакллантириладиган, ҳиссий-эмоционал мазмунга эга маълумотларни ўз ичига олган ва муайян ижтимоий хатти-ҳаракатларга йўналтириладиган ма

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ф.Равшновнинг сўзларига кўра, у "имиж" тушунчасини перцепция натижаси сифатида изоҳлайди ва "олдиндан шаклланган ҳамда ўзида баҳолаш хусусиятларини жамлаган идрок этиш асосида" пайдо бўлиши мумкин, деган фикри илгари суради[15.Б.102] . Аммо Е. В. Змановскаянинг фикрича бу “1. Объектнинг субъектив имижи, анализатор ёки анализаторлар тизимига бевосита таъсир қилувчи жараён... 2. Перцептив образни шакллантиришнинг мураккаб психофизиологик жараёни...» [17.Б.89] А.Ю. Панасюк имижнинг қуйидаги таърифини келтиради: Объектнинг имижи - бу мақсадли равишда шаклланган, ҳиссий-эмоционал моҳият берилган, онг ёки онг ости сатҳида пайдо бўлган, бевосита идрок қилиш ёки билвосита, ўзга шахслар таассуротларига асосланган ҳамда маълум мақсадларни кўзлаб яратилган қиёфа"[18.Б.128].

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Раҳбарнинг имиджини аниқлаш методологияси бир нечта жиҳатларни, жумладан, раҳбарнинг шахсий ва касбий хусусиятларини унинг атроф-муҳитда ўзга шахслар томонидан идрок этилишини, шунингдек, ушбу тасаввурнинг ташкилот самарадорлигига таъсирини ўз ичига олади. Асосий мақсад - раҳбарнинг ўз фаолиятига муносабати, хатти-ҳаракатлари, мулоқот маданияти ва бошқарув услублари жамоада, умуман жамоатчиликда қандай қабул қилинишини ва бу жамият ва давлат бошқарувига қандай таъсир қилишини ўрганишдир.

Раҳбар имиджини аниқлашнинг асосий босқичлари ва ёндашувлари:

Шахсий фазилатлар ва малакаларни баҳолашни ўз ичига олади. Шахс хусусиятлари, яъни ишончлилик, харизма, эмоционал интеллект, стрессга чидамлилик ва мослашувчанлик каби жиҳатларини баҳолаш муҳимдир.

Касбий кўникма ва малакалари ва бунда профессионаллик даражаси, стратегик бошқарув компетенциялари, бошқарув ва мулоқот маҳорати, қарор қабул қилиш қобилияти каби жиҳатлар таҳлил қилинади.

Бошқарув услублари ҳам раҳбар имижини белгилвчи муҳим омил ҳисобланади. Раҳбарнинг имижи бевосита унинг бошқарув услубига боғлиқ. Энг кенг тарқалган услублар:

1) Авторитар услуб: раҳбар барча жараёнларни назорат қилиб, мустақил равишда қарор қабул қилади.
2) Демократик услуб: қарор қабул қилиш жараёнига ходимларни жалб қилишга эришади.
3) Либерал услуб: жараёнларга минимал аралашув, ходимларга юқори даражадаги мустақилликни таъминлаш билан фарқланади. Ходимларнинг хоҳиш-истакларини ва уларнинг ушбу услублар ҳақидаги тасаввурларини ўрганиш раҳбар имижини аниқлашга ёрдам беради.

Олинган натижаларни умумлаштирган холда айтиш мумкинки, *имиж – бу ижтимоий гуруҳда шаклланган, махсус, профессионал саъй-ҳаракатлар натижаси хамда муайян аудиторияда субектнинг рамзий қиёфасини яратувчи ҳодиса ҳисобланади.* Бунда имиж предмети сифатида шахс, ташкилот, объект, сервис хизмати, муайян тизим, касб тури ва бошқалар бўлиши мумкин. Шундай қилиб, имижнинг икки томонлама табиати ҳақида гапириш мантиқан тўғри келади. Бир томондан, имиж объект сифатида, бошқа томондан - субъект сифатида ишлайди.

Қачонки имиж ижтимоий аудиторияси маълум бўлганда, яъни имиж қим учун ва нима учун яратилиши маълум бўлгандагина ёки кимнинг психикасида идрок этилаётган субъектнинг рамзий имижи шаклланиши лозимлиги аниқ бўлгандагина, имижнинг шаклланиши ҳақида гапириш мумкин.

"Имиж" тушунчаси баъзан "akme" (юнонча “чўққи”) тушунчаси билан боғлиқ равишда таҳлил қилинади. Акмеология *(юнончадан "akme" - “чўққи”; “logos”-“таълимот”)* -

гуллаб-яшнаган, етуклик, ривожланишнинг олий нуқтаси, шахслик ва касбий сифатларнинг етук даражаси деб таъриф бериш мумкин. [20.Б.135]Касбий, ақлий-интеллектуал етуклик даври - бу инсоннинг маънавий, интеллектуал, жисмоний хусусиятларини ривожлантиришнинг энг юқори даражаларига эришиш даври, яъни акме - ривожланиш чўққиларига эришиш давридир. Айнан вояга етганлик даврида ижтимоий камолотнинг фаол шаклланиши содир бўлади, бунда шахс муайян ҳодисаларда ва ижтимоий Шаклланиш объектига кўра имижнинг қуйидаги турлари мавжуд: шахс имижи; ташкилотнинг имижи; ҳудуднинг имижи; савдо-сотиқ ёки шунга ўхшаган вазиятларда нарса, буюмларнинг имижи.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Йўналишларга кўра, имиж ички ва ташқи турларига бўлинади:

- ички имиж – ташкилотда ходимлар, бошқарув тизими ҳақида тасаввур.
- ташқи имиж - ташкилот ҳақида тасаввур, мижозлар, ҳамкорлар, ташкилотнинг турли тузилмалари, оммавий ахборот воситалари ва кенг жамоатчилик олдида компаниянинг имижи.

Ҳиссий-эмоционал нуқтаи-назардан имиж қуйидагича бўлиши мумкин:

- ижобий (қулай) - объект ҳақида ижобий таассурот қолдирадиган ва аудитория кутувларига тўғри келадиган кўрсаткичларни ўз ичига олади;
- салбий – атроф-муҳит, кенг жамоатчиликда имиж субъекти ҳақида салбий тасаввурлар.

Идрок субъектлари бўйича имидж қуйидагиларга бўлинади: истеъмолчилар орасидаги имидж, ижтимоий имидж, давлат ёки молия институтлари имиджи, бизнес имиджи, халқаро ҳамжамият орасида давлат имиджи.

Шаклланиш мақсадига кўра, улар табиий (ташқи омиллар таъсирисиз, табиий шаклланган) ва сунъий имиж (PR воситалари ёрдамида мақсадли яратилган) бўлиши мумкин. Рационаллик даражасига кўра, когнитив имидж (муайян соҳадаги мутахассислар ва объектив баҳо бера оладиган экспертлар томонидан шакллантирилади) ва ҳиссий образ (оммага ҳиссий таъсир қилиш мақсадида) мавжуд.

Шаклланиш босқичига қараб, режалаштирилган, шакллантирилган ва шаклланган имиж фарқланади. Моддий хис қилинадиган имиж (омманинг имиж объектига нисбатан вербал баҳоларига асосланилади) ва номоддий имиж (имиж субъекти ҳақидаги ғояларнинг атроф-муҳитдаги инсонлар онги ва тафаккури шаклланган ва мустаҳкамланган тасаввурлар).

Имижнинг ҳақиқий ёки реалликдан йироқ эканлигига кўра имиж ҳақиқий (ҳақиқатга мос), комплементар (ҳақиқий ҳамда бўрттирилган имиж) ва идеал (баҳолашнинг энг юқори даражаси, барча ижобий сифатларни жамлаган) га бўлинади.

Иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий жараёнларнинг жадал ривожланиши ва ўзгариши шароитида имижни динамик (замонавий, долзарблиги ва фаол шакллантириладиган) ва статик (ўзгармас, барқарор имиж) кабиларини фарқлаш мумкин.

Раҳбар фаолиятининг муваффақиятли бўлишида унинг имиджи муҳим рол ўйнайди. В.М. Шепельнинг фикрича имидж 3 та функцияни бажаради[15.Б.67]:

1.Шахснинг ўзгалар олдида ижтимоий мақомининг ошишига хизмат қилади.

2.Шахслараро муносабатларда идеал (кутилган, комфорт) шароитларни яратади.

3. Психотерапевтик вазифани бажаради, яъни шахс ўзини қулай, яхши ҳис қилади, ўзига ишончи ортади, кайфияти яхши бўлади.

Раҳбар имиджи қуйидаги икки томонлама қиёфа уйғунлигидан иборат бўлиши керак[5.Б.76].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

1.Ташқи қиёфа:соғлом кўриниш, очиқ юзлилик, кинестетик хусусиятлар, кийиниш услуби, соч турмаги, тақинчоқлар меъёри, косметика воситаларидан фойдаланишдаги меъёрлар ва ҳ.

2. Ички қиёфа: самимийлик, интеллект, маънавий-ахлоқий қарашлар, қадриятлар тизими, ҳаёт тарзи, соғлом турмуш, иродавийлик, масъулият, виждонийлик, сабрлилик, мулоқотчанлик, мантиқий фикрлаш қобилияти. Бугунги кунда давлат фуқаролик хизматчиси имиджи унинг фаолият самарадорлигини белгиловчи асосий омиллардан бири ҳисобланади.

Биринчидан, халқ олдида ҳар бир давлат хизматчиси хукуматнинг расмий вакили сифатида намоён бўлади ва, иккинчидан, халкда давлат сиёсатига, мамлакатда олиб борилаётган ички ижтимоий сиёсатга нисбатан маълум муносабатларни шакллантиради. Халқ давлат фуқаролик хизматчисига ишонса, демак хукуматнинг ички ва ташқи сиёсатига нисбатан ишончи шаклланади, уни қўллаб-қувватлайди.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Юқорида келтирилган фикрларни умумлаштирган холда қуйидаги хулосаларни келтиришимиз мумкин:

1. Раҳбар имижи давлат бошқаруви сиёсати самарадорлигини оширишда муҳим омил ҳисобланади. Бошқарувда долзарб ижтимоий муаммоларни ўз вақтида аниқлаш, ўрганиш, ечими бўйича тўғри қарорлар қабул қилиш, ижтимоий-сиёсий жараёнлар ривожи бўйича башорат қила олиш, халқ билан мулоқот, давлат хизмати самарадорлигига эришишда муҳим ҳисобланади.

2. Раҳбар имижини белгиловчи омил сифатида давлат ва жамият қурилишида интеграцияни мустаҳкамлаш: фуқаролар ҳаёт ва меҳнат фаолиятларини тўлақонли юритишлари учун барча шароитларни яратиш, сервис хизмат турларини кенгайтириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, нодавлат нотижорат ташкилотлари билан ҳамда бошқа давлат ташкилотлари билан ҳамкорликда ишлаш компетенцияларини кўрсатишимиз мумкин.

3. Шунингдек, давлат ташкилотлари очиқлигини таъминлаш: жамиятнинг турли қатламларини давлат бошқаруви сиёсати жараёнларига жалб қилиш, ижтимоий фикрларни ташхис қилиш, ОАВ билан ҳамкорлик қилиш ҳам муҳим ҳисобланади.

4. Давлат фуқаролик хизматчиси сифатида ўзини психологик англаши, муомала маданиятини эгаллаши, раҳбар одоб-ахлоқ қоидаларига риоя қилиши, дипломатик таомил меъёрларини билиши, халқ билан мулоқотда одоб, оғир-босиқлик, вазминлик, мурожаатларга ниҳоятда эътиборли бўлиш, ҳамкорлик, ҳамдардлик, ғамхўрлик, ўзини маданият ва одоб даражасида тутиши, фуқароларни ҳурмат қилиши каби сифатлар ҳам муҳим саналади.

5. Барқарор психологик ҳолат, озода, ораста ташқи кўриниш, эстетик дид, иш кийимининг вазиятга мос бўлиши, яъни ташқи қиёфа ҳам эътиборни қаратиш муҳим бўлган омиллардан ҳисобланади.

Шундай қилиб, бошқарувда замонавий раҳбар қиёфаси, унинг етакчи компетенциялари, фаолиятида самарадорликни оширадиган психологик хусусиятлар, шунингдек, инсонлар орасида нутқ гапириши, унинг ижтимоий аҳамияти масалалари билан танишиб ўтдик. Бундай хислатларнинг раҳбар фаолиятида намоён бўлиши, шахсдан мунтазам тартибни ва ўз устида ишлашни, билимларини мустақил оширишни, илғор тажрибаларни ўрганишни, жамоани ривожлантириш бўйича малакаларини такомиллаштириб боришни талаб қилади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида. 08.08.2022 йилдаги ЎРҚ 788-сон.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik milliy g‘oyamizning poydevoridir” “Tasvir” Nashiryot Uyi Toshkent-2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari 4-jild .-Toshkent,"O'zbekiston". 2020,408 b.
4. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 24.
5. Алимардонов Т. Амир Темур давлат бошқарувининг сиёсий-ахлоқий асослари. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2005. – 24 б.
6. Amaliy etika va estetika. O’quv qo’llanma.– “Universitet”, 2020 y Muallif: La’lixon Muhammadjonova.
7. Бегматов А.С., Қуронов М. Ўзбекистонда раҳбар кадрлар тайёрлашнинг технологик тизими / Раҳбар ва ходим (тўплам).–Т.: Академия, 1998.
8. Быстрова, Т. Ю. Определение имиджа: аналитика и феноменология / Электрон:http://www. imagelogija
9. Имидж: Энциклопедический словарь / авт. - сост. А. Ю. Панасюк. - М. : РИПОЛ классик, 2017. - 28 с.
10. Amaliy etika va estetika. O’quv qo’llanma.– “Universitet”, 2020 y Muallif: La’lixon Muhammadjonova.
11. Быстрова, Т. Ю. Определение имиджа: аналитика и феноменология / Электрон:http://www. imagelogija
12. Маҳмудов И. Бошқарув профессионализми: психологик таҳлил.- Тошкент,«Academia», 2011.
13. Раҳимова Д., Бекмуродов М. Лидерлик ва ташкилот маданияти. –Т.: Akademiya, 2006.
14. Шепель В. М. Имиджелогия: Секреты личного обаяния. 2-е изд., перераб. и доп. М., 2017.
15. Хайитов О.Э., Турсуналиев И.А.Бошқарув психологияси.-Тошкент.-Истиқлол, 2021.
16. Шепель В.М. Человеческая компетентность менеджера. Управленческая антропология. М., 2009.
17. Равшанов Ф. Давлат фуқаролик хизматчисининг маънавий қиёфаси (Рисола) [Матн] / Ф.Равшанов. – Тошкент: «Маънавият» нашриёти, 2023.
18. Змановская Е. В. Руководство по управлению личным имиджем. СПб., 2015.
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти”, 6 жилд, 2008.-135 б.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Qosimova Ozoda Xudoynazarovna
Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute,
Associate Professor of "Pedagogy" Department

Published under peer review:
PhD, Associate Professor A.O.Qo'chqorova

Received 4th March 2025, Accepted 11th March 2025, Online 31th March 2025

THE OPPORTUNITIES THAT DIGITAL EDUCATION CREATES FOR WOMEN TEACHERS

Annotation The article analyzes the significance of digital education for female educators, highlighting not only the opportunities but also the emerging challenges and limitations. It examines the experience of female teachers in using digital tools, and provides a comparative analysis of gender factors, technical conditions, and levels of digital literacy.

Keywords: digital education, female teachers, gender, opportunities, barriers, literacy, technology, education quality.

RAQAMLI TA'LIMNING PEDAGOG XOTIN-QIZLARGA YARATGAN IMKONIYATLARI

Annotatsiya Maqolada raqamli ta'limning pedagog xotin-qizlar uchun ahamiyati tahlil qilingan bo'lib, imkoniyatlar bilan birga yuzaga kelayotgan muammolar va cheklovlarga ham e'tibor qaratilgan. Maqolada pedagog xotin-qizlarning raqamli vositalardan foydalanishdagi tajribasi o'rganilgan, gender omili, texnik sharoit va raqamli savodxonlik darajalari solishtirib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, pedagog xotin-qizlar, imkoniyatlar, cheklovlar, gender, savodxonlik, texnologiya, ta'lim sifati.

ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ЖЕНЩИН-УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация В статье проанализировано значение цифрового образования для женщин-педагогов, при этом уделено внимание не только возможностям, но и возникающим проблемам и ограничениям. Изучен опыт использования цифровых инструментов женщинами-педагогами, сравнительно проанализированы гендерный фактор, технические условия и уровень цифровой грамотности.

Ключевые слова: цифровое образование, женщины, педагоги, барьеры, возможности, грамотность, технологии, качество обучения.

Kirish

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari zamonaviy jamiyatning barcha sohalariga, xususan, ta'lim tizimiga ham chuqur kirib bormoqda. Texnologik yangilanishlar, sun'iy intellekt, onlayn platformalar va raqamli vositalarning rivojlanishi ta'limni tashkil etishning yangi shakl va yondashuvlarini yuzaga keltirmoqda. Bu esa pedagoglar, ayniqsa, xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Uzoq masofadan ishlash, masofaviy ta'lim berish, mustaqil ravishda bilim olish, malaka oshirish va o'z ustida ishlash kabi imkoniyatlar

nafaqat kasbiy rivojlanishga, balki oilaviy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatida ham raqamli ta’limni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda elektron platformalar, masofaviy o‘quv kurslari, interaktiv darsliklar, mobil ilovalar va boshqa raqamli vositalar orqali o‘qituvchilarga qulay sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimida katta sonni tashkil etuvchi pedagog xotin-qizlar uchun bu jarayon katta ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Ular uchun vaqt va joy tanlashdagi erkinlik, o‘z sharoitiga mos ta’lim olish, bolali ayollar uchun ish va oilani muvozanatlash imkoniyati kabi ko‘plab afzalliklar yuzaga kelmoqda.

Shu bilan birga, raqamli ta’lim imkoniyatlari har doim ham to‘liq va teng taqsimlanmagan bo‘lib, ularni real hayotga tatbiq etishda ayrim muammolar — texnik infratuzilma, raqamli savodxonlik darajasi, shaxsiy motivatsiya va genderga oid ijtimoiy stereotiplar ham mavjud. Bularning barchasi pedagog xotin-qizlarning raqamli ta’limdan foydalanishida turlicha natijalarga olib kelmoqda.

Mazkur maqolada aynan pedagog xotin-qizlar misolida raqamli ta’lim imkoniyatlarining qanday shakllanayotgani, bu jarayon ularning kasbiy faoliyati va shaxsiy hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani, mavjud sharoit va resurslar qanday ishlatilayotgani tahlil qilinadi. Tadqiqot, shuningdek, pedagog ayollar uchun raqamli ta’lim sohasidagi istiqbolli yo‘nalishlar va takomillashtirish zarur bo‘lgan jihatlarni ham ko‘rsatib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda raqamli ta’limning pedagog xotin-qizlar faoliyatiga ta’siri, ayniqsa, kasbiy rivojlanish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va ish sharoitlaridagi moslashuvchanlik nuqtayi nazaridan qanday imkoniyatlar yaratgani chuqur o‘rganildi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy yondashuvlar uyg‘unlashtirildi, bu esa mavzuni har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotda O‘zbekistonning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan 120 nafar pedagog xotin-qizlar ishtirok etdi. Ular orasida umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlar va oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi o‘qituvchilar mavjud bo‘lib, ishtirokchilarning yoshi, fan yo‘nalishi, yashash hududi hamda pedagogik tajriba yillari inobatga olindi. Bu tanlov ishtirokchilar demografik va kasbiy ko‘lamining keng qamrovda bo‘lishini ta’minladi.

Tadqiqot davomida ma’lumotlar elektron shakldagi anketali so‘rovnoma va yarim strukturaviy intervyular orqali to‘plandi. So‘rovnoma quyidagi bloklarni o‘z ichiga oldi: raqamli vositalardan foydalanish chastotasi, onlayn platformalardagi ishtirok, texnik infratuzilma mavjudligi, raqamli savodxonlik darajasi, motivatsiya, hamda oilaviy va ijtimoiy omillar. So‘rovnoma natijalari asosida chuqur tahlil uchun 15 nafar ishtirokchi tanlab olinib, Zoom va Telegram platformalari orqali suhbatlar o‘tkazildi.

Kvantitativ ma’lumotlar oddiy statistik tahlil orqali (foizlar, o‘rtacha qiymatlar) umumlashtirildi. Sifatli javoblar esa kontent-analiz usuli asosida kodlanib, asosiy tematik yo‘nalishlarga ajratildi. Bu jarayonda pedagog xotin-qizlarning shaxsiy qarashlari, hissiyotlari va real hayotiy tajribalari asosiy tahlil obyekti sifatida ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot davomida ishtirokchilarning shaxsiy ma’lumotlari to‘liq sir saqlanishi va faqat ilmiy maqsadlarda foydalanilishi ta’minlandi. Har bir respondentning roziligi asosida intervyu va

so‘rovnomalar o‘tkazildi. Etik tamoyillarga qat’iy rioya qilinib, ochiq va ishonchli muloqot muhitida ishlashga e’tibor qaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Raqamli ta’limning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni, uning pedagog xotin-qizlar uchun yaratgan imkoniyatlari va muammolari so‘nggi yillarda O‘zbekistonda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylangan. Mavzuga doir adabiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi besh yillikda raqamli texnologiyalar ta’limda keng tatbiq qilina boshlagach, bu o‘zgarishlar xotin-qizlarning kasbiy rivojlanishi, masofaviy ishlash imkoniyatlari, zamonaviy dars berish usullarini o‘zlashtirishi kabi yo‘nalishlarda ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Pedagogik tajriba va amaliyotga oid bir qator tadqiqotlarda aytilishicha, raqamli ta’lim pedagog ayollarga dars jarayonlarini yanada moslashuvchan tashkil qilish, o‘z ustida ishlash va doimiy yangiliklardan xabardor bo‘lish uchun qulay sharoit yaratgan. Ayni vaqtda, ba’zi tadqiqotlarda raqamli vositalardan foydalanishda texnik ko‘nikmalar, internet infratuzilmasi yetishmasligi va oilaviy yuklamalarning salbiy ta’siri ham ta’kidlangan.

Adabiyotlarda shuningdek, xotin-qizlarning raqamli savodxonligini oshirish, ularni zamonaviy onlayn platformalarda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish, masofaviy ta’lim kurslari va virtual malaka oshirish dasturlarining ularning kasbiy o‘sishiga ta’siri keng yoritilgan. Raqamli ta’lim vositalari orqali ayol pedagoglarning dars sifati, innovatsion yondashuvlari va o‘z-o‘zini rivojlantirish madaniyati sezilarli darajada oshgani kuzatiladi.

Shu bilan birga, ilmiy manbalarda ayol pedagoglar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hududlar kesimida bir xil emasligi, texnologik tengsizlik va axborot resurslariga kirish imkoniyati masalalari ham dolzarb muammo sifatida ko‘rsatilmoqda. Bu esa ushbu mavzuning chuqurroq tahlil qilinishini va tizimli yechimlarni talab qilishini anglatadi.

Tahlil va natijalar

Olib borilgan tadqiqot natijalari raqamli ta’lim pedagog xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochayotganini ko‘rsatdi. So‘rovnoma va intervyularda ishtirok etgan respondentlarning aksariyati raqamli texnologiyalarni kasbiy rivojlanish, dars jarayonini optimallashtirish, metodik yangiliklarni o‘rganish va masofaviy ishlash imkoniyati sifatida qabul qilgan. Ayniqsa, pandemiyadan so‘ng ayol pedagoglarning onlayn platformalar va zamonaviy vositalarga bo‘lgan ehtiyoji va ulardan foydalanish ko‘nikmalari sezilarli darajada oshgani qayd etilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim ayol o‘qituvchilarga ish va oilaviy mas’uliyatni muvozanatlashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular o‘z ishini masofadan turib tashkil etish, vaqtni samarali boshqarish, dars materiallarini interaktiv shakllarda tayyorlash, bilim va malakasini mustaqil oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bundan tashqari, ayollarning o‘zaro tajriba almashuvi, onlayn seminarlarda qatnashish va turli o‘quv kurslarida ishtirok etish imkoniyatlari ham kengaygan.

Shu bilan birga, ayrim ishtirokchilar texnik infratuzilmaning zaifligi, internet tezligi, kompyuter yoki planshet kabi vositalarning yetishmasligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi, shuningdek, uy ishlarining ko‘pligi sababli zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarining cheklanishini ta’kidladilar. Bu holatlar raqamli ta’limning to‘liq salohiyatidan foydalana olishlariga to‘sqinlik qilmoqda.

Respondentlarning fikriga ko‘ra, agar raqamli texnologiyalarga oid maxsus treninglar, doimiy metodik yordam va texnik ko‘maklar mavjud bo‘lsa, pedagog xotin-qizlarning raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalari yanada rivojlanadi va bu ularning kasbiy faoliyatiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, raqamli vositalar ayollar uchun nafaqat ta’lim sifati, balki shaxsiy taraqqiyot, moliyaviy mustaqillik va ijtimoiy faollik yo‘lidagi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim pedagog xotin-qizlar uchun kasbiy rivojlanish, o‘z ustida ishlash va masofaviy ishlash imkoniyatlarini kengaytirgan. Raqamli vositalar ayol pedagoglarning ish jarayonini soddalashtirish, darslarni samarali va interaktiv tashkil qilish, zamonaviy metodikalardan foydalanish va onlayn platformalarda faol bo‘lish imkonini bermoqda. Shuningdek, ular uchun o‘z vaqtini mustaqil boshqarish, ilmiy izlanish olib borish va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari ham ortmoqda.

Biroq, mavjud muammolar — texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi, shaxsiy kompyuter yoki internet vositalariga cheklangan kirish imkoniyati, shuningdek, oilaviy yuklamalar — bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu holat, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi pedagog xotin-qizlarda yanada yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur holatlarni hisobga olgan holda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: pedagog xotin-qizlar uchun raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan maxsus o‘quv kurslari va amaliy seminarlarni tashkil etish; uzoq hududlardagi ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar va tezkor internet bilan ta’minlash; pedagog xotin-qizlarning raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish bo‘yicha ilg‘or tajribalarini targ‘ib qilish va ularga doimiy uslubiy yordam ko‘rsatish; pedagog xotin-qizlar uchun moslashuvchan onlayn ta’lim resurslarini kengaytirish va ular orqali kasbiy rivojlanishni rag‘batlantirish; raqamli ta’limdan foydalanishda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu tavsiyalar amalga oshirilsa, raqamli ta’lim sohasida pedagog xotin-qizlarning ishtiroki yanada faollashadi, bu esa nafaqat ularning kasbiy o‘sishiga, balki butun ta’lim tizimining sifat jihatdan rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sharipova G. *Raqamli ta’lim muhitida pedagogik faoliyat*. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
2. Karimova N. *Pedagogik innovatsiyalar va raqamli kompetensiyalar*. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2021.
3. Rasulova D. Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik jarayonni takomillashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari. *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 2022, №4.
4. Islomova D. Raqamli texnologiyalar ayol pedagoglar faoliyatida. *Pedagogik mahorat va raqamli kompetensiya: amaliy yondashuvlar* respublika konferensiyasi materiallari, Toshkent, 2023.

5. Худойназаровна, Қ. О., & Хусенова, М. Н. (2022). МИЛЛИЙ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ ТАЛАБА-ҚИЗЛАРНИНГ ҲАЁТИДАГИ ЎРНИ. *Gospodarka i Innowacje.*, *23*, 297-302.
6. Xudoynazarovna, Q. O., & Qurbonovich, U. U. (2022). A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE MAIN MOTIVATIONS FOR INCREASING THE QUALIFICATION OF TEACHER-WOMEN AND TEACHER-MALE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, *14*(3).
7. Xudoynazarovna, Q. O., & Qurbonovich-Docent, U. U. (2022). DEVELOPMENT OF TEACHER'S SPIRITUAL IMAGE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, *14*(6).
8. KASIMOVA OZODA KHUDOYNAZAROVNA, KHAIRULLAYEVA SEVARA, & MAKHMUDOVA RUKHSORA. (2022). STUDYING THE PSYCHOLOGICAL BASIS OF NATIONAL CONCEPT OF PERSONALITY. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *2*(3), 265–271. Retrieved from https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/403
9. Xudoynazarovna, Q. O., & Dilshod o'g'li, S. D. (2022). Pedagog Xotin-Qizlarning Ma'naviy Kompetentligini Rivojlantirish Davr Talabi. *Gospodarka i Innowacje.*, *23*, 307-309.
10. Qosimova, O., & Jaxbarov, O. (2022). PEDAGOG XOTIN-QIZLAR SHAXSIGA QO'YILADIGAN PEDOGOGIK PSIXOLOGIK TALABLAR. *Gospodarka i Innowacje.*, *22*, 643-645.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Egamberdieva Zarina Uktamovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages
e-mail: zarinaegamberdieva24@gmail.com

Published under peer review:
Doctor of Science in Philosophy,
Professor M.Melikova

Received 4th March 2025, Accepted 11th March 2025, Online 31th March 2025

ГУМАНИЗМ И ТОЛЕРАНТНОСТЬ В КОНЦЕПЦИИ ИДЕАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация. В статье анализируются гуманистические и толерантные идеи в концепции идеального общества, представленной в трудах Алишера Навои. Рассматриваются основные принципы его философии, основанные на справедливости, уважении к человеку, межкультурном диалоге и нравственном совершенствовании. Особое внимание уделяется роли гуманистических ценностей и толерантности в формировании гармоничного общества, которое Навои описывает в своих произведениях. Подчеркивается актуальность его идей в современном мире.

Ключевые слова: Алишер Навои, гуманизм, толерантность, идеальное общество, нравственность, справедливость, культура, диалог, философия.

HUMANISM AND TOLERANCE IN THE CONCEPT OF AN IDEAL SOCIETY BY ALISHER NAVOI

Annotation The article analyzes humanistic and tolerant ideas in the concept of an ideal society presented in the works of Alisher Navoi. The main principles of his philosophy, based on justice, respect for man, intercultural dialogue and moral improvement, are considered. Particular attention is paid to the role of humanistic values and tolerance in the formation of a harmonious society, which Navoi describes in his works. The relevance of his ideas in the modern world is emphasized.

Key words: Alisher Navoi, humanism, tolerance, ideal society, morality, justice, culture, dialogue, philosophy.

ALISHER NAVOIY IDEAL JAMIYATI TUSHUNCHASIDAGI GUMANIZM VA BAG‘RIKENGLIK

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy ijodida keltirilgan ideal jamiyat konsepsiyasidagi insonparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalari tahlil qilingan. Uning falsafasining adolatga, shaxsni hurmat qilishga, madaniyatlararo muloqotga va axloqiy yuksaltirishga asoslangan asosiy tamoyillari ko‘rib chiqiladi. Navoiy o‘z asarlarida insonparvarlik qadriyatlari va bag‘rikenglikning barkamol jamiyatni shakllantirishdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratilgan. Uning g'oyalari zamonaviy dunyoda dolzarbligi ta'kidlangan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, insonparvarlik, bag‘rikenglik, ideal jamiyat, axloq, adolat, madaniyat, muloqot, falsafa.

Введение. Алишер Навои (1441–1501) является одним из крупнейших мыслителей и поэтов Востока, чье философское наследие остается актуальным и сегодня. В его произведениях ярко выражены идеи гуманизма и толерантности, которые он считал основой справедливого и процветающего общества. Навои подчеркивал важность уважения к человеческому достоинству, равенства народов и культур, а также необходимости нравственного совершенствования личности. Вопросы гуманизма и терпимости в его трудах находят отражение в контексте исламской этики, суфийской философии и социально-политической мысли того времени. Цель данной статьи – раскрыть концепцию идеального общества в произведениях Алишера Навои, выявить основные принципы его гуманизма и толерантности, а также показать их значение для современного мира.

Обзор литературы. Исследование гуманистических идей Алишера Навои ведется на стыке философии, истории, литературоведения и культурологии. В трудах таких исследователей, как Б.Г. Гафуров [1], Л.М. Исаев [2] и А.Ф. Мирзаев [3], подчеркивается роль Навои в формировании гуманистической традиции в средневековом Востоке. Они отмечают, что его творчество глубоко связано с суфийскими воззрениями, которые формировали представление о духовном совершенствовании человека.

Другие авторы, включая Э.Р. Рустамова [4] и С.Х. Саидова [5], анализируют влияние Навои на развитие философии толерантности в Средней Азии. Они рассматривают его идеи через призму исламской правовой традиции и нравственной философии. Исследования показывают, что Навои одним из первых сформулировал принципы межкультурного диалога, социальной справедливости и необходимости уважения к другим религиозным и этническим группам.

Методология исследования

Исследование данной проблемы основано на междисциплинарном подходе, включающем философский анализ, сравнительный метод и элементы критической теории.

Гуманистические идеи Алишера Навои базируются на принципах уважения к человеческой личности, равенства людей перед Богом и важности образования. В его трудах, таких как «Махбуб ул-кулуб» («Возлюбленный сердец»), подчеркивается значимость просвещения и добродетели. Навои считал, что гармоничное общество невозможно без высоких моральных качеств граждан, справедливого управления и равноправия.

Навои призывал правителей быть мудрыми и справедливыми, защищать бедных и слабых, а также способствовать развитию науки и культуры. В его произведениях можно найти обоснование социальной ответственности власти и важности нравственного совершенствования лидеров общества. Он подчеркивал, что без духовного развития правителя невозможно построить справедливое общество. В его произведении «Садди Искандари» (Стена Искандера) отражены идеи справедливого управления, основанного на принципах добра, мудрости и заботы о людях.

Анализ и результаты исследования

В своих трудах Алишер Навои неоднократно обращается к вопросу мирного сосуществования народов, уважения к представителям различных конфессий и этнических групп. В Средневековье, когда религиозные и культурные конфликты были нередким явлением, Навои утверждал идею толерантности как основы мирного сосуществования.

Он подчеркивал, что уважение к другим культурам и религиям делает общество более стабильным и развитым. В его поэтических произведениях встречаются образы мудрых наставников, которые учат своих учеников терпимости, уважению к иным взглядам и стремлению к добру. Одним из ключевых аспектов его гуманистического подхода была идея того, что религиозное и культурное многообразие являются богатством общества, а не угрозой его целостности.

Навои утверждал, что духовное и нравственное развитие человека должно быть приоритетом общества. Он считал, что воспитание добродетели, милосердия, честности и уважения к другим является основой устойчивого общественного порядка. Суфийская философия, оказавшая влияние на взгляды Навои, учила очищению души и стремлению к высшей истине через любовь и терпимость.

В произведениях Навои часто встречаются образы справедливых судей, мудрых правителей и простых людей, проявляющих великодушие и сострадание. В своем труде «Фархад и Ширин» он показывает идеал правителя, который руководствуется принципами любви и заботы о своем народе. Таким образом, его концепция нравственного общества включала в себя гармонию между духовностью, знанием и социальной справедливостью.

Герои Навои по своей природе обладают высокой гуманностью, которая, по сути, отражает гуманизм самого Навои. Его герои отчаянно борются за свободу своей страны, за ее благополучие и счастье, причем ненависти нет у героев и по отношению к другим странам и народам, в чем проявляется идеи толерантности у Алишера Навои.

Заботясь о благе своего народа, любимые герои Навои – Фархад и Искандер, не могут в то же время безразлично относиться к судьбам других народов, стран, применяя всяческие старания для избавления их от горя.

Вспомним великий подвиг Фархада во имя народа армен, который мучился от безводья, он, не раздумываясь прорывает канал и дает им воду – источник жизни и процветания. Навои, говоря об этом поступке Фархада отмечает, что доселе ни один из рода человеческого не делал такого поступка, который поистине восхищает саму Ширин и в ее лице весь народ армен:

«Когда он это дело завершил,
И город он снабдить водой решил.
А город был внизу, и без воды
Там огороды гибли и сады.
Фархад исчислил высоту, — она
Двум тысячам локтей была равна.
И с этой кручи вниз пустил Фархад
За водопадом в город — водопад.

И так благодаря его трудам
Все люди воду получили там…»[1].

Другой поступок Фархада во имя свободы и независимости чужой для него страны армен заключается в его борьбе с Хосровом, в результате которой он погибает. Даже в последние минуты своей жизни Фархад думает о свободе армен и призывает Бахрама прийти с войском и расправиться с захватчиками:

«Молочный брат, духовный мой двойник,
Товарищ верный мой, мой ученик,
Скорей сюда с войсками соберись,
Чтоб отомщенья не избег Парвиз!
И часу не теряй в пути — спеши,
Убийцу моего найти спеши —
Да отвернется небо от него! —
И кровь мою потребуй от него!..».[2]

В этих деяниях Фархада прослеживается большая и благородная любовь ко всему человечеству. Не чужды Фархаду любовь и преданность своей стране – Китаю, который сравнивает ее с раем на земле. Глубоко переживает он разлуку со своей отчизной, любовь к которой украшает и облагораживает душу героя[3].

Одним из благородных качеств для Навои является щедрость, готовность пойти на встречу людям, стоящим на нижних ступенях социальной лестницы. Щедрость Навои видит в том, чтобы делиться излишками благ с другими людьми. Но щедрость за счет народа Навои характеризует как социальное зло. Щедрость должна по мнению Навои иметь социальные рамки. Щедрость должна дойти до адресата в нужное время и в необходимом объеме. Причем тот, кто одаривает другого щедростью ни в коем случае не должен выставлять это дело напоказ.[4]

Щедрость не надо проявлять по отношению к тем, кто уже обладает состоянием, кто относительно состоятелен и к тунеядцам, кто в состоянии работать, но по различным уловкам отказываются это делать. Конечно, это актуально и на сегодняшний день, так как государство, как обладатель этой щедрости тоже старается наделить другим социальными благами, но многие тоже пользуются не по назначению этими благами. Проявление щедрости к вышеуказанным группам людей Навои считает преступлением:

«Ты можешь сыпать горсти серебра,
Но только ради блага и добра.
А из тщеславия деньги раздавать,
Для хвастовства горстями их бросать
Грешно, постыдно! Это дар пустой;
И скупость лучше щедрости такой»[5].

[1] Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Фархад и Ширин. Т IV. Т. Фан. 1968. С.129.
[2] Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Фархад и Ширин. Т IV. Т. Фан. 1968. С.342.
[3] Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Смятение праведных. Том III. Т. 1968. С.102-111.
[4] Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Смятение праведных. Том III. Т. 1968. с. 70-78.
[5] Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Смятение праведных. Том III. Т. 1968. с.72.

Героям Навои чужды корысть, жадность, зависть. Эти качества присущи по мнению Навои людям, стремящимся к наживе. Корыстные намерения таких людей Навои сравнивает с мышиной возней[6]. В этих пороках Навои усматривает источник многих социальных бед.

Выводы

Refleksiya pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi va baholashidir. Bu tamoyil o‘qituvchining kasbiy o‘sishini ta’minlaydi va uning pedagogik jarayonni samarali boshqarishiga imkon beradi. O‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib, yangi metodlarni va strategiyalarni ishlab chiqadi, bu esa uning o‘quvchilariga ta’sir ko‘rsatishini ta’minlaydi. Reflektiv o‘qituvchi o‘z faoliyatiga baho berish orqali o‘zgaruvchan ta’lim sharoitlariga moslashadi va sifatli ta’lim jarayonini yaratadi [6,36].

2. **O‘z-o‘zini anglash va o‘zini rivojlantirish tamoyili**

O‘z-o‘zini anglash va o‘zini rivojlantirish tamoyili pedagogning o‘z imkoniyatlarini tahlil qilishini, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashni anglatadi. Bu tamoyil pedagogning shaxsiy va kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. O‘z-o‘zini anglagan o‘qituvchi, o‘zining imkoniyatlari va salohiyatiga ishonib, o‘z faoliyatini samarali boshqaradi. O‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni o‘qituvchining professional o‘sishiga va shaxsiy hayotida ham muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi[7,68].

3. **Maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili**

Maqsadga yo‘naltirilganlik pedagogning aniq va realistik maqsadlarni belgilashi, ta’lim jarayonida ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan metodlarni ishlab chiqishidir. Maqsadga yo‘naltirilgan pedagog faoliyati, ta’lim jarayonining samarali va tizimli ravishda amalga oshirilishini

ta’minlaydi. O‘qituvchi pedagogik jarayonni maqsadli ravishda rejalashtirib, o‘z faoliyatining natijalarini prognozlash imkoniyatiga ega bo‘ladi[8,45-50]

4. **Innovatsionlik va yangilikka ochiqlik tamoyili**

Innovatsionlik tamoyili ta’lim jarayonida yangi yondashuvlarni, texnologiyalarni va metodlarni qo‘llashga tayyorlikni ifodalaydi. Zamonaviy ta’limda o‘qituvchidan yangiliklarga ochiqlik, innovatsion yondashuvlarga moslashuvchanlik talab etiladi. Innovatsion pedagog o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi va ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Yangilikka ochiq o‘qituvchi o‘z faoliyatida innovatsion metodlarni joriy etib, o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi[9,56-62].

5. **Ichki motivatsiya tamoyili**

Ichki motivatsiya pedagogning o‘z faoliyatiga bo‘lgan ichki ehtirosi va qiziqishini anglatadi. Pedagogik faoliyatda ichki motivatsiya o‘qituvchining o‘z ishiga bo‘lgan ishtiyoqini, tashqi rag‘batlardan tashqari o‘ziga ishonch hosil qilishini bildiradi. O‘qituvchi ichki motivatsiyaga ega bo‘lib, o‘z faoliyatini samarali olib boradi va pedagogik jarayonda muvaffaqiyatga erishadi[10,13-19]. O‘qituvchining ichki motivatsiyasi nafaqat uning kasbiy o‘sishiga, balki o‘quvchilarga ta’sir etishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

6. **Kasbiy identifikatsiya tamoyili**

Kasbiy identifikatsiya tamoyili pedagogning o‘z kasbiga nisbatan sadoqatini, unga bo‘lgan ichki aloqasini va uning ijtimoiy vazifasini anglashini ifodalaydi. Kasbiy identifikatsiya yuqori bo‘lgan o‘qituvchi o‘z ishini nafaqat individual yondashuvda, balki jamoaviy maqsadlarni amalga oshirishda ham muvaffaqiyatli bajaradi. O‘qituvchi o‘zini ta’lim tizimining muhim subyekti sifatida his etadi va pedagogik faoliyatda faol qatnashadi [11, 48-53].

7. **Shaxsiy o‘sishni ta’minlovchi rivojlanish tamoyili**

Shaxsiy o‘sishni ta’minlovchi rivojlanish tamoyili pedagogning o‘z salohiyatini maksimal darajada amalga oshirishiga imkon yaratadi. Akmeologik tamoyillarga tayangan holda pedagog o‘z ustida ishlaydi va o‘zini professional darajada takomillashtiradi. Bu tamoyil pedagogni mukammallikka erishish uchun o‘ziga doimiy talablar qo‘yishga undaydi va uning shaxsiy o‘sishini ta’minlaydi[4, 118].

Akmeologik tamoyillarning pedagogik amaliyotda qo‘llanishi bir qator amaliy afzalliklarga ega. Birinchi navbatda, bu tamoyillar pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tartibga soladi va o‘z-o‘zini baholashga imkon beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar pedagogik jarayonni yangilashga va samaradorligini oshirishga qaratilgan maqsadlarni amalga oshirishga qodir bo‘ladilar. O‘qituvchilarning reflektiv yondashuvni qo‘llashi, ularning kasbiy salohiyatini oshirishi va pedagogik jarayonni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar va yangiliklarga ochiqlik o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishga, mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, akmeologik tamoyillar pedagogik faoliyatda samarali ishlatilgan taqdirda, nafaqat o‘qituvchining o‘zini rivojlantirishiga, balki ta’lim jarayonining umumiy sifatini oshirishga ham imkon yaratadi. Bu tamoyillar yordamida o‘qituvchilar ta’lim metodlarini yangilab, o‘z malakalarini oshirish orqali o‘quvchilarning bilim darajasini yanada yuqori darajaga ko‘tarishlari mumkin.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

TAHLIL VA NATIJALAR

Refleksiya tamoyili – pedagog o‘z faoliyatini muntazam ravishda tahlil qilib, o‘z harakatlarining samaradorligini baholaydi va xatolar ustida ishlaydi[6,72]. Bu tamoyil o‘qituvchining tanqidiy fikrlash, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanlik va adaptivlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini rivojlantirish tamoyili – bu tamoyil pedagog shaxsining ichki salohiyatini anglab yetishi, kuchli va zaif jihatlarini aniqlashi, hamda rivojlanishga yo‘naltirilgan shaxsiy strategiyalar ishlab chiqishini nazarda tutadi [7,118].

Maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili – o‘qituvchining kasbiy faoliyati muayyan, aniq maqsadlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Bu esa pedagogik faoliyatni samarasini oshiradi, unga aniq yo‘nalish beradi [8,82].

Innovatsionlik va yangilikka ochiqlik tamoyili – zamonaviy ta’lim sharoitida pedagog har doim yangi g‘oya, metod va texnologiyalarni o‘zlashtirishga tayyor bo‘lishi kerak[9,62]. Ushbu tamoyil doirasida o‘qituvchi nafaqat bilim yetkazuvchi, balki yaratuvchi subyekt sifatida ko‘riladi.

Ichki motivatsiyaga tayanish tamoyili – pedagog o‘z kasbini faqat tashqi rag‘batlar bilan emas, balki ichki ehtiyoj asosida sevib va anglab bajarishi kerak[10,19]. Bu holat kasbiy toliqishning oldini olishda, shaxsiy resurslarni tejashda va ijodiy yondashuvni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tamoyillar asosida shakllangan pedagogik faoliyat, o‘z navbatida, shaxsiy kompetensiyalarning o‘sishini ta’minlaydi. Rus olimi A.Derkach ta’kidlaganidek, pedagogik akmeologiya kasbiy yuksalishning quyidagi pog‘onalarini ifodalaydi: bilim va ko‘nikmalar → kasbiy kompetensiya → refleksivlik → ijodkorlik → kasbiy liderlik[8,88].

Pedagog o‘z faoliyatida akmeologik yondashuvni qo‘llaganida, o‘z kasbiy “akme” holatiga erishish yo‘lida quyidagi natijalarga erishadi:

- kasbiy o‘zgaruvchanlikka tayyorlik;
- doimiy yangilanish va izlanishga intilish;
- ijtimoiy va kasbiy faollikning oshishi;
- o‘z-o‘zini anglash va baholashda realizm;
- shaxsiy barqarorlik va ruhiy muvozanat.

Zamonaviy o‘qituvchilarni tayyorlashda akmeologik tamoyillardan foydalanish tizimlilikni, ilg‘or amaliyotga tayanuvchanlikni va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi. Olimlar A.Rean va N.Bordovskaya fikricha, pedagogik faoliyatda akmeologik yondashuv – bu o‘z ustida ishlovchi, zamonaviy metodlarni egallagan, o‘zgarishga tayyor, motivatsiyasi yuqori bo‘lgan ijodiy shaxsni shakllantirish vositasidir [11,108].

Shuningdek, akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’limiy-amaliy mashg‘ulotlar – masalan, kasbiy refleksiya treninglari, pedagogik portfoliolar, mentorlik dasturlari – pedagoglarda mustaqil qaror qabul qilish, o‘z faoliyatini tahlil qilish, kasbiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirishga xizmat qiladi[12,48]

Xulosa shuki, pedagogik faoliyatda akmeologik tamoyillardan foydalanish o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy kamolotini jadallashtirishda strategik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv

ta’lim jarayonida inson kapitalini rivojlantirish, shaxsning yuqori sifatli rivojlanishini ta’minlash va natijaviylikka erishishda alohida o‘rin tutadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Akmeologik tamoyillar pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga, o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi. Tadqiqotimizda ko‘rsatilganidek, akmeologik yondashuv pedagoglarning kasbiy o‘sishi va rivojlanishiga yordam beradi. O‘qituvchining o‘zini anglash, refleksiya, innovatsiyalarga ochiqlik va motivatsiya tamoyillari o‘z faoliyatini tahlil qilish, yangiliklarga moslashish va o‘quvchilarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda o‘qitish imkonini beradi.

Akmeologik tamoyillarni ta’lim jarayoniga joriy qilish orqali, nafaqat o‘qituvchining malakasi va shaxsiy salohiyati oshadi, balki o‘quvchilarning ta’lim sifatida va samarali natijalariga ham erishish mumkin. O‘qituvchilar o‘zlarining pedagogik maqsadlarini aniq belgilab, ta’lim jarayonini tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan ravishda olib boradilar. Bu jarayon o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va muvaffaqiyatli qiladi, ularning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, akmeologik tamoyillar pedagogik faoliyatni yangilash va innovatsion metodlarni joriy etish imkonini beradi. O‘qituvchining innovatsiyalarga ochiqligi, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishi va pedagogik metodlarni takomillashtirishi orqali ta’lim jarayonini yanada samarali qilish mumkin. Innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, ularda mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarga ko‘proq erkinlik berishga va ularning faolligini oshirishga imkon yaratadi.

Akmeologik tamoyillarni qo‘llash orqali o‘qituvchining kasbiy o‘sishi va shaxsiy rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘qituvchi o‘zini anglab, o‘zining zaif va kuchli tomonlarini tahlil qilish orqali kasbiy rivojlanishning yuqori darajalariga erishishi mumkin. O‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini anglash tamoyillariga asoslanib, o‘qituvchilar o‘z kasbiy maqsadlariga erishishda samarali usullarni topadilar.

Tavsiyalar

Akmeologik tamoyillarni o‘qituvchilarni tayyorlash tizimiga kiritish: Akmeologik tamoyillarni o‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga joriy qilish o‘qituvchining professional o‘sishini ta’minlaydi. O‘qituvchilarni akmeologik yondashuvga asoslangan metodlar va strategiyalarni o‘rgatish, ularning ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagoglarning innovatsion usullardan foydalanish va shaxsiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari oshadi.

O‘qituvchilarni o‘z-o‘zini baholashga rag‘batlantirish: O‘qituvchilarni o‘z faoliyatini tahlil qilish va refleksiya qilishga rag‘batlantirish muhimdir. Pedagogik jarayonda o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish o‘qituvchining kasbiy o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, o‘qituvchilarga o‘z faoliyatini reflektiv tarzda baholash imkoniyatlari yaratish zarur. Bu o‘qituvchilarni o‘z faoliyatini yaxshilashga va yangilashga undaydi.

Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish: Akmeologik tamoyillarni qo‘llashda innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish zarur.

O‘qituvchilarni yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish, ta’lim jarayonida interaktiv va innovatsion metodlarni qo‘llash imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularning faolligini rag‘batlantirishga yordam beradi.

O‘qituvchilarga individual rivojlanish rejasini tuzish imkoniyatini yaratish: O‘qituvchilarga individual rivojlanish rejalarini tuzish imkoniyatini yaratish ularning kasbiy o‘sishini ta’minlaydi. O‘qituvchilarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish uchun o‘zgaruvchan va moslashuvchan rivojlanish rejalarini ishlab chiqish muhimdir. Bu rejalar o‘qituvchining o‘z ustida ishlashini, yangi bilimlarni o‘zlashtirishini va ta’lim jarayonini samarali boshqarishini ta’minlaydi.

Kasbiy identifikatsiya va motivatsiyani oshirish: O‘qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlash va ichki motivatsiyani oshirish uchun ularni o‘z kasbiga bo‘lgan sadoqatini rivojlantirishga rag‘batlantirish kerak. Pedagoglarni kasbiy o‘zini anglash va o‘z faoliyatini yuqori sifatda bajarishga undovchi motivatsiya tizimlarini yaratish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Motivatsiya va kasbiy identifikatsiya o‘qituvchining ta’limga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi va o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim berishga imkon beradi.

Shaxsiy rivojlanish va professional o‘sish uchun imkoniyatlarni kengaytirish: O‘qituvchilarga professional o‘sish va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularning motivatsiyasi va kasbiy salohiyatini oshirish mumkin. O‘qituvchilarni ta’limdagi yangi yondashuvlar va metodlar bilan tanishtirish, ularga o‘z malakalarini takomillashtirish imkonini yaratadi. Shuningdek, o‘qituvchilarga o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun muntazam ravishda treninglar va seminarlarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish lozim.

Tadqiqotimizda akmeologik tamoyillar pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu tamoyillar o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilarga o‘z faoliyatini reflektiv tarzda tahlil qilish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, shaxsiy rivojlanish va kasbiy salohiyatni oshirish imkoniyatlari taqdim etilishi kerak. Akmeologik tamoyillarni ta’lim jarayoniga qo‘llash orqali, nafaqat o‘qituvchilarning malakasi oshadi, balki o‘quvchilarning ta’lim sifati ham yaxshilanadi. Bu tamoyillar pedagogning professional o‘sishini rag‘batlantiradi va zamonaviy ta’lim talablariga moslashish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нарбеков, М. Акмеологиянинг назарий асослари, Тошкент, 2018.
2. Шадриков, В.Д. Акмеология: предмет и задачи. Москва, 2004.
3. Ҳасанбоева, М. Педагогик технологиялар асослари. Тошкент, 2020.
4. Деркач, А., Зазыкин, В. Акмеология: Основй профессионалного и личностного развития. Москва: РАГС. 2003.
5. Леонтев, А. Н. Деятелност. Сознаниэ. Личност. Москва: Смысл. 2004.
6. Карпов А. Рефлекция как психологическоэ свойство и метод психологии. Москва: Институт психологии РАН. 2004.
7. Якиманская И. Личностно-ориентированное обучение: Развитие индивидуалности учашчегося. Москва: Сентябрь. 2003.
8. Деркач А. Акмеология: Учебник для ВУЗов. Москва: РАГС. 2000.
9. Зазыкин В. Инноватсии в акмеологии: теория и практика. Акмеология, №4, 2004.

10. Васильева Э. Мотивация профессионалной деятелности педагога: Психҳолого-акмеологический аспест. Вестник практической психологии образованияю №2, 2010.
11. Реан А., Бордовская Н. Психология и педагогика. Санкт-Петербург: Питер. 2001.
12. Воронкова, В. Акмеологический подкҳод в системе повйшения квалификатсии педагогов. Педагогика, №6. 2011.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Gulnozakhon Kholmatova Izzatalievna
Master's degree student
Uzbek language and literature
Namangan State Pedagogical Institute

Doctor of Science in Philosophy, Professor
Khaydarov Komil Donaboyevich

Received 4th April 2025, Accepted 11th April 2025, Online 18th April 2025

THE USE OF PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGY IN STUDYING ALISHER NAVOI'S WORKS IN LITERATURE CLASSES FOR UPPER-GRADE STUDENTS

Annotation: This article analyzes the pedagogical potential of the problem-based learning (PBL) technology in teaching the literary works of Alisher Navoi to high school students. It explores how PBL fosters critical and creative thinking, analytical skills, logical reasoning, and contextual interpretation of literary texts. The article also outlines practical methods for integrating PBL into literature lessons and emphasizes its contribution to deeper understanding and student engagement. In particular, the creation of problem situations based on Navoi's works is shown to enhance interpretative discussions and motivate students to take an active role in their learning process. The findings demonstrate that PBL significantly improves the effectiveness of teaching Navoi's works in senior grades.

Keywords: Problem-based learning, Alisher Navoi's creativity, high school literature education, critical thinking, creative reasoning, methodological approach, literary analysis, independent learning, modern pedagogy, personalized education, student motivation.

YUQORI SINF O'QUVCHILARI ADABIYOT DARSLARIDA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilarining adabiy-estetik tafakkurini shakllantirishda Alisher Navoiy ijodini chuqur va mazmunli o'rganishga qaratilgan muammoli ta'lim texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muammoli ta'lim orqali o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, tahliliy yondashuv, mantiqiy mushohada yuritish, adabiy matnlarni kontekstda talqin qilish kabi ko'nikmalar shakllanishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, maqolada ushbu texnologiyaning adabiyot darslaridagi tatbiq usullari, o'quv faoliyatida o'zlashtirish darajasini oshirishga qo'shadigan hissasi, shuningdek, muammoli vaziyatlar yaratishning metodik tavsiyalari beriladi. Tadqiqot natijalari muammoli ta'limning yuqori sinflarda Alisher Navoiy asarlarini o'rganishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: Muammoli ta'lim texnologiyasi, Alisher Navoiy ijodi, yuqori sinf adabiyot darslari, tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur, metodik yondashuv, adabiy tahlil, mustaqil ta'lim, zamonaviy pedagogika, shaxsiylashtirilgan o'quv, o'quv motvatsiyasi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ ДЛЯ СТАРШИХ КЛАССОВ

Аннотация: В данной статье анализируется педагогический потенциал технологии проблемного обучения (PBL) в преподавании литературных произведений Алишера Навои учащимся старших классов. В ней рассматривается, как PBL способствует развитию критического и творческого мышления, аналитических навыков, логического рассуждения и контекстной интерпретации литературных текстов. В статье также излагаются практические методы интеграции PBL в уроки литературы и подчеркивается его вклад в более глубокое понимание и вовлеченность учащихся. В частности, показано, что создание проблемных ситуаций на основе произведений Навои усиливает интерпретационные дискуссии и мотивирует учащихся принимать активное участие в процессе обучения. Результаты показывают, что PBL значительно повышает эффективность преподавания произведений Навои в старших классах.

Ключевые слова: проблемное обучение, творчество Алишера Навои, литературное образование в старшей школе, критическое мышление, творческое рассуждение, методологический подход, литературный анализ, самостоятельное обучение, современная педагогика, персонализированное образование, мотивация учащихся.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, adabiy-estetik dunyoqarash va ma’naviy-intellektual salohiyatini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Ayniqsa, o‘zbek adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri bo‘lmish Alisher Navoiy merosini o‘rganishda mazkur yondashuvlarning dolzarbligi yanada ortadi. Chunki Navoiy ijodi nafaqat adabiy-ma’naviy yodgorlik, balki axloqiy, falsafiy, estetik, diniy va ijtimoiy tafakkur namunasi sifatida ham o‘quvchi shaxsini shakllantirishda beqiyos manba vazifasini bajaradi.

Biroq an’anaviy darslarda bu bebaho manbani o‘quvchilarga yetkazishda ko‘p hollarda yuzaki va informatsion yondashuvlar ustuvor bo‘lib, o‘quvchilar faqat ma’lumotni yod olish bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa Navoiy asarlarining ma’naviy-estetik mohiyatini chuqur anglash va uni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirishga to‘sqinlik qiladi[1.23,41]. Ana shunday sharoitda ta’lim jarayoniga muammoli ta’lim texnologiyasini joriy etish – o‘quvchilarda chuqur tafakkur, savolga asoslangan o‘rganish va ijodiy yondashuvni shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil izlovchi va yaratishga qodir faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilari uchun bu usul o‘z fikrini erkin bayon etish, matnni tahlil qilish, tarixiy-estetik va kontekstual tafakkur asosida muammoga yondashish, shuningdek, adabiy asarlar orqali hayotiy qadriyatlarni anglashga yordam beradi[2,46].

Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari, metodik yondashuvlari va amaliy afzalliklari tahlil qilinadi.

Tadqiqot ta’limda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali yuqori sinf o‘quvchilarining adabiyot faniga nisbatan qiziqishini oshirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ma’naviy kamolotini ta’minlash yo‘llarini ochib beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy pedagogikada muammoli ta’lim texnologiyasi ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirish, o‘quvchini bilim egallash jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan ilg‘or metodlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu texnologiyaning mohiyati o‘quvchi ongida bilishga, aniqlikka, asoslashga ehtiyoj tug‘diruvchi muammoli vaziyatlar orqali bilim berishga asoslanadi. Muammoli ta’limda asosiy e’tibor o‘qituvchining tayyor bilimni berishiga emas, balki o‘quvchining o‘zi izlanish orqali shu bilimga ega bo‘lishiga qaratiladi[1,75,81]. Bunday yondashuvda o‘quvchining mustaqil fikrlash qobiliyati, tanqidiy qarashi, mantiqiy va ijodiy tafakkuri rivojlanadi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlarda muammoli ta’limning zamirida “bilish ehtiyoji”, “kutilmaganlik effekti” va “muammoga javob izlash” kabi psixologik omillar yotadi. Shu sababli bu texnologiya V. V. Davydov, D. B. Elkonin, M. I. Muxina kabi olimlar tomonidan shaxsning faol bilishiy faoliyatini rag‘batlantirishda kuchli motivator sifatida talqin qilinadi[3,95]. Ayniqsa, adabiyot kabi gumanitar fanlarda bu yondashuv o‘quvchining faqat matnni o‘qib chiqish emas, balki uni chuqur tahlil qilish, anglash va hayotiy ma’nolarni topish jarayonida faol qatnashishini ta’minlaydi [3,120].

Adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish esa o‘quvchilarning adabiy-estetik dunyoqarashini kengaytirish, matnga bo‘lgan individual munosabatini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. An’anaviy yondashuvda o‘quvchi matn mazmunini yod olish va muallif fikrini takrorlash bilan cheklansa, muammoli yondashuv orqali u matndagi ichki ziddiyatlar, ijtimoiy-axloqiy muammolar, obrazlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar ustida fikr yuritadi, savollar qo‘yadi, taxminlar bildiradi va muqobil yechimlar taklif qiladi [4, 68,89].

Masalan, Alisher Navoiy ijodida aks etgan “inson kamoloti”, “adolat va zulm”, “haqiqat va yolg‘on”, “ishq va riyo” kabi mavzular o‘quvchilarning ongida savollar tug‘dirish, tahliliy munosabat bildirish, obrazlar faoliyati orqali muammoli fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Dars davomida “Navoiy nega aynan bu syujetni tanlagan?”, “Obrazlar o‘rtasidagi ziddiyat qanday hal bo‘ladi?”, “Ushbu syujet bugungi hayot bilan qanday bog‘liq?” kabi savollar orqali o‘quvchilarning muammoli fikrlash faoliyati rivojlanadi.

Shuningdek, muammoli ta’limning adabiyot darslariga integratsiyasi nafaqat predmetni chuqur o‘zlashtirish, balki o‘quvchining o‘z fikrini asoslash, bahslashish madaniyatini rivojlantirish, o‘z pozitsiyasini himoya qilish kabi kommunikativ kompetensiyalarni ham shakllantirishga yordam beradi [5, 150]. Bu holatda o‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va fikrlashga undovchi muallif sifatida ishtirok etadi.

Shunday qilib, muammoli ta’lim texnologiyasining nazariy asoslarini adabiyot darslarida amaliy qo‘llash imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish yuqori sinf o‘quvchilarining shaxsiy va intellektual kamoloti uchun katta zamin yaratadi. Ushbu yondashuv o‘quvchining nafaqat adabiy matnni o‘rganishdagi faolligini, balki hayotiy voqeliklarga o‘z munosabatini bildiruvchi yetuk shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Alisher Navoiy ijodi o‘zining badiiy-falsafiy mazmuni, insoniy kamolotga da’vat etuvchi g‘oyalari va murakkab obrazlar tizimi bilan o‘quvchilarda nafaqat estetik zavq uyg‘otadi, balki ularda hayotiy va ijtimoiy muammolar ustida chuqur mushohada yuritish ko‘nikmasini shakllantirish imkonini beradi[6, 202]. Aynan shu xususiyatlari sababli, Navoiy asarlaridan adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasi vositasida samarali foydalanish mumkin. Uning har bir asari chuqur falsafiy qatlamga ega bo‘lib, undagi g‘oyalar o‘quvchini o‘ylantiradi, savollar tug‘diradi, hayotiy tanlovlar ustida fikr yuritishga chorlaydi.

Navoiy “Xamsa”sida keltirilgan har bir doston o‘ziga xos g‘oyaviy yadroga ega bo‘lib, ular ichida insoniyat oldidagi abadiy muammolar – adolat va zulm, haqiqat va yolg‘on, fidoyilik va xudbinlik, din va jaholat, sevgi va sadoqat kabi masalalar badiiy tasvirda ifodalanadi [6, 211]. Masalan, “Hayrat ul-abror” dostonida podshoh va donishmand suhbati orqali adolatli boshqaruv masalasi muammoli nuqtai nazardan ochib beriladi. Bu sahnani darsda tahlil qilishda o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi muammoli savollarni bera oladi: “Podshohning adolat haqidagi tushunchasi sizda qanday taassurot qoldirdi?”, “Zamonamiz yetakchilari shu yondashuvdan qanday foydalansa bo‘ladi?”, “Donishmandning tanbehi nega o‘tkir bo‘ldi?”.

Yoki “Farhod va Shirin” dostonidagi sevgi, fidoyilik, sadoqat va qurbonlik motivlari zamirida yotgan ziddiyatlar o‘quvchilarning darsdagi faol fikrlashiga asos bo‘la oladi. Farhod obrazini tahlil qilishda, o‘quvchilarga quyidagicha muammoli savollar berilishi mumkin: “Farhod sevgisi yo‘lida o‘z hayotini qurbon qildi – bu fidoyilikni siz qanday baholaysiz?”, “Bugungi yoshlar hayotida shunday sadoqatli muhabbat mavjudmi?”, “Aql va tuyg‘u to‘qnashuvi Farhod qismatida qanday namoyon bo‘ladi?”. Bu kabi savollar yordamida o‘quvchi nafaqat syujetni tushunadi, balki undagi falsafani, obrazlar ruhiyatini, jamiyat bilan bog‘liqligini anglaydi.

Navoiy asarlarining yana bir muhim jihati – ularning zamonaviylik bilan uzviy aloqasidir [7, 6]. Uning “Sab’ai sayyor” yoki “Saddi Iskandariy” dostonlarida tasvirlangan siyosiy va ma’naviy muammolar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Dars jarayonida o‘quvchilardan “Iskandarning bilimga bo‘lgan ehtiyoji qanday ma’naviy saboqlarga asoslanadi?”, “Donolik va kuchning muvozanati haqida Navoiy qanday fikr bildiradi?”, “Bugungi yetakchilikda ilmiy tafakkurning o‘rni qanday?” kabi savollar orqali tarixiy matn bilan zamonaviy tafakkur o‘rtasida muammoli ko‘prik quriladi.

Shuningdek, Navoiy g‘azallaridagi ishq, dunyo va ilohiy kamolot mavzulari ham o‘quvchilarni muloqotga chorlaydigan, ular fikrini chuqurlashtiradigan vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan, “Ul kecha jonon keldi” yoki “Ko‘nglum o‘zin bilmayin jonimda jonon ko‘rdim” kabi g‘azallar tahlilida shaxsiy va ilohiy ishq o‘rtasidagi farqni muhokama qilish orqali o‘quvchilarning abstrakt tafakkur ko‘nikmasi rivojlanadi.

Shu tariqa, Alisher Navoiy ijodidan muammoli ta’lim texnologiyasi asosida foydalanish o‘quvchilarda faqat bilim emas, balki chuqur tahlil, ijodiy yondashuv, ma’naviy-estetik ong, shaxsiy pozitsiya shakllanishiga olib keladi. Bu yondashuv orqali o‘quvchi Navoiy g‘azallarini yoki dostonlarini emas, balki ular orqali o‘zini, jamiyatini, hayotni anglay boshlaydi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa bu jarayon shaxsni barkamol etishda muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqori sinf adabiyot darslarida Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda muammoli ta’lim texnologiyasini samarali qo‘llash o‘qituvchidan metodik jihatdan puxta tayyorgarlik, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, estetik dunyoqarashini, shaxsiy tafakkur darajasini inobatga olishni talab etadi. Muammoli ta’lim – bu o‘quvchilarning bilimlarni tayyor shaklda emas, balki mustaqil izlanish, savol-javob, tahlil va bahs orqali egallashiga asoslangan pedagogik texnologiya bo‘lib, uning metodik qo‘llanilishi aniq bosqichlarga tayanadi [6, 212].

Birinchi bosqich – muammoli vaziyat yaratish. O‘qituvchi darsni oddiy faktlar yoki izohlar bilan emas, balki o‘quvchining fikr yuritishiga undaydigan savol yoki ziddiyatli vaziyat bilan boshlashi kerak. Masalan, “Farhod sevgisi uchun o‘z hayotini fido qildi – bu fidoyilikmi yoki isrofgarchilik?” kabi provokatsion savollar o‘quvchini darsga jalb etadi. Bunday savollar Navoiy dostonlaridagi g‘oya va obrazlarni bugungi hayot kontekstida qayta ko‘rib chiqishga undaydi.

Ikkinchi bosqich – muammoni mustaqil tahlil qilishga yo‘naltirish. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga Navoiy asarlaridan tegishli parcha, g‘azal yoki doston bobini o‘qitib, u bilan ishlash vazifasini beradi. O‘quvchilar matnni o‘rganar ekanlar, o‘z fikrini ilgari surish, dalillar keltirish, boshqa fikrlarni tinglash va tanqidiy baholash ko‘nikmasini shakllantiradilar. Masalan, “Layli va Majnun” dostoni asosida “Ishq insonga kuch beradimi yoki uni ojiz qiladi?” degan savol ustida guruh bo‘lib ishlash samarali bo‘ladi.

Uchinchi bosqich – yechimlarni taqqoslash va umumlashtirish. Dars davomida ilgari surilgan g‘oyalar asosida o‘qituvchi har bir o‘quvchining yondashuvini muhokamaga qo‘yadi, ularning fikrlaridagi ijobiy va salbiy jihatlarni tahlil qiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning aytgan fikrlari orasidan eng asosli, mantiqiy va adabiy dalillarga tayangan yondashuvlar ajratib olinadi va umumlashtiriladi [7, 5]. Bu bosqichda o‘quvchilarning fikrlar xilma-xilligini qadrlashga, bahs madaniyatiga amal qilishga o‘rgatish muhim.

To‘rtinchi bosqich – natijaviy tahlil va refleksiya. Dars oxirida o‘qituvchi o‘quvchilardan o‘z fikrlarini qayta baholashni, darsdagi muhokamalar asosida dastlabki pozitsiyalarining o‘zgargan yoki o‘zgarmaganini aniqlashni so‘raydi. Bu orqali o‘quvchi nafaqat bilim, balki o‘z-o‘zini anglash, tafakkur qilish, boshqalarning fikriga ochiq bo‘lish, debatlarga tayyor turish madaniyatini ham o‘zlashtiradi [8, 35,39].

Muammoli ta’lim texnologiyasining metodik qo‘llanilishi davomida quyidagi metodlar samarali natija beradi:

Savol-javob metodi – o‘qituvchi tomonidan berilgan ochiq savollar orqali o‘quvchi fikr yuritishga yo‘naltiriladi.

Klaster va aqliy hujum usullari – muayyan obraz yoki g‘oya atrofida turli fikrlarni jamlab, ularni tizimlashtirishga yordam beradi.

“Fikrlar kontrasti” metodi – o‘quvchilarning bir-biriga zid fikrlari muhokama qilinib, o‘zaro solishtirishga undaydi.

Rolli o‘yinlar va dramatizatsiya – ayniqsa, dostonlar asosida sahnalashtirish orqali o‘quvchilarda obrazli tafakkur va empatiya shakllanadi.

Shunday qilib, muammoli ta’lim texnologiyasi Alisher Navoiy asarlarini yuqori sinf o‘quvchilariga chuqur tahlil qildirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, estetik didini o‘stirish va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega. Uning metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi

esa adabiyot darsini oddiy ma’lumot berish vositasidan muloqot, tahlil va ijodiy izlanish maydoniga aylantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqori sinf o‘quvchilari uchun adabiyot darslarida Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda muammoli ta’lim texnologiyasini qo‘llash – nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, adabiy-estetik tahlil qilish, hayotiy qarashlar shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot davomida muammoli ta’limning nazariy asoslari va uning adabiyot darslarida qo‘llash mexanizmlari chuqur o‘rganilib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Muammoli ta’lim texnologiyasi – o‘quvchining faolligini oshiradi, uni bilimlarni tayyor qabul qiluvchidan, faol izlovchi va tahlilchi shaxsga aylantiradi. Bu texnologiya Navoiy asarlaridagi murakkab g‘oyalarni o‘quvchi ongiga yaqinlashtirishda samarali vositadir.

Adabiyot darslarida muammoli vaziyat yaratish, o‘quvchining adabiy matn bilan faol ishlashi, savolga nisbatan o‘z shaxsiy munosabatini bildirish, bahs-munozarada ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa adabiy-estetik tafakkurni rivojlantiradi.

Muammoli ta’limni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish – darsni intellektual va didaktik jihatdan boyitadi. O‘quvchining matnga nisbatan chuqur mulohaza yuritishi, o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslay olish ko‘nikmasi shakllanadi. Navoiy ijodini o‘rganishda muammoli ta’limdan foydalanish, o‘quvchining milliy adabiy merosga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, ularni buyuk mutafakkirning asarlari orqali axloqiy, ma’naviy tarbiyalashda keng imkoniyat yaratadi.

Umuman olganda, muammoli ta’lim texnologiyasi yuqori sinf o‘quvchilarining adabiyot faniga qiziqishini oshirish, ularning tafakkurini rivojlantirish, milliy adabiy merosni ongli ravishda anglashlariga xizmat qiluvchi muhim metodik yondashuv sifatida yuqori natijalar beradi. Bu texnologiyaning zamonaviy o‘quv jarayoniga integratsiyasi pedagogik samaradorlikni oshirish bilan birga, adabiy-tafakkurli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов К. Муаммоли таълим технологияси асослари. – Тошкент: Фан, 2010. – 112 б.
2. Хошимов Б. Алишер Навоий ижоди таҳлилларида. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 198 б.
3. Юлдошев Қ. Педагогик технологиялар асослари. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2015. – 248 б.
4. Комилов Н. Навоий – мутафаккир ва шоир. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 304 б.
5. Зуфаров Ш. Адабиётни ўқитиш методикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 223 б.
6. Ахмедов А. Умумий педагогика. – Тошкент: “Маънавият”, 2016. – 310 б.
7. Шарипова М. Алишер Навоий дарсларини ўқитишда интерфаол методлар // Ўқитувчи газетаси, 2021 йил, №12.
8. Hasanboyeva, M. Modern Approaches in Teaching Literature to High School Students // *Ta’lim va taraqqiyot*, 2022, №4(18).

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Sarmonov Toxir Gopirovich
Head of the course of the Academy of the Ministry
of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Published under peer review:
Doctor of Political Science, Associate Professor
Mansur Musaev
Received 4th April 2025, Accepted 11th April 2025, Online 18th April 2025

THE ROLE OF COOPERATION BETWEEN STATE AND NON-STATE ORGANIZATIONS IN THE SYSTEM OF CRIME PREVENTION IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article analyzes the current issues of cooperation between state bodies and non-governmental organizations in the system of crime prevention in Uzbekistan. The legal foundations, main directions, and mechanisms for implementing crime prevention are highlighted. The features of general, special, individual, and victimological preventive measures are considered, as well as the issues of participation of civil society institutions in the implementation of effective preventive work. The role of non-governmental non-profit organizations in preventing offenses, improving legal culture, and implementing public control is substantiated. The article also proposes measures being implemented to combat drug addiction and alcoholism, social adaptation of persons who have served their sentences, and ways to improve them.

Keywords: Crime prevention, general prevention, special prevention, victimological prevention, public organizations, non-governmental non-profit organizations, socio-political stability, legal culture, rehabilitation, resocialization.

O‘ZBEKISTONDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT TASHKILOTLAR HAMKORLIGINING O‘RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida davlat organlari va nodavlat tashkilotlar hamkorligining dolzarb masalalari tahlil etilgan. Huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari, asosiy yo‘nalishlari va amalga oshirish mexanizmlari yoritilgan. Umumiy, maxsus, yakka tartibdagi hamda viktimologik profilaktika chora-tadbirlarining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, samarali profilaktika ishlarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki masalalari ko‘rib chiqilgan. Nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqbuzarliklarni oldini olish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli asoslangan. Shuningdek, maqolada giyohvandlik va ichkilikbozlikka qarshi kurashish, jazoni o‘tab qaytganlarni ijtimoiy moslashtirish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularni takomillashtirish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Huquqbuzarliklar profilaktikasi, umumiy profilaktika, maxsus profilaktika, viktimologik profilaktika, jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, huquqiy madaniyat, reabilitatsiya, qayta ijtimoiylashtirish.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

РОЛЬ СОТРУДНИЧЕСТВА ГОСУДАРСТВЕННЫХ И НЕПРАВИТЕЛЬСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В СИСТЕМЕ ПРОФИЛАКТИКИ ПРЕСТУПНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье анализируются актуальные вопросы взаимодействия государственных органов и негосударственных организаций в системе профилактики правонарушений в Узбекистане. Освещены правовые основы, основные направления и механизмы реализации профилактики правонарушений. Рассмотрены особенности мер общей, специальной, индивидуальной и виктимологической профилактики, а также участие институтов гражданского общества в реализации эффективной профилактической работы. Роль негосударственных некоммерческих организаций в предупреждении преступлений, повышении правовой культуры и осуществлении общественного контроля общеизвестна. В статье также предлагаются меры по борьбе с наркоманией и алкоголизмом, социальной интеграции заключенных и пути их совершенствования.

Ключевые слова: Профилактика преступности, общая профилактика, специальная профилактика, виктимологическая профилактика, общественные организации, негосударственные некоммерческие организации, социально-политическая стабильность, правовая культура, реабилитация, ресоциализация.

Kirish

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning xavfsizligini ishonchli himoya qilish va huquqbuzarliklarning oldini olish – mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining huquqiy asosi yaratilgan. Bu borada qabul qilingan qonun hujjatlari tizimli ravishda takomillashtirilib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq: “Huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimidir”.

Bugungi kunda mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining samaradorligini oshirish, bu sohadagi davlat va nodavlat tuzilmalari hamkorligini kuchaytirish hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Mazkur maqolada ana shu masalalarga e’tibor qaratiladi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligi masalalari ko‘plab olimlar va mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, bu borada turli yondashuvlar va nazariy qarashlar mavjud.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik – bu jamiyatning barcha sohalarida muvozanatni saqlash, ijtimoiy tizimning barqaror rivojlanishini ta’minlash hamda fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Bu jarayon o‘z ichiga iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy sohalardagi barqarorlikni qamrab oladi va ularning o‘zaro uyg‘un rivojlanishini talab etadi.

Professor M.Qirg‘izboyev ta’kidlaganidek: «Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik – bu jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasidagi munosabatlarning uyg‘unligi, ijtimoiy totuvlik va hamjihatlikning ta’minlanganligi holatidir» (1). Bunday barqarorlik fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarni, jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarining muvozanatini va davlat bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi samarali hamkorlikni nazarda tutadi.

Q.A.Saitqulov o‘z tadqiqotida ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish masalalarini o‘rgangan. Tadqiqotchi viktimologik profilaktika ishlarida davlat organlari bilan birga, nodavlat tashkilotlarning ham faol ishtirok etishi zarurligini ta’kidlab, bu borada amaliy takliflar ishlab chiqqan (3).

B.A.Matlyubov, A.S.Tursunov, A.K.Rasulev, S.B.Xujakulov, Sh.R.Gofurovlar tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi nazariy va amaliy masalalar tadqiq etilgan. Ularning fikricha, “Huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni tahlil qilish quyidagi hollarda maqsadga muvofiq hisoblanadi: birinchidan, ilmiy-tadqiqot muassasalari yoki tadqiqotchilar tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan masala yoki mavzu bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish; ikkinchidan, bevosita huquqbuzarliklarning oldini olishni amalga oshiruvchi amaliy organlar tomonidan profilaktik tadbirlar, huquqbuzarliklarning profilaktikasini rejalashtirish” (4).

A.Aslanov o‘z tadqiqotida zamonaviy axborot texnologiyalarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ahamiyatini o‘rgangan. Tadqiqotchi ta’kidlaganidek: «Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, huquqbuzarlik sodir etishga moyil va ulardan jabrlanib qolish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarni aniqlash, huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash, ularning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish hamda ta’sirchan profilaktik chora-tadbirlarini olib borishda asosan xorij tajribasini o‘rgangan holda zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish zarurdir» (5).

B.Raimjonov giyohvandlikka qarshi kurashning dolzarb masalalarini o‘rganib, bu borada nafaqat davlat, balki fuqarolik jamiyati institutlarining ham faol ishtirok etishi zarurligini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, bu sohada samarali natijalarga erishish uchun kompleks yondashuv, davlat organlari va nodavlat tashkilotlarning muvofiqlashtirilgan harakatlari talab etiladi(6).

D.Mirzarayimov jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Uning ta’kidlashicha: “Qayta ijtimoiylashtirish» atamasi shaxsning huquqiy jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishga urinishini anglatadi. Jazodan ozod etilganlar uchun bu jarayon ozodlikdan mahrum qilish

joylarida bo‘lgan paytdan boshlab boshlanadi va ular shaxsining kognitiv, hissiy va xulq-atvor sohalariga ta’sir qiluvchi murakkab jarayondir” (7).

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligi masalalari har tomonlama o‘rganilgan bo‘lsa-da, biroq bu sohada hali ham bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularning yechimini topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlil va natijalar

Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimli ravishda amalga oshirilib, bu faoliyat quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: umumiy profilaktika, maxsus profilaktika, yakka tartibdagi profilaktika va viktimologik profilaktika.

Umumiy profilaktika chora-tadbirlari jamiyatning barcha a’zolariga qaratilgan bo‘lib, ular orqali aholining huquqiy ongi va madaniyati yuksaltiriladi, qonunlarga hurmat ruhi shakllantiriladi va ijtimoiy faollik rag‘batlantiriladi. Bu yo‘nalishda turli ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari va ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot-tashviqot ishlari olib boriladi.

Maxsus profilaktika esa muayyan hudud yoki sohada huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimoli yuqori bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Bunda kriminogen vaziyat yuqori bo‘lgan hududlar aniqlanib, u yerlarda maxsus reydlar va tekshiruvlar o‘tkaziladi, tegishli profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi profilaktika aniq shaxslar bilan ishlash bo‘lib, bunda huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar aniqlanadi va ular bilan muntazam profilaktik suhbatlar o‘tkaziladi. Ularning xulq-atvoridagi o‘zgarishlar doimiy nazorat qilib boriladi va zarur hollarda yordam ko‘rsatiladi.

Viktimologik profilaktika huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarga qaratilgan. Bu chora-tadbirlar orqali fuqarolarning huquqiy savodxonligi oshiriladi, o‘zini himoya qilish usullari o‘rgatiladi va xavfsizlik choralari to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi.

Viktimologik profilaktika doirasida aholini huquqbuzarliklardan himoya qilish uchun ishonch telefonlari tashkil etish, profilaktika dasturlarini jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali targ‘ibot ishlari olib boriladi. Bunda jabrlanuvchilarning jismoniy va psixologik xavfsizligini ta’minlash, ularni o‘zini-o‘zi mudofaa qilish usullari bilan tanishtirish hamda xavfli hududlarni doimiy nazorat qilish choralari ko‘riladi.

Kriminogen vaziyat yuqori bo‘lgan hududlar doimiy nazorat ostiga olinadi. Bu joylarda profilaktika tadbirlari kuchaytiriladi. Aholiga zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat holatlari to‘g‘risida huquqiy ma’lumotlar beriladi. G‘ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan joylarda maxsus nazorat choralari joriy etiladi va profilaktika ishlari muntazam ravishda olib boriladi.

Huquqbuzarliklar haqida tezkor xabar berish uchun ishonch telefonlari va qutqaruv xizmatlari tashkil etiladi. Fuqarolarning murojaatlari asosida tegishli choralar ko‘riladi. Bundan tashqari, profilaktika dasturlari va tadbirlarini muhokama qilish uchun internet tarmog‘ida maxsus veb-saytlar, bloglar va chatlar tashkil etiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda aholi orasida huquqiy targ‘ibot ishlari olib boriladi.

Nodavlat tashkilotlarning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi o‘rni

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Bu tizimning samarali ishlashi uchun davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Nodavlat notijorat tashkilotlar bu sohada quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi:

- huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish. Bunda nodavlat tuzilmalar dasturlarning ishlab chiqilishi, muhokama qilinishi va amalga oshirilishi bosqichlarida faol qatnashadi. Ular dasturlarning loyihalarini ko‘rib chiqish, takliflar kiritish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirish huquqiga ega;
- huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha davlat organlari bilan hamkorlik qilish. Hamkorlik doirasida qo‘shma tadbirlar o‘tkazish, axborot almashish va birgalikdagi loyihalarni amalga oshirish mumkin. Bunday hamkorlik doirasida nodavlat tuzilmalar huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta’lim muassasalari va boshqa davlat idoralari bilan birgalikda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etish. Bu yo‘nalishda aholining turli qatlamlari uchun maxsus o‘quv dasturlari, treninglar va ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladi. Bu tadbirlar orqali fuqarolarga ularning huquq va majburiyatlari, qonunlarga rioya qilish zarurligi va huquqbuzarliklarning oqibatlari to‘g‘risida ma’lumotlar etkaziladi;
- huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish. Bu jarayonda ular monitoring o‘tkazish, tahliliy materiallar tayyorlash va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish huquqiga ega. Jamoatchilik nazorati doirasida ular huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini baholash va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritishi mumkin.

Shu bilan birga, davlat organlari ularga zarur tashkiliy-huquqiy va uslubiy yordam ko‘rsatadi, faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi va samarali hamkorlikni ta’minlaydi. Bu yordam nodavlat tuzilmalarning salohiyatini oshirish, ularning faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan. Bunday hamkorlik huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashga yordam beradi.

Giyohvandlik va ichkilikbozlikka qarshi kurashish chora-tadbirlari.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida alohida yo‘nalish sifatida giyohvandlik va ichkilikbozlikka qarshi kurashish masalasi shakllantiriladi. Bu yo‘nalish nafaqat ijtimoiy muammo, balki jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi jiddiy masala sifatida e’tirof etilmoqda. Buning sababi shundaki, bu illatlar jamiyatning barcha qatlamlariga ta’sir qilish xususiyatiga ega. Zero, giyohvandlik va ichkilikbozlik nafaqat alohida shaxslarning sog‘lig‘iga, balki butun jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi illatdir. Bu muammolar oilaviy munosabatlarning izdan chiqishiga, mehnat unumdorligining pasayishiga va ijtimoiy taraqqiyotning susayishiga olib keladi.

Shunday ekan, ushbu sohadagi asosiy chora-tadbirlar giyohvandlik va ichkilikbozlikka mubtalo bo‘lgan bemorlarga narkologik tibbiy yordam ko‘rsatish va ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Bu jarayonda zamonaviy xalqaro tajriba

o‘rganilib, ilg‘or usullar joriy etilmoqda. Zamonaviy tibbiyot usullaridan foydalangan holda, bemorlarning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini tiklashga alohida e’tibor berilmoqda. Davolash jarayonida nafaqat tibbiy, balki psixologik yordam ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda nafaqat davolash muassasalari, balki ijtimoiy himoya organlari, mahalliy hokimiyat idoralari va jamoat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqda. Jamoat tashkilotlari profilaktika ishlarida, ma’rifiy tadbirlarda va reabilitatsiya jarayonlarida faol qatnashmoqda. Ularning har biri o‘z vakolati doirasida muayyan vazifalarni bajarib, yagona maqsad sari harakat qilmoqda. Bu vazifalar aniq reja asosida taqsimlangan bo‘lib, ularning bajarilishi doimiy nazorat qilib boriladi. Shu bilan birga, bu faoliyat turlarini tashkiliy, huquqiy-me’yoriy va resurs jihatidan ta’minlashni yaxshilash masalasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada zarur moliyaviy mablag‘lar ajratilib, moddiy-texnik baza mustahkamlanmoqda.

Sobiq mahbuslarni ijtimoiy moslashtirish.

Sobiq mahbuslarni ijtimoiy moslashtirish dasturi doirasida ularga kasbiy yo‘naltirish xizmatlari ko‘rsatilmoqda. Bu xizmatlar professional mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib, zamonaviy metodikalar asosida olib boriladi. Bu jarayonda mehnat bozorining joriy talablari hisobga olinib, zamonaviy kasblarga o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko‘nikmalarga ham katta e’tibor beriladi. Bu esa sobiq mahbuslarning ish topish imkoniyatlarini oshiradi va ularning jamiyatga qayta integratsiyalashuvini yengillashtiradi.

Dastur doirasida sobiq mahkumlarga uy-joy, salomatlik, ta’lim va boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda ham yordam ko‘rsatiladi. Bu ishlarning barchasi ularning to‘laqonli hayotga qaytishlari uchun imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, ruhiy-psixologik yordam xizmatlari ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu xizmatlar orqali sobiq mahbuslarning ruhiy holatini yaxshilash, stressni bartaraf etish va o‘z kuchiga ishonch hissini uyg‘otish choralari ko‘riladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari.

Profilaktika ishlariga alohida e’tibor qaratilib, 5 672 nafar yoshlar va 4 324 nafar ayollar bilan mahallalarda, ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda 1 370 marotaba keng qamrovli profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Bu tadbirlarda huquqbuzarliklarning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ijtimoiy faollikni oshirish masalalari muhokama qilindi. Tadbirlarga soha mutaxassislari, psixologlar, huquqshunoslar va tajribali pedagoglar jalb etildi. Ular tomonidan amaliy maslahatlar berilib, turli hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalari o‘rgatildi.

O‘tkazilgan tadbirlar natijasida aholi o‘rtasida huquqiy ong va madaniyat darajasi sezilarli darajada oshdi, huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha fuqarolarning bilim va ko‘nikmalari shakllandi. Bu esa o‘z navbatida, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar

Huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish uchun muntazam ravishda uning huquqiy, tashkiliy va institutsional asoslarini takomillashtirib borish taqozo etiladi. Bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki hamda davlat organlari bilan ularning samarali hamkorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida nodavlat tashkilotlarning ishtiroki alohida o‘rin tutadi. Nodavlat notijorat tashkilotlar huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda faol qatnashmoqda. Bu jarayonda ularning salohiyati va imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish uchun davlat tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining asosiy yo‘nalishlari – umumiy profilaktika, maxsus profilaktika, yakka tartibdagi profilaktika va viktimologik profilaktika o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi va yagona tizimni tashkil etadi. Bu tizimning samarali ishlashi uchun barcha subyektlarning muvofiqlashtirilgan harakatlari talab etiladi.

Giyohvandlik va ichkilikbozlikka qarshi kurashish, shuningdek, sobiq mahbuslarni ijtimoiy moslashtirish masalasi huquqbuzarliklar profilaktikasining muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Bu sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish uchun ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va qo‘llash, shuningdek, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarur.

Yuqoridagi tahlillar va xulosalar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish taklif etiladi. Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarning huquq va majburiyatlarini yanada aniqlashtirish, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim.
2. Mahallalarning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi salohiyatini oshirish uchun maxsus me’yoriy hujjatlar ishlab chiqish va qabul qilish, ularning faoliyatini moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish taklif etiladi.
3. Axborot texnologiyalarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi rolini kuchaytirish maqsadida yagona axborot tizimini yaratish va unda barcha profilaktika sub’ektlarining faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu tizim orqali aholiga huquqiy ma’lumotlar taqdim etish, murojaatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin.
4. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, bu yo‘nalishda ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash lozim. Bu markazlar orqali huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy va amaliy masalalarini tizimli ravishda o‘rganish, ilg‘or xalqaro tajribani tahlil qilish va milliy sharoitga moslashtirish imkoniyati yaratiladi.
5. Giyohvandlik va ichkilikbozlikka qarshi kurashish, shuningdek, sobiq mahbuslarni ijtimoiy moslashtirish sohasida alohida davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish taklif etiladi. Bu dasturlarda fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini ta’minlash, ularning salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmlarini nazarda tutish zarur.
6. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish va qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish. Bu yo‘nalishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va tajriba almashish jarayonlarini faollashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligini kuchaytirish, barcha fuqarolarning bu jarayondagi ishtirokini ta’minlash orqali jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 142.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2014-yil 14-may // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 20-son, 221-modda.
3. Saitqulov Q.A. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish. yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T:. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. 37-b.
4. Б.А.Матлюбов, Турсунов А.С., Расулев А.К., Хужакулов С.Б., Гофуров Ш.Р. Профилактика правонарушений. /Ответственный редактор Б.А. Матлюбов/– Т.: – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2020. С. 216.
5. Aslanov B.T. Huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etish: Monografiya.– T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2024. B.108.
6. Raimjonov B. Giyohvandlikka qarshi kurashning dolzarb masalalari. //Scientific Progress. 2022; 3(4). B.17-22.
7. Mirzarayimov D. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish imkoniyatlari//Scientific Progress. Volume 4/Issue 4/2023. B.266-274.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

QODIROVA LUTFIYA BATIROVNA
PhD, dotsent
Associate Professor of the Academy of Public Administration
Under the President of the Republic of Uzbekistan

Published under peer review:
Doctor of History, Associate Professor
D.Sangirova
Received 4th April 2025, Accepted 11th April 2025, Online 18th April 2025

THE IMAGE OF UZBEKISTAN WOMEN ON SOVIET POSTERS

Abstract: The article analyzes the significance of posters as a historical source, which were one of the effective means of Soviet ideological propaganda. It highlights the mechanisms of influence on public consciousness through posters, the possibilities of fast and accurate delivery of information, as well as how the power of visual impact of posters was formed in accordance with the level of society. In particular, the role of the image of the Uzbek woman in the Soviet ideological doctrine and its significance in the new concept of the "Soviet woman" are analyzed in detail. Various examples reveal changes in the forms and content of posters in the course of complex social and cultural transformations that took place in the country.

Keywords: visual source, propaganda, visual propaganda, agitation, public consciousness, poster, political poster, "Soviet woman", Uzgosizdatelstvo, "Khudjum", censorship.

SOVET PLAKATLARIDA O‘ZBEK XOTIN-QIZLARI OBRAZI

Annotatsiya: Mazkur maqolada sovet davrida mafkuraviy targ‘ibotning samarali vositalaridan biri bo‘lgan plakatlarning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati tahlil qilingan. Plakatlar orqali ijtimoiy ongga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari, axborotni tez va aniq yetkazish imkoniyatlari, plakatlar vizual ta’sir kuchining omma saviyasiga mos ravishda shakllantirilgani yoritilgan. Xususan, o‘zbek xotin-qizlari obrazining sovet mafkuraviy doktrinasidagi o‘rni va uning yangicha "sovet ayoli" konsepsiyasidagi ahamiyati keng tahlil etilgan. Mamlakatda ro‘y bergan murakkab ijtimoiy va madaniy transformatsiya jarayonida plakatlarning shakllari, ularning mazmun-mohiyatida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar turli misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: vizual manba, targ‘ibot, vizual targ‘ibot, tashviqot, ijtimoiy ong, plakat, siyosiy plakat, "sovet ayoli", O‘zdavnashr, "Hujum", senzura.

ОБРАЗ ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА НА СОВЕТСКИХ ПЛАКАТАХ

Аннотация: В статье анализируется значение плакатов как исторического источника, которые являлись одним из эффективных средств советской идеологической пропаганды. Освещены механизмы воздействия на общественное сознание посредством плакатов, возможности быстрой и точной доставки информации, а также то, как формировалась сила визуального воздействия плакатов в соответствии с уровнем общественности. В частности, подробно анализируется роль образа узбекской женщины в советской идеологической доктрине и его значение в новой концепции «советской женщины». На различных примерах раскрываются изменения форм и содержания плакатов в ходе сложных социальных и культурных преобразований, происходивших в стране.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ключевые слова: визуальный источник, пропаганда, наглядная пропаганда, агитация, общественное сознание, плакат, политический плакат, «советская женщина», Узгосиздательство, «Худжум», цензура.

KIRISH (INTRODUCTION)

Ma’lum davrda hukmron bo‘lgan mafkura jamiyatda u yoki bu g‘oyani targ‘ib qilish, o‘ziga maqbul obrazni mustahkamlash uchun bir qancha vositalardan foydalangan. Sovet hokimiyati ham rasmiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib, ijtimoiy buyurtma asosida o‘z mafkurasini ommaga yetkazish uchun gazeta va jurnallar, plakatlar, kino, mitinglardagi chiqishlar, bayramlar va boshqa amaliy texnologiyalardan foydalangan.

Siyosiy plakat, portret, shior, fotoaxborot, lavha hamda boshqa vizual tashviqot vositalari korxona va xo‘jalik tashkilotlari tomonidan davlat rejalarini bajarilishi holatini ko‘rsatish, sotsialistik musobaqalarni tashkil etish, ilg‘or tajribani va mehnat ilg‘orlarini ommalashtirish, mehnat sifati va samaradorligini ko‘tarish uchun kurashni namoyish etish, shuningdek, bayram kunlari binolarni bezatishda qo‘llanilgan.

Ommaning ijtimoiy ongini shakllantirish va unga ta’sir ko‘rsatishning eng samarali usularidan biri plakatlar bo‘lib, zarur axborotni tezkor, aniq yetkazish va tushuntirishning qulay shakllaridan biri bo‘lib xizmat qilgan. Plakat – ma’lum bir vazifani bajaradigan va muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan tasviriy san’atning eng keng tarqalgan shakli bo‘lib, unda g‘oya aniq, tushunarli, izchil ifoda etilgan. Arzon, ommabop, tez o‘zgaruvchan va hatto kam savodli insonlarga ham tushunarli bo‘lgan plakatlardagi katta, aniq va yorqin grafik elementlar hamda hamma uchun tushunarli g‘oyaviy shiorlar orqali har bir inson bilan vizual aloqa o‘rnatish imkoniyati mavjud edi. Plakatlardan tashviqot uchun mo‘ljallangan hamma joylarda – klublar, qizil burchak va qizil o‘tovlar, qizil choyxonalar, kutubxonalar, ishchilar yotoqxonalari, o‘quv xonalari hamda agitpoyezdlarda foydalanilgan.

Sovet davri plakatlarida o‘zbek xotin-qizlari obrazi ko‘p uchraydi. Yangicha tuzumga xizmat qilishi lozim bo‘lgan “sovet kishisi”ni shakllantirishni maqsad qilib olgan bolsheviklar hukumatining mafkuraviy doktrinasi doirasida “sovet ayoli” masalasi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etgan edi. Sovet hukumati o‘zining mafkuraviy va iqtisodiy manfaatlarini qondirish hamda an’anaviy va milliy hayot tarziga putur yetkazish maqsadida “yangi ayol” obrazini kuchli targ‘ibot vositasiga aylantirdi.

O‘rta asr feodal zulmidan qutilib, “erkinlikka” erishgan o‘zbek xotin-qizlari sovet targ‘iboti uchun eng yorqin misol bo‘lib xizmat qilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Bir qancha tadqiqotchilar sovetlarning o‘zbek xotin-qizlarini ozod etish siyosati va ularning plakatlarda aks etilishi masalasiga murojaat etishgan [4, 9]. Jumladan, D. Melentyev targ‘ibot plakatlarida musulmon xotin-qizlarini ozod qilish va bolsheviklarning gender siyosatini aks etishini yoritgan [30]. Rossiyalik tadqiqotchilar V. Bobrovnikov, M. Filatov tomonidan sovet davrida Sharq respublikalari uchun chop etilgan plakatlarning albom-katalogi tayyorlangan [10].

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan plakatlar asosan san’atshunoslik, sotsiologiya nuqtayi nazaridan, ijtimoiy-madaniy kontekstda tadqiq qilingan [51,54]. Biroq, plakatlardan tarixiy tadqiqotlarda vizual manba sifatida foydalanish masalasi shu vaqtga qadar alohida tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Vizual manbalarni tadqiq qilish alohida yondashuvni talab qiladi, chunki ularda axborot matndagidan boshqacha ifodalanadi. Tadqiqotda qo‘llanilgan kontekst tahlil vizual manba yaratilgan tarixiy, madaniy, siyosiy va ijtimoiy kontekstni ochib berish imkonini beradi. Ikonografik tahlil esa

plakatlarda qo‘llanilgan ramzlar, obrazlar va belgilarni tahlil qilishda yordam beradi. Semiotik tahlil plakatlardagi vizual belgilar mazmunni qay tariqa shakllantirishi va ular tomoshabinning tafakkuriga qay tarzda ta’sir ko‘rsatishini ochib beradi. Diskurs tahlil plakatlardagi tasvirlarning hokimiyat, identiklik, gender kabi ma’lum bir diskurslar bilan bog‘liqligini tahlil qilish imkonini beradi. O‘z davridagi mafkuraning targ‘ibot quroli bo‘lgan plakatlarni vizual manba sifatida tadqiq etishda tanqidiy tahlildan foydalanish talab qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Sovet targ‘ibot plakatlari mazmuniga ko‘ra bir necha turga bo‘lingan: sanoat, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy-siyosiy, harbiy mavzudagi plakatlar. Shuningdek, vazifasiga ko‘ra ham ularni bir necha turga ajratish mumkin: siyosiy, satirik, reklama, yo‘riqnoma, shior-chaqiriq, tabiiy-ilmiy targ‘ibot va boshqa vazifalarni bajaruvchi plakatlar.

Ijtimoiy-siyosiy plakatlarning asosiy vazifasi ommani hukmron mafkura yuritayotgan siyosat va amalga oshirayotgan ishlarning to‘g‘riligi hamda foydaliliga ishontirish bo‘lgan. Shuning uchun ular sodda va tushunarli qilib tayyorlangan. Sovet hokimiyati davrida O‘rta Osiyo respublikalari uchun mo‘ljallangan plakatlar dastlab mahalliy aholi uchun yaqin va tushunarli bo‘lgan Sharq miniatyuralari ruhida tayyorlangan va izohlar uchun arab imlosi qo‘llanilgan. Keyinchalik plakatlardagi yozuvlar, sovet hukumatining milliy madaniyatga putur etkazish maqsadida o‘tkazgan islohotlari sabab, dastlab lotin, so‘ngra kirill imlosida yozila boshlangan.

Shuningdek, ommani sovet hukumati rejalari haqiqatda amalga oshayotganligiga ishontirish uchun plakatlarda ko‘plab ma’lumotlar va raqamlar keltirilgan, ularning rasmiy manbalarga mosligi davlat nashriyotlaridagi senzorlar tomonidan qat’iy nazorat qilingan. Ammo, ushbu plakatlardan manba sifatida foydalanganda, vizual targ‘ibotning ushbu shakli har doim ham ob’ektiv axborotdan iborat bo‘lmaganligini, keltirilgan raqamlar targ‘ibot maqsadlariga xizmat qilganligini yodda tutish lozim.

Ilk sovet plakatlari markazlashtirilgan holda tayyorlangan. Ittifoqdosh va avtonom respublikalar uchun plakatlarning mazmuni va matni Moskvada tayyorlangan hamda zarur tilga o‘girilib, uncha katta bo‘lmagan o‘zgarishlar kiritilib, tegishli hududlarga yuborilgan. Ijtimoiy-siyosiy plakatlar juda katta tirajlarda (100 000, 150 000, 200 000, 250 000, 300 000 nusxada) chop etilgan.

Dastlabki yillarda asosan qo‘lda ishlangan va xonaki usulda ko‘paytirilgan plakat keng qo‘llanilgan, bosma plakat 1920-yillardan chop etila boshlangan. 1930-yillar oxiriga kelib, grafik san’at mahsulotlari qatorida plakat ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan bir necha o‘nlab nashriyotlar, nashriyot bo‘limlari va ijodiy uyushmalar mavjud edi. Masalan, 1919-yilda Toshkentda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining bosma nashrlarni ta’minlash va tarqatish Markaziy agentligining bo‘limi – Turkiston matbuot markazi tashkil etilgan bo‘lib, uning vazifalaridan biri plakatlar tayyorlash bo‘lgan [5,117-118]. Keyinchalik plakatlarning asosiy qismi 1920-yilda tashkil etilgan Turkiston davlat nashriyotining tasviriy nashrlar bo‘limi tomonidan nashr etilgan.

1925-yilda uning O‘rta Osiyo davlat nashriyoti negizida O‘zbek davlat nashriyoti (O‘zdavnashr) tashkil etilgan (1964-yildan “O‘zbekiston” nashriyoti deb atala boshlangan). Respublikada 30-yillarning ikkinchi yarmiga qadar barcha turdagi adabiyotlar O‘zdavnashrda nashr qilingan. Ikkinchi jahon urushi yillari respublikadagi mustaqil nashriyotlar O‘zdavnashrga birlashtirilgan, matbaa korxonalari, kitob savdosi ishlari ham uning ixtiyoriga berilgan. Ushbu nashriyotda ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-texnika, qishloq xo‘jaligiga oid hamda o‘quv adabiyotlari qatorida plakatlar ham tayyorlangan. Jumladan, O‘zdavnashrning 1956-yilga mo‘ljallangan yillik mavzuli rejasida 96 nomdagi plakatlar tayyorlash belgilangan. Shu jumladan, 20 ta siyosiy plakat: sanoat bo‘yicha 3 ta, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha – 8 ta, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha – 6 ta, ayollarga nisbatan feodal-boylarcha munosabat mavzusiga oid satirik plakatlar – 1 ta,

zahira – 2 ta; yo‘riqnoma plakatlar – 30 ta; boshqa plakatlar – 2 ta; reklama plakatlari – 10 ta, shior-chaqiriqlar – 24 ta; tabiiy-ilmiy targ‘ibot – 10 ta [45].

ARIZO (Ассоциация работников изобразительного искусства – Tasviriy san’at xodimlari assosiasiyasi, 1929–1932)ning tashabbusi bilan 1930-yilda Samarqand va Toshkentda asos solingan va 1932-yilgacha faoliyat yuritgan “Izofabrika” O‘zbekiston rassomlarini davlat buyurtmalari bilan ta’minlash, ko‘chalarni, bino devorlarini va shahar bayramlarini bezatish, shuningdek, suratlar, plakatlar, otkritkalar tayyorlash bilan shug‘ullangan [14,129].

1931-yilda VKP (b) MQning “Plakat adabiyoti haqida”gi qarorining qabul qilinishi bilan, plakatlar nashr qilish qat’iy mafkuraviy nazoratga olinadi [33]. Unga ko‘ra, ommaviy ishlab chiqarilgan barcha badiiy va plakat mahsulotlarini nashr etish 1930-yilda tashkil etilgan IZOGIZ (Tasviriy san’at davlat nashriyoti)ning yagona tizimiga birlashtirilib, uning qoshida badiiy-siyosiy nazorat bo‘yicha ishchilar kengashi tuziladi, unga rahbarlik Markaziy Qo‘mitaning targ‘ibot va ommaviy tashviqot bo‘limiga yuklandi, shuningdek, ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlash masalasi ko‘tariladi.

Ikkinchi jahon urushi yillaridagi targ‘ibotda plakat yetakchi o‘rinni egalladi, plakatchi-rassomlar uyushmasi tuzildi. 1941-yilda tashkil etilgan O‘zTAG oynasi tomonidan urush davrida vatanparvarlik va mardlik ruhidagi juda ko‘plab plakatlar tayyorlandi [31].

O‘zbekistonda XX-asrning 20-30 yillarda plakatlar tayyorlash bilan shug‘ullangan rassomlar qatorida L.Bure, Usto Mo‘min (A.V. Nikolayev), A.Tulla, Usta Nabi Hafizov, M. Kurzin, V. Ufimsev va boshqalarni sanab o‘tish mumkin. Keyinchalik ularning safi N. Potrashkin, N. Kashina, V. Rojdestvenskiy, M. Reyx, V. Yeremyan, S. Malt, S. Marfin, V. Kaydalov va boshqa rassomlar hisobiga kengaydi [53]. 60-80 yillarda A. Balkanov, V.M. Gromiko, V. Yevenko, T. Tkachev, F. Kagarov va boshqalar bu sohada samarali ijod qilgan.

Plakatlarni tayyorlashda fotosuratlardan keng foydalanilgan. Bu usul targ‘ibot plakatini so‘zsiz ishonish zarur bo‘lgan hujjatga aylantirish imkonini yaratishi lozim bo‘lgan. Shu sababdan 1929–1932 yillarda sovet plakatlarida fotomontaj usuli keng tarqalgan. Masalan, “Sharq ayoliga erkinlik” deb nomlangan plakatda fotomontaj usulidan foydalanilganligini ko‘rish mumkin (6-rasm).

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida plakatlar asosan eski va yangi tuzum o‘rtasidagi farqni, yangicha turmush afzalliklarini namoyish etgan, o‘zbek xotin-qizlarini paranjini tashlashga, ijtimoiy hayotda faol bo‘lishga, saylovlarda ishtirok etishga, ishlab chiqarish va dalalarga otlanishga chaqirgan.

Ma’lumki, bu davrda sovet davlati jinslar tengligi masalasida o‘z davrida eng ilg‘or tadbirlarni amalga oshirdi. 1918-yilda qabul qilingan birinchi sovet Konstitutsiyasi erkaklar va ayollar teng huquqligini qonuniy jihatdan mustahkamladi [35]. 1917-yilda qabul qilingan “Fuqarolik nikohi, farzandlar va fuqarolik holatlari aktlari kitobini yuritish to‘g‘risida” gi dekret [16] hamda 1918-yilda qabul qilingan “Fuqarolik holati aktlari, nikoh, oila va vasiylik huquqi to‘risida”gi qonunlar kodeksi [40] bilan faqat davlat muassasalarida tuzilgan nikoh qonuniy deb hisoblanishi e’lon qilindi va oila qonunchiligining nikohning ixtiyoriyligi, oilada er-xotinlarning tengligi, onalik va bolalikni himoya qilish kabi asosiy qoidalari mustahkamlandi. RSFSRning nikoh-oila kodeksi Turkiston MIQning 1919-yil 9-iyuldagi dekreti bilan Turkiston ASSR da joriy etildi. Turkiston ASSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi 1921-yilning 14-iyulda “Qalinni bekor qilish to‘g‘risida” dekret e’lon qildi [15]. Unga ko‘ra, nikoh yoshi erkaklar uchun 18, qizlar uchun 16 yosh qilib belgilandi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

1-rasm. Yo‘qolsin qalin, ko‘pxotinlilik va xotin-qizlarga nisbatan boshqa zo‘ravonliklar

2-rasm. Turkistonning uy bekasi va mehnatkash xotinlari

Sovet hukumatining xotin-qizlarga oid siyosatida sodir bo‘lgan bu ijobiy o‘zgarishlar plakatlarda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, 1920-yillarning oxirida Moskvada VKP (b) MQ ning Xotin-qizlar bo‘limi buyurtmasiga ko‘ra chop etilgan “Yo‘qolsin qalin, ko‘pxotinlilik va xotin-qizlarga nisbatan boshqa zo‘ravonliklar” nomli plakatda [21] 1928-yilgi RSFSR Jinoyat Kodeksining “Oiladagi, maishiy turmushdagi eskilik sarqitlariga qarshi kurash haqida” gi 10-bobi o‘z aksini topgan. Suratlarda O‘rta Osiyoda saqlanib kelgan va qonun bilan jazolanadigan eski odatlar aks etgan: kelin uchun qalin to‘lash (196-modda), kelin o‘g‘irlash (197-modda), balog‘atga yetmaganlar bilan turmush qurish (198-modda), ko‘pxotinlilik (199-modda) (1-rasm).

1920-1923 yillar oralig‘ida Toshkentda chop etilgan yana bir plakatda esa xotin-qizlarning erkinlikka chiqquniga qadar va undan keyingi qarama-qarshi holat aks etgan va har bir holatga batafsil izohlar berilgan [42]. Birinchi qatorda ko‘p xotinli erkakning o‘z nikohidagi rafiqasini qariyaga sotayotgani hamda unga qarama-qarshi tarzda partiya majlisida chiqish qilayotgan ayol tasvirlangan. O‘rta qatorda esa o‘sha davrda shahar hovlilarining “ichkari” va“tashqari”ga bo‘linishi tanqid qilingan hamda ozodlikka chiqqan musulmon ayolning boshqa jins vakillari bilan muloqotiga cheklov qo‘yilmaganligi ko‘rsatilgan. Quyi qatorda esa ilgari xotin-qizlarning faqatgina uy yumushlari bilan band bo‘lganligi hamda ularni uy yumushidan ozod qilishga yordam beradigan bolalar bog‘chasi aks etgan (2-rasm).

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

3-rasm. Hozir men ozodman!

Sovet hukumati xotin-qizlarni ijtimoiy faollashtirish uchun ularni turli tashkilotlarga, uyushmalarga jalb etishga alohida ahamiyat qaratgan. 1921-yilda yaratilgan plakatda Sovet Turkistoni qizlari komsomol safiga kirishga chorlangan. Ushbu plakatda qizil bayroq tutgan, paranjini oyoq ostiga tashlab, boshyalang bo‘lgan qiz unga intilayotgan hamda eskicha hayotga qaytarishga urinayotgan ota-onasi va mullaga e’tibor bermasdan, ikkita komsomol yigit taklif etayotgan “Yoshlar uyushmasi” deb yozilgan xonaga intilmoqda. Plakatning g‘oyasi qizil bayroqda arab imlosida yozilgan shiorda aks etgan: “Hozir men ozodman!”[52]. 1920-yillardagi ko‘rgazmali targ‘ibotning namunasi bo‘lgan ushbu plakat sovetlarning o‘tmish bilan aloqani uzish va “yorqin kelajakka qadam qo‘yish” g‘oyasini aks ettirgan va ushbu o‘zgarishlarning faol ishtirokchisi sifatida xotin-qizlarni diqqat markaziga qo‘ygan.

Sovetlar xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga jalb etish hamda ularni siyosiy va mafkuraviy tarbiyalashda delegat (vakillik) yig‘ilishlaridan keng foydalangan. Delegat yig‘ilishlari – 1920 yillardan boshlab shahar va qishloq sovetlari, ishlab chiqarish korxonalari, klublar qoshida tashkil etilgan xotin-qizlar komissiyalari bo‘lib, ularni sovet muassasalari, dehqon xo‘jaliklari va kasaba uyushmalari harakati doirasida ishlashga jalb qilish shakllaridan biri edi. Xotin-qizlar bo‘limlari eng faol ayollarni “delegatkalar” – “vakilalar” sifatida jamoat ishlariga jalb qilgan, ular sotsialistik g‘oyalar, davlat tashkilotlarida ishlash ko‘nikmalari bilan tanishtirilgan hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatda ishtirok etishgan. Vakilalar mahallalarda yurib, xotin-qizlar o‘rtasida tashviqot, targ‘ibot ishlarini olib borgan. Faollar o‘z ishlari uchun qo‘shimcha haq olmagan, uy bekalarini ushbu yig‘inlarga jalb etish uchun esa maxsus nafaqa to‘langan [3].

Dastlab bu yig‘inlar xotin-qizlar bo‘limi xodimlarining shaxsiy tashabbusi asosida tashkil etilgan. 1920-yilda Sovetlarning VIII Butunrossiya syezdida “Xotin-qizlarni xo‘jalik qurilishiga jalb etish haqida” qaror qabul qilingach [13,9], vakillik yig‘inlariga davlat miqyosida ahamiyat berila boshlandi.

Turkistonda ilk vakilalar yig‘inlari 1920-yildan tashkil etila boshlangan bo‘lib, u yerda xotin-qizlar uchun ijgimoiy-siyosiy mavzularga bag‘ishlangan ma’ruzalar o‘qilgan, dolzarb masalalar muhokama qilingan. Delegat yig‘ilishlari dastlab, asosan, shaharlarda faoliyat olib borgan bo‘lsa, 1924-yildan qishloq va ovullarda o‘z faoliyatini jonlantirdi, ishchi va dehqon ayollarning ijtimoiy hayotiga mustahkam o‘rnashib, ularni sovetlarga va kolxozlarga jalb etishda “tashabbus” ko‘rsatgan [24,23-24].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Xotin-qizlarni faollashtirish, vakillik yig‘ini ta’sirini kuchaytirish maqsadida olib borilgan targ‘ibot ishlarida plakatlardan samarali foydalanilgan. Plakatlarda asosan ishchi, kolxozchi xotin-qizlarga murojaat qilinganligini ko‘rish mumkin. 1920-yillarda chop etilgan plakatda delegat yig‘inlari ishchi va dehqon xotin-qizlarga “sovetlar mamlakatini boshqarishga o‘rgatishi” uqtirilganligini ko‘rish mumkin (4-rasm). Shunisi qiziqki, ushbu plakat faqatgina siyosiy chaqiriqni o‘z ichiga olmasdan, unda yangicha turmush tarziga oid odatlar ham targ‘ib qilingan. Xususan, unda bolalarni yo‘rgaklash va beshikka belashga qarshi fikrlar bildirilib, farzandlarni erkin va sog‘lom tarbiyalashga chaqirilgan. Bu esa siyosiy g‘oyalar ijtimoiy faol bo‘lmagan o‘zbek ayollari uchun har doim ham ta’sir kuchiga ega bo‘lmasdan, yangicha fikrlashga chorlashda ular uchun odatiy bo‘lgan tushunchalarga urg‘u berilganligini ko‘rsatadi. Aynan delegat saylovlariga bag‘ishlangan yana bir plakatdagi chaqiriqda ham xotin-qizlar nafaqat ishlab chiqarishda faol bo‘lishga, balkim, turmush tarzini yangicha asosda qurishga da’vat etilgan: “Vakila, paxta programmasini zarbali sur’atda bajarish uchun, sanoat moliya planini bajarish uchun, maishiy hayotni sotsializm asosida qurish uchun, zarbdor bo‘l!” (5-rasm).

4-rasm. Ishchi, dehqon, ishchilar xotinlari! Xotin-qiz delagatlarni qayta saylashga shoshiling! [25]

5-rasm. Ishchi, kolxozchi, butun mehnatkash xotin-qizlar hammangiz vakilalar saylash yig‘iniga [36]

Xotin-qizlarni har jabhada erkaklar bilan tenglashtirish avvalo teng saylov huquqining tengligi nazarda tutgan. 1927-yilda qabul qilingan O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasida xotin-qizlarning huquqlari alohida qayd etilmagan bo‘lib, faqatgina saylov huquqidan har ikki jins vakillari birdek foydalanishlari mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan [27]. Bu mavzu sovet davrida tayyorlangan yuzlab plakatlarda xotin-qizlarni saylov kampaniyasiga jalb qilish mavzusi aks etgan, “Saylovchi xotin-qizlar qudratli kuch” ekanligiga urg‘u berilgan [38].

Sovet mafkurasining xotin-qizlar borasidagi siyosati an’anaviy, diniy qarashlar kuchli bo‘lgan O‘rta Osiyoda xalqning e’tiqodi, xulq-atvori va qadriyatlarini o‘zgartirishni talab etar edi. Sovet hokimiyati insonlarning ongini, turmush tarzini o‘zgartirishni maqsad qilar ekan, buni zo‘rlik bilan amalga oshirishdan toymadi. Bu holat, ayniqsa, O‘rta Osiyo xotin-qizlarining paranji yopinishiga qarshi qaratilgan harakatda yaqqol namoyon bo‘ldi. O‘tmish sarqitlariga qarshi kurash shiori ostida o‘tkazilgan va “Hujum” deb nom olgan bu harakat turli davrlarda turlicha baholandi [1,2,11,29,49,50].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Paranjiga qarshi tashviqot harakatlari 1924-yildan boshlandi, biroq diniy e'tiqod kuchli bo'lgan bu davrda ushbu urinish muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1927-yilga kelib, targ'ibot vositasi bilangina ayollarni paranjidan ozod eta olmasliklarini tushunib yetgan kommunistlar boshqacha yo'lga o'tdi. 1927-yilda ilk marta Samarqanddagi Registon maydonida mamlakatning turli hududlaridan yig'ib kelingan va paranjisini tashlashga rozi bo'lgan ayollar hamda oldinroq harakatga qo'shilgan faollar ishtirokida ommaviy paranji tashlash tadbiri uyushtirildi.

Paranjiga qarshi kurash mavzusi plakatlarda ham o'z aksini topdi. Sovet plakatlarida Sharq, jumladan, o'zbek xotin-qizlari ushbu "eskilik sarqiti"dan qutilishga chaqirilgan, paranji o'tmish qoldig'i, diniy xurofot timsoli sifatida ko'rsatilgan (7,8-rasmlar).



6-rasm. Sharq ayoliga erkinlik [39].

7-rasm. Paranjini batamom bitiramiz! [34].

Sovet hokimiyati xotin-qizlarni ta'limga jalb etish va savodli qilishga erkak va ayolni teng huquqligiga erishishning zaruriy sharti sifatida qaragan. Shu maqsadda maxsus xotin-qizlar maktablari tashkil etilgan, plakatlar yordamida xotin-qizlar ta'lim olishga chaqirilgan, savod chiqarish ularni ozodlikka chiqarishning kafolati sifatida targ'ib qilingan.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

8-rasm. Xotin-qizlar orasida savodsizlikni bitirish va umumiy ta'lim – sinfiy dushmanlarga qat'iy zarba! [47]

9-rasm. Sharq mehnatkash xotin-qizi! Sotsializm quruvchilari safiga kir![41].

Ko'rilgan chora-tadbirlar va olib borilgan targ'ibot-tashviqotga qaramasdan, xotin-qizlarni yoppasiga savodli qilish an'anaviy jamiyatda amalga oshirilishi murakkab bo'lgan ish edi. Misol tariqasida, Toshkentda ochilgan xotin-qizlar pedagogika institutini 1923-yilda o'qishga kirgan 23 ayoldan atigi 7 nafari bitirgan [29,41]. Shunga qaramasdan, bu borada amalga oshirilgan ishlar o'z natijasini berdi. 1925-yil martiga kelib, O'zbekistonda 3200 o'qituvchi qiz va 51 ta savod chiqarish maktabi bor edi [29,44].

Ayrim targ'ibot plakatlaridagi yozuvlarning faqatgina rus tilida berilganligini ko'rish mumkin, bu esa ularning mahalliy aholi tomonidan qabul qilishini qiyinlashtirgan. Xususan, 1920 yilgi ma'lumotga ko'ra, Turkistonda 2 491 766 nafar xotin-qiz istiqomat qilgan, ularning 94,4% savodsiz bo'lgan, ya'ni rus tilini bilmagan. 1923- yilga kelib, TASSR da 12 ta xotin-qizlar maktabi bo'lib, ularda atigi 248 musulmon ayollari tahsil olgan [30,91-92].

10-rasm. 8-mart – xalqaro xotin-qizlar kuni [55].

11-rasm. Fotoplakat [46].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Buni anglagan holda, plakatlarni savodsiz kishilar uchun ham tushunarli qilishga harakat qilingan. Ayrim plakatlarda matn juda kam bo‘lib, asosan sovet hukumatining sharofati bilan xotin-qizlarning erishgan yutuqlarni aks ettiruvchi fotosuratlardan tashkil topgan (10,11-rasmlar).

1930-yillardan boshlab, sovet hukumatining ayollarga oid siyosatida o‘zgarish yuz berdi. 1934-yilda sovet hukumati SSSR da “ayollar masalasi” hal etilganligini e’lon qildi. Ammo jadal sur’atlarda amalga oshirish nazarda tutilgan sanoatlashtirish kun tartibiga boshqa vazifani qo‘ydi: ayollarni ijtimoiy faol mehnatga kengroq jalb qilish. Darhaqiqat, o‘sha paytda xotin-qizlarning tenghuquqliligi faqat sanoatlashtirish, jamoalashtirish va sotsialistik qurilishning boshqa turlarida erkaklar bilan teng ravishda faol ishtirok etishi bilan belgilandi.

Sovet hukumatining xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish orqali teng huquqlilikka erishish g‘oyasi bu davrda yaratilgan plakatlarda ham o‘z aksini topgan. Plakatlarda xotin-qizlarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki “muvaffaqiyatli sotsializm qurish kafolati” ekanligi qayd etildi, ular sanoat korxonalariga, kolxozlarga chorlandi (12,13-rasm).

12-rasm. Xotin-qizlarning mehnatda ishtiroki – muvaffaqiyatli sotsializm qurishning kafolati [47].

13-rasm. Kolxoz xotin-qizlarini chinakam kolxoz a’zosi qilamiz [26].

1920-yillarda chop etilgan bir plakatda “Xotin-qizlarning ishlab chiqarish ittifoqidagi va ishlab chiqarishdagi yaqindan ishtirokisiz jumhuriyatning xo‘jaligini yo‘lga qo‘yish hech mumkin emasdir”, deb uqtirilgan [8]. Dehqon xotin-qizlar yerga bo‘lgan huquq uchun kurashga chorlangan [19]. Boshqa bir plakatda esa dehqon xotin-qizlar ipak qurti boqishga da’vat etilib, bu ish ularni xo‘jalik daromadini orttirishi ta’kidlangan [18].

Shu bilan bir qatorda xotin-qizlarni ishlab chiqarishga jalb etish uchun uni uy mehnatidan, bolsheviklar ta’biri bilan aytganda “uy cho‘riligidan” ozod etish lozim, degan g‘oya ilgari surildi. Bu muammoni hal etish uchun bolalar bog‘chalari, jamoatchilik oshxonalari, kirxonalar tashkil etildi. Plakatlar orqali xotin-qizlar sovet hukumati tashkil etgan bu ijtimoiy xizmatlardan keng foydalanishga chaqirildi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

14-rasm. Kosibchi xotin! Bolalarni bolalar uyiga, bolalar yaslisiga, bolalar bog‘chasiga va bolalar maydonchasiga bergin [28].

O‘zbekistonda tayyorlangan plakatlarda eng ko‘p uchraydigan tasvirlardan biri – dehqon xotin-qizlar obrazi ekanligini ko‘rish mumkin. Sovet Ittifoqining paxta bazasiga aylantirilgan O‘zbekistonda ayollarning ko‘pchiligi ushbu sohada band bo‘lgan. 1928-yilga qaraganda 1983-yilda respublika xalq xo‘jaligida band bo‘lgan ayollar soni 65 baravar oshgani holda, qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan ayollar soni esa 104 baravar ko‘paygan [23,13-15].

Xotin-qizlarning qishloq xo‘jaligining turli sohalaridagi mehnati plakatlarda ham o‘z aksini topgan. O‘zbek davlat nashriyotining Tasviriy san’at tahririyati tomonidan 1961-yilda nashr etilgan, A. Balkanov tomonidan tayyorlangan “Mash’allarga tenglashing” seriyasidagi plakatlarda qishloq xo‘jaligining turli sohalarda ilg‘or bo‘lgan ayollar aks etgan. Jumladan: Sotsialistik Mehnat Qahramoni, dongdor mexanizator Tursunoy Oxunova va Muttixon Jumaboyeva, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan mexanizator Inoyatoy Vorisova, mexanizator-haydovchilar E’tiborxon Nabiyeva, Obida Xamroyeva, Lola Qurbonova, brigada boshlig‘i va mexanizator Mukarram Qandova, ilg‘or sut sog‘uvchilar Aziza Kenjayeva va Jumaxon Balkarayeva, Sotsialistik Mehnat Qahramoni, sut sog‘uvchi Mayxoncha Sayfutdinova [7]. Ushbu plakatlar O‘zSSR Qishloq xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi targ‘iboti boshqarmasi buyurtmasi asosida tayyorlangan bo‘lib, ulardagi matnlarda yuqorida tilga olingan ayollarning qishloq xo‘jaligi sohasida erishgan yutuqlari va kelgusi rejalari o‘z aksini topgan hamda ularning suratlari berilgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim sohasi bo‘lgan paxtachilikdek mehnattalab sohani ham xotin-qizlarning ishtirokisiz tasavvur qilish mumkin emas edi. Shu sababdan, sovet targ‘iboti turli vositalar ko‘magida o‘zbek xotin-qizlarining Vatan oldidagi eng muhim burchlaridan biri – paxta yetishtirish ekanligini uqtirgan. Ulardagi chaqiriqlar go‘yoki urushga safarbarlikka chorlashdek yangragan: “Biz paxtadan mo‘l hosil yetishtirdik. Uni oxirgi chanog‘igacha terib olish – har birimiz uchun sharafli ishdir!” [32]. O‘ziga xos “mehnat fronti”ga aylangan paxta terim mavsumida plakatlar ko‘pmingchilar safini to‘ldirishga chaqirgan. Ammo, paxta yetishtirish, plakatlarda tasvirlanganidek, shunchaki zavq keltiruvchi bunyodkorlik yoki qahramonlik emas, mashaqqatli mehnat edi. Masalaning bu tarafi esa, boshqa vizual vositalarda bo‘lgani kabi, plakatlardagi ham aks etmagan.

Tobora oshib borayotgan paxta rejalari qo‘l mehnatini mashinalar yordamida yengillashtirishni talab qilgan. Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash xotin-qizlarni og‘ir qo‘l mehnatidan ozod qilish zaruriyati bilan izohlangan. Xotin-qizlarni ularning jismoniy imkoniyatlariga mos kelmaydigan ushbu sohaga jalb qilish uchun targ‘ibot-tashviqotga zo‘r berilgan. Natijada,

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

mexanizator xotin-qizlarning soni tobora ortib borgan. 1940-yilga kelib, O‘zbekistonda 3000 xotin-qiz kolxoz va sovxoz dalalarida traktorchi bo‘lgan, 2020 xotin-qiz traktor brigadalari boshlig‘i, 139 nafari esa kolxoz shofyori bo‘lgan [37,49].

O‘zbek xotin-qizlari orasida paxta terish mashinasini o‘zlashtirish harakatini targ‘ib va tashviq qilishda ushbu tashabbus asoschisi, Chinoz tumanidagi Kirov nomidagi jamoa xo‘jaligi kompleks mexanizatsiyalashgan paxtachilik brigadasi boshlig‘i, ikki marta Sotsialistik Mehnat Qahramoni bo‘lgan Tursunoy Oxunovaning obrazidan, ayniqsa, keng foydalanilgan [43] (15-rasm).

15-rasm. Vatanimizga yanada ko‘p paxta beramiz. Tursunoy Oxunova yolg‘iz o‘zi yuz kishining ishini bajardi.

Davlatning vizual targ‘ibot tizimi nafaqat mafkurachilar va rassomlarni, balkim buyurtmachilar, noshirlar va senzura vakillarini ham o‘z ichiga olgan. Asosiy buyurtmachi – kommunistik partiya va sovet hukumat organlari bo‘lgan. Ko‘p hollarda buyurtmachi sifatida “Kurashchan xudosizlar ittifoqi”, “Bilim”, “Ochlarga yordam qo‘mitasi” kabi jamoatchilik tashkilotlari ko‘rsatilsa-da, ularning faoliyati davlat g‘aznasidan moliyalashtirilgan.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida xotin-qizlar mavzusi ko‘tarilgan plakatlar asosan Ma’orif komissarligi, VKP (b) qoshidagi Xotin-qizlar bo‘limlarining buyurtmasi asosida tayyorlangan. Buyurtmachilar va tarqatuvchilar odatda muallifning ismi, sharifi va uning tiraji haqidagi ma’lumotlar bilan birgalikda, plakatning pastki yoki tepa qismida ko‘rsatilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlar tasvirlangan plakatlar muhim vizual manba bo‘lib, vizual vositalar yordamida sovet davrida gender va milliy siyosat qay tariqa shakllanganligi, markaz va respublikalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, mafkuraviy institutlarda hamda xotin-qizlarning shaxs sifatida shallanish jarayonida, gender rollarda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni tadqiq qilish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, sovet hukumatining xotin-qizlarga oid siyosatida ro‘y bergan har qanday o‘zgarishlar plakatlarda o‘z aksini topgan. Mamlakatda ro‘y bergan murakkab ijtimoiy va madaniy qayta qurish tufayli targ‘ibot vositasi bo‘lgan plakatlarning shakllari, ularning mazmun-mohiyati ham o‘zgarib borgan.

Sovetlarning xotin-qizlar huquqlarini tenglashtirish hamda ularni ijtimoiy faollashtirishga qaratilgan siyosatining negizida sovet hukumati va kommunistik mafkurani qo‘llab-quvvatlovchi tarafdorlari sonini oshirish va ular yordamida yosh avlod ongiga “kommunistik g‘oya”ni

singdirishga intilish yashiringan edi. Shunga qaramasdan, ushbu siyosat xotin-qizlar hayotida katta ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi. Plakatlarda har ikki holat aks etgan bo‘lib, ular sovetlarning tajovuzkor siyosatini umuminsoniy qadriyatlar targ‘iboti bilan umumlashtira olgan. Vizual manba sifatida plakatlardan foydalanishda ushbu ziddiyatli holatni hisobga olish zarur.

Plakatlarning kontekst tahliliga alohida e’tibor qaratish lozim. Jumladan, 1920-yillarda chop etilgan plakatlarning muallifligi, qayerda va qachon tayyorlanganligini aniqlash qiyin. Chunki, ko‘pchilik rassomlar plakat tayyorlashni jiddiy san’at deb hisoblamagan, hamda o‘z muallifligini ko‘rsatmagan. Bundan tashqari, bu davrda plakatlar tayyorlash bilan ko‘proq boshqa millat vakillari shug‘ullangan, bu esa plakatlardagi matnlarda xatoliklarga yo‘l qo‘yilishiga olib kelgan. Taxmin qilishimiz mumkinki, ko‘p hollarda matnlar arab imlosidagi o‘zbek yozuvini yaxshi bilmagan kishilar tomonidan tayyorlangan. Shu sababdan, ayrim plakatlardagi matnlarni o‘qish qiyinchilik tug‘diradi va ular rus tilida berilgan matn bilan bir xilda emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Marianne Kamp. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. Seattle, A. – London: University of Washington Press, 2006. – 320 p.
2. *Алимова Д.А. “Ҳужум”га зарурат бормиди*? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1992.11.09. – №.37.
3. Алфёрова И. В. Делегатские собрания 1920-х годов как проект подготовки советских женщин к управленческой деятельности // Вестник ЧелГУ. – Челябинск: ФГБОУ ВО «ЧелГУ», 2011. – № 1 (216). – С. 46-54.
4. Атанова С.А. Боритесь за освобождение женщины востока!». Советские ковры и плакаты за эмансипацию женщин Центральной Азии в 1920–1930-е гг. // Сибирские исторические исследования. – 2021. – № 3. – С.140-170.
5. Ахунджанов Э.А. Книжно-информационная культура Узбекистана. Советский период: 1917-1991 гг. / Национальная библиотека Узбекистана им. А. Навои. Ташкент: Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана им. А. Навои, 2022. – 388 с. С.117-118.
6. Ахунджанов Э.А. Книжно-информационная культура Узбекистана. Советский период: 1917-1991 гг. / Национальная библиотека Узбекистана им. А. Навои. Ташкент: Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана им. А. Навои, 2022. – 388 с.
7. Balkanov A. “Mash’allarga tenglashing” plakatlar seriyasi: Aziza Kenjayevaning rekordi. // O‘zMA. F.431, 3-ro‘yxat, 172-yig‘majild; Dastlabki yutuqlar. // O‘zMA. F.431, 3-ro‘yxat, 164 yig‘majild; Yeng jaqsi sauinshi Jumaxan Balg‘arayeva // O‘zMA. F.431, 3-ro‘yxat, 169-yig‘majild; A. Jumaboyevaning traktor-dalachilik brigadasida // O‘zMA. F.431., 3-ro‘yxat, 174-yig‘majild; Ilg‘or metodlarni joriy qiluvchi // O‘zMA. F.431, 3-ro‘yxat, 178-yig‘majild; KPSS XXII s’ezdiga munosib sovg‘a // O‘zMA. F.431, 3-ro‘yxat, 162-yig‘majild; Lola Qurbonova 300 tonna paxta termoqchi // O‘zMA. F.431, 3-ro‘yxat, 161-yig‘majild; E’tiborxon Nabiyeva 300 tonna paxta terishga ahd qildi // O‘zMA. F.431, 3-ro‘yxat, 173-yig‘majild.
8. Без активного участия женщины в производственном союзе и в производстве не может быть восстановлено хозяйство республики. Неизвестный художник. – Ташкент: Туркестанское государственное издательство Типография № 1, 1920-е г.
9. Бобровников В. Islamic Discourse of Vsual Propaganda in the Interwar Soviet Orient (1918–1940)// Islamology. – 2017. – №2. – С. 53-73; Атанова С.А. “Боритесь за освобождение женщины Востока!”. Советские ковры и плакаты за эмансипацию женщин Центральной Азии в 1920-1930-е гг. // Сибирские исторические исследования. – 2021. №3. – С. 140-170.
10. Бобровников В., Филатова М. Плакат Советского Востока 1918–1940. – М.: Фонд Марджани, 2013. – 318 с.
11. Борцы за новую жизнь: К 60-летию «Худжума» / Д. Алимова, Ю. Ахтямова; Под ред. Р. Х. Аминова. – Ташкент: Фан, 1987. – 51 с.
12. Великий Октябрь и раскрепощение женщин Средней Азии и Казахстана (1917-1936 гг.): Сб. док. и материалов. – М.: Мысль, 1971. (252)
13. Восиқова М. Совет қонунлари ва хотин-қизлар. – Тошкент: Фан, 1971. – 32 б.
14. Горшенина С. Синяя птица среднеазиатского авангарда // Ижтимоий фикр. – Ташкент, 1998. – № 1. – С.125-138.

15. Декрет ЦИК Советов Туркестанской Советской Социалистической Республики об отмене калыма. 14 июня 1921 г. Известия ЦК КП(б) Туркестана и ЦИК Советов Туркестанской республики, 4 июля 1921 г. // Великий Октябрь и раскрепощение женщин Средней Азии и Казахстана (1917-1936 гг.): Сб. док. и материалов. – М.: Мысль, 1971. – С.46-47.
16. Декреты Советской власти. Том I. 25 октября 1917 г. – 16 марта 1918 г. – М.: Гос. издат-во политической литературы, 1957. – С. 247-249.
17. Демосфенова Л., Нурок А., Шантыко Н. Советский политический плакат. – М., 1962. – 444 с.
18. Дехканки! Занимайтесь шелководством. Оно увеличит доход вашего домохозяйства. Неизвестный художник. – Ташкент: Узбекская литографская мастерская, издательство Среднеазиатского института шелкопрядения Акционерного общества Туркестанского шелкового комбината, 1930-е гг.
19. Dehqon xotin. Yerga bo‘lgan huquqingni talab qilishga faol kurash (arab imlosida). Toshkent: nauka i trud, 1927.Долинская В. Г. Плакат Узбекистана. – Ташкент : Фан, 1968. – 118 с
20. Долой калым, многоженство и всякое насилие над женщинами. Неизвестный художник. – Москва: центриздат, 1920. (Плакат Советского Востока, 2013, с. 107.).
21. Женщины в русском плакате. – М., 2001. – 144 с.
22. Женщины Советского Узбекистана: Краткий стат. сб. – Ташкент, 1984. – 64 с.
23. Жўраева Н. Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20-80 йиллари мисолида): ўқув қўлланма. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. – 169 б.
24. Работницы, дехканки, жены рабочих! Спешите на перевыборы делегаток. Автор: Щеголева. – Москва. – Ташкент: Среднеазиатское отделение Ассоциации государственных издательств, 1932.
25. Kolxoz xotin-qizlarini chinakam kolxoz a’zosi qilamiz (lotin grafikasida). Noma’lum rassom. – Toshkent: Uzgosizdat, 1930-yillar.
26. Конституция (Основной закон) Узбекской Советской Соцмалистической Республики. – Самарканд: Издательство Юридического издательства СНК УзССР, 1927. – С. XVII.
27. Kosibchi xotin! Bolalarni bolalar uyiga, bolalar yaslisiga, bolalar bog‘chasiga va bolalar maydonchasiga bergin (lotin va kirill imlosida). Noma’lum rassom. – Toshkent: Tipografiya № 2 Uzbekskogo pechatnogo tresta, 1931.
28. Любимова С. Дастлабки йилларда. – Тошкент: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока”, ва “Ўзбекистони Сурх” бирлашган нашриёти, 1959. – 84 с.
29. Мелентьев Д. Воображая раскрепощение мусульманок Советского Туркестана // Islamology. –2020. – №1. – С. 83-104. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/voobrazhaya-raskreposchenie-musulmanok-sovetskogo-turkestana (дата обращения: 20.02.2025).
30. Морозов А. С. Агит-окна. Окна *ТАСС. 1941–1945*. – М.: Контакт-Культура, 2013. – 480 с.
31. Мы вырастили богатый урожай хлопка! Собрать его до последней коробочки — дело чести каждого из нас! Художник: В. Кайдалов. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1950.
32. О плакатной литературе. Постановление ЦК ВКП (б) // Правда. – 1931.24.03. – №82. – С.1.
33. Paranjini batamom bitiramiz (lotin imlosida). Muallif: S.Malt. – Toshkent: Uzfimgiz, 1940.
34. Первая советская конституция (конституция РСФСР 1918 года). Сборник документов. – Москва: Юридическое изд-во НКЮ СССР, 1938. – С. 423-439.
35. Ishchi, kolxozchi, butun mehnatkash xotin-qizlar hammangiz vakilalar saylash yig‘iniga (lotin grafikasida). Noma’lum rassom. – Samarqand, 1920-yillar.
36. Раҳимбобоева З. Ўзбекистон хотин-қизлари коммунизм йўлида. – Тошкент: Ўздавнашр, 1949. – 88 б.
37. Saylovchi ayollar – qudratli kuch (lotin grafikasida). Muallif: S.Malt. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1937.
38. Свободу женщине Востока. Автор: Е.Перников.
39. Собрание узаконений и распоряжений правительства за 1917-1918 гг. Управление делами Совнаркома СССР. – М.: Б.и.,1942. – С.1045-1074.
40. Труженица востока, становись в ряды строителей социализма. Автор: Н. Ф. Короткова, М. Ворон. – Москва: Художественное издательское акционерное общество АХР, 1930.
41. Turkistonning uy bekasi va mehnatkash xotinlari (arab imlosida). Noma’lum rassom. – Moskva: Turkgosizdat, 1920–1923.
42. Tursunoy Oxunova 350 tonna paxta terishga ahd qildi. Muallif: Balkanov A. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1960 // O‘zMA. F.431, 3-ro‘yxat, 174-yig‘majild; Vatanimizga yanada ko‘p paxta beramiz. Tursunoy Oxunova yolg‘iz o‘zi yuz kishining ishini bajardi. Muallif: V.Morgunov. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1960 // O‘z MA. 431-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 523-yig‘majild.
43. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan mexanizator Inoyatoy Vorisova. Muallif: Balkanov A. – Toshkent: // O‘zMA. F.431, 3-ro‘yxat, 174-yig‘majild.
44. O‘zMA. 431-jamg‘arma, 4-ro‘yxat, 202-yig‘majild, 32-36-varaqlar.

45. Fotoplakat. Noma’lum rassom. – Toshkent: Toshkent viloyat tipografiyasi, 1930-yillar.
46. Xotin-qizlar orasida savodsizlikni bitirish va umumiy ta’lim – sinfiy dushmanlarga qat’iy zarba! (lotin imlosida). Muallif: Hakimjonov M. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1932.
47. Xotin-qizlarning mehnatda ishtiroki – muvaffaqiyatli sotsializm qurishning kafolati (arab imlosida). – Moskva: Книжная фабрика Централного изд-во народов СССР, 1920-yillar.
48. Худжум – значит наступление / сост. С. А. Дмитриева. – Ташкент: Узбекистан, 1987. – 205 с.
49. «Худжум» в судьбах женщин Узбекистана: к 60-летию движения за равноправие женищин / Рахима Хадиевна Аминова. – Ташкент: Общество «Знание» УзССР, 1987. – 22 с.
50. Хусанов Н. Жамиятда плакатнинг ўрни // Ўтмишга назар. – 2021. – 3-махсус сон. – Б. 647-653.
51. Hozir men ozodman (arab imlosida). Noma’lum rassom. – Moskva, 1921.
52. Шостко Л. Выставка политического плаката // Правда Востока. – 1957.10.12. – №. 289. – С.4.
53. Эгамов А. Иккинчи жаҳон уруши йилларида тарғибот-ташвиқот плакатларининг ўрни // San’at. Art. Искусство. – 2021. – №1. – Б. 40-42.
54. 8-mart – xalqaro xotin-qizlar kuni (arab va kirill imlosida). Muallif: Abdul Mo‘min. – Toshkent: Uzgosizdat, 1930-yillar.
55. https://islamperspectives.org/rpi/items/browse?collection=7

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Khasanova Nargiza Sagdullaevna
Senior lecturer of the department Museum Studies of the National institute of arts and design by Kamoliddin Behzod,
Doctor of Philosophy in Art History (PhD)
E-mail: nargiss1981@mail.ru

Published under peer review:
Doctor of Sciences in History (DSc), Professor,
Kuryazova Darmon Turaevna

Received 4th April 2025, Accepted 11th April 2025, Online 18th April 2025

AVANT-GARDE ART IN ARTISTIC CREATIVITY AND ART EDUCATION OF UZBEKISTAN
(history of formation)

Annotation. The article reveals the processes of introducing avant-garde trends in the art education of Uzbekistan at the beginning of the 20th century, along with the academic direction that existed in the 1920s, as well as the realities of aspirations to form the avant-garde of art education.

Key words: Art education, fine arts, avant-garde, academic direction, “Philosophy of symbolic forms”, formalist artists, constructivism and non-objectivity, chronicle of events.

O‘ZBEKISTON BADIIY IJODI VA BADIIY TA’LIMIDA AVANGARD SAN’ATI
(shakllanishi tarixi)

Annotatsiya. Maqolada XX asr boshlari O‘zbekiston badiiy ta’limida avangard san’atiga xos tendensiyalarni joriy etish jarayonlari 1920-yillarda mavjid bo‘lgan akademik yo‘nalish bilan bir qatorda avangard badiiy ta’limini shakllantirish intilishlari voqeliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Badiiy ta’lim, tasviriy san’at, avangard, akademik yo‘nalish, “Ramziy shakllar falsafasi”, formalist rassomlar, konstruktivizm va noob’ektivlik, voqealar xronikasi.

ИСКУССТВО АВАНГАРДА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТВОРЧЕСТВЕ И ХУДОЖЕСТВЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ УЗБЕКИСТАНА XX ВЕКА
(история формирования)

Аннотация В статье раскрывается процессы внедрения авангардных течений в художественном образование Узбекистана начала XX века, наряду с академическим направлением, существовавшим в 1920-е годы, а также реалии устремлений к формированию авангарда художественного образование.

Ключевые слова: Художественное образование, изобразительное искусство, авангард, академическое направление, «Философия символических форм», художники-формалисты, конструктивизм и беспредметничество, хроника событий.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Вступление. Как известно, состояние искусств созвучно веяниям времени. Изобразительное искусство конца XIX – начала XX вв. в поисках новых форм и способов эмоциональной выразительности ознаменовано авангардистскими устремлениями: «Искусство XX века знает пока только один, начальный рубеж своей истории…, многие его художественные процессы не завершены. Искусство XX века не первая переломная, неклассическая эпоха во всеобщей истории искусств» [1, 6-7].

Методы. Авангардизм – явление сложное. Как идейно художественная система он отличается интеллектуальностью. Эстетические предпосылки авангардизма основываются на теоретических категориях классиков философии: «во-первых, символическую форму. В ней идея еще *ищет* своего подлинного художественного выражения, так как она еще абстрактна и неопределенна в самой себе и поэтому не имеет в себе и внутри самой себя соразмерного выявления, а оказывается перед лицом внешних ей вещей в природе и событий человеческой жизни. Непосредственно предчувствуя в этой предметности свои собственные абстракции или принуждая себя вступить со своими лишенными определенности всеобщностями в конкретное существование, она искажает и извращает пред найденные образы. Беря их произвольно, она не приходит к полному отожествлению с ними, а достигает того, что смысл и образ лишь напоминают друг о друге и абстрактно согласуются между собой» [2, 8].

И современных началу авангарда философов, занимавщихся вопросами теории искусства и эстетики, в этом ряду: «Философия символических форм» – главный философский труд Кассирера. Время появления книги совпало с периодом распада философии *неокантианства*, одним из недавних лидеров которой выступал сам Кассирер» [3, 340].

«В свете новых веяний, еще в конце XIX века апологеты символических форм в искусстве констатировали, что академическая система с ее классическими принципами уже не отвечает тем новым требованиям, которые предъявлялись искусству. Еще тогда много говорилось о реформе художественного образования», - пишет Ростовцев, и далее продолжает – «новых путей в художественном образовании не найдено, а формалистическое искусство начинает занимать ведущее место. Принципиальное значение имеет то, что к авангардизму пришли именно те, кто прошёл в той или иной мере академический образовательной процесс [4, 173].

Именно отсюда свойственный их работам профессионализм. Концептуальность произведений художников авангардистских направлений настолько привлекательно, что, как бы критически не оценивались их формотворческие поиски, они занимают немаловажное место в истории искусств. Они уже вошли в страницы истории искусств, или им это предстоит: «… считают, что отсчет жизни русского авангарда следует вести с сезона 1907-08 гг. С этим легче согласиться: именно в это время в Москве образовались первые выставочные группы молодых художников – будущих авангардистов» [5, 96].

В этот период становится очевидной поляризацией двух направлений: «С одной стороны, продолжает развиваться реалистическое искусство, … с другой – формалистические тенденции. Эти черты с особой полнотой появились у супрематистов и легли в основу современного модернистского искусства – творчества В.Е. Татлина (1885-1953), К.С. Малевича (1878-1935), В.В.Кандинского, А.П.Архипенко» [5, 96]. Все они выпускники таких

именитых учебных заведений, как: В.Е.Татлин – в мастерской В.А.Серова и К.А.Коровина в Московском училище живописи, ваяния и зодчества; К.С.Малевич – тоже там же; В.В.Кандинский – знаменитую школу Антона Ашбе в Мюнхене [6, 416].

Об искусстве 30-х гг. Н. Ахмедова пишет: «Судьба авангарда в Узбекистане уникальна. Своим рождением он связан с различными идеями и влияниями, на первый взгляд, взаимоисключающими. Ход истории определял многое – крушение старого мира, неотложные идеологические и социальные проблемы нового общества, формирование молодой национальной школы, непростой, порой трагический, жизненный путь мастеров» [7, 46].

Результаты. Отличительной особенностью художественного образования Узбекистана является то, что наряду с академическим направлением, возникло в начале 20-х годов стремление создать учебные заведения авангарда. В книге «Изобразительное искусство Узбекской ССР» говорится: «На первых порах формалистические веяния в искусстве Туркестанской республики были незначительны. Но в 1921 году в Туркестан прибыла группа московских художников-формалистов, провозгласивших борьбу с академизмом и рутиной. Представители формализма Комиссаренко, Федорченко не были яркими фигурами своего времени, однако они были достаточно предприимчивы для того, чтобы повернуть краевую туркестанскую художественную школу на путь формалистических исканий. Нечто подобное имело место и в Самарканде, где художественное руководство скульптурным классом перешло в руки художницы Сандомирской» [8, 6].

Обсуждение. В отличие от несостоявшейся «школы» авангарда искусство 20-х годов в нашей республике, даёт полную картину того времени. В связи с этим Н.Ахмедова пишет: «Наиболее интенсивно этот процесс протекал в Узбекистане, в 20-е гг. собрался разнообразный по творческому потенциалу состав художников. Это близкие кубистическому и экспрессионистическому направлениям А. Волков, М. Курзин, Н. Кашина, Е. Каравай; кубофутуризму - В. Уфимцев; неоклассике – В. Маркова; импрессионизму – П. Беньков» [7, 46].

Хроника событий, интенсивно протекавших в художественной жизни с 1930-х по 1940-е годы в искусстве республики была ознаменована рядом крупных этапных выставок художников Узбекистана в Ташкенте и потом в Москве.

Если подробнее: республиканские выставки были организованы в 1932, 1933, 1935, 1936, 1938, 1940 гг. в Ташкенте. Во время декад узбекского искусства в 1931, 1933, 1937 гг. – в Москве.

Как известно, уже первая отчетная республиканская выставка 1932 г. стала ареной творческого соревнования художников реалистического и формалистического направлений. В силу советской идеологической зависимости уже тогда таким работам давались резко отрицательные оценки: «Показанные на этой выставке работы А.Н. Волкова «Кадырьястрой», «Слушают радио» и другие полотна не были реалистическими произведениями, но в них сквозило стремление художника не стоять в стороне от жизни. Были на выставке и такие произведения, которые свидетельствовали о том, что их авторы не желают считаться с требованиями жизни и остаются в плену абстрактного, а потому и заведомо безнадежного

формотворчества (произведения П. Фальбова, В. Марковой, исполненные в духе конструктивизма и беспредметничества)» [8, 7].

Формалистические работы в этот период на выставках еще преобладали. В отличие от художественных центров тоталитарной страны, где произошёл спад формотворческих поисков, художники авангардских направлений Узбекистана продолжали создавать произведения созвучные веяниям Запада вплодь до 40-х годов. «Узбекский кубизм – феномен, который еще не осмыслен, хотя в стратиграфии национального искусства представляет один из значительных слоев. Достаточно упомянуть культовую фигуру А. Волкова, чтобы понять, сколь важный след кубистическая концепция имела в истории национальной живописи периода её зарождения» [9, 23]. Волков жил в атмосфере XX века, был в курсе всех новейших течений живописи. Он отлично оперировал приемами конструктивизма, кубофутуризма, постимпрессионизма, когда они были созвучны его собственным задачам. При этом отнюдь не считал себя обязанным принимать всю «программу», осуществлять всю систему взглядов, предлагаемую этими направлениями. «Правые» собратья объявляли Волкова «левым». «Левые» обвиняли в отступничестве и непоследовательности. А художник шел собственным путем. «Рабом никаких «течений» никогда не был. И в этом, быть может, мой путь, мое спасение», — записывает Волков в дневнике.

Как художник и как воспитатель новых национальных кадров Волков утверждал изобразительность в искусстве. Но, прокладывая путь к новому искусству и для себя, и для других, Волков очень бережно относился ко всем ценностям культурного наследия народов Средней Азии. Ученики очень быстро превращались в мастеров. В тридцатые годы в Ташкенте организуется «бригада Волкова». В состав ее входили очень разные по индивидуальности художники: У. Тансыкбаев, Б. Хамдами, Н. Карахан, А. Ташкенбаев, Ч. Ахмаров, П. Щеголев, А. Венедиктов, А. Подковыров [10, 9]. Среди них и ученики А. Волкова. Авангардизм как символ тех бурных лет будоражил умы и поэтому представлялся эстетически значимым явлением. Порой художники реалистических направлений неожиданно обращались к формотворческим поискам и появлялись такие рецензии: «И когда рядом с этим, казалось бы, случайным отступлением П. П. Бенькова от позиций реализма зрители видели «Купанье ребенка» В. Марковой, картину, исполненную в стиле ранне-итальянских примитивов, и «Еврейский базар» Е.Л. Каравай в духе экспрессионистической живописи Марка Шагала. «Красный обоз», «Зажиточная жизнь» и портреты колхозников, выставленные тогда О.К. Татевсьяном, как и «Белое золото» Усто Мумина, говорили о стремлении части художников найти для выражения национального своеобразия жизни края особые формы» [8, 7] - отмечалось в книге «Изобразительное искусство Узбекской ССР».

Тем не менее, середина 1930-х годов была переломным этапом в развитии искусства Узбекистана. Это со всей очевидностью обнаружилось на открывшейся в Ташкенте в 1935 г. выставке 6-ти художников, продемонстрировавших для сравнения свои старые и новые работы. Участниками «Выставки 6-ти» были О. Татевосьян, Усто Мумин, В. Уфимцев, М. Курзин, А. Волков и У. Тансыкбаев.

Хотя в этот период в изобразительном искусстве Узбекистана авангардизм смог занять определённую позицию, новейшие начинания в системе художественного образования оборвались по ряду причин: если одна из них политическая ситуация тех лет, другая – отсутствие ясных целей и задач, в том числе – учебного плана, программы и методики образовательного процесса.

По этому поводу уместно привести слова Н. Ростовцева: «Стремления художников обогатить, расширить средства изобразительного искусства было вполне естественным и закономерным…. Всем было ясно, что академическая система нуждается в реформе, методы обучения рисунку, живописи и композиции необходимо изменить. Беспорядочная борьба мнений и веяний в эту эпоху вносила еще большую неорганизованность в методику преподавания художественных дисциплин и, прежде всего, рисунка» [4, 173]. Образовательный процесс в любом из направлений обязан иметь ясную и четкую цель, соответствующий учебный план, учебную программу и разработанную методику. Но, не смотря на не удавшиеся попытки организации художественного образования авангардистских направлений, этот опыт имеет определенную историческую ценность.

В этот период в художественном образовании Узбекистана отчетливо определилась тенденция развития классической академической школы. Как известно, почти все классики мирового, тем более русского, в том числе, и Узбекистанского авангарда в той, или иной мере, прошли процесс академического художественного образования. Что вполне естественно, только школа формирует в будущем художнике принципы художественности произведений и законченности форм.

Выводы. Путь, пройденный за последние сто лет, подтверждает, что только обучение классическому искусству дает ту свободу, которую можно определить, как профессионализм. Еще Гегель писал: «Только *классическое искусство создает* ту реальность, совпадающую с понятием прекрасного …, *Идеал* дает содержание и форму классическому искусству, осуществляющему в этом адекватном способе формообразования то, что согласно своему понятию составляет подлинное искусство» [2, 139].

Все те, кто стоял, у истоков авангардистских направлений в изобразительном искусстве прошли, в той или иной мере азы классических искусств. И нынешнее поколение узбекских авангардистов прошло путь классического образования. Все они выпускники Национального института художеств и дизайна имени Камалиддина Бехзода (в прошлом ТГТХИ и Институт искусств имени Маннона Уйгура). Это такие мастера как В. Бурмакин, А. Нур, Дж. Усманов, Ф. Ахмадалиев, Л. Ибрагимов и т.д., а также выпускники других вузов Б. Джалал, Г. Байматов, Г. Кадыров. И их произведения в любых проявлениях авангардного искусства глубоко профессиональны.

Литературы:

1. Полевой В.М. Искусство XX века. –М.: Искусства, 1991.
2. Гегель Г.В.Ф. Лекции по эстетике. Том 1. – Санкт-Петербург: Наука, 1999.
3. Современная западная философия. Словарь. – М.: «Полит. лит.», 1991. – 340 с.
4. Ростовцев Н.Н. История методов обучения в рисованию. – М.: Просвещение, 1981. – 173 с.
5. Русское искусство XIX – начала XX века /«Памятники мирового искусства» Выпуск V, - М., «Искусство», !972.
6. Молева Н.М. Выдающиеся русские художники-педагоги: Кн. Для учителя. – 2-е изд., доп. – М.: «Просвещение», 1991. – 416 с.
7. Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века: Традиции, самобытность, диалог: Особенности формирования и развития / Науч. Ред. А.Хакимов. -Ташкент: 2004.
8. Изобразительное искусство Узбекской ССР. – М., Советский художник, 1957.
9. Хакимов А. Узбекская траектория кубизма. // Sanat, 2003, №3.
10. Волков А. Карвон ўз йўлида давом этади. /Рассом таваллудининг 120 йиллигига бағишланади./ - Тошкент: “KO`HI-NUR”, 2007.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Abrarov Islomiddin Jamolovich
Doctor of Philosophy (PhD) in political science
Independent researcher at the Academy of Public Administration
Under the President of the Republic of Uzbekistan

Published under peer review:
Doctor of Political Science, Associate Professor
Mansur Musaev

Received 4th April 2025, Accepted 11th April 2025, Online 18th April 2025

YOSHLAR - YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan davlat siyosatining mazmuni, asosiy yo‘nalishlari va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan dasturlar, qonunchilik asoslari hamda yoshlarning ta’lim olish imkoniyatlari, bandligi, tadbirkorlik faoliyati va huquqiy himoyasi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mamlakat, yoshlar siyosati, davlat dasturi, ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish, huquq, himoya, loyiha.

МОЛОДЕЖЬ - СТРОИТЕЛИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В статье дается научный анализ содержания, основных направлений и мер, реализуемых в нашей стране государственной политики в отношении молодежи. В статье также рассматриваются программы, направленные на поддержку молодежи, повышение ее социально-экономической активности, законодательная база, вопросы образования, трудоустройства, предпринимательской деятельности и правовой защиты молодежи.

Ключевые слова: страна, молодежная политика, государственная программа, социальное, экономическое развитие, права, защита, проект.

YOUTH - BUILDERS OF NEW UZBEKISTAN

Abstract: The article provides a scientific analysis of the content, main directions and measures implemented in our country of the state policy towards youth. The article also considers the programmes aimed at supporting youth, increasing its socio-economic activity, legislative base, issues of education, employment, entrepreneurial activity and legal protection of youth.

Keywords: country, youth policy, state programme, social, economic development, rights, protection, project.

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda jamiyatning taraqqiy etishida davlatning yoshlarga qaratilayotgan e’tibori muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, yoshlar yurtimizning asosiy tayanchi va suyanchi sifatida mamlakatimizda keng ko‘lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda. Bugungi globallashuv shiddati aynan zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan, yangicha fikrlaydigan

yangi-yangi g‘oyalarni ilgari suradigan yoshlarga bo‘lgan ehtiyojni talab etmoqda. Mamlakatimizda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning imkoniyatlarini jamiyatimizda yanada kengaytirish, ularni salohiyatini yuksaltirishga davlatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda, 2018-yil 27-iyunda Prezidentimiz tomonidan “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni imzolangan edi. Mazkur farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. Ushbu farmon asosida “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi tashkil etildi. Mazkur jamg‘arma yoshlar uchun bir qator qulayliklar yaratishda muhim poydevor bo‘ldi. Jamg‘arma yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qo‘yildi. Ushbu farmonga e’tibor qaratilsa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganini bevosita ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning samarali amalga oshirilishida yoshlarimiz hal qiluvchi kuch sifatida muhim o‘rin tutadi. Yoshlar davlatimiz va jamiyatimiz e’tiborida bo‘lib turgan ijtimoiy qatlamlardan biridir. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2025-yil 14-fevral kuni mamlakatimiz yoshlari bilan qilgan muloqotida alohida to‘xtalib o‘tgan edi. Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida azmu shijoatli, navqiron yoshlar bilan uchrashib turganidan mamnunligini bildirib, ularning timsolida Yangi O‘zbekistonning bugungi va ertangi bunyodkorlarini ko‘rayotganini ta’kidladi. “Buyuk shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, yoshlik – bu qalbning oltin sozi. Bunga qo‘shimcha qilib, yoshlar – xalqimizning, Vatanimizning oltin fondi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Aholimizning 60 foizini aynan yoshlar tashkil etishi ham bu fikrni tasdiqlaydi”[1].

Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology)

Bilishning aniq usullari yig‘indisiga tayangan holda ilmiy tahlillar o‘tkazilib, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy usullari hamda natijani ilmiy o‘rganish uslublaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Yurtboshimiz o‘z nutqida bugungi kunda biz mard va matonatli xalqimizga, serg‘ayrat yoshlarimizga ishonganimiz uchun o‘z oldimizga katta-katta maqsadlar qo‘yib marrani baland olayotganligiga alohida e’tibor qaratar ekan kelgusida Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi ezgu va bunyodkor g‘oyalarini amalga oshirishda bugungi Yangi O‘zbekiston yoshlari amalga oshirishini alohida ta’kidlab o‘tdi. Shu bilan birga, mamlakatimiz yoshlari bugungi kunda turli sohalardagi yutuqlari bilan o‘z tengdoshlariga o‘rnak va namuna bo‘layotganini alohida to‘xtalib o‘tar ekan, hozirgi kunda jahondagi nufuzli “Top” oliygohlarda 1,5 mingdan ziyod yoshlarimiz tahsil olayotganligini faxr bilan aytib o‘tdi. Shu bilan birga, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev har yili mamlakatimiz mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yoshlar kirib kelayotganligini 2030-yilga borib bu ko‘rsatkich 1 million nafarga yetishini bu esa davlat va jamiyat zimmasiga katta mas’uliyat yuklashini alohida ta’kidlab o‘tdi. Bu borada mamlakatimizda yoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash tizimi yaratilishiga e’tibor qaratib o‘tar ekan, birgina “Yoshlar daftari” orqali 2024-yili 180 ming nafar yoshlarga 345 milliard so‘mlik yordam ko‘rsatilganligini aytib o‘tdi. Mamlakatimizda o‘tgan 8

yil mobaynida yosh tadbirkorlar soni 3 karra ko‘payib, bugun biznes vakillarining salkam 40 foizini yoshlar tashkil etayotganligini sababli ishsiz yoshlar 2 barobar kamayganligiga alohida e’tibor qaratdi. Shu bilan birga, mamlakatimizda keyingi qisqa davrda oliygohlar soni 3 barobar oshib, oliy ta’lim tizimda qamrov 42 foizga yetganligi, xotin-qizlarga to‘lov shartnomasi davlat tomonidan qoplab berilayotgani hisobiga talaba qizlar soni 11 karra ko‘payganligini ta’kidlab o‘tdi.

Davlatimiz rahbari yurtimiz yoshlari bilan o‘tkazgan samimiy muloqotida “Men bir hayotiy fikrni takrorlashdan charchamayman: bitta qizni o‘qitsak, butun oilani o‘qitgan bo‘lamiz. Oila bilimli, ma’rifatli bo‘lsa, butun jamiyat bilimli, ma’rifatli bo‘ladi. Bu boradagi ishlarni yanada jadal davom ettiramiz”[2], - deya alohida qayd etib o‘tdi. Shu bilan birga keyingi vaqtlarda mamlakatimizda ilmiy darajali yosh olimlarimiz soni 2 karra oshib, 4 ming 357 nafarga yetganligi ayniqsa, farzandlarimiz orasida xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqish keskin kuchayib bormoqda deya ta’kidladi, Prezidentimiz. Davlatimiz rahbari yoshlar bilan samimiy muloqotda kambag‘allikni qisqartirishning eng samarali yechimi ta’lim ekanligini alohida ta’kidlab o‘tdi. Bu borada mamlakatimizda kam ta’minlangan oilalarda hech bo‘lmaganda bitta farzand oliy ma’lumotli bo‘lishi uchun zarur sharoitlar yaratilishini kambag‘al oilaning farzandiga ta’lim krediti foizsiz berilishi va qo‘shimcha grant ajratilib, kontrakt to‘lovining bir qismi qoplab berilishini aytib o‘tdi. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan yuksak baholanayotgani barcha yurtdoshlarimizni behad quvontirmoqda. Bu borada, yosh avlodni tarbiyalash, o‘qitish tizimini tubdan isloh qilish va kadrlar tayyorlash borasida milliy modelning ishga tushirilishi natijasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Zero, bugungi globallashuv shiddati yoshlarga alohida e’tibor qaratishni ularning sifatli bilim olishini ta’minlashni bugungi zamon talabining o‘zi taqozo etmoqda. Davlatimiz rahbari o‘z nutqida muhim yangilik sifatida iqtidorli, bilimga chanqoq, lekin og‘ir oilaviy sharoiti sababli o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmagan yoshlarni xorijda o‘qitish bo‘yicha yangi tizim – “Yorqin iste’dod” loyihasi joriy etilishini ta’kidlab o‘tdi. Mazkur loyihaga ko‘ra, har bir mahalladan ijtimoiy himoyaga muhtoj, bilimga chanqoq yoshlar saralanib, ularni iqtidorlari aniqlanib, salohiyatiga mos xorijiy oliygoh tanlanib, tayyorgarlik kurslarida o‘qitilishini aytib o‘tdi. Shu bilan birga xorijda ta’lim olib qaytgan yoshlar Milliy kadrlar zahirasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritilishini va ular davlat organlariga tanlovsiz ishga olinishini bildirib o‘tdi.

Eng quvonarli tomoni har yili saralashdan o‘tgan 1 ming nafar yoshlar dunyoning “Top-100” oliygohlariga yuborilib, o‘qish va yashash xarajatlari qoplab berilish ta’kidlandi. Shuningdek, davlatimiz rahbari energetika, transport, urbanizatsiya, zamonaviy arxitektura, tibbiyot yo‘nalishlarida “El-urt umidi” jamg‘armasi kvotalari ko‘paytirilishiga ham alohida e’tibor qaratib o‘tdi. Bundan tashqari, dunyoning nufuzli “Top-100” oliygohlarida ilmiy daraja olgan 35 yoshgacha bo‘lgan yosh olimlarga uy-joy uchun 10 yil muddatga 800 million so‘mgacha foizsiz ssuda ajratilishini nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib va sovrindor bo‘lganlar uchun bir martalik pul mukofoti miqdori 5 barobar oshirilishi ta’kidlandi. Shu bilan birga, mamlakatimizdagi harbiy oliygohlarning namunali tinglovchilari uchun “Oliy bosh qo‘mondon” davlat stipendiyasi joriy etilishini yoshlarni ilmga qiziqtiruvchi media kontentlar, eng yaxshi intellektual shoular yaratishga Yoshlar agentligi tomonidan 100 million so‘mgacha grantlar ajratilishi Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz yoshlari uchun qaratilayotgan e’tibor, albatta yurtimiz istiqboliga xizmat qiladi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Bugungi kunda mamlakatimizda zamon talabiga mos ravishda shakllanayotgan yoshlar siyosati barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikka erishish uchun yoshlarning o‘zini-o‘zi anglashini, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini hamda inson kapitali o‘sishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu siyosat mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘riladi va muntazam ravishda takomillashtirib boriladi. Bunda yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim va mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida qayd etish joizki, Prezidentimizning “Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega”, deya ta’kidlagani ayni haqiqatdir. Mazkur yondashuv “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ham aksini topgan bo‘lib, ushbu muhim hujjatning “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” deb nomlangan birinchi yo‘nalishi 44 banddan iborat bo‘lsa, shuning 25 dan ortig‘i bevosita yoshlar manfaatlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakatimiz yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg‘ul bo‘lishini ta’minlash uchun har bir viloyatda 1 tadan «Kreativ park»lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga 40 ming nafar yoshlarni jalb qilish, maktab bitiruvchilarini esa kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta’minlash belgilangan. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun va qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida yoshlarning huquqlari va imkoniyatlari himoya qilinib, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilmoqda.

“2030-yilgacha mo‘ljallangan “Yoshlar strategiyasi” doirasida ta’lim sifati, innovatsiyaga bo‘lgan qiziqish, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy himoya bo‘yicha keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirilmoqda”[3]. Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan moliyaviy yordam dasturlari, jumladan, grantlar va stipendiyalar joriy etilmoqda. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy ta’lim dasturlarida ishtirok etish imkoniyatlari kengayib, qo‘shma ta’lim loyihalari va talabalar almashinuvi rivojlantirilmoqda. Shuningdek, yoshlarning mehnat bozoridagi faolligini oshirish, ularning bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlari yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

• “Yoshlar daftari” tizimi – yoshlarning bandligini ta’minlash va ularni moddiy qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus dastur joriy etildi.

• Startap va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash – yosh tadbirkorlarga kredit va grantlar ajratilib, ularning biznes g‘oyalarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

• Kasb-hunar markazlari – ishsiz yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘rgatish orqali ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish choralari ko‘rilmoqda.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida madaniyat va sport sohalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va milliy merosni asrash uchun turli madaniy festivallar va musobaqalar tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning jismoniy faolligini oshirish va sport bilan muntazam shug‘ullanishini rag‘batlantirish maqsadida zamonaviy sport majmualari barpo etilmoqda. Shu o‘rinda, xalqaro tajribaga murojaat qiladigan

bo‘lsak, dunyoning turli davlatlarida yoshlar siyosatini rivojlantirish bo‘yicha muvaffaqiyatli amaliyotlar mavjud:

-Janubiy Koreya – yoshlarni texnologik startaplarga jalb qilish va ularga imtiyozli kreditlar ajratish tizimi samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

-Germaniya – dual ta’lim tizimi orqali yoshlarning nazariy bilim bilan birgalikda amaliy tajriba orttirishiga e’tibor qaratilgan.

- Xitoy – innovatsion loyihalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar yo‘lga qo‘yilgan.

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations).

O‘zbekiston ham yoshlarga oid davlat siyosatini xalqaro tajriba asosida modernizatsiya qilmoqda. Jumladan, “Yangi O‘zbekiston universiteti” va xalqaro ta’lim dasturlari yoshlarning ilmiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Kelgusida yoshlarga oid davlat siyosatini yanada samarali amalga oshirish uchun quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin:

-Yangi texnologik startaplar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish.

-Yoshlarning innovatsion tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi uchun grant va investitsiyalarni oshirish. Bu tashabbuslar yoshlarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlab, ularning jamiyatdagi ishtirokini yanada mustahkamlaydi.

Shu o‘rinda, Yurtboshimiz yoshlar bilan qilgan muloqatida bugungi kunda mafkuraviy xavf-xatarlar allaqachon kibermakonga ko‘chib o‘tganini qayd etib, yoshlarimizda internetdan foydalanish madaniyatini yanada yuksaltirish, ular yolg‘on ma’lumotlar qurboniga aylanishi, dunyoqarashi salbiy g‘oyalar ta’sirida shakllanishini oldini olish muhimligiga alohida e’tibor qaratdi. Bu borada farzandlarimizning ma’naviy tarbiyasi va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularni yot g‘oyalardan asrash har birimizning ma’suliyatli vazifamizga aylanishi shart ekanligini ta’kidladi. Shu bois mutasaddilarga yoshlarning mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash, ularni dardiga malham bo‘lib, muammosini hal qilib, turli g‘oyaviy xurujlardan asrash, zararli axborotlardan himoya qilish ishlarini kuchaytirish vazifasi topshirildi. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar siyosati bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarimiz zamirida eng avallo, vatanimiz kelajagi uchun oldimizga qo‘ygan ulkan maqsadlarni amalga oshirishda Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yoshlarimizga ishonch bildirilayotganligi teran anglashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Президент Шавкат Мирзиёев ёшлар билан мулоқот қилди. https://iibb.uz/public/oz/news/prezident-avkat-mirzieev1402

2.Президент Шавкат Мирзиёев ёшлар билан мулоқот қилди. https://iibb.uz/public/oz/news/prezident-avkat-mirzieev1402

3. Do‘ngalov T. “Yoshlar siyosatida, taraqiyyot omili va kelajak poydevori haqida” Toshkent, 2025.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Nabiyeva Naima Kamolovna
Lecturer at the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

Xusinov Ibrat Omonboy o‘gli
Student at the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

Published under peer review:
Doctor of Science in History, Associate Professor
Durdona Rasulova

Received 4th April 2025, Accepted 11th April 2025, Online 18th April 2025

JALOLIDDIN MANGUBERDINING HINDISTON - POKISTON HUDUDLARIDAGI KURASHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek davlatchiligi tarixida chuqur iz qoldirgan so‘nggi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdining Hindiston va Pokiston hududlaridagi faoliyati atroflicha yoritiladi. Maqolada Jaloliddinning Sind daryosidan sakrashi bilan bog‘liq “Ghora Tarap” afsonasining mahalliy xalq xotirasida saqlanib qolgani, uning Shimoliy Hindistondagi harbiy yurishlari, Kallar Kahar yaqinidagi Samarqand qal’asi, Xushob shahri yaqinidagi Tulaja qal’asining qurilishi, Debal shahrida Pir Patho masjidining bunyod etilishi kabi muhim voqealar tahlil qilinadi. Shuningdek, Jaloliddinning ushbu hududda qisqa muddatli davlat tuzishga urinishi, uning siyosiy va madaniy merosi, hamda Pokiston adabiyotida unga nisbatan bo‘lgan hurmat va ehtirom ko‘rsatilgan. Maqola Jaloliddin Manguberdining ona vatanini himoya qilish uchun Hindistonni tark etishi va uning keyingi faoliyatiga ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, Chingizxon, Xorazmshohlar sulolasi, Anushteginiylar, Mo‘g‘ullar imperiyasi, Hind daryosi.

JALALIDDIN MANGUBERDI'S STRUGGLE IN INDIA-PAKISTAN TERRITORIES

Abstract. This article comprehensively examines the activities of Jalal al-Din Manguberdi, the last Khwarazmian Shah who left a profound mark on the history of Uzbek statehood, in the regions of India and Pakistan. The article analyzes significant events such as the enduring "Ghora Tarap" legend in local memory related to Jalal al-Din's leap from the Indus River, his military campaigns in Northern India, the Samarkand fortress near Kallar Kahar, the construction of the Tulaja fortress near Khushab city, and the establishment of the Pir Patho mosque in Debal city. It also highlights Jalal al-Din's attempts to establish a short-lived state in this region, his political and cultural legacy, and the respect and reverence shown towards him in Pakistani literature. The article briefly touches upon Jalal al-Din Manguberdi's departure from India to defend his homeland and his subsequent activities

Keywords: Jalal al-Din Manguberdi, Genghis Khan, Khorezmshah dynasty, Anushteginids, Mongol Empire, Indus River.

БОРБА ДЖАЛАЛИДДИНА МАНГУБЕРДИ НА ИНДИЙСКО-ПАКИСТАНСКИХ ТЕРРИТОРИЯХ

В данной статье всесторонне рассматривается деятельность Джалал ад-Дина Мангуберди, последнего харезмшаха, оставившего глубокий след в истории узбекской государственности, в регионах Индии и Пакистана. В статье анализируются такие значимые события, как сохранившаяся в местной памяти легенда «Гора Тарап» о прыжке Джалал ад-Дина с реки Инд, его военные походы в Северную Индию, строительство Самаркандской крепости близ Каллар Кахара, возведение крепости

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Туладжа близ города Хушаб, создание мечети Пир Патхо в городе Дебал. В статье также освещаются попытки Джалал ад-Дина создать недолговечное государство в этом регионе, его политическое и культурное наследие, а также уважение и почтение, проявленные к нему в пакистанской литературе. В статье кратко затрагивается вопрос об отъезде Джалал ад-Дина Мангуберди из Индии на защиту родины и его последующей деятельности.

Ключевые слова: Джалал ад-дин Мангуберди, Чингисхан, династия Хорезмшахов, Ануштегиниды, Монгольская империя, река Инд.

Kirish (Introduction)

Xorazmning XII-asrning ikkinchi yarmi – XIII-asrning boshlari tarixi yoki Xorazm anushteginiylar davri va u bilan bog‘liq holda Jaloliddin Manguberdi obrazi bo‘yicha yozma merosning bibliografiyasi va adabiyotlari soni mingga yaqin desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jaloliddin Manguberdining biografi bo‘lgan mashhur tarixchi An-Nasaviyning ‘‘Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti’’ asari tarjimoni Komil Matyoqubov tarix fanining jaloliddinshunoslik yo‘nalishi allaqachon shakillanib bo‘ldi, deganda haq edi[1,11]. Sulton Jaloliddin Manguberdi Alouddin Muhammadning katta farzandi bo‘lib, unga ulkan qahromonlik, jasurlik, yuksak mahorat xususiyatlari mavjud edi. Jaloliddin Manguberdi Anushteginiylar sulolasining so‘nggi hukmdori bo‘lib, 1220–1231 yillarda Xorazmshohlar davlatini boshqargan. Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi Alouddin Muhammad uni 1215-yili G‘azna, Bomiyon, Gur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo‘lgan yerlarda hokim etib tayinlagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Bilishning aniq usullari yig‘indisiga tayangan holda ilmiy tahlillar o‘tkazilib, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy usullari hamda natijani ilmiy o‘rganish uslublaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Bu davrga kelib Sharqda yirik mog‘ullar imperiyasi shakllangan bo‘lsa, G‘arbda xorazmshohlar imperiyasi yirik davlatga aylangan edi. 1218-yildan munosabatlari o‘nglab bo‘lmas darajada buzilgan ikki imperiya o‘rtasida qonli urushlar oqibati xorazmshohlar davlati uchun halokatli bo‘lib chiqdi. Yasoq asosida temir intizom o‘rnatilgan mo‘g‘ullarning shafqatsiz bosqinchiligiga g‘arbda birinchi bo‘lib (mo‘g‘ullar davlatiga nisbatan) Xorazmshohlar davlati guvoh bo‘ldi va ko‘p asrlarga “tatigulik” bitmas chandiq bo‘lib qoldi. Xorazmshohlar davlati shaharlari va qishloqlarini birin-ketin egallayotgan mo‘g‘ullar Xorazmshoh, Sulton Muhammadning ortidan quvib, Xurosonda uning izini yo‘qotib, Ray shahri tomon o‘tib ketadi. Ko‘plab tarixchilar, jumladan, birinchilardan bo‘lib V.Bartold Sulton Muhammadni Gurgon tarafdan borib Kaspiy dengizining janubi-sharqiy burchagidagi Ashurada (Abeskun) orolida yashiringanini ta’kidlaydilar [2:493]. Bu orolda Xorazmshoh og‘ir kasalga duchor bo‘lib, Jaloliddinni valiahd deb e’lon qiladi [3,98]. Xorazmshoh Sulton Muhammad vafotidan so‘ng parokanda holatdagi davlatni dushmandan himoya qilish oson bo‘lmadi. Xorazmshohlar saroyidagi fitna-fasodlar, qo‘shinning katta qismini tashkil etadigan ko‘chmanchi qangli-qipchoq va o‘g‘uzlarning o‘zaro adovatlari hamda viloyatlardagi

Amirlarning imkoniyatdan foydalanib mustaqillikka bo‘lgan intilishi vaziyatni yanada og‘irlashtirgan edi. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, Jaloliddin Manguberdining G‘aznada katta qo‘shin to‘plashi Chingizxonni qattiq xavotirga soladi va bir necha marta unga qarshi qo‘shin jo‘natadi. Hatto bir safar Jaloliddin Chingizxonga: ‘‘Istagan bir yerni belgila, shu yerga jang qilish uchun boraman’’, - deb maktub yo‘llaydi. Shunday bo‘lsa-da, Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi o‘zi emas, ishonchli sarkardalari boshchiligida yo‘llagan qo‘shinlarning ketma-ket mag‘lubiyatga uchrashi ‘‘yengilmas mo‘g‘ullar’’ afsonasini yo‘qqa chiqarardi. Jaloliddin Manguberdining otasi vafotidan to Sind daryosi bo‘yidagi jangga (1221-yil noyabr) qadar barcha katta-kichik to‘qnashuvlarda m‘og‘ullar ustidan erishgan g‘alabalari uning xalq va dushman o‘rtasidagi obro‘sini nihoyatda oshirgan. Chingizxon va uning qo‘shinining esa ancha xavotiriga sabab bo‘lgan edi.

Sind daryosi bo‘yidagi jangda kuchlar nisbatidagi katta farq tufayli Jaloliddin Manguberdi Chingizxondan birinchi marta yengiladi. Ushbu jang jahon tarixiga “Sind daryosi bo‘yidagi jang” degan nom bilan kiradi. Jang bo‘lgan joy hozirgi Pokistonning Panjob viloyati Attok shahridan 25 km g‘arbdagi Nizampur qishlog‘i o‘rnida bo‘lgan. Sind daryosining narigi sohilida eski Nilob qishlog‘i hozir ham mavjud va hozir ham Nilob nomi bilan ataladi. Jaloliddin Manguberdi ushbu jangda mag‘lub qilingan bo‘lsa ham, jangda ko‘rsatgan qahramonligi va jasorati sharq xalqlari xotirasida muhrlanib qolgan.

Bugungi kunda ushbu jang va uning ahamiyati to‘g‘risida Pokiston Islom Respublikasida ham ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Jang bo‘lib o‘tgan joy aniqrog‘i, Jaloliddin Manguberdining 20 (ayrim manbalarda 30) metrlik balandlikdan tezoqar Sind (Hind) daryosiga sakragan joyi, mahalliy urdu tilida “Ghora tarap”[4:292] (Ot sakrash) deb nomlanadi. Oradan 800 yil vaqt o‘tgan bo‘lsa ham, mahalliy aholi tomonidan bu nomning saqlanib kelinishi, bu borada ko‘plab roman va hikoyalar, tarixiy asarlarning yozilishi pokistonliklarning uni qahramonlari safida ko‘rishlaridan dalolat beradi. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi 1221–1224-yillar davomida Hindistonning bir nechta shaharlarini qo‘lga kiritadi va Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish bilan munosabatlari xatarli tus ola boshlaguniga qadar Shimoliy Hindistonda turadi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, Jaloliddin Manguberdi hozirgi Pokistondagi Kallar Kahar shahri yaqinida bir tog‘ etagidagi qal’ani o‘zining qarorgohi qilib olgan. Bu qal’a xarobalari bugungi kunda mahalliy aholi tomonidan “Samarqand qal’asi”, qal’a joylashgan tog‘ esa “Samarqand tog‘i” deb nomlanadi. Mazkur qal’a nisbatan kichikligi uchun Jaloliddin Manguberdi o‘z askarlarini joylashtirish uchun Pokistonning Panjob provinsiyasidagi Xushob shahri yaqinida qisqa vaqt mobaynida baland tog‘ etagida yana bir qal’a qurdiradi. Bu qal’a hozirgi kunda “Tulaja qal’asi” deb nomlanadi [5:64]. Jaloliddin Manguberdi hindlarning Debal shahrini olgach, birinchi juma masjidini qurgan. Bu masjidning qayerda joylashgani bo‘yicha pokistonlik mashhur olim doktor Nabi Baxsh Xon Beluj ilmiy tadqiqotlar olib borgan va uning 1951-yildan buyon olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasida hozirgi kunda Pokistonning Arab dengizidagi Sind provinsiyasining Tatta shahriga 25 km masofada joylashgan Pir Patho masjidi aynan Jaloliddin Manguberdi tomonidan qurilgan degan fikrga keladi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Umuman olganda, Jaloliddin Manguberdi Sind (Hind) daryosidan o‘tganidan so‘ng ikki yil davomida Kashmirdan boshlanadigan Jelam daryosidan to Arab dengizigacha bo‘lgan tarqoq va urush holatidagi mahalliy hind va musulmon mulklarini birlashtirdi. Bu hozirgi Pokiston Islom Respublikasi hududlarini o‘z ichiga olgan. Xorazmshohning bu zaminda qisqa vaqt ichida erishgan muvaffaqiyatiga ko‘p yillar davomida hech bir hukmdor erisha olmagan. Jaloliddin Manguberdi Pokiston zaminida qurgan davlatini kengaytirib, osoyishtalik bilan hukmronlik qilaverishi mumkin edi. Biroq Jaloliddin Manguberdi ona vatanini mo‘g‘ul otining tuyoqlari ostida toptalayotganiga, Islom dunyosi boshiga tushayotgan qirg‘inbarotga tomoshabin bo‘lib qarab tura olmas edi. Shu sababdan o‘z amirlaridan Jahon Pahlavonni o‘zining Hindistondagi vakili sifatida qoldirib, Eron va Iroqqa qaytib ketdi. Pokistonda Jaloliddin Manguberdi to‘g‘risida chop etilgan zamonaviy adabiyotlarda uni o‘zlarining qahramoni sifatida qaraladi.

Jaloliddin Manguberdi ukasi G‘iyosiddin Pirshoh boshqaruvidan norozi bo‘lgan bir nechta amirlarni Eronga chorlab, qonuniy hokimiyatini qaytarib olishga da’vat etishi hamda Pokiston va Hindiston zaminidagi 4 yillik mashaqqatlaridan so‘ng Janubiy Eron orqali Isfahon shahriga kirib boradi. Ukasi G‘iyosiddin Pirshoh esa unga tobelik bildiradi. Shundan so‘ng, Xorazmshohning rasmiy ravishda taxtga o‘tirish marosimi o‘tkazlib, qo‘shnilar bilan siyosiy aloqaga kirisha boshlaydi. Ozarbayjon hududlarini egallab o‘z hokimiyatini mustahkamlaydi. Shimoliy Eronda joylashgan ismoiliylar fursatdan foydalanib, mo‘g‘ullarning bosqinchilik yurishlari oqibatida parokanda bo‘lgan hududlarga talonchilik yurishlarini qiladilar. Faqatgina janobi Haq inoyati bilan mazlum xalqqa qilgan yomonliklari uchun ismoiliylarni yovuzliklariga Jaloliddin Manguberdi chek qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Reference)

1. ШаҳобиддинМуҳаммадан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. /Камол Матёқубов таржимаси./ – Т.: O‘zbekiston, 2006. – Б.11. (Бундан кейин: Ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти).
2. Бартольд В.В. Сочинения I. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. - М.: Издательство восточной литературы, 1963. - С. 493
3. AydinTaneri. Harezm§ahlar. - Ankara: Ttirkiyediyanetvakfi, 1993. - S. 98
4. IbniilEsir. Islamtanhi. Turkchataijimasi. - Istanbul: Hikmetne§nyati. 2016. J. 10.-S. 247.
5. Бекзод Абдиримов "Икки буюк саркарда ёхуд Жалолиддиндан Қутузгача"Бекзод Абдиримов
6. Baloch N.A. Sindh, studies historical. Jamshoro, Sindh: Pakistan Study Centre, University of Sindh. 2002. - Pp. 127-146.
7. Tabakat-i-Nasiri. Translated From original Persian Manuscripts by Major H.G.Raverty. - London, 1881. - L. 29
8. Ibn Khuldun, At-Tarikh, Beirut Dar el-Fekr. 1988, Volume. 5

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ulug‘ov Abduraim Xamzayevich
Termez Branch of the Tashkent Medical Academy
Head of the Department of Social Sciences and Humanities,
Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science

Published under peer review:
Doctor of Political Science, Associate Professor
Mansur Musaev
Received 4th April 2025, Accepted 11th April 2025, Online 18th April 2025

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIKNI TA’MINLASHDA YANGI O‘ZBEKISTON TASHABBUSI

Annotatsiya. Mazkur maqolada millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashda Yangi O‘zbekiston tashabbusi haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada globallashuv sharoitida dunyo miqyosida davlatlarning milliy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishi sifatida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirish muhim hayotiy ehtiyojga aylanib borayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, globallashuv, davlat, mafkura, ma’naviyat, madaniyat, tahdid, xavfsizlik.

ИНИЦИАТИВА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ И РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируются взгляды на инициативу нового Узбекистана в обеспечении межнационального согласия и религиозной терпимости. Также в статье с научной точки зрения освещается, что в условиях глобализации повышение культуры межнационального согласия и религиозной толерантности становится важной жизненной потребностью как приоритетное направление обеспечения национально-духовной безопасности государств в мировом масштабе.

Ключевые слова: межнациональное согласие, религиозная толерантность, глобализация, государство, идеология, духовность, культура, угроза, безопасность.

NEW UZBEKISTAN INITIATIVE IN ENSURING INTERETHNIC HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE

Annotation. This article analyzes views on the initiative of the new Uzbekistan in ensuring interethnic harmony and religious tolerance from a scientific point of view. Also, the article scientifically illuminates that in the context of globalization, increasing the culture of interethnic harmony and religious tolerance is becoming an important life necessity as a priority direction for ensuring the national and spiritual security of states on a global scale.

Keywords. interethnic harmony, religious tolerance, globalization, state, ideology, spirituality, culture, threat, security.

Kirish (Introdustion). Globallashuv sharoitida dunyo miqyosida davlatlarning milliy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishi sifatida millatlararo totuvlik va diniy

bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirish muhim hayotiy ehtiyojga aylanib bormoqda. Ayniqsa, insoniyat bugungi kunda mutlaqo o‘zgacha muhit, yangicha talab va ilgari kuzatilmagan xavf-xatar hamda tahdidlar kuchaygan bir sharoitda yashashiga to‘g‘ri kelmoqda. Mana shunday murakkab bir sharoitda dunyo miqyosida tinchlik, va barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash tobora dolzabr vazifaga aylanib bormoqda. Yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, farovonlik muhitini asrashda barcha din vakillari birdek manfaatdor. O‘z navbatida, davlat turli dinlarga e’tiqod qiluvchi fuqarolar, diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashadi, diniy mutaassiblik hamda ekstremizmga munosabatlarni qarama-qarshi qo‘yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o‘rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi. Bu haqda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda“...hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko‘tarmoqda. Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda. Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirishning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda”, – [1] degan gaplari ayni haqiqat ekaniga guvoh bo‘lamiz.

Yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik munosabatlarining ta’minlanishi, avvalo, dinlararo ziddiyatlarning oldini olish barobarida turli din vakillari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, birdamlik va hamjihatlikning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Dunyo miqyosida bag‘rikeng yurt sifatida e’tirof etiladigan jonajon Vatanimizda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat, 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, ahil-inoq, hamjihat bo‘lib yashamoqda. Mamlakatimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 157 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do‘stlik jamiyati faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular o‘z madaniyati, tili, hunarmandchiligini rivojlantirib, bir-birini o‘zaro boyitishga, ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Ularning o‘z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha imkoniyatlar va shart-sharoitlar muhayyo etilgan. Mamlakatimizdagi ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlari o‘zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg‘iz va turkman tillarida olib borilmoqda, qardosh tilli maktablarda o‘qiyotgan farzandlarimiz davlat hisobidan darslik va badiiy adabiyotlar bilan ta’minlanmoqda.

Yurtimizda “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” degan ezgu g‘oya barcha milliy madaniy markazlarning shioriga aylangani diqqatga sazovor. Bu jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhiti, tinchlik va osoyishtalikning amaliy ifodasidir[2]. Ayniqsa, mazkur holat global miqyosida xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, do‘stlik va birdamlik muhiti O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishga zamin yaratmoqda. Davlatimiz diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Hech kimga sir emas, bugun dunyoda beqaror vaziyat hukm surmoqda. Xalqaro maydonda davlatlarning bir-biriga o‘zaro ishonchi susayib bormoqda. Bunday murakkab sharoitda hayotning o‘zi bizdan mamlakatimizda hukm surayotgan o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, totuvlik va birdamlik

muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni buzg‘unchi yot g‘oya va oqimlar, tashqi ta’sirlardan asrashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni talab etmoqda[3].

Tarixdan ma’lumki, diyorimizda azaldan zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik hamda islom dini vakillari o‘zaro inoq va tinch-totuvlikda istiqomat qilishgan. Yurtimizdagi madaniyat markazlari hisoblangan ko‘plab shaharlarda masjid, cherkov, sinagoglar faoliyat ko‘rsatgan. Ushbu muqaddas maskanlarda turli dinga mansub millat va elatlar o‘zlarining diniy marosimlarini emin-erkin ado etishgan. Albatta, mazkur holatni hozirgi vaqtda yurtimizda yashovchi turli dinlarga e’tiqod qiluvchi barcha millatlar va elatlarning o‘zaro munosabatlari misolida ham ko‘rish mumkin. Respublikapmizda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik muhitini asrab avvaylash orqali tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda barcha din vakillari birdek manfaatdor. Bu haqda, fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “...Bizning davlatimiz ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an’analari muhim rol o‘ynamoqda”[4], – degan so‘zlari zamirida naqadar katta ishonch mujassamdir. Mazkur holat, o‘z navbatida O‘zbekistonda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, konfessiyalararo hamjihatlik inoqlik va birdamlikning nodir timsoli sifatida namoyon bo‘lib, barcha din vakillariga nisbatan bag‘rikenglikning ijobiy namunasi ekanligidan dalolat beradi. Shu o‘rinda, qayd etish joizki, dunyodagi mavjud dinlar o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘zida ezgulik, tinchlik, yaxshilik, do‘stlik hamda bunyodkor g‘oyalarni mujassam etadi. Din insonlarni halollik va poklikka, mehr-shafqat, birodarlik va bag‘rikenglikka da’vat etadi. Ma’naviyatimizning o‘zviy qismi xalqimizga xos etnik madaniy va diniy bag‘rikenglikning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi, buni o‘zga din vakillari ham e’tirof etishadi. Ko‘pmillatli va ko‘pmadaniyatli jamiyatni oqilona boshqarish sohasida O‘zbekiston muhim tajriba to‘pladi. Bizning bu boradagi faoliyatimiz dunyo miqyosida katta qiziqish uyg‘otmoqda[5]. Yurtimizda bag‘rikenglik muhitini qaror topishi avvalo, dinlararo ziddiyatlarni oldini olish orqali turli din vakillari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, birdamlik va hamjihatlikning shakllanishiga zamin yaratadi. Mazkur omil yurt tinchligi va taraqqiyotiga, umuminsoniy madaniyat va ma’naviyat rivojiga bevosita xizmat qiladi.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning siyosiy irodasi, xalqparvar va millatparvar siyosati, Markaziy Osiyo mintaqasida olib borayotgan faol tashqi siyosati tufayli qo‘shni davlatlar bilan har tomonlama, o‘zaro manfaatli aloqalarni tobora rivojlanib borayotganligi e’tirofga sazovardir. Ezgulik va tinchlik-osoyishtalik omili hisoblanmish diniy bag‘rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish orqali mamlakatimizda ta’lim, ilm-fan, ma’naviyat va ma’rifat, millatlar o‘rtasidagi do‘stlik va bag‘rikenglik tamoyillari o‘zining yangi bosqichini amalga oshirmoqda. E’tiborli tomoni yaqin qo‘shni davlatlar bilan oliy va yuqori darajadagi aloqalarimiz tobora rivojlanib, ancha faollashib borayotgani qalbimizni quvontirmoqda. Ayniqsa, Yurtboshimiz Shavkat Mirzyoevni BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida hamda BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi sessiyasida so‘zlagan nutlarida ilgari surgan muhim taklif va tashabbuslari dunyo hamjamiyatida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

2024-yilning 16-noyabr kuni esa poytaxtimizda “Bag‘rikenglik haftaligi” doirasida Din ishlari qo‘mitasi, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi hamda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi hamkorligida “***Yangi O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik***”

mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tgan edi. Ushbu konferensiyadan ko‘zlangan maqsad O‘zbekistonda tinchlik, osoyishtalik omillaridan biri bo‘lgan diniy bag‘rikenglik, dinlararo totuvlik va konfessiyalararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash borasidagi ishlarni o‘rganish, istiqboldagi vazifalarni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va shu yo‘nalishda o‘z yechimini kutayotgan masalalarni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish ustuvor vazifa sifatida e’tibor qaratildi. Mazkur xalqaro anjumanda AQSh, Buyuk Britaniya, Koreya, Turkiya, Malayziya, Portugaliya, Armaniston, Rossiya, Tojikiston, Qozog‘iston kabi davlatlardan mutaxassislar, YuNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi vakillari, dinshunos ekspertlar, islomshunoslar, milliy madaniy markazlar, turli diniy konfessiya vakillari, shuningdek, jamoat tashkilotlari, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professor-o‘qituvchilari qatnashdi.

Mazkur konferensiyada qatnashgan Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘zbekiston yeparxiyasi rahbari Mitropolit Vikentiy: “Prezident Shavkat Mirziyoev barcha odamlar tinchlik va hamjihatlikda yashashlarini ta’minlashini qo‘llab-quvvatlab, targ‘ib qilib kelmoqda. Bu esa diniy bag‘rikenglikning muvaffaqiyat kalitidir. Keyingi yillarda O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatga tobora ochilib bormoqda. Turli millatlar o‘rtasida ezgulik, tinchlik va totuvlik, bag‘rikenglik va do‘stlik siyosatini tarannum etayotgan mamlakat sifatida dunyoda tan olinmoqda. Ushbu konferensiya esa diniy bag‘rikenglikning o‘zbekona modeli sifatida e’tirof etilmoqda” [6], -deya ta’kidlashi mamlakatimizda barcha diniy konfessiya vakillari tomonidan mazkur sohasida amalga oshirilayotgan davlatimiz siyosatidan mamnun ekanligini anglatadi. Shuningdek, mazkur konferensiya haqida Rossiya Yevangel-Lyuteran cherkovi arxiepiskopi Vladimir Provorov tomonidan bildirilgan fikr ham e’tirofga molikdir. Bu haqda Vladimir Provorov: “O‘ylaymanki, mazkur konferensiya O‘zbekistondagi turli millat va elat vakillarining tinch-totuv, umumjamiyat rivoji yo‘lidagi sa’y-harakatlariga hamohangdir. O‘zbekiston Prezidentining millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik tamoyillariga asoslangan siyosati mamlakatdagi turli millat vakillarini bir maqsad sari birlashtirmoqda. Bu yangi O‘zbekistonning insonparvarlik islohotlaridan biri sifatida xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda”[7],- deya alohida ta’kidlaydi.

O‘z navbatida, mazkur konferensiyada qatnashgan Turkiyaning Saljuq universiteti Saljuq tadqiqotlari instituti mudiri, professor Mustafa Demirji O‘zbekistondagi 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta konfessiya vakillarini bir maqsad yo‘lida birlashtirish, konfessiyalararo muloqat va diniy bag‘rikenglik borasida O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan siyosatidan ijobiy taassurot uyg‘otganligini alohida bildirib o‘tadi. Bu haqda M.Demirji: “Ushbu nufuzli anjuman orqali turli millat vakillari Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik borasida olib borilayotgan islohotlardan mamnun ekanliklarini izhor qilmoqdalar.Tarixan ushbu makon Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan, turli millat va xalqlar bir yerda jamlangan yurt hisoblanadi. Bu esa o‘lkaning sivilizatsiyalar tutashgan manziliga aylantirgan. Bunday yurt dunyoning boshqa joyida topilmaydi”[8], -deya o‘zining ijobiy fikrlarini aytib o‘tadi.

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations).

Bu kabi tadbirlarning bardavom bo‘layotgani juda quvonarlidir. Xulosa qilib aytganda dunyo miqyosida vujudga kelayotgan tahlikali vaziyatlar, to‘qnashuvlar tinchlik-totuvlikning qadrini yanada oshirmoqda. Bu esa, jahonda ekstremizm, radikalizm va terrorizmga qarshi kurashda ta’sirchan

samarador usullarni qo‘llashda diniy-ma’rifiy sohada o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borish eng avvalo, insonparvarlik, bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib etish orqali tinchlik va xotirjamlikka birgalikda erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналмилал маданият маркази ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи // Халқ сўзи. 2017. 25 январь. №18.

2 Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон халқига Халқлар дўстлиги куни муносабати билан байрам табриги” https://president.uz/uz/lists/view/7437

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон халқига Халқлар дўстлиги куни муносабати билан байрам табриги” https://president.uz/uz/lists/view/7437

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби" мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. Адолат 2017 йил. № 24. Б.1-2-3

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон халқига Халқлар дўстлиги куни муносабати билан байрам табриги” https://president.uz/uz/lists/view/7437

6. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналмилал маданият маркази ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи.Халқ сўзи 2017 йил 25 январ. №18

7. “Янги Ўзбекистон диний бағрикенглик” мавзусидаги халқаро конференция хорижий мутахассислар нигоҳида https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-diniy-bagrikenglik-mavzusidagi-xalqaro-konferenciya-xorizhiy-mutaxassislar-nigohida_660948

8. “Янги Ўзбекистон диний бағрикенглик” мавзусидаги халқаро конференция хорижий мутахассислар нигоҳида https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-diniy-bagrikenglik-mavzusidagi-xalqaro-konferenciya-xorizhiy-mutaxassislar-nigohida_660948

9. “Янги Ўзбекистон диний бағрикенглик” мавзусидаги халқаро конференция хорижий мутахассислар нигоҳида https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-diniy-bagrikenglik-mavzusidagi-xalqaro-konferenciya-xorizhiy-mutaxassislar-nigohida_660948

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 4 Issue: 04 | 2024
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Madina Dadaboyeva
Qo‘qon universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Nodirjon Nizomjonovich Xolmirzayev
Qo‘qon universiteti «Ijtimoiy fanlar» kafedrasi professor v.b.
falsafa fanlari doktori (DSc)

Received 4th April 2025, Accepted 11th April 2025, Online 18th April 2025

EKOLOGIK MADANIYAT VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada ekologik madaniyat tushunchasi, uning mohiyati, ekologik madaniyatning tarkibiy qismlari, ekologik qadriyatlar va ekologik madaniyatning munosabatlar tizimida tutgan o‘rni xususida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar xususida mulohaza yiritiladi.

Kalit so‘zlar: Ekologik madaniyat, qadriyat, ekologik munosabatlar, ekologik tahdid, axloq, sivilizatsiya, komponent, ekologik xavfsizlik.

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И ЕЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация: В статье рассматривается понятие экологической культуры, ее сущность, компоненты экологической культуры, экологические ценности, роль экологической культуры в системе отношений. При этом рассматриваются факторы, способствующие формированию экологической культуры.

Ключевые слова: Экологическая культура, ценность, экологические отношения, экологическая угроза, мораль, цивилизация, компонент, экологическая безопасность.

ECOLOGICAL CULTURE AND ITS CHARACTERISTICS

Annotation: The article examines the concept of ecological culture, its essence, components of ecological culture, ecological values, the role of ecological culture in the system of relations. At the same time, factors contributing to the formation of ecological culture are considered.

Key words: Ecological culture, value, ecological relations, ecological threat, morality, civilization, component, ecological safety.

KIRISH

Jahon ekologik inqirozi sharoitida ekologik madaniyat asosiy ijtimoiy-madaniy hodisa maqomini kasb etmoqda. Bu dunyoqarashning muhim tarkibiy qismi va insonning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga solish usuliga aylanadi. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy-tabiiy munosabatlar tizimida inson mavjudligining refleksli tushunchasi sifatida ekologik madaniyat muammosiga alohida ahamiyat beradi, uni insonning yashash strategiyasini belgilaydigan umumiy madaniy kodning bir qismi sifatida ko‘radi.

METODLAR

Ekologik madaniyatni shakllantirishda mafkuraviy komponent alohida rol o‘ynaydi, bu insonning tabiatga bo‘lgan munosabatining chuqur asoslarini, ekologik ongning tuzilishini va shaxsning xulq-atvor strategiyasini belgilaydi. Dunyoqarash ekologik madaniyatning integral asosi bo‘lib, atrof-muhitga mas’uliyatli xatti-harakatlarning barqaror motivatsiyasini shakllantiradigan bilimlar, qadriyatlar, munosabatlar va me’yorlarni birlashtiradi.

NATIJALAR

«Ekologik madaniyat» tushunchasi aniq fanlararo xususiyatga ega, chunki u bir nechta ilmiy sohalar: falsafa, sotsiologiya, madaniyashunoslik, pedagogika, ekologiya va etika chorrahasida shakllangan. Buning sababi shundaki, ekologik madaniyat tabiat va jamiyat, shaxs va jamoa, moddiy va ma’naviy chorrahada bo‘lgan holda ham bilish, ham qadriyat-xulq-atvor sohalarini qamrab oladi.

Falsafiy nuqtai nazardan, ekologik madaniyat ongning o‘ziga xos shakli bo‘lib, unda tabiat o‘ziga xos qiymatga ega bo‘lgan va axloqiy munosabatni talab qiladigan yaxlit tizim sifatida tushuniladi. Hozirgi zamon ijtimoiy falsafasi doirasida ekologik madaniyat nafaqat tabiat haqidagi bilimlarni, balki insonning tabiiy muhitda yashash tarzini ham o‘zida aks ettiruvchi xulq-atvor va mafkuraviy munosabatlarning o‘ziga xos shakllarida ifodalanishi ta’kidlanadi. [1; 121]

Sotsiologiya ekologik madaniyatni ekologik xavf-xatar sharoitida ijtimoiy xulq-atvorni tartibga solish mexanizmi, jamiyatlar, ijtimoiy guruhlar va institutlar darajasida atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarning barqaror normalarini shakllantiradi. Madaniy nuqtai nazardan, ekologik madaniyat jamiyatning tabiatga munosabatini aks ettiruvchi ramziy shakllar, mifologemalar, marosimlar va kundalik amaliyotlarni o‘z ichiga olgan bir butun sifatida madaniyatning alohida qatlami sifatida ishlaydi.

Pedagogika ta’lim-tarbiya jarayonining bir qismi sifatida ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, atrof muhitga mas’uliyatli fuqaroni yoshligidanoq tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi. Shu munosabat bilan ekologik ta’lim barqaror rivojlanish tamoyillariga yo‘naltirilgan ekologik ongi va xulq-atvorni shakllantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ekologik madaniyatning axloqiy jihati insonning tabiat, kelajak avlodlar va boshqa tirik mavjudotlar oldidagi axloqiy mas’uliyatini anglashi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ayniqsa biosfera gumanizmi va eko-gumanistik etika tushunchalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. [2; 271] Shunday qilib, ekologik madaniyatning fanlararo xususiyati uning murakkab tuzilishi va ko‘p qirraliligini belgilaydi. Ushbu konsepsiyani faqat ekologik bilim yoki ta’limga qisqartirish mumkin emas - u ma’nolar, qadriyatlar, munosabatlar va inson, uning atrofidagi dunyo o‘rtasidagi amaliy o‘zaro ta’sir shakllarining yaxlit tizimini o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy-falsafiy kontekstda ekologik madaniyatning mafkuraviy jihati texnokratik tafakkurdan ekotsentrik tafakkurga o‘tish bilan bog‘liq. Agar klassik ilmiy paradigma doirasida tabiat zabt etish va ekspluatatsiya qilinadigan ob’ekt sifatida qabul qilingan bo‘lsa, zamonaviy ekologik dunyoqarash tabiatning qadr-qimmatini insonga nisbatan teng bo‘lgan mustaqil voqelik sifatida tasdiqlaydi. [3; 232] Qadriyat yo‘nalishlarining bunday o‘zgarishi shaxsda atrof-muhit holatiga daxldorlik va mas’uliyat hissini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ekologik madaniyatning mafkuraviy asosi tabiiy resurslarning cheklanganligini tan olish, sayyoradagi hayot barcha shakllarining tizimli o‘zaro bog‘liqligini tushunish va ekologik tahdidlarning global mohiyatini anglashdan iborat. Ushbu g‘oyalar barqaror rivojlanish uchun asos

bo‘lib qoladi, bu esa odamlardan o‘z-o‘zini anglashning yangi shaklini talab qiladi - uning markazi yoki cho‘qqisi emas, balki murakkab ekotizimning elementi sifatida.

Ekologik dunyoqarashni shakllantirish ijtimoiylashuvning dastlabki bosqichlarida, jumladan, yoshlarda ham alohida ahamiyatga ega. Aynan shu davrda axloqiy va ekologik munosabatlarning asoslari qo‘yiladi, bu esa keyinchalik insonning tabiat bilan o‘zaro munosabatini belgilaydi. Atrof-muhit qadriyatlarining samarali uzatilishi faqat ta’lim, madaniyat, oila, ommaviy axborot vositalari va institutsional amaliyotni o‘z ichiga olgan tizimli yondashuv kontekstida mumkin. Shunday qilib, ekologik madaniyatning mafkuraviy tarkibiy qismi uning konseptual va me’yoriy asosi bo‘lib, ularsiz shaxs va umuman jamiyatning barqaror ekologik yo‘nalishini amalga oshirish mumkin emas. Aynan shu narsa atrof-muhit muammolarini tushunish chuqurligini, xatti-harakatlarni o‘zgartirish uchun ichki motivatsiya darajasini va tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatlarning yangi modelini qabul qilishga tayyorligini belgilaydi.

Bundan tashqari, ekologik madaniyat jamiyatning rivojlanish darajasi, ilmiy bilimlar, texnologik yutuqlar va hukmron madaniy an’analar holati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tarixan o‘zgaruvchan hodisadir. Turli tarixiy davrlarda inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar turli xil qadriyatlar tizimi asosida arxaik madaniyatlarda tabiatga muqaddas ehtiromdan tortib, sanoatlashtirish davridagi texnogen rivojlanishigacha qurilgan.

An’anaviy jamiyatlarda tabiat muqaddas maqomga ega bo‘lgan jonlantirilgan substansiya sifatida qabul qilingan va u afsonalar, marosimlar, tabular va marosimlarda inson va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv resurslarni iste’mol qilishda tabiiy cheklovlarni keltirib chiqardi va mavjudlikning ekologik jihatdan barqaror shakllarini oldindan belgilab berdi.

Sanoat sivilizatsiyasiga o‘tish bilan tabiat o‘zaro ta’sir vektori tubdan o‘zgardi. Tabiat oqilona foydalanish va texnokratik nazorat ostida bo‘lgan resurs sifatida qarala boshladi. Bu davrda insonning «tabiat ustasi» g‘oyasi shakllandi, bu ekologik muvozanatning buzilishiga va ifloslanish, resurslarning kamayishi, biologik xilma-xillikni yo‘qotish kabi global muammolarning to‘planishiga olib keldi. [4; 272]

Postindustrial va axborot jamiyatlarida, ayniqsa, barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish sharoitida ekologik madaniyat yana bir bor qimmatli maqomga ega bo‘lmoqda. Tabiat bilan o‘zaro munosabatlarning yangi axloqiy o‘lchovi paydo bo‘ladi: odamlar ekologik tizimdagi ishtirokini anglaydilar, o‘z faoliyatining oqibatlari uchun javobgarlikni his qiladilar va atrof-muhitga yetkazilgan zararni minimallashtirishga harakat qiladilar. [5; 122]

MUNOZARALAR

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan ekologik madaniyat jamiyat va tabiat o‘rtasidagi muloqotning ifodasi vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan, u nafaqat atrof-muhit haqidagi bilimlar majmuasi, balki tabiatning qadr-qimmatini mustaqil voqelik sifatida tan olishga asoslangan axloqiy me’yorlar tizimi sifatida ham ta’riflanadi. V.I. Danilov-Danilyan, ekologik madaniyat nafaqat ekologiya haqidagi bilim, balki barqaror rivojlanish va global mas’uliyat tamoyillariga asoslangan yangi fikrlash tarzidir, deb ta’kidlagan. [6; 15-25]

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, ekologik madaniyat jamiyat va tabiat o‘rtasidagi muloqotning ifodasi bo‘lib, ierarxik emas, balki sheriklik munosabatlarini nazarda tutadi. Shu nuqtai

nazardan, u nafaqat atrof-muhit haqidagi bilimlar majmuasi, balki tabiatning o‘ziga xos qiymatini mustaqil va vosita bo‘lmagan voqelik sifatida tan olishga asoslangan axloqiy me’yorlar tizimi sifatida ham ta’riflanadi. Bu inson o‘zini biosferaning xo‘jayini emas, balki uning bir qismi sifatida qabul qiladigan gumanistik-ekologik paradigma foydasiga tabiatga utilitar yondashuvni rad etishni anglatadi.

V.I. Danilov-Danilyanning ta’kidlashicha, ekologik madaniyat nafaqat ekologiya haqidagi bilim, balki barqaror rivojlanish, tabiat va jamiyatning birgalikda evolyusiyasi, shuningdek, antropogen faoliyat oqibatlari uchun global javobgarlik tamoyillari asosida shakllangan sifat jihatidan yangi dunyoqarashdir. [6; 15-25] Bunday madaniyat insonning dunyo tartibidagi o‘rnini qayta ko‘rib chiqishni va qiymat o‘zgarishiga iste’molchi modelidan tabiiy jarayonlarda oqilona ishtirok etish modeliga tayyorlikni talab qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ijtimoiy falsafa ekologik madaniyatga statik tuzilma sifatida emas, balki global muammolarga javoban rivojlanayotgan dinamik ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi. Iqlim o‘zgarishi, ekotizim degradatsiyasi va atrof-muhit tashvishining kuchayishi sharoitida madaniyat nafaqat moslashish vositasi, balki keyingi halokatning oldini olish vositasiga ham aylanmoqda. Madaniyatga asoslangan ekologik ong ijtimoiy amaliyotlar tizimini - individual iste’moldan davlat strategiyasiga o‘zgartirishga qodir bo‘lgan xatti-harakatlarni tartibga soluvchi vazifasini bajaradi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishda mafkuraviy komponent alohida o‘rin tutadi. Bu inson harakatlari va tabiiy muhit holati o‘rtasidagi munosabatni bilish, biosfera muvozanati g‘oyasini qabul qilish va atrof-muhitga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarga tayyorlikni o‘z ichiga oladi. [3; 232] Klassik bo‘lmagan tabiat falsafasi doirasida texnogen yo‘naltirilgan ongdan ekologik yo‘naltirilgan tafakkurga o‘tish zarurati ta’kidlanadi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish joizki, ekologik madaniyat statik shakllanish emas, balki ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarga sezgir bo‘lgan dinamik rivojlanayotgan tizimdir. U inson tafakkuri paradigmalarining o‘zgarishi, dunyoqarashlari va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlar me’yorlarining o‘zgarishini aks ettiradi. Uning rivojlanishining hozirgi bosqichi ilmiy bilimlarni, ma’naviy qadriyatlarni va kundalik hayot amaliyotini birlashtirgan global ekologik ongni shakllantirish zarurati bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Урсул, А.Д. Устойчивое развитие: философский и методологический анализ. М.: Изд-во МГУ, 2009. С.121
2. Моисеев, Н.Н. Человек и биосфера. М.: Молодая гвардия, 1990. С.271.
3. Князева, Е.Н., Курдюмов, С.П. Основания синергетики. М.: КомКнига, 2005. С.232.
4. Моисеев, Н.Н. Человек и биосфера. М.: Молодая гвардия, 1990. С.272.
5. Урсул, А.Д. Устойчивое развитие: философский и методологический анализ. М.: Изд-во МГУ, 2009. С.122
6. Данилов-Данильян, В.И. Возможна ли «коэволюция природы и общества»? / В.И. Данилов-Данильян // Вопросы философии. 1998. — № 8. -С. 15-25.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Abduqahhor Jalilov
Uzbek National Institute of Music and after name Yunus Rajabi,
Senior Lecturer

Published under peer review:
Doctor of Science of History,
Professor Ikromitdin Ostonakulov

Received 4th April 2025, Accepted 11th April 2025, Online 18th April 2025

LUTFIY G‘AZALLARINING BADIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili mavlono Lutfiyning “Sening” radifli g‘azali mazmuni, badiiy xususiyatlari adabiyotshunoslik va san’atshunoslik jihatidan yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Lutfiy, mumtoz adabiyot, so‘z san’ati, istiora, aruz, munojot, ashula, musiqashunos va bastakor.

ARTISTIC FEATURES OF LUTFI'S GAZEL CALLED "I MISS YOU FOREVER"

Abstract. The article will reveal from the point of view of literary criticism and art criticism the artistic features of the ghazal of a major representative of Uzbek classical literature Mavlyana Lutfi, called "I miss you for ever".

Key words: poet Lutfi, classical literature, art of words, metonymy, aruz, munojat, song, musicologist and composer.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ГАЗЕЛЕЙ ЛУТФИ

Аннотация. В статье с точки зрения литературоведческой и искусствоведческой критики рассматриваются содержание и художественные особенности газели «Сенинг» видного представителя узбекской классической литературы Мевлана Лутфи.

Ключевые слова: поэт Лутфи, классическая литература, словесное искусство, метафора, аруз, муноджат, песня, музыковед и композитор.

Kirish (Introduction)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2024-yil 3-aprel kuni Toshkent shahridagi 1-bolalar musiqa va san’at maktabi bilan tanishish chog‘idagi suhbatda san’at maktablarining oliygohlar, teatrlar va boshqa madaniyat muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini kuchaytirish vazifasini ham qo‘ydi. [1] Bundan ma’lum bo‘ladiki, yoshlarning musiqiy savodxonligini rivojlantirishda san’at yo‘nalishida badiiy adabiyotga oid bilim egalari bilan hamkorlik ham katta o‘rin tutadi. Zero yaxshi ashula shoir, bastakor va ijrochi hamkorligi mevasidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Musiqiy asar uchun matn tanlashda mutaxassislarga mumtoz adabiyotni bilish zarur bo‘ladi. Buni birgina maqom san’ati bilimdoni Yunus Rajabiy faoliyati misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Yunus

Rajabiy shashmaqom kuylariga mos matn tanlashda Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy, Munis, Komil, Muqimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlar merosiga murojaat qilgan. Ularning serma'no g'azallariga mos kuy tanlashda ularning vazniga katta e'tibor bergan. Agar g'azal kalta vaznli bo'lsa, iforiy kuylarga solgan. Agar g'azal vazni zalvorli vaznda yaratilgan bo'lsa, shunga mos maqom kuylariga qo'yilgan. Shunday qilib yaratilajak mumtoz ashulaning matniy poydevori mustahkam qilib qo'yilgan. [2] Bu an'ana bugun ham davom ettirilmoqda. Adabiy savodxonlikni rivojlantirish maqsadida bastakor va hofizlar uchun g'azallar sharhiga bag'ishlangan monografiya va o'quv adabiyotlari yaratilmoqda. Jumladan, O.Matyoqubov [3]. R.Qosimov [4], M. Nasritdinova [5], D.Murodova [6], R. Yunusov [7], O. Ibrohimov [8] kabi tadqiqotchilar musiqa ta'limi rivojiga kata hissa qo'dilar.

Adabiyotshunoslar A.Hojiahmedov [9], N.Komilov [10], YO.Isoqov [11, B.To'xliyev [12], R. Nosirov [13] tadqiqotlari san'atshunoslar uchun yordamchi manba bo'lib xizmat qila oladi. Biz bu maqolada O'zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov kuylagan Lutfiyning "Sening" radifli g'azalining badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritamiz. Buning sababi ashula muxlislar orasida juda mashhur bo'lib ketganiga qaramay, g'azalning mazmuni, badiiy xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar hali yaratilgan emas.

Asosiy tahlil va natijalar (Results and analyses)

Avvallari Lutfiy g'azallari faqat maqom yo'lida, an'anaviy bastakorlik usullarida ijro etilar edi. S.Qobulova, E. Lutfullayev, U. Otayev kabi hofizlar Lutfiy g'azallari bilan aytiladigan maqomiy ashulalari bilan el orasida mashhur bo'lgan. Keyingi paytda xonanda O. Nazarbekov Lutfiy, Bobur va Mashrab g'azallarini estrada yo'lida kuylab, o'ziga xos yangilik yaratdi. Shunisi e'tiborliki, O. Nazarbekov kuyga solgan "Sening" radifli g'azal avval boshqa hofizlar tomonidan ijro etilmagan. Bu esa, O.Nazarbekov uchun ikki jihatdan yaxshi imkoniyat bo'lgan deyish mumkin. Birinchidan, avval ushbu asarga kuy bastalanmagan, binobarin har qanday kuy ixtiro darajasiga ko'tarilishi mumkin. Ikkinchidan, avval kuyga solinmagan g'azal ma'nosiga mos yangi kuy yaratilsa, bu hofizga ham katta muvaffaqiyat keltiradi. Bu holatni O.Nazarbekov kuy bastalab, o'zi ijro etgan "Sening" radifli g'azal taqdirida ham ko'rish mumkin.

Umuman olganda, sho'ro zamonidagi hofizlar bu g'azalga murojaat qila olishmas edi. Birinchidan, tanlovchilar (bastakorlar va ularga she'r tanlab beruvchi mutaxassislar) bu asarni ilohiy ishqqa mansubligini bilgani uchun, unga kuy bastalamagan. Ikkinchidan, merosning bisyorligi bu g'azalga navbat yetmaganligidan ham bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham bu g'azalni kuylash ilk bor faqat O.Nazarbekovga nasib etdi.

Bu asar ma'nosini bilish uchun albatta Sharq falsafasi, diniy aqida va ilohiy kitoblar mazmunidan xabardor bo'lish kerak. Ta'kidlash kerakki, avvalo, unda shoir ikkinchi shaxsga qarata murojat qilgani uchun ("Sening") matn mazmunini his etishda o'quvchida katta fantaziya bo'lishi kerak. Ya'ni, "Sen" deganda dunyoviy ma'shuqani ham nazarda tutish mumkin, shu bilan birga sen deganda Allohni ham ko'zda tutish mumkin. Chunki, "Sen" olmoshi ikki obyektga qarata aytilishi mumkin. Biz bu murojatni munojot deb hisoblaydigan bo'lsak, uni diniy-tasavvufiy ta'limot asosida tahlil qilishimizga to'g'ri keladi. Uning mat'lasi shunday:

Ey, azaldin to abad, ko'nglim giriftoring sening,
Chora qilkim, bo'ldi jonim asru afgoring sening. [14]

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

G‘azal mazmunini tahlil qilishdan ilgari uning vazni va paradigmasini aniqlab olishimiz kerak. Bu g‘azal aruzning hajaz bahrida yozilgan. Ya’ni, hajazi musammani maqsur vazniga tushadi. Aruzdagi paradigmasi quyidagicha:

Ey, a-zal-din // to -a-bad, ko‘ng // lim- gi-rif-to // ring se- ning,
Cho-ra qil-kim, // bo‘l-di jo-nim // as-ru af-go // ring se-ning.
- v - - // - v - - // - v - - // - v –
fo – i –lo –tun // fo – i –lo –tun // fo – i –lo –tun // fo – i –lun

Diniy aqidaga ko‘ra miysoq kuni – Alloh bilan Odam ato o‘rtasida jannatda ahd-paymon bo‘lgan kuni barcha odam bolalari ruhi Odam atoga ko‘rsatilgan, deyiladi. Bu haqda Qur’on tafsirlariga bag‘ishlangan asarlarda ishoralar ko‘plab ishoralar mavjud. Masalan, Mashrabda shunday bayt bor:

Lomakonning shahrida oshiqni shaydo qildi ishq,
Anbiyou avliyolarni huvaydo qildi ishq.

Ushbu baytlar mazmunini tushunib yetmoq uchun “Lomakonning shahrida ishq qachon oshiqni o‘ziga shaydo qildi? Payg‘ambarlar va valiylarni ishq huvaydo qilgan bo‘lsa - oshkor etgan bo‘lsa buning nima qiziq tomoni bo‘lishi mumkin?” deb bir zum o‘ylab ko‘rishimiz darkor. Lomakon, ya’ni makonsizlik shahri qayerda? Avvalo ishq qanday ma’noga ega va nimaga ishq yoki nimaga oshiqlik? Shubhasiz, bu o‘rinda Ollohga bo‘lgan insoniy sevgi nazarda tutilmoqda.

Lutfiy g‘azalida ham biz yuqorida keltirgan naql ma’nosiga ishora bor.

Ey, azaldin to abad, ko‘nglim giriftoring sening,
Chora qilkim, bo‘ldi jonim asru afgoring sening.

Ey Alloh, ibtidodan to abadgacha qiyomatgacha ko‘nglim sening sevgingga bog‘langan, ya’ni giriftordir, chorasini topib bergilki, jonim afgor, ya’ni kuchsiz va g‘amgin bo‘lib qolgan.

Keyingi baytlarda shoir majoziy ishqdan so‘zlaydi. Oshiq ma’shuqani ko‘rishni istaydi, ammo u joni chiqish arafasida ham kelmaydi.

Jon berur chog‘da qoshimg‘a Tangri uchun kel, begim,
Bore ko‘rmish bo‘lg‘amen bir lahza diydoring sening.

Men jon berar mahalda, ey begim, rahm qilib yonimga kel, zora shu bahonada seni yana bir marta ko‘rib qolsam. Shunday deb sening rahmingni keltirmasam, mendan xabar olmaysan. Ammo shoirning dilbari uning ohu nolasiga parvo ham qilmaydi. Oshig‘imni qiynayapman deb ham o‘ylamaydi ham.

Dilbarimning mazhabida yo‘q turur rasmi vafo,
Ey ko‘ngul, ne yerga yetgay nolai zoring sening.

“Molik ul kalom” Lutfiy bu yerda xazil-mutoiba usulidan foydalanib latif bayt paydo qilgan. Ya’ni, mening dilbarim ixtiyor etgan mazhab shunday mazhabki, unda vafo qilish haqida rasm-qoida yo‘q. Bevafolik uning uchun odatiy holat. Shunday bo‘lgach, ey bechora ko‘ngil, sening nolayu zoring qayerga ham yetar edi. Ammo xasta bo‘lib, jonim chiqayotganda sening kelishingni kutishim bemoru mastligimdandir. Shuning uchun mast-devona bandang so‘ziga e’tibor berma. Chunki,

Shar’ ichinda bo‘lsa uzruk so‘ziga yo‘q e’tibor,
Qonima bergay tonuqlik ikki ayyoring sening.

Shariat qozisi huzurida mast kishining guvohligi e’tiborga olinmaydi. Men ham bu so‘zni mastlik holatida gapiryapman. Ammo sening “ikki ayyoring”, ya’ni ikki ko‘zing to‘kilgan qonimga guvohlik beradi. Menga shu tasallining o‘zi yetarli.

Har qachon Lutfiyni o‘ltursang jafo tig‘i bila,
Anda ham bo‘lg‘ay mening ruhim madadkoring sening.

Har qachon Lutfiyni jabr-sitam tig‘i bilan bilan o‘ldirsang, yomonlik qildim-a, deb g‘am tortmagil. O‘sha paytda mening ruhim senga madadkor bo‘ladi, ya’ni sening gunohingni kechirishini o‘zim so‘rab beraman.

Bu g‘azalda oshiqning iztiroblari, yor jafosi, oshiqning ma’shuqa qoshida iltijolar qilishi juda ta’sirli ifodalangan. G‘azalda qarama qarshilik, tazod – zid qo‘yish, lutf, mutoiba kabi san’atlardan mohirona foydalanilgan. O. Nazarbekov g‘azalning radifi bo‘lgan “Sening” so‘zini shu qadar ta’sirli intonatsiya bilan uch marta talaffuz qilganki, unda iltijo, sevish holatlari to‘liq aks ettirilgan. Agar bu g‘azal an’anaviy yo‘lda aytilganda, hofizlar ehtimol, bunchalik ta’sirchanlikni bera olmagan bo‘lur edilar. Buni ham zamonaviy musiqa asboblaridan unumli foydalanish samarasi, yangicha ijroning o‘ziga xos jihatlaridan biri deya olamiz.

Xulosalar va tavsiyalar (Conclusions and recomendations)

O‘zbekistonda an’anaviy ijrochilik borgan sari rivojlanib borayotir. Bunda milliy o‘zlikni anglash, merosimizni tiklash, asl musiqiy merosimizni jahon miqyosida targ‘ib etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning o‘rni katta. Qolaversa, respublikamizda an’anaviy ijrochilik ta’limining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgani asosiy yutuq sanaladi. Maqom ijrochiligida an’anaviylik tajribalari hozircha ustunlik qilmoqda. Yangilikdan ko‘ra, avvalgi ijrolarni o‘zlashtirish ustunlik qilmoqda. Chunki o‘zlashtirish – bu o‘rganish, ijro etish demakdir. Ammo an’anaviy musiqa ijrochiligi juda ilgarilab ketdi. Bu avvalo, sozlar qatoriga yangi sozlarning qo‘shilishi (qonun, ud), ansambl a’zolari sonining ortishida ko‘rindi. Yoshlar an’anaviy ijroga sayqal berish borasida yangiliklar ixtiro qilishdi.

An’anaviylikda matnlarning ma’nosini o‘rganishga e’tibor passivlik qilardi. Endilikda esa, matnlar mazmunini bilishga intilish kuchaydi. Aruz vaznida yozilgan g‘azallar har ikki yo‘nalish uchun ham universal vazifa bajara olishini isbotladi. O.Nazarbekov tajribasi mumtoz g‘azallar faqat maqom san’ati manbai degan bir tomonlama fikr yuritadigan aqidani yo‘qqa chiqardi. Bu esa estrada yo‘nalishida ham mumtoz she’riyat namunalaridan g‘azal tanlash tajribasini yoshlarga o‘rgatish mumkinligini ko‘rsatib qo‘ydi. Mumtoz g‘azallardan yaratilgan qo‘shiqlar sharhida noto‘g‘ri talqinlar berilmasligi uchun shu paytgacha ijtimoiy tarmoq orqali jamoatchilik orasida tarqalgan noilmiy talqinlarga o‘z vaqtida mutaxassislar tomonidan xolis munosabatlar uyushtirib turish maqsadga muvofiqdir.

Mumtoz g‘azallar tarkibida diniy mavzuga oid asarlar ham bisyorligi, buni ham bir guruh kishilar odamlarning hissiy tuyg‘ularini jumbishga keltirish uchun ishlatishga harakat qilingani seziladi. Shuni e’tiborga olib, matn tanlashda lirik va ijtimoiy mavzularga tegishli tushunishga oson xalqchil va xalqona uslubga ega g‘azallarni izlash kerak. O.Nazarbekov tanlagan g‘azallar sharhidan iborat alohida kitob tayyorlab, estrada yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma yaratish loyihasini amalga oshirish ijobiy natija beradi. Lutfiy g‘azallari asosida yaratilgan zamonaviy ijro uslubiga mansub qo‘shiqlar asosida lirik videoroliklar tayyorlash, buning uchun munosib ssenariylar yozish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

[1] https://www.gazeta.uz

[2]. Yunus Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. (I, II, III,IV-V jildlar. Fan. T.: 1960.

[3]. Matyoqubov O. Og'zaki an'anadagi professional musiqaga kirish. T.: 1983.

[4]. Qosimov R.. An'anaviy tanbur ijrochiligi. Darslik. «Cho'pon» nashriyoti. T.: 2002.

[5]. Nasritdinova M., Toshaliyev D., Murodova D. An'anaviy ijrochilik san'atining hozirgi davr muammolari // Internet.

[6]. Yunusov R. Sharq xalqlari maqom san'ati tarixi. Darslik. T.: 2021.

[7]. Qosimov R. An'anvaiy ijrochilik. Darslik. T.: 2013

[8]. Ibrohimov O. Maqomdon Ishoq Rajabov. // "Maqom" jurnali. №1 son. B. 21-27.

[9]. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi nafosati. Adabiyot uchqunlari. T.: 1998.

[10]. Komilov N. Hizr chashmasi. Sharq. T.: 2010.

[11. Isoqov Yo. Navoiyning poetik mahorati. Fan. T.: 1973.

[12]. To'xliyev B. Alisher Naoiy g'azallari sharhi. "Bayoz" nashriyoti. T.: 2013.

[13]. Nosirov R. Soz bilan suhbat. Muharrir. T.: 2009.

[14]. Lutfiy. G'azallar. Fan. T.: 1996.

[15]. Avliyolar sultoni. Turonlik valiylar. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. T.: 2004. 257 b. B.201.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mahmudxon Dovidxonov Muhriddinxon o‘g‘li
Uzbek State Institute of Arts and Culture, basic doctoral student
ORCID: 0009-0005-1699-8965
E-mail: mahmudxondovidxonov1@gmail.com

Published under peer review:
Doctor of Science in Art, Professor
M.Mavrulova

Received 4th April 2025, Accepted 11th April 2025, Online 18th April 2025

FORMATION OF PUBLIC OPINION ON CULTURAL DIPLOMACY IN UZBEKISTAN

Annotation. This article presents an analysis of the results of a sociological survey conducted in Namangan, Tashkent region and Tashkent city to determine the level of awareness of the general public about the concept of cultural diplomacy, the influence of which foreign countries' cultural diplomacy is most influential in Uzbekistan, and the importance of the media in increasing the prestige of cultural diplomacy.

Keywords: cultural diplomacy, media, sociological survey, analysis.

ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье изложен анализ результатов социологического опроса, проведённого в Наманганской, Ташкентской областях и городе Ташкент с целью выявления уровня осведомлённости широкой общественности о понятии культурной дипломатии, определения, культурная дипломатия каких зарубежных государств оказывает наибольшее влияние в Узбекистане, а также значения средств массовой информации в повышении авторитета культурной дипломатии.

Ключевые слова: культурная дипломатия, СМИ, социологический опрос, анализ.

O‘ZBEKISTON MADANIY DIPLOMATIYASI HAQIDAGI JAMOATCHILIK FIKRINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada keng jamoatchilikning madaniy diplomatiya tushunchasidan xabardorlik darajasini aniqlash, O‘zbekistonda qaysi xorijiy davlatlarning madaniy diplomatiyasi katta ta’sirga ega ekanligini, madaniy diplomatiya nufuzini oshirishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyatini aniqlash maqsadida Namangan va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalari tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: madaniy diplomatiya, ommaviy axborot vositalari, sotsiologik so‘rov, tahlil.

Kirish (Introduction)

Biz yashayotgan global dunyoda ommaviy axborot vositalari jamiyatlarning jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatuvchi, yo‘naltiruvchi va shakllantiruvchi muhim elementiga aylandi. Media

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

vositalari keng jamoatchilik ustidan ommaviy ta’sir kuchiga egaligini inkor qilib bo‘lmaydi. Chunki jamoatchilik orasida o‘zlari ishonadigan, hurmat qiladigan, obro‘li deb bilgan axborot kanallari orqali olgan ma’lumotlariga ishongan holda fikr shakllantirish va shu fikrlar asosida qaror qabul qilishga moyillik bor.

Til vosita sifatida bizga muloqotning asosiy darajasidan tashqariga chiqishga, jamiyatlar va madaniyatlar ustiga qurilgan bilimlarning katta hajmini yaratishga yordam beradi. Matbaa birinchi zamonaviy ommaviy axborot vositasi sifatida ko‘riladi [1.21]. Jurnallar, risolalar, kitoblar savodxonlik va mustaqil ratsional fikrning tarqalishiga yordam berdi. Qisqa qilib aytganda, insonlarning madaniyati ommaviy axborot vositalarining keng masshtabda tarqalishi, rivojlanishi bilan madaniyat ham parallel ravishda keng tarqaldi, rivojlandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Ommaviy axborot vositalari, endilikda faqatgina muayyan xabarni aholiga yetkazish vositasi emas, balki, yetkazilayotgan xabarlar orqali muayyan maqsadlarga yetishni ko‘zlay boshladi. Shu tariqa, ommaviy axborot vositalari, tashqi siyosatda, diplomatiya, xalq diplomatiyasi va madaniy diplomatiya kabi faoliyat sohalarida muhim ishtirokchi hamda madaniy diplomatiyaning elementi va institutiga aylandi.

Ommaviy axborot vositalarini madaniyat, madaniy diplomatiya rivojlanishi bilan bog‘lashlar XX-asrning so‘nggi yillarida olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarda uchray boshlaydi. Rokech va Kantor: “Ommaviy axborot vositalarining ma’lum bir jamiyatlarda nazariy jihatdan deyarli bir vaqtning o‘zida butun aholi uchun mavjud bo‘lgan madaniy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi, tarqatuvchi muassasalar va tashkilotlar konfiguratsiyasidan iborat tizim” [2.65] deb ta’rif beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

So‘nggi yillarda respondentlardan madaniy diplomatiya deganda nimani tushunishlari so‘raldi. Mazkur so‘rovda respondentlarning katta qismi (41%) “madaniy diplomatiya” iborasining ma’no-mazmunini bilmasligi aniqlandi (Jadval-1). So‘rovda ishtirok etganlarning 24% madaniy diplomatiya iborasini yanglish tushunishlari, ya’ni diplomatiyada madaniyatli bo‘lish, deb javoblaganlar. Shu boisdan anketa savollari mazmuni izohlanganda madaniy diplomatiya nimaligi haqida tushuncha ham berib o‘tildi. Respondentlarning 9 foizi bu so‘rovga javob berishga qiynalishlarini ma’lum qilgan.

Jadval-1



So‘rovnoma o‘tkazish jarayonida hududlarda aholining asosiy axborot manbasi ommaviy axborot vositalari ekanligi, xususan, aksariyat aholi ma’lumotlarni telekanal va radiokanallar orqali

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

olishi aniqlandi. Respondentlardan madaniy diplomatiya iborasini qayerda eshitgansiz, deb so‘ralganda, respondentlarning 35 foizi madaniy diplomatiya iborasini ilk bor tele-radiokanallar orqali, 24 foizi ijtimoiy tarmoqlar orqali, 16 foizi gazeta-jurnallar orqali eshitganliklarini ma’lum qilishgan (Jadval-2). Respondentlarning 5 foizi bu iborani birinchi marta eshitayotganliklarini bildirganlari ham biz tadqiq qilayotgan mavzuning naqadar dolzarbligini, shuningdek, aholi orasida madaniy diplomatiyaga oid ma’lumotlar ommaviy axborot vositalari va boshqa axborot manbalari orqali ko‘proq targ‘ib qilish, tushuntirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

2024-yil 31-oktabrda “Zo‘r TV” telekanalining “O‘zimizda” tok-shousining “O‘zbek madaniyatini dunyo tanimoqda” deb nomlangan 152-sonida madaniy diplomatiya mavzusi turli soha vakillari o‘rtasida muhokama qilindi. Madaniy diplomatiya mavzusi televideniya orqali ilk bor muhokama qilinishi biz tadqiq qilayotgan mavzuning keng jamoatchilikka tanitish, tushuntirishdagi dastlabki ijobiy qadam desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, respondentlar bergan javoblarga tayanadigan bo‘lsak, ular madaniy diplomatiya iborasini ilk bor aynan telekanal va radiokanallar orqali eshitishganliklari ham ommaviy axborot vositalarining mazkur turlari imkoniyatlari kengligi, aholi orasida ularning ta’siri kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi.

Jadval-2



Ommaviy axborot vositalarini davlatning mafkuraviy vositalari qatoriga kiritgan Luiz Altusserning fikricha, bu vositalar kishilarning hayotiy amaliyotida muhim o‘rin tutadi, odamlarni mafkuraviy shakllantirib, ularni kerakli yo‘nalishga yo‘naltirishga yordam beradi. Ommaviy axborot vositalari xalq diplomatiyasi faoliyatini maqsadli auditoriyaga yetkazish, madaniyatni ifodalash, qadriyatlarni tarqatish va madaniy o‘zgarishlarni tan olishda muhim rol o‘ynaydi [3.172-173]. Jamiyat a’zolari yangiliklar, yangi tendensiyalardan bugungi kunda ham OAV orqali xabar topmoqdalar. Biz olib borayotgan tadqiqotda ham respondentlarning eng katta qismi xabarlarni OAV yoki davriy nashrlardan olayotganliklari kuzatiladi.

“Siz qaysi xorijiy davlatlarning kino-seriallarini sevib tomosha qilasiz?” degan savolga respondentlarning 35 foizi Turkiya, 24 foizi Janubiy Koreya, 21 foiz Hindistonning kino-seriallarini sevib tomosha qilishini bildirgan (Jadval-3).

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Jadval-3



Respondentlarning bergan javoblaridan qilinadigan xulosa shuki, Turkiya, Janubiy Koreya va Hindiston davlatlari kino-seriallar vositasida Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonda muvaffaqiyatli madaniy diplomatiyasini amalga oshirmoqda deyish mumkin.

Shu bilan birga, Turkiya madaniy diplomatiyaning eng ta’sirchan usullaridan sanalgan kino-seriallar tarmog‘idan yuqori samaradorlikda foydalanmoqda. Tarixni kino-seriallarda jonlantirib, tomoshabinga yetkazib berish yoki muayyan g‘oyani jamiyatga etkazish kino san’ati madaniy diplomatiyaning eng ta’sirchan vositasi ekanligi respondentlarning javoblaridan ham anglashilmoqda.

Respondentlardan qaysi tildagi qo‘shiqlarni sevib eshitishlari so‘ralganda olingan javoblar ham g‘oyat ahamiyatli (Jadval-4).

Jadval-4



Respondentlarning 58 foizi o‘zbek, 22 foizi, turk, 18 foizi tojik, 16 foizi rus, 12 foizi ingliz tilidagi qo‘shiqlarni sevib tinglashini javoblarda ma’lum qilgan. Mazkur so‘rovda ahamiyatli nuqtasi shundaki, o‘zbek tilidan keyingi eng ko‘p tinglanadigan musiqa tili turk tili ekanligi ham Turkiya madaniy diplomatiyasidagi yana bir muvaffaqiyatini tasniflaydi. Birinchidan, so‘rovnomada asosan o‘zbek va boshqa mahalliy tojik, qirg‘iz, qozoq millatiga mansublar tanlab olingan edi, birorta turk millatiga mansub respondent yo‘q edi. Ikkinchidan, O‘zbekistondagi etnik turklar soni haqida aniq

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

ma’lumot uchratmasakda, ularning soni mahalliy tojik, qozoq, qirg‘iz, turkmanlardan ko‘p emasligi aniq, shunday bo‘lsada, turk tilidagi qo‘shiqlar O‘zbekistonda yetakchi mavqega egaligi biz uchun biroz kutilmagan natija bo‘ldi.

“Siz qaysi mamlakatning ommaviy axborot vositalarini voqeliklarni xolisona, obyektiv yoritadi, deb hisoblaysiz?” degan savolga respondentlarning 19 foizi Rossiya, 18 foizi O‘zbekiston, 17 foizi BBC, Amerika ovozi kabi xalqaro OAVlar, 15 foizi OAV emas ijtimoiy tarmoqlar, 9 foizi Yevropa davlatlari, 7 foizi Turkiya, 7 foizi AQSH, 6 foizi Qozog‘iston, 2 foizi Qirg‘iziston davlatlarining milliy OAVlari voqeliklarni xolisona, obyektiv yoritadi, deya javob berganlar (Jadval-5).

Jadval-5



E’tiborlisi, respondentlarning eng ko‘pi Rossiya OAVni xolis deb hisoblashi, mintaqadagi axborot makonida Rossiya OAVsi yetakchiligini ko‘rsatmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi aholisi eng ko‘p xalqaro yangiliklarni asosan Rossiya axborot makonidagi ommaviy axborot vositalaridan olganligi sababli, jamoatchilik rus OAVni xolis va obyektiv yoritadi, degan ijobiy fikr shakllangan. Ammo, axborot makonidagi axborot tarqatish, uzatish tili rus tilida bo‘lganligi, mintaqadagi mustaqil respublikalar mustaqillikka erishganiga 30 yildan oshgan bo‘lsa-da, rus millatiga mansub bo‘lmagan, biroq rus tilida muloqot qiluvchi aholining katta qismini tashkil qilmoqda. Bu esa, Rossiya madaniy diplomatiyasini amalga oshirishida katta ustunlik beradi.

YUNESKO tomonidan tayyorlangan MacBride hisobotida ommaviy axborot vositalarining 8 ta asosiy vazifalari sanab o‘tiladi. Bular: axborot, ijtimoiylashtirish, motivatsiya, muhokama, madaniy targ‘ibot, ko‘ngilochar, integratsiya va ta’lim [4.94]. Ommaviy axborot vositalarini sanab o‘tilgan ta’lim, madaniy targ‘ibot va integratsiya funksiyalari bevosita madaniyat tushunchasini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiylashtirish funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim funksiyasi jamiyatni madaniy qadriyatlar bilan tarbiyalashni o‘z ichiga oladi. Muayyan jamiyatga oid san’at va madaniyat asarlarini ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish orqali targ‘ib qilinadi, madaniy targ‘ibot esa madaniyatni rivojlantirish bilan birga muhofaza qilishni ham ta’minlaydi. Integratsiya sarlavhasi ostida turli madaniyatlarga mansub shaxslar va guruhlar ommaviy axborot vositalari orqali bir-birlarini bilishlari va parallel ravishda madaniyatlararo ziddiyatlarning oldini olishlari mumkin.

Mazkur so‘rovda yana bir o‘ziga xos jihat, respondentlarning 15 foizi OAV emas balki ijtimoiy tarmoqlar xolis axborot manbai, degan javobni belgilagan. So‘nggi o‘n yillikda, haqiqatan Facebook, Twitter, Instagram, Telegram, WhatsApp kabi ijtimoiy tarmoq va messenjerlar

kishilarning muloqot platformasi bo‘libgina qolmay, balki, tezkor axborot beruvchi funksiyasi ham rivojlandi.

Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylangan vaqtdan boshlab O‘zbekistonda ham blogerlar va blogerlik faoliyati shaxsan prezident tomonidan bir necha bor qo‘llab-quvvatlanishi bildirildi. Xususan, Prezidentning 2019-yil 26-avgustda Samarqandga tashrifi davomida jurnalist va blogerlar bilan uchrashib suhbatlashdi [5.2019], 2021-yil 6-noyabrda navbatdagi muddatga Prezidentlik lavozimiga kirishishida, inauguratsiya marosimida [6.2021] va boshqa yig‘ilish va uchrashuvlarda bir necha bor bloger va blogerlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarni qo‘llab-quvvatlashini bildirishi ortidan qisqa fursatda turli yo‘nalish va sohalarga ixtisoslashgan o‘zbek segmentidagi bloglar va sahifalar ko‘paymoqda. Demak, ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlaridan ham madaniy diplomatiyada foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilishi, hatto, bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish kerak deb hisoblaymiz.

Xulosa (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda madaniy diplomatiya tushunchasi jamiyatda asta-sekin shakllanib bormoqda, ammo uning mazmuni va ahamiyati to‘g‘risida jamoatchilik tushunchasi hanuz to‘liq mustahkam emas. Xorijiy davlatlar tajribasi ommaviy axborot vositalarining madaniy diplomatiyaning yoritishdagi roli ushbu sohaning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, jamoatchilik ongida madaniy diplomatiya haqida chuqurroq tasavvur hosil qilish uchun, media orqali izchil targ‘ibot va ochiqlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar (References):

1. Melvin L.DeFleur, Margaret H.DeFleur. Mass communication theories. Explaining origins, processes, and effects. Routledge. 2016. p.21.
2. Metin Enes Dönmez & Yeşim Güçdemir. Sosyal Ağ Sitelerinin Popüler Kültür Aracı Olarak Bir Analizi. Yüksek Lisan Tezi. 2018. s. 65.
3. Emrah Aydemir. Dış Politikada Yumuşak Güç va Medya. Istanbul, Kalkedon Yayınçılık. 2016. s-172-173.
4. Meltem Bostancı. Kamu Diplomasisinde Medyanın Rolü va Önemi. İstanbul, Anahtar Kitaplar Yayınevi. 2012. s.94.
5. Шавкат Мирзиёев: Бугун биз Oʻзбекистоннинг янги тарихини яратяпмиз. 26.08.2019. https://president.uz/uz/lists/view/2824 Olingan sana: 29.12.2024.
6. Jurnalist va blogerlar bundan buyon ham qonun va Prezident himoyasida bo‘ladi – Shavkat Mirziyoyev. 06.11.2021. https://daryo.uz/2021/11/06/jurnalist-va-blogerlar-bundan-buyon-ham-qonun-va-prezident-himoyasida-boladi-shavkat-mirziyoyev Olingan sana: 29.12.2024.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Khaydarova Farangiz Azamatovna
doctoral student (PhD), State Conservatory of Uzbekistan,
Tashkent, Republic of Uzbekistan

Published under peer review:
Kasymkhodjaeva Saida Batyrovna,
PhD in Art History, Professor,
State Conservatory of Uzbekistan

Received 4th April 2025, Accepted 11th April 2025, Online 18th April 2025

NATIONAL CHARACTERISTICS AND MINIMALIST ELEMENTS IN THE STRUCTURE OF THE SECOND MOVEMENT OF SONATA NO. 3 BY NURILLA ZAKIROV

Abstract: the article analyzes the second part of Nurilla Zakirov's Sonata No. 3, emphasizing its national characteristics and minimalist elements in its structure. The composer uses innovative techniques and minimalist methods to create a unique Uzbek musical identity. The influence of national color is explored through the stylized reproduction of the sound of Uzbek folk instruments, emphasizing Nurilla Zakirov's innovative approach to the piano sonata.

Keywords: cluster, minimalism, national identity, pattern, sonata, toccata, Uzbek music.

NURILLA ZOKIROV 3-SONATASINING IKKINCHI QISMIDA MILLIY XUSUSIYATLAR VA MINIMALISTIK ELEMENTLAR

Annotatsiya: maqolada Nurilla Zokirov 3-sonatasining ikkinchi qismini tahlil qilinadi va uning milliy xususiyatlari hamda minimalistik elementlari yoritiladi. Kompozitor o‘ziga xos o‘zbek musiqiy identifikatsiyasini yaratish uchun innovatsion usullar va minimalistik uslublardan foydalanadi. Milliy rang-baranglikning tadqiqi o‘zbek xalq cholg‘u asboblari ovozining uslubiy ifodasi orqali amalga oshiriladi, bu esa Nurilla Zokirovning fortepiano sonatasiga yangicha yondashuvini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: klaster, minimalizm, milliy xususiyatlar, pattern, sonata, tokkata, o‘zbek musiqasi.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И МИНИМАЛИСТИЧЕСКИЕ ЭЛЕМЕНТЫ В СТРУКТУРЕ ВТОРОЙ ЧАСТИ СОНАТЫ №3 НУРИЛЛЫ ЗАКИРОВА

Аннотация: статья посвящена анализу второй части Сонаты №3 Нуриллы Закирова, подчеркивая национальные особенности и минималистические элементы в её структуре. Композитор использует инновационные методы и минималистские приемы для создания уникальной узбекской музыкальной идентичности. Исследуется влияние национального колорита через стилизованное воспроизведение звука узбекских народных инструментов, что подчеркивает новаторский подход Нуриллы Закирова к фортепианной сонате.

Ключевые слова: кластер, минимализм, национальная идентичность, паттерн, соната, токката, узбекская музыка.

Вступление (Introduction)

В современной узбекской музыкальной культуре фортепианная соната приобретает неповторимую национальную идентичность, воплощенную через инновационное

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

переосмысление классической формы и стремление к оригинальным стилистическим решениям. По мнению Ферузы Мухамедовой, жанр сонаты в Узбекистане развивается в двух направлениях: творческо-экспериментальном, ориентированном на художественные поиски, и дидактическом, связанном с образовательными задачами [1, с.56]. Особое вдохновение узбекские композиторы черпают в экспериментальной сонате, что соответствует их эстетическим идеалам и предоставляет широкие возможности для применения выразительных приемов и внедрения новаторских техник.

Ярким примером национальной идентичности в жанре фортепианной сонаты является Третья соната Нуриллы Закирова, которая состоит из двух частей. Первая часть, написанная в сонатной форме, отличается сложной фактурной структурой, где композитор искусно сочетает фигурационно-импровизационные и речитативно-декламационные линии. Монодическая основа становится центральным элементом, объединяющим обе части сонаты, наиболее выразительно проявляясь в первой части. В этой части композитор соединяет монодические линии с фигурационными структурами, которые создают уникальный звуковой фон.

Анализы и Результаты (Analysis and Results)

Вторая часть сонаты Нуриллы Закирова вызывает особый интерес в контексте музыкального минимализма. Написанная в форме рондо с элементами вариационности **(ABA_1CA_2)**, она сочетает токкатный жанр в рефрене, где каждый повтор рефрена является его сокращенной вариацией, и принцип алеаторики в эпизодах.

Вторая часть сонаты обрамлена вступлением и кодой, которые построены из кластерных аккордов, отсылающих к началу первой части, создавая своего рода ретроспективную арку. Вступление состоит из трех тактов: первый такт представляет собой кластерный аккорд, который устанавливает гармоническое напряжение. Интересной особенностью является выбор автором тональности: при ключе с пятью бемолями, указывающем на си-бемоль минор, кластерный аккорд включает звуки, характерные для ми-бемоля минора. В завершение второй части композитор останавливается на ноте ми-бемоль, что подчеркивает парадоксальность тонального восприятия. Единственный момент, позволяющий ясно определить си-бемоль минор, кроме мелодической линии в эпизодах — второй такт вступления, где экспонируются первый и пятый звуки тональности, организованные в кварто-квинтовые интервальные цепи, создавая иллюзию стабильности внутри экспериментальной тональной среды. Третий такт служит предвосхищением токкатного характера рефрена, вводя чередование звуков ми-бемоль и си-бемоль тридцать вторыми в малой октаве. Именно чередование этих звуков формирует паттерн, характерный музыке минимализма, который будет постепенно и незаметно трансформироваться, оставаясь при этом связующей нитью между фразами рефрена.



Алия Сидикова отмечает, что в своих произведениях Нурилла Закиров избегает простого цитирования музыкального фольклора или заимствования фрагментов из макомов,

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

предпочитая передавать восточный колорит через стилизованную имитацию звучания узбекских народных инструментов [2, с.25]. Это особенно ярко проявляется во второй части, где в рефрене звучит токката, напоминающая звучание ударно-щипковых инструментов, особенно домбры. Такой выбор не случаен: структура рефрена **(A)** отражает форму исполнения дастана, в котором чередование музыкальных фраз и инструментальных проигрышей создает цельное повествование. Здесь паттерн играет роль инструментального проигрыша, связывая музыкальные фразы и придавая произведению непрерывный, связующий поток, характерный для традиционного узбекского музыкального повествования.

Структура начинается с четырёхтактового паттерна, выполняющего функцию вступления к «сказу» бахши[1]. Этот первичный паттерн формирует ритмическое и мелодическое ядро, которое станет основой для дальнейшего развития. Затем следуют два такта фразы, привносящей новую мелодическую линию в верхнем голосе, после чего появляется однотактный паттерн, выполняющий роль связующего элемента и плавно объединяющий эту фразу с более развернутой четырёхтактовой мыслью. В целом, диапазон фраз ограничен септимой, что является характерной чертой минимализма, отражающей тенденцию к ограничению нотного материала.

По мере развития структура становится всё более сложной: добавляется один такт паттерна в вариационной форме, связывающий предыдущие элементы с последующей трёхтактовой фразой, создавая эффект постепенного нарастания и развития. Этот вариативный паттерн привносит мелодические изменения, обогащая ткань произведения минималистской динамикой. Структура продолжается однотактным паттерном, за которым следует двухтактовая фраза, а затем еще один видоизмененный паттерн. Эта череда завершается трёхтактовым паттерном, служащим финальным связующим звеном, подытоживающим музыкальную мысль и ведущим к первому эпизоду.

В процессе развития музыкальной мысли паттерн, изначально основанный на чередовании нот ми-бемоль и си-бемоль, постепенно трансформируется, расширяясь до чередования четырех звуков: ля-бемоль — ре-бемоль и ми-бемоль — си-бемоль. Эта постепенная трансформация паттерна в чередование четырех звуков придает произведению ощущение развития и обновления, сохраняя при этом связь с первоначальной темой. Такое изменение формирует ощущение внутренней эволюции музыкального материала, придавая структуре естественную непрерывность и создавая иллюзию пространственной глубины в звуковом поле.

[1] Бахши – исполнитель народных дастанов, объединяющий мастерство слова, музыки, пения и актерской игры, чтобы передать величайшие эпические сказания народа [3].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Стиль рефрена можно охарактеризовать как минималистический, ориентированный на тонкое взаимодействие и трансформацию повторяющихся элементов, что создаёт ощущение постепенного раскрытия и нарастания музыкальной мысли. Он использует минимальные средства выразительности – паттерны и фразы – которые многократно варьируются и чередуются, выполняя одновременно структурную и выразительную функцию. Такой подход придаёт музыке особую текстурную глубину и цельность, создавая эффект медитативного погружения и непрерывного музыкального потока.

Первый эпизод **(B)** композиции демонстрирует влияние Джона Кейджа[2] и активно использует приёмы алеаторики. Вместо привычных нотных обозначений композитор графически указывает общее направление музыкальной мысли, что требует от исполнителя значительной импровизационной свободы. Автор предлагает постепенно ускорять темп до тридцать вторых нот, позволяя воспроизводить любые звуки в рамках заданной схемы: для правой руки — от фа большой октавы до си-бемоль малой октавы, для левой — от си-бемоля контроктавы до си-бемоль малой октавы.

Эпизод структурирован на три условные секции. Начальная и завершающая части представлены в алеаторном изложении, в то время как средняя часть соединяет элементы алеаторики с мелодической линией, постепенно нисходящей. Эта мелодическая линия, представляя собой лирическое отступление, контрастирует с моторным движением токкаты, создавая момент ясности и спокойствия среди звукового хаоса. Интересен композиторский подход к фразировке мелодической линии, где музыкальные фразы делятся не по метрическому принципу, а по мелодической логике: одно предложение – один такт. Характер мелодии напоминает декламацию с постепенным нисходящим движением к ноте си-бемоль, которая утверждает тональность всего произведения. Но финальная фраза, устремленная вверх, завершается септаккордом фригийского лада на три форте, создавая ощущение напряженности и добавляя гармоническую насыщенность, что значительно усиливает драматизм эпизода.

В завершающей части эпизода композитор предписывает исполнителю начать с нот до-бемоль первой октавы и соль-бемоль малой октавы, после чего, следуя заданной автором линии, исполнять любые ноты, пока не будет достигнуто основное сочетание звуков токкаты:

[2]Джон Милтон Кейдж – американский композитор, известный как пионер в области алеаторики, экспериментальной и электронной музыки [1].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

ми-бемоль — си-бемоль. Заключительная часть эпизода возвращает слушателя к первоначальному паттерну, завершая эпизод и подготавливая к рефрену.

Во втором рефрене **(A1)** отсутствуют заключительные восемь тактов, присутствовавшие в первом рефрене, что делает его укороченной версией. Это сокращение придаёт музыке более сжатый и динамичный характер, усиливая чувство движения.

Второй эпизод **(C)** привлекает внимание своей структурой, в которой паттерн в левой руке сопровождается мелодической линией в правой. Эта мелодия перекликается с тематикой первого эпизода, но теперь обогащена элементами полифонии и обладает большей насыщенностью. Полифония проявляется через добавление второго голоса в верхнем регистре. И здесь композитор следует принципу «один такт — одна мелодическая линия». Во втором такте заметен элемент полифонии в самом паттерн: нижний голос скрыто формирует отдельную мелодическую линию, создает дополнительный звуковой пласт, делая музыкальную ткань более насыщенной.

Мелодическая линия в правой руке не только контрастирует с устойчивым ритмом левой руки, но и вносит разнообразие благодаря своей свободной, выразительной природе. Такое решение усиливает экспрессию и акцентирует внимание на мелодии, делая её более яркой на фоне монотонного сопровождения левой руки. Как и в первом эпизоде, здесь подчёркивается тональность си-бемоль минор. Нисходящая мелодия неизменно завершается на ноте си-бемоль, которая звучит как утверждение основной тональности произведения, несмотря на преобладающую тональность ми-бемоль минор в рефрене. Таким образом, композитор балансирует между двумя тональными центрами, используя си-бемоль как опору, которая возвращает к основной гармонической идее и подтверждает её, создавая контраст с рефреном.

Завершающее предложение данного эпизода, аналогично первому эпизоду, выступает кульминационным моментом, в котором аккорд-кластер, исполненный на ***fff***, придаёт звучанию яркость и экспрессивную насыщенность. Композитор предписывает исполнителю брать крайние ноты аккорда первым и пятым пальцами, тогда как промежуточные звуки следует исполнять ладонью. Использование полного аккордового регистра значительно увеличивает звуковую амплитуду, внося элемент силы и интенсивной экспрессии в общий характер эпизода. Этот динамический всплеск резко контрастирует с предыдущей музыкальной тканью и придаёт фразе драматическую завершённость. Завершающее тремоло на ноте ми-бемоль выполняет функцию переходного элемента, плавно подготавливая переход к следующему музыкальному материалу.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich



Третий рефрен также представлен в сокращённой форме, но в отличие от второго рефрена, здесь отсутствует первая половина. Композитор оставил только вторую половину, что создаёт эффект смещения акцента и придаёт музыке ощущение ускоренного развития.

Сокращения рефренов оказывают существенное воздействие на форму произведения, придавая ей более сжатую и динамичную структуру. С каждым повторением рефрен становится короче, что создаёт эффект ускорения и интенсификации музыкального развития. Такой способ организации нарушает традиционное ощущение симметрии, усиливая драматизм и звуковое напряжение. В результате возникает напряжённая форма, где сокращения рефренов выполняют роль выразительного средства, делая композицию более гибкой и насыщенной — это характерный элемент минималистского стиля, который стремится к максимальной выразительности при минимуме средств и в рамках компактной структуры.

Вторая часть сонаты завершается аккордами-кластерами, повторяющими материал из самого первого такта вступления, тем самым формируя незримую тематическую арку и объединяя композицию в цельную структуру. Массивные кластеры на ***fff*** создают мощный и экспрессивный звуковой эффект, акцентируя драматическое завершение. В этом фрагменте композитор делает акцент на резких и внезапных атаках аккордов, что придаёт музыке ощущение статичности и в то же время создаёт сильное звуковое воздействие. Динамика ***fff*** придает отрывку характер кульминационного, напряжённого финала, который завершает часть с максимальной экспрессией и драматизмом.

Заключения и Рекомендации (Conclusions and Recommendations)

Таким образом, вторая часть Сонаты №3 Нуриллы Закирова демонстрирует её значимость в контексте эстетики минимализма и национальной музыкальной идентичности. Элементы минимализма, такие как повторяющиеся паттерны, постепенная трансформация звучания и экономия выразительных средств, придают произведению особую глубину и медитативное восприятие. Исполненная в форме рондо с вариационными элементами, она представляет собой новаторское прочтение токкатного жанра, в котором каждый рефрен подвергается прогрессивному сокращению и трансформации, усиливая ощущение

динамичного развития и звукового напряжения. Структурные кластеры, открывающие и завершающие вторую часть, создают своеобразную тематическую арку, связывающую её с первой частью и подчеркивающую целостность композиции. В произведении прослеживается особое внимание к национальному узбекскому колориту: токката, напоминающая звучание домбры и повествовательную манеру дастана, рождает медитативный эффект непрерывного, текучего звучания. Постепенно развивающийся паттерн, основанный на чередовании звуков, символизирует обновление и постоянное движение — важные черты минимализма. Эти черты служат не только стилистическим элементом, но и средством раскрытия национальных черт, добавляя произведению Закирова уникальное звучание и интонационное богатство, которое сочетает инновационный подход с глубокими корнями узбекской музыкальной культуры.

Список используемой литературы (Reference)

1. Липов А.Н. Быть Джоном Кейджем. Из истории американской экспериментальной музыки. Статья первая. // Философия и культура. 2017. №5. – С. 131-150.
2. Мухамедова Ф.Н. Своеобразие жанра фортепианной сонаты в творчестве композиторов Узбекистана // Наука и мир. 2018. № 9-2 (61). С. 56-58.
3. Сидикова А.М. Формирование и развитие узбекской фортепианной сонаты // European Journal of Arts, 2022, №1. – С. 23-27.
4. http://ich.uz/ru/materials/audio-materials/490-bakhshi-art

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Madina Ahmadjanova
Master's student at Turan International University
madinaa2025ahmadjan@gmail.com

Published under peer review:
S.Misirov, Namangan State University of Foreign Languages
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Received 4th April 2025, Accepted 11th April 2025, Online 18th April 2025

THE CONCEPT, STRUCTURE, AND STAGES OF DEVELOPMENT OF VOCABULARY

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the concept of vocabulary richness, its theoretical foundations, structural components, and stages of development. It explores the role of lexical wealth in linguistics, differentiating between active and passive vocabulary layers, and discusses aspects of terminological and emotive-expressive lexicon. The paper scientifically examines how both individual and social lexical reserves are formed and developed through ontogenetic and phylogenetic processes, including the influence of modern communication tools. The significance of vocabulary in language acquisition, speech development, and linguistic competence formation is emphasized throughout the study.

Keywords: vocabulary richness, lexical reserve, active and passive vocabulary, language development, lexical layers, speech competence, communicative skills, language culture.

SO‘Z BOYLIGI TUSHUNCHASI, TARKIBI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada so‘z boyligi tushunchasining nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari va rivojlanish bosqichlari har tomonlama tahlil qilinadi. So‘z boyligining tilshunoslikdagi o‘rni, uning faol va nofaol qatlamlari, shuningdek, terminologik va emotsional-ekspressiv leksikaga oid jihatlar yoritiladi. Shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy lug‘aviy boylikning ontogenez va filogenez yo‘nalishlari, ularni shakllantiruvchi omillar va ularning zamonaviy kommunikatsiya vositalari ta’sirida qanday rivojlanishi ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Maqola til o‘rgatish, nutqni rivojlantirish va lingvistik kompetensiyani shakllantirishda so‘z boyligining o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: so‘z boyligi, lug‘aviy zaxira, faol va nofaol leksika, til taraqqiyoti, leksik qatlamlar, nutq kompetensiyasi, kommunikativ malaka, til madaniyati.

ПОНЯТИЕ, СТРУКТУРА И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИКИ

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируются теоретические основы понятия лексического запаса, его составные элементы и этапы развития. Раскрывается место лексического запаса в лингвистике, различаются активные и пассивные пласты лексики, рассматриваются терминологическая и эмоционально-экспрессивная лексика. Также научно обосновано, как формируются и развиваются индивидуальный и социальный лексический запас в рамках онтогенеза и филогенеза, а также под влиянием современных коммуникационных средств. Статья подчеркивает значимость лексического запаса в обучении языку, развитии речи и формировании языковой компетенции.

Ключевые слова: лексический запас, словарный фонд, активная и пассивная лексика, языковое развитие, лексические слои, речевая компетенция, коммуникативные навыки, языковая культура.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish

Til inson tafakkuri, ong va madaniyatining mahsuli sifatida jamiyat hayotining barcha sohalarida asosiy aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Til orqali fikr ifoda qilinadi, axborot uzatiladi, bilimlar avloddan-avlodga yetkaziladi. Tilning bu funksiyalarini to‘laqonli amalga oshirishi, eng avvalo, u egallagan **so‘z boyligi** bilan chambarchas bog‘liqdir. So‘z boyligi – bu tilning leksik bazasi, ya’ni undagi mavjud barcha so‘zlar yig‘indisi bo‘lib, tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini belgilab beruvchi asosiy komponentlardan biridir. Shu boisdan ham, har qanday tilda so‘z boyligining miqdoriy va sifat jihatdan tahlili, uni tashkil etuvchi tarkibiy qatlamlarning o‘rganilishi tilshunoslik fanining muhim yo‘nalishlaridan sanaladi.

So‘z boyligining ilmiy o‘rganilishi turli yo‘nalishlarda olib boriladi: umumiy tilshunoslikda u til sistemasi doirasida ko‘rib chiqilsa, amaliy tilshunoslikda uning qo‘llanilish doirasi, faol va nofaol qatlamlarining nutqdagi ishtiroki tahlil qilinadi. Shu bilan birga, psixolingvistika va sotsiolingvistika fanlarida esa so‘z boyligining shakllanishi, rivojlanishi, yosh va ijtimoiy guruhlarga qarab farqlanishi o‘rganiladi. Masalan, bolalar tilida so‘z boyligi ontogenez jarayonida asta-sekin kengayib boradi, kattalarda esa bu jarayon hayotiy tajriba, ta’lim, kasb va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi [1].

So‘z boyligining tarkibiy tuzilishi o‘z ichiga bir nechta qatlamlarni oladi: faol va nofaol leksika, umumxalq tiliga oid so‘zlar, kasbiy va ixtisoslashgan terminlar, dialektal birliklar, emotsional-ekspressiv so‘zlar, arxaizmlar, neologizmlar va boshqa ko‘plab birliklar. Har bir qatlam o‘zining kommunikativ funksiyasi, stilistik qiymati va qo‘llanilish doirasiga ega. Til taraqqiyoti jarayonida bu qatlamlarning tarkibi va nisbati o‘zgarib boradi, yangi birliklar paydo bo‘ladi, eskilari esa yo‘qolib ketadi yoki passiv qatlamga o‘tadi.

Zamonaviy lingvistikada so‘z boyligining rivojlanish bosqichlari masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu bosqichlar tilshunoslar tomonidan tarixiy til o‘zgarishlari, madaniy ta’sirlar, til siyosati, ta’lim tizimi va texnologik taraqqiyot omillari asosida belgilab boriladi [2]. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning tilga kirib kelishi natijasida yangi so‘zlar va iboralar tezkorlik bilan leksik tizimga singib borayotgani, bu esa so‘z boyligining dinamik rivojlanishiga sabab bo‘layotgani kuzatilmoqda.

Ushbu maqolada aynan so‘z boyligi tushunchasining nazariy asoslari, uning tarkibiy tuzilishi, faol va nofaol qatlamlari, rivojlanish bosqichlari hamda individual va ijtimoiy so‘z boyligining o‘ziga xos xususiyatlari chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi – so‘z boyligi haqida yaxlit tasavvur hosil qilish, uni tilshunoslik, psixolingvistika va kommunikatsiya nuqtai nazaridan tahlil qilish va zamonaviy tilda bu boylikning qanday shakllanayotganini ochib berishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili

So‘z boyligi masalasi tilshunoslikda qadimdan e’tiborga molik bo‘lib kelgan muammolardan biridir. Bu masala ilk bor umumiy leksikologiya doirasida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, keyinchalik mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlangan. Jumladan, **V.Vinogradov**, **A.Smirnitskiy, E.Vereshchagin, V.Kostomarov, Rogovaya**, **G.Melnikov**, **L.Krysin** kabi rus tilshunoslari tomonidan leksik qatlamlar, faol va passiv lug‘aviy birliklar, sinonimiya va variantlilik masalalari bo‘yicha muhim nazariy qarashlar ilgari surilgan [3].

A.Smirnitskiy o‘zining tadqiqotlarida leksik birliklarni semantik maydon asosida guruhlash zarurligini ta’kidlab, so‘z boyligi tahlilida sinonimiya va antonimiya hodisalarining alohida o‘rni borligini ko‘rsatadi. **V.Vinogradov** esa lug‘aviy boylikni tilning stilistik imkoniyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganadi va faol qatlamdagi birliklarning ekspressiv-emotsional ahamiyatini chuqur tahlil qiladi [4].

So‘z boyligi tarkibi va dinamikasi haqida bahs yuritishda **psixolingvistika** va **sotsiolingvistika** sohalaridagi tadqiqotlar ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, **A.Leontyev** va **L.Vygotskiy** asarlarida tilning ontogenez jarayonidagi rivoji va so‘z boyligi shakllanishi bolaning nutqiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq ekani ko‘rsatib o‘tiladi. Ularning tadqiqotlarida so‘z o‘zlashtirishning bosqichma-bosqich kechishi, faol va nofaol leksika o‘rtasidagi almashinuv jarayonlari ilmiy asoslangan.

O‘zbek tilshunosligida ham bu boradagi izlanishlar yetarlicha. **M. Jo‘raev, G‘.Rahmatullayev, S. Mirvaliyev**, **N. Mahmudov, M. Tursunov** kabi olimlar tomonidan leksikologiya, so‘z yasalishi, sinonimlar, atamalar, iboralar va dialektal birliklar doirasida qimmatli ilmiy ishlar yaratilgan [5]. Masalan, **N.Mahmudov** o‘zining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida o‘zbek tilining leksik boyligini uslubiy jihatdan tasniflaydi va faol hamda nofaol qatlamlarning qo‘llanish holatlarini tahlil qiladi. **G‘.Rahmatullayev** esa sinonimlar va frazeologik birliklarning leksik tizimdagi o‘rnini yoritib, ular orqali tilning boyish jarayonini izohlaydi.

Bugungi kunda so‘z boyligi zamonaviy kommunikatsiya vositalari, internet madaniyati va global til kontaktlari ta’sirida o‘zgarib borayotgani ko‘plab tilshunoslar, jumladan, **D.Kristal, G. Yule, T. Makartur** kabi ingliz tilshunoslari tomonidan ham o‘rganilmoqda [6]. **Devid Kristal** “Language and the Internet” asarida internet vositasida til boyligining kengayishi, yangi birliklarning tez sur’atda leksik tizimga kirib borishi haqida muhim fikrlar bildiradi. Bu qarashlar bugungi global til muhitida so‘z boyligi masalasini yangi bosqichda o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, so‘z boyligini o‘lchash, miqdoriy tahlil qilish bo‘yicha ham ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ingliz tilshunosligida **lexical richness, type-token ratio, lexical density** kabi terminlar orqali bu masalalar tahlil qilinadi. Ularning asosida til egasining nutq boyligi, uslubiy ko‘lam kengligi va kommunikativ malakasi aniqlanadi.

Xulosa shuki, so‘z boyligi haqida yozilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu tushuncha ko‘p qirrali, turli fanlar chorrahasida tahlil qilinayotgan ilmiy fenomen hisoblanadi. Unga yondashuvlar ham rang-barang: strukturaviy, semantik, funksional, psixologik va sotsiologik. Mazkur maqolada bu yondashuvlarning integratsiyasi asosida so‘z boyligining zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni va ahamiyati ochib beriladi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda tilshunoslikdagi so‘z boyligi tushunchasini tizimli tahlil qilishga qaratilgan kompleks yondashuv qo‘llanildi. So‘z boyligi – o‘z tabiatiga ko‘ra ko‘p qirrali, murakkab va dinamik hodisa bo‘lganligi sababli, uni o‘rganishda bir necha metodlar uyg‘unlashtirildi:

Deskriptiv-lingvistik metod – so‘z boyligining tarkibi, leksik qatlamlari, tarkibiy birliklari va ularning uslubiy xususiyatlarini aniqlashda qo‘llanildi. Bu metod orqali adabiy til va og‘zaki nutqdagi faol va nofaol birliklar o‘rganildi[7].

Taqdim etuvchi-statistik metod – leksik birliklarning qo‘llanish chastotasi, sinonimik variantlar va antonimlar soni asosida o‘zbek tilining lug‘aviy boylik darajasi o‘lchandi. Tahlilda *type-token ratio (TTR)* va *leksik zichlik* ko‘rsatkichlaridan foydalanildi [8].

Taqqoslamali metod – o‘zbek tili bilan rus va ingliz tillaridagi leksik tizimlar qiyoslandi. Bu orqali turli tillarda so‘z boyligi qanday shakllanishi va rivojlanishi ko‘rsatildi.

Psixolingvistik yondashuv – so‘z boyligining shaxsning til qobiliyati bilan aloqador jihatlari, faol va passiv lug‘aviy zahiraning nutq ishlab chiqarishdagi o‘rni tahlil qilindi.

Tarixiy-evolyutsion metod – til boyligining rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda qo‘llanilib, leksik qatlamlarning shakllanishi, ommalashuvi yoki passivlashuvi tarixiy manbalar asosida kuzatildi [9].

Tadqiqot uchun asosiy korpus sifatida o‘zbek adabiy tili namunalaridan iborat 1 million so‘zli matn bazasi, shuningdek, bolalar va o‘smirlar nutqidan olingan yozma va og‘zaki materiallar, zamonaviy internet-matnlar va ijtimoiy tarmoqdagi yozuvlar tahlil qilindi [10]. Shuningdek, so‘z boyligiga oid terminlar va ularning semantik-hususiy guruhlanishiga alohida e’tibor qaratildi.

Munozara (bahs va tahlil)

So‘z boyligi masalasini o‘rganishda bir nechta muhim nazariy qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lib, bu maqolada ularning ba’zilariga aniqlik kiritildi. Birinchi navbatda, so‘z boyligini aniqlash mezonlaridagi tafovutlar muhokama qilindi [11]. Ba’zi tadqiqotchilar so‘z boyligini faqat miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida (masalan, lug‘at birliklarining soni) aniqlashga intilsa, boshqalar uning funksional, ya’ni kommunikativ va stilistik imkoniyatlarini ham inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi. Bizningcha, bu ikki yondashuvni integratsiya qilgan holda, so‘z boyligini miqdoriy va sifat jihatdan kompleks baholash maqsadga muvofiq.

Ikkinchi masala – faol va passiv so‘zlar chegarasini aniqlashda yuzaga keladigan murakkablikdir. Ayniqsa, nutqdagi individual va ijtimoiy farqlar (yosh, ijtimoiy qatlam, kasb) passiv birliklarning ko‘rinishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, har bir subyekt uchun “passiv so‘z” tushunchasi nisbiy bo‘lib chiqadi. Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlar va kattalarning so‘z boyligini solishtirish orqali bu fikr amaliy asosda isbotlandi.

Uchinchi muammo – zamonaviy til muhitida, xususan, raqamli madaniyatda so‘z boyligining o‘zgaruvchanligi va tez yangilanayotganligini izohlash bilan bog‘liqdir [12]. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va media platformalar leksik tizimga tezkor yangi birliklar kiritmoqda. Bu hodisa klassik lug‘aviy me’yorlar va yangi paydo bo‘layotgan birliklar o‘rtasida qarama-qarshilik tug‘dirmoqda. Biroq, bu ixtilof o‘z navbatida tilning moslashuvchanligi va boyish potensialini ham ko‘rsatadi.

Munozara jarayonida aniqlanganki, so‘z boyligi faqatgina lug‘at soni emas, balki til egasining dunyoqarashi, bilim hajmi, madaniy saviyasi, ijtimoiy mavqei va kommunikativ ehtiyojlariga ham bevosita bog‘liq [13]. Shuning uchun so‘z boyligini o‘rganishda nafaqat lingvistik, balki psixologik va sotsiologik yondashuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar

Mazkur tadqiqot davomida o‘tkazilgan tahlil va solishtirmalar so‘z boyligi tushunchasi, tarkibi va rivojlanish bosqichlari haqida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

